



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUSTAQILLIGIGA BAG‘ISHLANADI**



Mahmud SATTOR 1948-yil Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tugʻilgan. ToshDU (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetini bitirgan (1971 y.). Oʻrta maktabda (1971-1974 y.y.), «Oʻqituvchi» nashriyotida (1974-1986 y.y.), A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutida (1986-2002 y.y.) ishlagan. Ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Adolat» nashriyotining direktori vazifasida faoliyat yuritmoqda.

Oʻzbekiston Yozuvchilar va jurnalistlar uyushmasining aʼzosi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Oʻzbekiston xalq maorifi aʼlochisi.

«Mirkarim Osim», «Olis yulduzlar jilosi», «Vatan osmoni», «Inson erki—oliy huquq», «Doira sehri», «Togʻlar gavhari», «Oʻzbekning gapi qiziq» kabi kitoblar muallifi.

*Jabiatda haz neki
odat boʻluz,
Chu eskizdi odat
tabiat boʻluz.*

Alishez Navoiy

MAHMUD SATTOR

**O'ZBEK
UDUMLARI**

Cho'lpon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Toshkent — 2007

Mas'ul muharrir
Ravshan JOMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbek xalqi qadim-qadimdan o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lib kelgan. Udumlar hayot jarayonida vujudga kelib, shakllanib, rivojlanib kelganki, bugungi kunda xalqning o'zligini, qadriyatlarini anglash uchun ular juda muhim. Qo'lingizdagi kitobning ahamiyati shu ma'noda juda katta.

S 0470300000-133 - 2007
360/04/-2007

ISBN-978-9943-05-153-9

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-y.

UDUMLAR HAYOTIMIZDA HAMROH BO'LSIN!

Har bir avlod xalqning madaniy, ma'naviy idrokini ruhiga singdira olsagina, uni o'zidan keyin kelayotgan bo'g'inlarga yetkazish tadorigini ko'radi. O'zi bilmasa, keyingilarga ham ravo ko'rmasligi aniq. Buning natijasida har qanday yaxshi rasm-rusum ham asta-sekin e'tibor topmay, qadrlanmay, nazardan chetlashib, yo'qolib ketadi. Ular yo'qolishi barobarida xalqning ruhiyatida qadimdan, ota-bobolaridan meros sifatida saqlanib kelgan fazl-u fazilatlar ham, xosu xususiyatlar ham unutiladi.

Kitob bizni, ayniqsa, yoshlarimizni ana shu ma'naviy yo'qotishdan asrab qolishda beminnat ko'magi bilan qadrlidir.

Ming-ming yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, adabiyot-san'at muallaq holda, o'zga xalqlardan bekitiqcha paydo bo'lib, rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon, jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaralgan, taraqqiy topgan, hatto jahonning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning taraqqiy topishida muayyan hissasi bor.

Adib o'z kitobida bu faktni tasdiqlaydi va shunga suyanib, Jaloliddin Rumiy, Abu Abdullo Rudakiy, Abay, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov kabi buyuk ijodkorlar asarlaridan qiziqarli misollar keltiradi.

Aslida, udumlar, an'analardan ko'zda tutilgan maqsad nima? Udumlarning hayotdagi o'rni, mavqei qanday bo'lishi kerak? Biz turli zamonlarda turlicha siyosatdan kelib chiqib, muayyan g'oyalar yaratamiz. Bu g'oyalarni mafkura darajasiga ko'taramiz, qonunlashtiramiz. Udum ham qonun. Udum ham mafkura. O'zbek udumlari

yoʻzilmagan qonunlar boʻlsa-da, hamisha yashaydi va ishlaydi. Bu – abadiy mafkura!

Nazarimda, bizni ming yillar davomida balo-qazolardan asrab kelgan ham, boshi berk koʻchalarga kirib qolmasligimizni taʼminlagan ham shu udum, anʼana, xalqona donishmandlik namunasi boʻlgan buyuk didaktikadir.

«Oʻzbek udumlari», ayniqsa, millatning kenja boʻgʻiniga dastlabki maʼrifiy maʼlumotlar sifatida juda zarur, juda kerak. Faqat bu asarning qadriga yetib, birinchi navbatda, Xalq taʼlimi vazirligi mavjud «Milliy istiqlol gʻoyasi», «Odobnoma», «Dinshunoslik» dasturlariga hamohang «Oʻzbek udumlari»ni ham taʼlim tizimiga kiritishi lozim. Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi ham litsey, kollej, institutlar dasturlariga kiritib, udumlar targʻibotiga jiddiy eʼtibor qaratsa, nur ustiga aʼlo nur boʻlur edi.

**Ozod SHARAFIDDINOV,
Oʻzbekiston Qahramoni**

YO'LCHIROQ

Bolalik xotiralari hamisha kishi qalbida eng aziz hissiyotlar uyg'onishiga turtki beradi. Uni olis va takrorlanmas yo'llarga yetaklaydi. Bu yo'llarda insonning inson bo'lib shakllanishida xizmat qiluvchi turli-tuman voqea-hodisalarga duch kelinadi, ota-bobolarning eng ulug' ma'naviy meroslari bamisoli dar-yoday yuragimizga oqib kiradi. Bu merosdan bebahra odam bolasi yashashdan mahrum, xalq esa tanazzulga mahkumdir.

Mening Nusratbibi otin degan, onamning onasi, buvim bo'lardilar. Taqdir taqozosi bilan men shu buvijonimning qo'llarida tarbiya topganman. Ular o'z otalari Abdurazzoq tabib bilan Kitobga, XIX asr oxirida hali yosh qizaloq ekanliklarida, Toshkentdan ko'chib borganlar. Men bolalik yillarim buvimning til-kalomi guzarimiz xotinlarinikidan biroz farq qilishiga hayron bo'lardim. Keyin bilsam, buvim oradan qariyb bir asr o'tsa hamki o'z ona tillari, sheva va lahjalarini unutmagan ekanlar.

Til ham, fe'l-atvor ham odamga qon bilan kirib, uning butun jism-u joniga taralib ketuvchi an'analar ekan.

Gap buvim haqida edi...

U kishi yuz yoshning nari-berisida bu olamdan ko'z yumdilar.

Buvijonimdan menga nimalar meros qoldi?

Ko'p narsa! Ulardan qolgan xazina men uchun yo'lchiroq bo'ldi.

Olam-olam afsona-yu asotirlarga, ertag-u cho'p-chakka, matal-u masalga to'la xazina-yu dafinalar buvimdan meros qoldi. «Shoh Mashrab»-u, «Zaynul Arab»ni yig'lab-yig'lab o'qib berganlarida, Hazrat Ali

qissasidan larzaga kelardim. «Yusuf va Zulayho» kitobidan Yusuf qissasi, uning boshiga solingan azob-uqubatlardan mening ham ko'nglim buzilib ketardi. Bundan tashqari, buvim xalqimiz ming-ming yillardan buyon taomil qilib kelayotgan urf-odatlarimizning mag'zini, ahamiyatini tushuntirib berishdan sira erinmasdilar. Kitobda neki ma'raka-yu marosim, aytilgan joy bo'lsa, erinmay, og'rinmay albatta borardilar va nuroniy chehralari yorishib, quvonib qaytardilar. U yerda nimalar bo'lganini ipidan-ignasigacha biz nabiralarga oqizmay-tomizmay aytib berardilar.

Udumlarimiz haqida yozishga chog'lanarkanman, ko'z oldimda hamisha buvim turdilar. U kishining ruhlari qiynalgan chog'larimda madadkor bo'ldi. Ba'zi bir joylarni shunday yoz, deganday menga shipshidilar. «Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi», deydi xalqimiz. Kinga farzand bo'lsangiz, albatta, o'sha kishilarning asosiy axloqiy sifatlari sizga ham singib qolishi tabiiy. Ushbu kitobga darj etilgan urf-odatlardan ko'pini Siz ham buvilaringizdan, bobolaringizdan eshitgansiz. Ba'zilaringiz esa unda-bunda ayrim kitoblardan, badiiy asarlardan o'qigandirsiz.

Biroq, aminmanki, juda ko'pchiligingiz, ayniqsa, ona zamindan uzilib, shaharlarda, ko'p qavatli imoratlarda yashayotgan yosh avlodlar bu xalqona udumlardan bexabarsizlar.

Har bir taraqqiy etgan, madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odati, adabiyoti, osori-atiqalari, an'anaviy moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. O'zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan biri sifatida mana shunday xazinaga ega. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Buning uchun o'sha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz insoniy burchimizdir.

Har bir xalq ana shu udumlar, urf-odat, o'tmishga chuqur tomir otib ketgan o'q ildizlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa, bu udum uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda, «beshikda tekkan – kafanda ketar» yoki «dard ketar – odat qolar», «illat ketar – odat ketmas» degan maqollar bor.

Uzoq yillik tajriba va kuzatishlardan shu xulosaga keldimki, barcha xalqlarning milliy urf-odatları, udumlariga katta hurmat va ehtirom bilan qaragan holda ularga munosabatda xolislik, me'yorni ham unutmashlik kerak ekan. Hayot, insoniy turmush tarzi, iqtisod bu birlamchi – asos, bazis.

Urf-odat, an'ana, udum, mafkura, bu ikkilamchi – ustqurmadir.

Bazis – asos, abadiy va azaliy bo'lsa, ustqurma zamona zayli bilan o'zgarib, yangilanib boradi.

Tasavvur qilingki, farzandingiz voyaga yetdi, jisman, aqlan, ma'nan kamol topdi. Qush uyasidagi polopondek uchirma bo'lyapti. Uni olis manzillar, sarguzashtlar, katta va murakkab hayot o'z quchog'iga chorlamoqda. Farzand sizdan oq fotiha so'rayapti. Sizning ko'nglingiz alag'da, ikkilanasiz, bolangizning etagidan tortib, parvozdan jilovlaysiz:

– Bolam sen o'zbeksan, o'zbekligingni unutmama, – deysiz noiloj.

– Bilaman, unutmayman, – deydi u.

– Tilingni, diningni, urf-odatingni esdan chiqarmagin, – deysiz siz.

– Xo'p bo'ladi, unutmayman, – deydi u.

– Ota-onangni yoddan chiqarmagin, bobolaring ruhi-poklari senga doim yor bo'lsin, – deysiz, entikib.

– Hamisha xotiramda saqlayman, – deydi farzand.

Siz unga oq fotiha berib, uchirma qiling. Milliy udumlarimizning kamtarin vazifasi ham shundan iborat bo'lmog'i darkor. Hargiz udum-u an'analar, urf-odatlarimiz farzandlar, millat, xalqimiz istiqboliga to'siq bo'lmasligi lozim.

Endi ushbu nashr haqida ikki og'iz to'xtalib o'tsam. «O'zbek udumlari» kitobi bevosita Cho'lpon nomidagi

NMIU ijodiy jamoasi daldasi va xayrixohligi, qolaversa, buyurtmasi bilan yozilgan edi. Lotin alifbosida ilk marotaba bu kitob ushbu nashriyotda chop etilayotgani shu sababdan ham meni bag'oyat xursand qildi. O'ylaymanki, yoshlarimiz bu kitobdan o'zlariga kerakli narsalarni olib, hayotni yangi-yangi, zamonaviy urf-udumlar bilan boyita boradilar. Shu tariqa bizning o'zligimiz, bo'y-bastimiz namoyon bo'ladi. Shunisi biz uchun, ayniqsa, muhim.

Muallif

I BOB.

***BOLALIK –
BEG'UBORLIK***



TAVALLUD. BESHIK. ALLA

Tavallud topgan bolaning qulog‘iga ota-bobolarimiz birinchi navbatda bir mulla chaqirib, azon ayttirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog‘i ochilgan. Odamlarni eshitish, tinglash qobiliyati ish boshlagan. Ismi ilk bor chaqaloqning o‘z qulog‘iga singdirilgan. So‘ng uning chillasi – kichik chilla va katta chilla o‘tkaziladi. Kichik chilla yigirma kungacha, bolaning onasi, enagasi, momosidan (doya) bo‘lak yoniga, chillalik bo‘lganligi uchun hech kim kiritilmaydi. Katta chillasi, qirq kun o‘tganidan keyin bolani beshikka belash marosimi bo‘lib o‘tadi.

Chillaning ma‘nosi shuki, belgilangan muayyan muddat davomida (kichigi 20 kun, kattasi 40 kun) xonadonga begona odam kiritilmaydi. Namozshomdan keyin hech kim ko‘chaga chiqmaydi, bemahalda ko‘chadan hovliga birov kirmaydi. «Chillali joy» desangiz, zarurmand, shoshilinch mehmon ham musulmon bo‘lsa, tushunadi. Ertasi, kun yorug‘ida xonadonga tashrif buyuradi. Yangi dunyoga kelgan bolani yomon ko‘zdan, ins-jinsdan asrash, uni gigiyenik himoya qilish uchun shunday qilinadi. Chilla kunlari ona va bola yaxshi parvarish qilinadi. Ular oq yuvib, oq tarab, gard ham yuqtirmay, ozoda uyda saqlanadilar. Sut bilan kirgan jon bilan chiqar, deydilar.

Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino hazratlari go‘dak bola chillasi, uning enagasi parvarishi to‘g‘risida ming yil burun bugun ham ibrat bo‘ladigan risolalar yozib ketganlar.

Tavallud topgan bosh farzand bo‘lsa, bozordan borib beshik sotib olinadi. Ikkinchi yo navbatdagi farzand bo‘ladigan bo‘lsa, opa-akasining beshigiga belanadi. Beshik – bola oyoqqa turguncha yotadigan, yashaydigan

joyi, boshpana, uyidir. Shu kungacha zamonaviy xurofotchilar tomonidan zararli atalib kelingan beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida alohida o'rin tutadi.

Beshik mevali daraxtlarning tanalaridan yasalgan bo'lib, osti to'rt oyoqli, tekis terilgan taxta yotqich, tuvak uchun maxsus tutqich teshikdan iborat. Ikki yonbosh va oyoq tomonlarining ustki qismi yoy bo'lib, tutqich tebratgichga, kungiraga ulangan. Ikki yoyni esa yo'g'on, o'ymakor o'zak yog'och bog'lab turadi.

Beshiklar keyingi paytlarda asosan tut va tol daraxtlaridan yasalmoqda. Beshikning pastki qismi ag'darilib, qattiq chayqalib ketmasligi uchun vazminroq bo'lgan tut daraxtidan, ustki yoy va yo'g'on o'zaklar, tutqich-kungiralar toldan, tepa tebratishda oson va yengil chayqalishi uchun tol novdalaridan yasaladi. Unga gul berish, o'ymakorlik ishlari Turkiston, Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatlarida o'ziga xos san'at darajasiga ko'tarilgan.

Mustahkam, qulay, yaxshi, xosiyatli bitta beshik bir oiladagi o'n farzandnigina emas, uch-to'rt avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishi mumkin. O'zbeklar, tojiklarda bobosi, otasi yotgan beshikda tarbiya topgan bola-nabiralar bor. Yosh onalar ixlos qo'yib, mana shunday xosiyatli, qadimiy, ko'hna beshiklarda o'z bolalarini boqishni afzal ko'radilar. O'zbek shuning uchun beshikni muqaddas bilib, uni hech qachon yosh chaqalog'i bo'lmasa ham tashlab yubormaydi. Hamisha o'zi, oilasi bilan birga olib yuradi.

Beshik ustiga yozda yengil surp, qishda duxoba yopqichlar kiydiriladi. Farzandning o'g'il-qizligiga qarab, sumaklar almashtiriladi, xolos. Beshikka belashning yo'l-yo'rig'ini avvalo kayvoni ayollar, xodim yo buvilardan biri bir-ikki ko'rsatishadi. Bolaning badaniga quyruq yog'i surtiladi. Beshik ostiga to'shaladigan ko'rpacha – qovuzga qovuzloq, ya'ni tariqning qipig'i solinadi. Shunday qilinsa, bolaning eti to'shakka yopishmaydi, harakatda bo'ladi. Bolaning qo'l-oyoqlarini beshikka tekis bog'lab, tepa o'zak yog'ochida o'ralib turuvchi belbog'lar ipak matolardan tayyorlanadi.

Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak, deganlariday, beshik – go‘dakning kichik xonadonida bola va ona uchun barcha lozim shart-sharoitlar hisobga olingan. Onaning o‘z bolasini vaqtida, o‘ng‘ay, qulay emizishi uchun beshik ostonadan bir-ikki qarich yuqori joylashtiriladi. Bolaning yostig‘i ostiga non yoki pichoq qo‘yiladi. Tebratishga qulay bo‘lsin uchun esa to‘rt tuyoq-oyoqlarning bosh va oyoq tomondagi juftlari orasiga andak yoysimon taxta qoqiladi. Bu beshikning taqillamay, bolaga zaxa bermay tebranishiga yordam beradi. Ushbu holatda boshqa ish bilan mashg‘ul ona bolasi beshigini uzun ip vositasida uzoqroqdan, ish qilib turgan joyidan turib ham tebratishi mumkin.

Beshikning dala, yozgi shakli belanchak ham borki, buni qishloq ahli juda yaxshi bilishadi. Belanchak ayvonda ikki ustun, bog‘da ikki daraxtga bog‘lanadigan ikki arqonning o‘rtasiga qalinroq matodan bolaga joy qilinib, bosh va oyoq tomoniga ikki arqonni ayirib turuvchi o‘qlovcho‘plar qo‘yiladi. Belanchak joy o‘rni bolaga mos kattalikda yasalib, belangan bolaning beli belanchak bilan qo‘shib boylanib, so‘ng tebratilib-uchiriladi. Belanchak beshikning yozgi shakli bo‘lib, uning barcha vazifalarini bajarolmaydi, albatta.

Biroq bir-ikki oylik yozloq, ko‘chma beshik o‘rnini bosishi bilan ayollar joniga oro kiradi.

Beshik bor joyda bola bo‘ladi. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Onalar qadimdan o‘z bolalari beshigi tepasida kechasi bo‘lsin, kunduzi bo‘lsin, alla aytib kelishgan. Allalarda xalq turmushining juda ko‘p qirralari o‘z in‘ikosini topgan. Alla o‘z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkazib turadi. Go‘dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uxlashiga imkon beradi.

Allalarga onalar o‘z his-tuyg‘ulari, orzu-armonlari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham qo‘shib aytganlar. Alla axloqiy, tarbiyaviy, didaktik, an’anaviy va oniy ijod namunalaridan iborat bo‘lgan. Alla tinglagan bola onaga mehrni sut bilan o‘z taniga, shuuriga singdiradi. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, hazin, nurli qo‘shiq bo‘lib saqlanib qoladi. Alla eshitmagan bolada bu xususiyatlar bo‘lmaydi. Manqurtlik mana shunday kelib

chiqadi. Bola o'z onasini o'zga ayollardan farqlay olmaydi. Unda o'ziga onalik xislatini topolmaydi. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatini ham ma'nadan ta'minlaydi.

O'zbek onasi alla aytarkan, bu allalar bir-biriga sira o'xshamaydi. Hatto bir onaning bugun aytgan allasi kechagisiga o'xshamasligi mumkin. Ayni paytda, ayollarda hamma ona va bolaga xos bo'lgan umumiylik ham bor. Bu – mehr, bu – muhabbat.

ISM-U SHARIF

Dunyodagi barcha jonli-jonsiz narsalarning, hatto oniy voqea-hodisalarning ham o'z nomi, ismi, atamasi bor. Ismlarda har bir narsaning, voqea-hodisalarning ahamiyatli tomonlari aks etadi. Xalq orasida odam bolasi o'z xulq-atvori, fe'li – xo'yi va shu jumladan, ismi bilan tug'iladi, degan gap bor. Ota-onalarning xizmati o'z farzandlariga munosib nomni topib qo'yishdan iboratdir. O'z ismining ma'nosidan kelib chiqib, Abdulla Oripov «Yozajakman» degan g'azalini shunday yakunlaydi:

*Kuldir demangiz, garchi nomi Abdulla erurman,
Rasul ham emas, yo'q hali unvon, yozajakman.*

Qadimgi ota-bobolaringiz boshqa odatlar qatori ism qo'yish odatini ham tark etmaganlar. Ism tug'ilgan bolaning qaysi urug'dan, qanday sulolaning nechanchi avlodi ekanligi, uning tavallud topgan vaqti, joyi, salomatligining ahvoli, bola tanasidagi alohida belgilar va boshqa omillarga qarab, kitob ko'rib, qo'yilgan. Albatta o'g'il bolalarga atalgan ismlar qizaloqlarnikidan farq qilgan. Ism qo'yish odatda qishloq, mahalla-guzarning keksa, o'qimishli, donishmand kishilari imtiyozida bo'lgan. Ba'zan muayyan oilaning eng keksa yoshli oqsoqoli, buvisi zimmasida qolgan. Ayrim hollarda chaqaloqlarning quloqlariga azon aytib, ular qulog'ini «ochadigan» so'fi, mullalar ixtiyorida bo'lgan. Bolaga ism qo'yish g'oyatda jiddiy, mas'uliyatli udum sanalib, bu ism bo'lajak fuqaroning kelajak taqdiri-a'moli, hayot yo'liga ta'sir

qiladi, deb tushunilgan. Shuning uchun ham urug‘, kasb-kor-u sulola mavqeyiga mos ism qo‘yish taqozo qilingan.

Ayonki, hozirgi vaqtda ko‘pchilik o‘tmishda o‘tgan buyuklarning, shohlarning ismlarini qo‘yishni yoqtirishadi. Biroq, aqidalarga ko‘ra bunday ismlarni bolaning ko‘tara olishi yoinki olmasligiga qarab qo‘yish kerak. Xalqda bular «yuki og‘ir» ismlar deyiladi.

Baribir, ism qo‘yishda muvofiqlik-mutanosiblik bo‘lgani tuzuk. Aytaylik, Temur yoxud Ulug‘bek, Jahongir, Muhammad deb ism qo‘yilsa-yu, bola ulg‘ayganda bu ismlarga munosib bo‘lmay, harom-harish, yomon ishlarni qilib yursa, albatta, bunday nomlarning obro‘yini to‘kadi.

Oddiy, kamsuqum ismdagi bola ulg‘ayib, el-u yurtning nazar-e‘tiborini tortadigan ulug‘ odam bo‘lib yetishsa, o‘z ismini oqlagan hisoblanadi. Shu o‘rinda sevikli shoirimiz Abdulla Oripovning «Otello» she‘ridan quyidagi misralarni keltirish o‘rinlidir:

*Arabiy kulonkir – g‘arbning xo‘jasi,
Mayliga, gapimga qilma e‘tiroz.
Menman, bu o‘zbekning dahriy jo‘jasi,
Uyqashga o‘xshaydi ismimiz bir oz.
Qandaydir ollo dan sening volidang
Tilanib olibdi, men-chi, sadaqa.
Savdomiz bir ekan, nomlar hamohang
Va lekin, o‘xshamas, qalblar, shunaqa...*

Avvalo, ismlar mavrudi bilan xudoy-u payg‘ambarlarning nomlari asosida Rasul, Akbar, Nabi, G‘ani, Muhammad singari atalgan. Bu bilan farzand olloyi taoloning marhamatidan dunyoga keldi, umri uzun bo‘lsin, xudo yorlaqasin, degan niyat qilingan. Xudoyberdi, Olloberdi, Tangriberdi singari ismlar aksariyat paytlarda qizlar orasida tug‘ilgan yagona o‘g‘il bolaga, tilab olingan farzandlarga qo‘yilgan. Bola tug‘ilgan fasli, vaqt va marosim davriga qarab: Bahor, Navro‘z, To‘ychi, Cho‘li, Bayram singari nomlar bilan atalgan.

Chaqaloqning oiladagi o‘rniga qarab Ergash, O‘g‘iloy, Qo‘chqor kabi nomlar berilgan. Badan belgilariga qarab

Xoldor, Ortiq, Qudrat, Sunnat deb qo'yilgan. Tug'ilgan qizlarning qadami xayrli kelsin degan niyatda Xayriniso, Umrinisa, Robiya, oy-quyoshdek barqaror bo'lsin deya Munavvar, Oypari, Oygul atalgan. Gulu chechaklardek nafis, muattar va yoqimli bo'lsin deb Gulrang, Gulchehra, Nargis singari ismlar qo'yilgan.

Podshozodalarda shajarani mustahkamlash uchun bolaga otasining ismi qo'yilib, soni oshirilgan. Masalan, Xorazmshoh Otsiz, Muhammad Rahim ikkinchi, Feruz ikki singari ismlarning ko'plari arab, fors tillaridan olingan bo'lib, muayyan ma'no-mazmun tashigan. Buning sababi diniy aqidalar bo'yicha arabcha ismlar xosiyatli, baxt keltiruvchi xudo, payg'ambar, aziz-avliyolar nomlari bo'lganligi uchun tabarruk deb bilingan. Albatta, ismlar orasida sof turkiy nomlar ham ko'p uchragan.

Mashhur ajdodlarimiz nomlariga e'tibor beradigan bo'lsangiz, ularning albatta taxallus tanlaganliklarining guvohi bo'lasiz. Ismlardan ko'ra tarixda xuddi shu taxalluslar mashhur bo'lib, asrlar osha saqlanib kelgan. Taxallus tanlashda ham sulola, shajara, kindik qoni tomgan yurtga daxldorlik inobatga olingan. Masalan, Qul Xoja Ahmad Yassaviy bobongiz qadimgi Yassi, hozirgi Turkistonda kamolga yetganliklari uchun shu taxallusni o'zlariga hamroh qilganlar. Yusuf Bolosog'uniy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy singari nomlar ham xuddi shu aqidaga suyanib olingan.

Abu Rayhon Beruniy bobongiz berun – qishloq, sahro, shahar tashqarisi ma'nolarini beruvchi atamani tanlab hozirgi til bilan aytilganda, Sahroyi, Qishloqi taxallusini ismiga yor etgan. Abdurazzoq Samarqandiy, Mir Qarshiy, Qadam Xivoqiy, mavlono Keshiy taxalluslarining ham muayyan shaharlar bilan bog'liqligini tushuntirib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Ba'zan laqablar ham ism o'rnini bosib, tarix mulkida mangu saqlangan. Masalan: arabcha niqob ma'nosidagi Muqanna, xoldor burun ma'nosidagi Mengliburun, Manguberdi singari...

Bola tug'ruqxonada tavallud toparkan, otadan yetti kun orasida farzand uchun guvoohnoma keltirish talab qilinadi. Guvoohnoma yozilayotganda «Ismingizning

ma'nosi nima?» kitobida jo bo'lgan turkiy xalqlar va o'zbek millatiga mansub ismlar ro'yxatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina qishloqlarimizda esa bu yangi rasmga ko'p ham rioya qilinavermaydi. Hozir shaharda bo'lsin, qishloqda bo'lsin, o'z davriga qarab, ba'zi bir ismlar nihoyatda ko'payib, ba'zilari esa mutlaqo tansiqlashib, yo'qolib ketayotir.

Qozoq, qoraqalpoq, o'zbekning ayrim urug'larida bola tug'ilgan zahoti ota o'tovdan tashqari chiqib ot qo'yarkan, taomilga ko'ra ko'ziga birinchi bo'lib ko'ringan narsa yo jon-jonivorning ismini qo'yish an'anasiga amal qilingan. Shu tariqa Qo'chqor, Arslon, Burgut, Qaldirg'och, Bo'riboy, Itboy, Ovulbek kabi ismlar paydo bo'lgan. Boshqa ba'zi qishloqlarda sulolaning kasb-koriga, qishloqning turmush tarziga moslab Tosh, Tesha, Bolta kabi ismlar qo'yilgan.

Ko'pincha bolaning qaysi kunda tug'ilganligi hisobga olinib, unga ism tanlangan. Bozorboy, Jumavoy, Chorshanbe singari nomlar ana shundaylardan hisoblanadi. Otasi askarlik xizmatini o'tagani ketganda tug'ilgan bolalarga Asqarali deb, jangdan qaytmaganlarning o'g'il-qizlariga esa Yodgor deb ism qo'yilgan.

O'tgan asrning 70- yillarida o'g'il bolalar orasida Alisher, Bobur, Furqat, Ulug'bek nomlari, qizlar orasida esa Nargis, Nodira, Mahzuna juda ommalashib ketdi. 80-yillarda Oybek nomi keng tarqaldi. Butun shahar-u qishloqlarni Ulug'bek, Bobur, Oybeklar egallashib olishdi. Ajdodlarimiz an'analariga rioya qilinganda albatta, bunday o'ng'aysiz hol yuz bermasdi. Bir paytlar o'ta zamonaviy hisoblangan O'tkir, Erkin, Umid ismlari ham bir mavsum rasm bo'ldi. Ismlar ayrim viloyatlariga qarab ham bir-biridan farqlanadi. Xorazmdagi ismlar bilan Farg'onanikini, Qashqadaryo va Surxondaryoda qo'yiladigan ismlar bilan Qoraqalpoqnikini almashtirish mumkin emas.

Hozirgi kunda bolaga ism qo'yishda muayyan an'analar, tarixning murakkab sinovlaridan o'tgan udum-odatlariga rioya qilmay, shunchaki urf ketidan quvish tufayli yosh ota-onalar biror kitob qahramoni, kino yulduzi, atoqli shaxs, tarixiy zotlar ismlarini o'z farzand-

lariga o'rni bo'lsa-bo'lmasa qo'yib, oqibatda ularni noqulay ahvolga solib qo'yimoqdalar. Eski-yu yangi bo'lishidan qat'i nazar, o'ziga munosib nom qo'yilmagan bola kelajakda ota-onasi, bobo-buvisidan domongir bo'ladi. Bunga haqqi bor ham, albatta. Ba'zan bu norozilik o'z nomini o'zgartirish bilan tugaydi.

Yana shunday hollar bo'ladiki, fuqarolikni qayd etish idoralarida asosan ruscha so'zlashuvchi amaldorlar ishlashlari tufayli o'zbekcha ismlarning ko'plari buzib yozilgan. Guvohnomalarda, pasportlarda ismingiz bo'lagu hayotda, oilada, do'stlaringiz orasida otingiz boshqa. Hujjatlarda Egamberdi Igamberdi bo'lib, G'ozzi Gazi bo'lib, Olim Alim tarzida yozilib qolgan. Hujjat hisob - Siz nomingizni shu qog'oz asosida yuritish va aytishga majbursiz.

Xayriyatki, hozirgi kunga kelib, o'zbek tili jumhuriyatda davlat tili sifatida tan olinib, hayotga joriy etila boshlaganidan keyin bu borada ham ancha ijobiy siljishlar yuz bera boshladi.

Ism qo'yish odatida o'g'il-qizga ota-onaning, aka-opalarining ismi ham muayyan o'rin tutadi. Keyingi nomlar shu ismlarga uyqash tarzda qo'yiladi. Masalan, Naim, Karim, Salim, Mahmud, Ma'sud, Maqsud singari. Ba'zan urug', tabaqa hisobga olinib, Xo'ja, Mir nomlari ismga old yo ortdan qo'shib aytiladi. Egizaklar albatta Fotima-Zuhra, Tohir-Zuhra, Hasan-Husan ismlari bilan atalishi farz.

Kishilar o'rtasidagi muomala-munosabatlarda ismlarning to'g'ri talaffuz etilishi muhim ahamiyatga ega. Bir-birlarini ko'ngildan yaqin olib, ardoqlovchi odamlar ismlarining yoniga «jon» qo'shimchasini aytib chaqirishadiki, bu ikki o'rtadagi munosabatlarda iliqlik tug'diradi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, qariyalar, «hoy», «hey» deya bir-birini chaqirishayotgan bolalarga, albatta, tanbeh berishadi. Shuningdek, ismlarning yarmini aytib, yarmini qoldirib aytish, ruschaga aylantirib chaqirish katta madaniyatsizlik hisoblanadi. Gulchehra, Gulbodom, Gulnora, Gulandom singari xilma-xil chiroyli ismlarning yagona «Gulya» nomi ostida jamlanishi kechirilmas holdir.

Er-xotinlar bir-birining nomini aytib chaqirishmaydi. Juda zaruriyat tug‘ilganda, ular bir-birlarini katta farzandlarining nomi bilan atashadi. Bu hol sharqona nafis munosabatning bir belgisidir. O‘zbekchilikda tarbiya o‘g‘il-qizga nom berish, ism qo‘yishdan boshlanadi. Ota-onaning burchi bolasiga munosib ism qo‘yib, qo‘lini halollab, boshini ikkita qilish ekanligini Siz ham eshitgansiz. Shuning uchun xalqimizda «ota bo‘lish oson – otalik qilish qiyin», degan naql bor. Murakkab hayot yo‘lida to‘g‘ri ism olgan o‘g‘il-qiz ota-onaning, avlodning munosib davomchilari bo‘lib, bu yo‘lda kattalarga yordam berishlari talab qilinadi.

UCH QARZNING BIRI

Sharq xalqlari orasida eng keng tarqalgan udumlardan biri xatnadir. Xatna necha o‘n yillar mobaynida qattiq nazorat ostiga olinishiga qaramasdan, Arab va Ajam mamlakatlarining barchasida bo‘lgani kabi o‘zbek, tojik, ozarbayjon, qozoq, qirg‘izning biror o‘g‘il farzandi xatna qilinmay qolgani yo‘q.

Xatna odati bekitiqcha o‘tkazildi. Nomi va atalishi o‘zgardi-yu, to‘yi esa amalda o‘tkazilaverdi. Xatna – musulmon bolasining «qo‘lini halollash», ya’ni, jinsiy a‘zosining bosh qismi po‘stlog‘ini chilpib tashlab, a‘zoni «hibs»dan ozod qilish, gigiyenik tomondan tozalik va sog‘lomlikka rioya qilishdan iborat.

Bu odat islom dini paydo bo‘lmasidan oldinoq Axura Mazda – Avesto davrida Eron va Turonda, so‘ngroq yahudolik iudaizm aqoidlarida ham mavjud edi. Qadimgi yahudiylar o‘z xudolari ko‘rsatmasiga ko‘ra o‘g‘il bola tug‘ilgan kundan to 12 kunigacha albatta uning jinsiy a‘zosini chilpish odatini amalga oshirishgan.

O‘rta Osiyo mintaqasida hali aytganimizdek, islomdan oldin ham bu odat mavjud bo‘lsa-da, islom dini kirib kelishi bilan yanada qat‘iyroq qonunlashtirildi. Bu odat musulmonlikning bosh omillaridan biriga aylandi.

Xatna to‘yi odati xalq orasida farzand qo‘lini halolash, «sunnat to‘yi» deb yuritiladi. «Chukiburr» atamasi bu odatning asl mohiyatini ifodalasa, «tug‘ilgan kun», «imenina», «maktabga borish to‘yi», «bog‘chadan chiqish to‘yi» kabilar xatna odatining niqoblangan, yashirin nom-atamalari sifatida uzoq yillar qo‘llanib keldi.

Xalq ma‘naviy jihatdan qanchalik qashshoqlashib borgani sayin u bo‘lar-bo‘lmas o‘zini ko‘rsatishlarga, pul-u boyliklari bilan maqtanishga shunchalik ruju qo‘yadi. Xatna qilish odatining noto‘g‘ri talqin qilinishi tufayli keyingi paytlarda to‘ylar kim o‘zarchilik tusini olib ketdi. Muhammad Alayhissalomning hadislarida ham ko‘rsatib o‘tilishicha, o‘g‘il to‘yida bir is chiqarish ham hisobga o‘tar ekan. Bolaning xatna marosimida hamma narsasini sovurib, uning o‘qishi, turmush sharoitini yaxshilash uchun hech narsa qilmaydigan ota-onalarning xatti-harakatlari maqbul hol emas. Ular go‘yoki o‘g‘il ko‘rsam falonchi artistni olib borib to‘y qilaman, deya niyat qiladilar-u shu niyatlarini amalga oshirish uchun otarchilar qancha pul so‘rashsa ayamay sochadilar.

Kurash, uloq, dorboz va shu singari milliy o‘yinlarni xatna to‘yida o‘tkazish, shundayam kamtarona solimlar qo‘yib, ortiqcha chiqimsiz, «sendan men zo‘r» degan vasvasalarsiz to‘y qilish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, xatna marosimi orqali obro‘ olib qolishni istaganlar bizningcha eng pastkashlikka borgan kimsalardir. Chukiburronda «usta haqi» deb yig‘iladigan pulni ham ko‘pchilik bolaning otasi mansabiga qarab, unga yaxshi ko‘rinish uchun ko‘p miqdorda tashlashga harakat qilishadiki, «musulmonlikni muborakbod» etishning bunday yo‘lini oqlab bo‘lmaydi.

Biz musulmonlarda, yhudolikdagi kabi bolaning o‘n ikki kunlik bo‘lguniga qadar emas, balki o‘g‘il farzandning 7 yoshigacha albatta xatna qildirish sunnat sanaladi. Xatna odatda toq sonlarda: 1, 3, 5, 7 yoshda amalga oshiriladi. Ba‘zi bolalar tabiatan asli jinsiy a‘zosi chilpilgan, a‘zoning boshi ochiq tug‘iladilar. Bunday bolalar musulmon xalqlarida Sunnat deb ataladilar. Ular uchun to‘y marosimi o‘tkazilsa-da, jisman daxlsiz qoladilar.

Xatna – qo‘lni halollash marosimi uchun oilada katta tayyorgarlik ko‘riladi. Ilgarilari bolalar xatnaga yotqizilishidan oldin katta to‘y berilib, ko‘pkari chopilgan, kurash tushilgan, bazm qurilgan. Bola yoki oilaning bir necha bolalari ba‘zan ukaning farzandlari, kambag‘alroq qarindoshlarning bolalari ham maxsus yasotig‘liq xonalarda «yotqizib olinadi».

Xatna qilish maxsus usta-sartarosh chaqirish orqali amalga oshiriladi. Usta-sartarosh bola (bolalar)ning a‘zosi po‘pagining qalin-yupqa, qog‘oti-ko‘rakligiga qarab chilpish ishini amalga oshiradi. Buning uchun a‘zo uchiga maxsus g‘arov qistirilib, po‘stning chilpinadigan qismi ustara, poki bilan shart kesib olinadi. Bolaning chukiburron qilinishi uning jonini og‘ritadi, albatta. Shuning uchun nozikta‘b onalar bu jarayondan uzoqda o‘zga xonada jimjilog‘ini bir kosa unga tiqib turadilar. Ota esa o‘g‘il yonida bo‘lib, diydasi qattiqroq bo‘lsa, bolaning qo‘lini ushlab turishi, bo‘lmasa hayajonini bosish uchun qo‘lini sovuq suv solingan idishga tiqib turishi lozim. Oniy jarayon – kesish oldidan tag‘in chalg‘itish maqsadida bolaga udum sifatida butun non tishlatiladi. Bola chimillagan, jazillagan og‘riqdan nonni qattiq tishlab, katta bo‘lagini uzib oladi... Bu o‘rinda diqqatni chalg‘itish uchun o‘tirganlar tomonidan «huydo-huydo» degan ovozlari ham beriladi. Shu zahoti kesilgan a‘zodan g‘arov olinib, maxsus tayyorlangan, kuydirilgan paxta – so‘xta yopishtiriladi. So‘xta og‘riqni, qon ketishini to‘xtatadi. Kesilgan teri hovlining xilvat bir yeriga ko‘miladi.

Bu jarayondan keyin bola (bolalar) yotgan duxoba ko‘rpalari ustiga yengil choyshablar yopilib, «kesilganlar» chalqancha yotqiziladi. Sunnat qilingan a‘zo ustiga bolaning do‘ppisi kiydirilib qo‘yiladi. Bu ihota – qo‘li halollangan bola a‘zosiga tashqi ta‘sir – pashsha qo‘nishi, ko‘rpa-choyshabning nogahon tegib ketishi, so‘xtaning tushib ketishi singari hodisalarning oldini oladi.

Qo‘li halollangani, musulmon bo‘lgani, go‘daklik faslidan bolalik, o‘smirlik bosqichiga kirgani bilan bolani qarindoshlar muborakbod qilib keladilar. Unga turli

qimmatbaho sovg'alar, tanga va pul hadya qilishadi. Kesilgan bola uzog'i bilan bir haftada tuzalib, oyoqqa turib ketadi. Yarasi bitavermasa, odatda, o'z siydigi bilan ham davolashadi. Bunday bolalarga udumga ko'ra surpdan oq yaktak va keng oq ishton tikib beriladi. To'y marosimi shundan so'ng o'tkazilishi ham mumkin.

Ota uchun uch narsa musulmonchilikda qarz sanaladi.

Bulardan birinchisi bolaning qo'lini halolab, xatna qildirishdir. Ikkinchisi, unga ilm berib, hunarli qilish, dunyoni tanitish. Uchinchisi, uylantirib, hovli-joy qurib, mustaqil hayotga yo'llanma berishdir.

E'tibor bergan bo'lsangiz, bularning hammasi bolaning komil inson bo'lib yetishuvida katta ahamiyatga molik yo'l-yo'riqlardir. Odam bolasi o'z tafakkur tarzi, maishiy turmushi bilan boshqa jonzotlardan farqlanar ekan, uning uchun hamma yaxshi narsalar odatga, udumga aylana boradi.

QULOQTISHLAR

Keyingi avlodlarimiz tomonidan qattiq ta'qib ostiga olinib, la'natlanib, yo'q qilib yuborilgan odatlarimizdan biri beshikketdi, quloqtishlar odatidir. Lekin, har bir asl narsa zamonlar to'foniga, to'siqlar, qarama-qarshiliklarga dosh bera olishi tufayli ham qimmatlidir. Shundanmikan, beshikketdi, quloqtishlar odatlariga chekka-chekkadagi qishloqlarda, xalqimizning o'zligini yo'qotmagan qavmlari orasida hanuzgacha amal qilib kelindi. Dono buvilarimiz, ko'pni ko'rgan qariyalarning xizmatlari xalqona udumlarining saqlanib qolishida beqiyos bo'ldi.

Beshikketdi, quloqtishlar odatlari, ayniqsa, Surxondaryo viloyatining ayrim tuman va qishloqlarida ko'proq saqlanib qolgan.

Sovet tuzumi davrida yosh oila quruvchi kelin-kuyovlarga ajdodlar merosi, ota-ona istagi «g'ov bo'lishiga» yo'l qo'yilmadi. Dunyo ko'rgan, bizdan besho'n ko'ylakni ortiqroq yirtib, muayyan tajriba orttirgan odamlarni konservatorlar deb atab, hayotdan ortda qolgan, qoloq, johil kimsalar qatoriga qo'shdik.

Xullas, yutdikmi-yutqazdikmi, jamiyatimiz, eng yomoni o'zimizning o'zbek oilalarida bir necha avlod tirik yetimlar tarbiyalay boshladik. Bolalar uylarini ko'paytirib, hayotdan, turmushdan uzilib qolgan, ildizsiz nihollar yetishdirdikki, bu avlodlar, biz har qancha xaspo'tlamaylik jamiyatdan o'zining munosib o'rnini topa olmadi...

«Beshikketdi» odati haqida.

Oilada qiz bola tug'ildi, deylik, Chillasi chiqib, beshikka belanish marosimi, beshik to'yi o'tkazildi. Qarindosh-urug', do'st-og'aynilar yangi farzand bilan muborakbod etgani bu oilaga kelishdi. Shunda o'g'illik birodarlardan biri niyat qilib, yetaklab borgan 5-6 yashar o'g'ilchasiga chaqaloq qizaloqni tilaydi, so'ratadi. Albatta, bunday «qudachilikka» intilish hali jish go'dakning «husnli» yo «yaxshi tarbiya ko'rgan»ligi tufayli emas, chaqaloq ota-onasining odamshavanda, tagli-tugli odamlar bo'lganligi sabablidir.

Agar «Qizi bor-u nozi bor» oilaning bobo-yu buvisi, ota-onasi, qarindosh-urug'lari rozilik berishsa, «quloqtishlar» odati o'tkazilgan. Boyagi bolakay beshikda yotgan qizaloqning «qulog'ini tishlagan». Bu bilan unga ega, homiy, hamroh sanalib qolgan. Bir domla chaqirilib, bu jarayon qishloq oqsoqollari guvohligida «rasmiylashtirib» qo'yilgan. «Beshikketdi» degani qizimiz beshikdanoq sovchi-yu elchisiz o'z munosib xaridorini topib, «sotilib» ketdi, degan ma'noni bergan.

Qadim zamonlarda bunday «qudachilik» marosimi qabilalar o'rtasidagi urish janjallarga chek qo'ygan. Tinch qo'shnichilikni saqlab qolgan. Ikki yoshning ulg'ayib, to'y-tomosh bilan qovushishlariga qadar o'rtada yaxshi qo'shnichilik, «ol tovog'im, ber tovog'im» bo'lib turgan. Oila qurilgach esa bu munosabatlar yanada mustahkamlanib, qarindoshlik tomirlari chuqur ildiz otib ketgan. Ajdodlarimiz «kuyov – yuz yillik, quda – ming yillik» aqidasisga rioya qilishgan.

Ulg'ayayotgan qiz o'z nihol umri davomida «qulog'ini tishlagan» yigitga, yigit esa bo'lajak kelinchakka g'oyibona mehr, intiqlik, hurmat bilan voyaga yetishgan. Ikki tomon ota-ona ham shunga munosib harakat qilib, yangi tuzilajak

oila tadorigini ancha uzoqdan ko'rib borishgan. Vaqti-soati kelganda to'yga qiynalib, shoshilib, yengi tor kelib qolishmagan. Ko'p yillar davomida bir-birlarini sinab, kam-ko'stларini to'ldirib borishgan.

Bundan tashqari, axloq-odob, mehnat, o'qish-ilm olish, hunarda ham yoshlar bir-birlariga munosib bo'lishga, bir-birlarining sha'nlariga dog' tushirmaslikka harakat qilishgan. Yoshlikdan qaynona, qaynota, qaynag'a, qaynilarning hurmatini o'rniga qo'yishni odat qilib borishgan. Ma'nan, jisman va ruhan bir-birlariga tayyorlanib, «bir olmaning ikki pallasi» bo'lib, kamol topishgan.

Albatta, bunday sinamol, uzoq jarayonni pokdomonlik bilan bosib o'tgan yigit-qizdan elning ishonchini oqlaydigan ajoyib oila vujudga kelgan. O'tmishdagi ibrat bo'lari kayvoni oilalar aynan shunday, ko'pning ko'zi o'ngida ko'p yillar sinalgan oilalardan chiqqan bo'lsa, ajab emas.

«Quloqtishlar», «beshikketdi» odatlari keyingi hayotimiz, hatto adabiyotimizda ham qoralanib kelingani rost. Bu odatning bir qadar zararli tomonlari ham bo'lgandir, dersiz. Avvalo 15–20 yillik sinovga bardosh berolmagan «qudachilik» o'sha paytdayoq uzilib qolgan. Bundan tashqari, yoshlar: qiz-yigitning xohish-irodasi hamisha hisobga olingan.

Bu odatlar to'qayga o't tushib, ho'l-u quruq baravar yongan paytlarda salbiy, diniy, xurofiy hodisa sifatida ko'r-ko'rona qoralandi va hayotdan supurib tashlandi. Beshik, sandal, xudoyi, sunnat, Navro'z odat-marosimlari singari «quloqtishlar», «beshikketdi» ham oyoqosti qilindi. Natijada bu odat butunlay iste'moldan chiqib ketdi.

O'YINLAR

O'zingizga ma'lumki, bolalarni kattalar, yerga ursa ko'kka sapchiydigan koptokka o'xshatishadi. Chunki ular biror daqiqa ham harakatsiz, jim o'tirisholmaydi. O'yin ishqibozi, o'yinqaroqlar. Hayotni ko'chasiz, o'yinlarsiz tasavvur qilisholmaydi. Aslida, bolalikning eng aziz, o'ziga xos tomonlari ham shunda-da! Jamiyatga, odamlarga foydasi tegadigan, dunyoga mashhur olim-u yozuvchi-

larning, shoirlarning bolalikda yerga ursa ko'kka sakraydigan o'yinqaroq bo'lganliklari bejiz emas. Bu hol ularda ijodiy tafakkurning o'sishi uchun benihoya katta ahamiyatga ega.

*Quyundayin charx urardik doim to'zonda,
Chang neligin bilmas edik o'sha mahali, –*

deydi Abdulla Oripov.

Shijoat, qiyinchiliklar oldida esankirab qolmaslik – bularning hammasi o'yinlar bilan bog'liqdir.

Qadimda o'yinlarning turlari juda ko'p bo'lgan. Ot o'yin, do'ppi o'yin, hammompish, tosh o'yin, chillak o'yin, yong'oq o'yin, qurmatayoq, ko'chmak o'yin, jona o'yin, varrak o'yin... Eh-he, ularning hisobiga yetib bo'larkanmi?!

Qadimiy bolalar o'yinlari va umuman bolalar folklori to'g'risida olim bobongiz G'ani Jahongirov mazmunli kitob yozganlar. U kishining qayd qilishlaricha, bugungi bolalar o'yinlarining ildizi juda uzoq va qadim zamonlarga borib taqalar ekan.

Bobokalonlarimiz Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino asarlarida ham bolalar ijodkorligi, folklor o'yinlariga taalluqli ma'lumotlar juda ko'p uchraydi. Jumladan, «Devonu-lug'otit turk» kitobida o'yinlarning tur va yo'nalishlari haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Keyingi davr yaqin o'tmishni olsak, Siz juda sevib o'qiydigan G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida bolalar o'yinlari to'g'risida juda qimmatli va qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Hammompish qariyb unutilayozgan qadimgi o'yinlardandir. Bu o'yin uchun asosan yoz fasli qulay bo'lgan. Hammompishni shartli ravishda «qurilish o'yini» deb atash mumkin. Uning o'z nomi o'zi bilan: hammom, pish. Ya'ni, bolalar uyulgan tuproqdan bir do'ppi shaklidagisini ajratib olib, rosa urib, pishitib, xuddi hammomning gumbazi qiyofasiga keltiradilar. Bu jarayon suv ishlatmay ham, suv berib iylash bilan ho'l shaklda bajarilishi ham mumkin. Iylab, pishirilgan «hammom» bir oz quritilgandan keyin, u o'z vazifasiga moslanib, «eshigi ochiladi», so'ng ehtiyotkorlik bilan bu xom «bino»ning ichidan

tuproq'i olinib boshlaydi. Gap shundaki, tuprog'i ohista to'la olinib tashqariga chiqarilgan «hammom» yiqilib tushmay, o'z shaklini saqlab qolsa, (bu bir qaraganda sardobalarni ham eslatadi) bu o'yinchining ishi pishiq bo'lganligi, ya'ni, «hammom»ning «pishgan»ligini bildiradi. Ko'pda «hammomi pishmagan» bolalarning hammom-pishlari o'yilayotganda, yarmiga bormayoq yorilib, o'yilib tushadi. Qurilish boshqatdan boshlanadi. Shu tariqa hammompish o'yini davom ettirilaveradi.

Bu o'yinda bolaning quruvchi, muhandislik, hisob-kitob qila bilish qobiliyati rivojlantiriladi. Mehnatga layoqati tobora yuksala boradi.

Loysuvoq o'yinini bilasizmi? Loydan kosa, piyolasifat shakl yasab, uni og'zi tomoni bilan yerga urib panqillagan ovoz chiqariladi, bu hol bir necha marotaba takrorlangach, loy juda pishib, kerakli shaklga solishga yaraydigan bo'ladi. Bu ham qurilish, loy-gil, shikast-rext ishlariga bolaning qo'lini qovushtirib boradigan o'yinlardan biridir.

Bolalar o'yinlari qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog'och-u cho'p bilanmi, ip-u arqon bilanmi, po'stag-u mato bilanmi, qaysisi bo'lsa ham bolani hayotga, turmush ikir-chikirlariga, ro'zg'or ishlariga tayyorlashda o'ziga xos hunar maktabi rolini o'tagan.

Bolalar o'yinlari o'ziga xos asarlardir. Ular muayyan ijodiy yo'nalishga ega bo'lib, ularning o'z ma'nosi, qurilmasi mavjud. Masalan, bolalar to'planishidan avval o'yinga chaqiriladi. O'yin boshlash uchun esa chek yoki qur'a tashlanadi. Ikki-uch ijodiy musobaqa guruhiga bo'linadi. So'ng muayyan o'yin qonun-qoidalar asosida boshlanadi. Bu chillak o'yini, do'ppi o'yinlari – qushimboshi, to'p o'yinlari, lapar o'yini va boshqa tosh o'yinlari bo'lishi mumkin. Albatta, o'yinlarning boshi bo'lganidek, ularning oxiri, chegarasi ham bordir. Qadimdan qolgan: «Uy-uylikka, tepa-to'ylikka!» xitob-xotima bu – o'yinning yaxshi, ahil va inoq, foydali yakunlanganligidan dalolat beradi.

O'yinlarning maqsad yo'nalishlari ham har xil. Ular sanoqni o'rgatish, tilni burro qilish, nafas yo'llarini

rivojlantirish, quvvai hofizani oshirish va hokazo maqsadlarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Quyidagi misollar ham mana shunday turli maqsadlarni ko'zlagan bolalar o'yinlari jarayonida aytiladigan qo'shiq-o'yinlaridir.

*Bir-ikki, o'n olti,
O'n olti deb kim aytdi?
O'n olti deb men aytdim.
Ishonmasang sanab ko'r...*

(Bolalar sanaladi)

*Hakkalakam, dukkalakam,
Chori amal, beri amal,
Qayda edi, tog'da edi,
Tog'man, zuvman...*

(Chillakda zuvillanadi)

*Chori chamber
Bari anbar,
Ona qiz qayda?
Ola-bula joyda.*

(Ayb ish qilgan aniqlanadi)

*Biz edik, biz edik,
O'ttiz ikki qiz edik
Shu o'yinni bilolmay,
To'rt tomonga to'zidik...*

Kattalarning bilimdonligi, aqliy barkamolligi, hozir-javobligini namoyish qiluvchi so'z o'yinlari bolalar folkloriga ham xosdir. Ayni paytda qo'shiq-o'yinlari, topishmoq-o'yinlar, tez aytish o'yinlar, sanoq o'yinlar ham qadimgi bolalarning sevimli mashg'ulotlari hisoblanib kelingan.

«Chitti gul-o, chitti gul», «Oq terakmi - ko'k terak» kabi qo'shiq o'yinlari turli ko'rinishlarda bizgacha yetib kelib, mazmunan yanada boyib bormoqda. Yoki «Tepdim sandiq ochildi» deb boshlanuvchi fantastik ertak-o'yin ham bolalar folklor o'yinining javohir namunalaridan sanaladi.

O'yinlar orasida eng murakkabi, jasorat va katta quntni talab qiladigan dor ustidagi, ya'ni dorboz o'yinidir. Odatda, dorboz o'yini katta sayillarda, to'y-larda o'tkaziladi. Shuningdek, bu o'yin chog'ida, dor ostida boshqa tomoshalar ham ko'rsatiladi. Masxarabozlar ichakuzdi hangomalari bilan tomoshabinlarni «tanaffus» chog'larida ham zeriktirishmaydi. Ko'ryapsizki, taraqqiy qilgan mamlakatlarning madaniy darajasini belgilovchi teatr san'ati, sirk san'ati bizda qadimdan mavjud ekan. Abdulla Oripov mashhur «Dorboz» she'rida dor ustida yurish naqadar murakabligini shunday tasvirlaydi:

*Bulutlarga yondosh osmon ostida
Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.
Qilichning damidek arqon ustida
Kiprikdagi yoshdek turibdi dorboz.*

*Odamlar, odamlar, uni olqishlang.
Qarang, u naqadar epchil va o'ktam!
Biz-chi, eh, ba'zi bir ko'zi ochiqlar.
Eplab yurolmaymiz, katta yo'lda ham...*

O'yinlarning qadimdan yosh avlodda, axloqiy, mehnat tarbiyasiga nechog'lik katta ahamiyat kasb etganligi to'g'risida gapirmay qo'ya qolaylik. Chunki bola uchun o'yin hayotiy ehtiyojdir. Kattalar o'rtasida: «Sen menga do'sting kimligini ayt, men senga sening kimligingni aytib beraman», degan gap bor. Bu hikmatni bolalarga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, «sen menga qanday o'yin o'ynashingni ayt, men sening kim bo'lib yetishishingni aytib beraman», deya o'zgartirish mumkin.

Bizning zamonamizga kelib, sport o'yinlari, milliy odatlar, kompyuter va internet o'yin musobaqalari rasm bo'ldiki, bular yosh avlodning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Darhaqiqat, o'yinlar butun avlod-ajdodlarimiz, otabobolarimiz hozirgi zamon Siz kabi avlodlarning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topishlariga beqiyos katta hissa qo'shgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

Chunki yosh avlod uchun o‘yin – bu hamma zamonlarda turmush tarzi, hayot omili, uning o‘lchovi bo‘lib qoladi. O‘yinning mazmuni boyib, shakllari ko‘payib boraveradi. Taraqqiyot shuni taqozo etadi. Chunki bugungi bola – ertangi kunning ijodkor yaratuvchisidir. O‘yin bu ijod, o‘yin bu hayotdir.

BOYCHECHAGIM BOYLANDI

Siz qadimda bizning ajdodlarimiz ham Sizing yoshingizda turli-tuman bayramlar, marosimlar o‘tkazishganliklarini yaxshi bilasiz. Albatta, bu bayramlar mavsum va marosim bilan bog‘liq bo‘lgan.

Ma‘lumki, bahor uyg‘onish fasli, tabiatning yangilanishi, gulchechaklarning dunyo yuzini qayta ko‘rishi davri. Qadimda bolalar avvalo boychechak, so‘ng binafsha, qoqigul, tolbargak ochilib, yaproq yozishini bayram qilishgan. Boychechak bilan bog‘liq turli xalq qo‘shiqlarini ijro etishgan.

*Qattiq yerdan
Qatalab chiqqan boychechak.
Yumshoq yerdan
Yugurib chiqqan boychechak.
Boychechagim boylandi.
Qozon to‘la ayrondi.
Ayroningdan bermasang
Qozon-tovog‘ing vayrondi.*

*Qattiq yerdan qatalab chiqqan
boychechak.
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan
boychechak.*

*Boychechakni tutdilar
Tut yog‘ochga osdilar
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar...*

Bahor fasli, yomg‘irning ezib yog‘ishi, insoniy axloq masalalariga ko‘chirilgan. Bayramlarda ayni paytda fasl bilan bog‘lab g‘ayriaxloqiy holatlar tanqid qilingan.

*Yomg'ir yog'aloq
Echki qumaloq
Boyning qizining
Qorni yumaloq...*

Bu mavsumiy bayramlarda qizaloqlar tol bargaklar, qoqigullardan chambaraklar yasashib, bir-birlarining boshlariga kiygizishgan. Qo'llariga, yenglariga taqishgan. Ular bu bilan tabiat uyg'onishini olqishlagan holda ayni paytda, gilam, savat to'qish malakasini ham egallab borishgan.

Qizchalar turli-tuman lapar, tosh, ip, halinchak o'yinlari bilan bayram kayfiyatini yanada xush qilishgan.

*Xayrixon qaydayakan?
Qizlarman bog'dayakan.
Bog'da nima qilarkan?
Gullar terib yurarkan...*

*Oq gulim, oppoq gulim
Ushlasam yumshoq gulim.
Terib xirmon qilgandim,
Bo'b ketdi tog'-tog' gulim...*

Bolalar g'arq pishgan bog'larini qo'rir ekanlar:

*Hala-yo, hala-yo,
Katta bog'larni tala-yo
Katta bog'lardan to'ymasang
Kichik bog'larni tala-yo!..*

deya shaqildoqlarini shaqillatib, hosil sayli, bayramini nishonlashda davom etganlar.

Bahor tugab, yoz boshlanishi bilan turfa gullar butun borliqqa atir hidlar tarata boshlagan. Bu paytga kelib, bolalar gul bayramlari o'tkazishgan, bu udum qadimdan buyon yashab kelib, hozirda ham ko'pgina viloyatlarimizda bolalar orasida keng tarqalgan.

Ayniqsa, Namanganda gul bayramlari o'tkazish yaxshi odat tusini olgan. Gulchilik oilaviy, sulolaviy, dizayn shakllariga kirib bormoqda.

Tabiiy gullar yetishtirishdan tashqari sun'iy gullar, plastmassa, «gulzor»lar yasash va bezak ishlarida foydalanish odat bo'lib qoldi..

Kuz pishiqchilik – xirmon ko'tarish fasli, bolalar bu davrda kattalar bilan hosil bayrami qilib, bog'-rog'lar, polizlarga chiqishgan. Shirin-shakar olma-anor, nok-uzum, qovun-tarvuz, yong'oq yig'ib-terib olish sayllari ko'p bo'lgan. Shuning uchun ham ota-bobolarimizdan: «Har bir ho'l meva pishig'idan to tugagunga qadar bolalar undan kamida uch marta to'yib tanovul qilishi ham farz, ham qarzdir», degan o'ta hayotiy gap qolgan. Bu fikrda hikmat juda ko'p.

Bolalarning fasl va marosim bilan bog'liq bo'lgan barcha bayram shodiyonalari ham albatta, tabiatga muhabbat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan. Oldinlari ov, kaptar, bedana, kaklikka ishqibozlikdan tug'ilib, qaror topgan, hozirda qush o'yinlari sifatida bayram tusini olib borayotgan bu odat ham bolalar o'yin-bayramlaridan biriga aylanib qoldi.

Bu o'rinda tabiatning mo'jaz mavjudotlari - turli qushlar hayotini o'rganish, ularni xonakilashtirish, musiqiy ovozini eshitish singari bola zavqi, hissiy dunyosini boyituvchi omil sifatidagi ahamiyati beqiyosdir. Shundaylardan:

*Qaldirg'och, g'och-g'och.
Eshigingni tezroq och...*

*Qaldirg'och, g'och-g'och
Chiyqillamay bola och.*

*Mening sochim jingalak
Pista bilan bodom soch...*

Qish bayramlari – qorxat, qorqiz, qorbobo o'yinlari bilan bog'liq marosimlar Sizga yaxshi tanish, albatta.

*Qor yog'di gupillatib,
Qorbobo bog'chamizga
Kirib keldi.
Soqolini selkillatib...*

Qorbobo keldi
 Yugurib-yelib
 Oppoq ko'rpachasini
 Olamga yoyib...

Yoz-kuz bayramlari «Chittigul» bolalar bayram-o'yin she'rlarisiz o'tmagan, albatta.

Chitti gul-o, chittigul
 Hay-yu, chittigul.
 Chittigulga gul bosay,
 Hay-yu chittigul.
 Bir yonini yon bosay,
 Hay-yu, chittigul,
 Hay-yu, chittigul.

Qo'ling qo'lvog'da bo'lsin,
 Beling belbog'da bo'lsin.
 Hay-yu, chittigul,
 Hay-yu, chittigul.

Dukur-dukur ot keldi,
 Chiqib qarang, kim keldi?
 Aravada un keldi,
 Childirmada gul keldi.
 Hay-yu, chittigul,
 Hay-yu, chittigul.

Gul yaxshi-yu, gul yaxshi.
 Gulning bahosi yaxshi
 O'rtaga chiqqan qizning
 Haydar kokili yaxshi.
 Hay-yu, chittigul,
 Hay-yu, chittigul.

Oq sholi-yu, ko'k sholi
 Oq sholini oqlaylik,
 Ko'k sholini ko'klaylik.
 Hay-yu, chittigul,
 Hay-yu, chittigul.

*Ariq bo'yi sirg'anchiq,
Sirg'ana ketmang, jon kelin.
Qaynanangiz urushqoq,
Urusha ketmang, jon kelin.
Hay-yu, chittigul,
Hay-yu, chittigul.*

*Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga,
– Xola, xola, kulcha ber.
Xolam aytdi: – Cho'pchak ter.
Cho'pchak terdim bir quchoq,
Non yopdi o'choq-o'choq...*

Oilaviy-maishiy hazil qo'shiqlar bayram mazmunini boyitgan:

*Tepdim sandiq ochildi,
To'rga bodom sochildi
Bodomni tera-tera
Qanotlarim qayrildi.*

*Qanot bering, uchaylik,
Oqsaroyga tushaylik,
Oqsaroyning oq toshi
Yangamning qalam qoshi.*

*– Yangamsan-o, yangamsan,
Ishton bichar bilmaysan,
Qirq ignani sindirib,
Haliyam xotin bo'lmayсан...*

Yangi davrga kelib, qadimiy odat, marosim, an'alarimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bolalar bayramlari mazmunan boyib, shaklan rang-baranglashdi. Bu bayramlarning sof milliy, o'ziga xos qirralariga boshqa qardosh xalqlar o'yin-bayram qo'shimchalari qo'shildi.

Endi Siz kattalar bilan bir qatorda Yangi yil, 14- yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 8- mart – Xotin-qizlar kuni, 21- Mart – Navro'z bayramlari, Ramazon va qurbon hayitlari, 9- May – Xotira va qadrlash kuni, 1- Sentabr

– Mustaqillik kuni, 8- Dekabr – Konstitutsiya kuni singari bayram marosimlarini baynalmilal oilada turib o‘tkazishga odatlanib qoldingiz.

Yoz fasli bilan bog‘liq bo‘lgan bayramlarda turli qo‘shiqlar kuylangan. Sehrli ertaklar she‘riy usulda ijro etilgan.

Parranda-yu hasharotlar, hayvonlar haqida hazil-mutoyiba she‘rlar aytilgan.

*Laylak keldi, yoz bo‘ldi,
Qanoti qog‘oz bo‘ldi.
Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi,
O‘tirdi yig‘lamoqqa:
Men Bobo Hoji edim.
Qizlarga boshchi edim.
Qizlar o‘yin tushganda
Men nog‘orachi edim.
Nog‘oram bir kun buzildi.
Tanoblari uzildi.
Qorbuvaning dastidan
Qanotlarim suzildi.*

*Laylak keldi, ilon qoch,
Bola-chaqangni olib qoch
Yangi to‘ning kiyib qoch,
Eski to‘ning tashlab qoch.
Laylak opa
Boshingga kapa.
Taqiyam suvga tushib ketdi.
Olib bering jon opa.
Bedanam uchdi, pit-pildiq.
Sabziga tushdi, pit-pildiq.
Sabzi sanoq, bedanam-a.*

*Musicha pat-pat etadi,
Elak pat-pat etadi.
Musicha pat-pat etsa,
Kampir chakich otadi.*

*Kampir otgan chakichi
Musichaga tegibdi.
Jon-jonidan o'tibdi
Patlarini to'kibdi...*

*Qur-qur qurbaqa,
Nega afting bunaqa?
– Suvda ko'p yurganimga
Bo'ldi aftim shunaqa...*

Davr o'tishi bilan bayram va marosimlarning, yangicha an'analarning paydo bo'lib, umummadaniyatimiz yanada boyib, go'zallashib borayotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

II BOB.

***O'SMIRLIK –
BARKAMOLLIK***



CHILLAK

Bu o‘yin ayniqsa tog‘lar etagidagi, tepaliklar bag‘ridagi qishloqlarda yashovchi bolalarning sevimli o‘yinidir. Chillakni podayu qo‘y boqib yurganda ham o‘ynayverish mumkin. Uning uchun alohida joy, ayrim tayyorgarlik talab qilinmaydi. Ikki uchi yo‘nilgan chillak, uni «uchirish» uchun dasta bo‘lsa kifoya. Chillakning dastasi va o‘zini har qanday yog‘ochdan yasash mumkin. Biroq tol yoki terakdan bo‘lsa, ayni muddao.

Bu o‘yinni ikkita bo‘lib ham, guruh-guruh bo‘lib ham o‘ynash mumkin. Musobaqalar juda avj olib ketsa, hatto mahallama-mahalla, qishloqma-qishloq bo‘lib bellashadilar. O‘yin boshlanishidan oldin kayvoni qur‘a tashlaydi. Yo tanga bosh barmoq tirnog‘ida havoga uchirilib, yerga qaysi tomoni bilan tushishiga qarab, qaysi tomonning o‘yin boshlashi aniqlanadi, tayinlanadi, O‘yin boshlovchi tomon jo‘raboshisi chillakni maxsus kavlangan chuqurcha ustiga qo‘yib, dasta bilan ilib, havoga ko‘tarilib, so‘ng zarb bilan uni dastada urib, iloji boricha uzoqqa uchiradi.

Maydonning narigi tomonida to‘nini teskari kiyib, etagini qulochida yozib turgan raqib guruhi urilgan chillakni imkoni boricha tutib olishga harakat qilishadi. Tutib olishsa-ku, olam guliston, navbat shu zahoti ularga o‘tadi. Ammo shiddat bilan havoda uchib kelayotgan chillakni tutib qolish oson ish emas. Endi chillakni borib tushgan joyidan uchirilgan joyiga – chuqurchaga qo‘lda uloqtirish kerak. Shunday mo‘ljal bilan uloqtirish lozimki, imkoni boricha cho‘p urib yuborilgan chuqurchasi ustiga borib tushsin. Bu vazifani ham endi havosini olgan o‘yinchi bajarishi kerak. Qayta uloqtirilgan chillak chuqurchaga tushsa, yoki chillak dastada o‘lchanganda, bir dasta

yetgulik joyga yetkazilgan bo'lsa, raqib guruh chillak otish navbatini qo'lga kiritdi, deyavering.

Agar o'lchaganingizda bir dastamas, 3-5-10 dasta beri yo narida qolgan bo'lsa, endi «jazoingizni tortasiz». Ya'ni, o'yinning qizig'i, asosiy shartlari mana shundan keyin boshlanadi. Chillak otuvchi tomon uni tushgan joyigacha necha dasta masofada ekanligini o'lchab, aniqlagach, dasta bilan yotgan chillakning yo'nilgan uchiga urib, havoga ko'taradi. O'sha muallaqligida zarb bilan urib, oldinga, maydonga uchiriladi. Bu hol qancha chiqqaniga qarab, 3-5-10 marta takrorlanadi. Endi navbat «zuvillash»ga keladi. Raqib tomon vakili yov vakillari o'yinboshi-kayvoni hamrohligida bir nafas yutib, zuvillagancha buqurboshi, chillak marrasiga yetib kelishi lozim.

Eski arab alifbosini o'rganish uslublarida arab tilida mavjud bo'lgan 32 harfni bir nafasda aytish sharti bor. Ya'ni, alifboni yaxshi yodlab olgan talaba bir nafas olgan-u, to shu nafasi tugaguncha 32 harfni ifodalay, aniq qilib domlaga yod aytib berishi lozim bo'lgan. Bu ham o'z holida aqliy qobiliyatni, ham jismoniy sog'lomlikni talab qilgan. Bu borada mashq qilgan yoshlar shu shartni bajarganlaridan keyingina navbatdagi saboqqa o'tilgan...

Shu singari chillakda ham zuvillash qoidasi buzilsa, ya'ni chopuvchi yangi nafas olib qo'ysa, o'sha yerda to'xtatilib, yana chillak undan ham uzoqroqqa havolan-tiriladi. Zuvillab kelayotgan bolaning marraga o'n qadam qolganda nafasi «uziladi» deylik. Endi uning o'zi yoki sherigi g'olib, (chillak tashlagan) tomon vakili yo vakillarini orqasiga ortmoqlab ko'tarib, marraga keltirib qo'yishi shart. Shu yo'sin o'yin navbatlashib, tushgacha yo kechgacha davom etishi mumkin.

Men Sizlarga bu yerda chillak o'yinining bir ko'rinishi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Palandara qishlog'ida bolaligimizda o'ynagan o'yinimiz manzarasi qoidasini eslatdim, xolos. Bu o'yinning turli viloyat shahar-qishloqlarda turli-tuman, rang-barang ko'rinishlari bor. Qoidalarga har bir davr va avlod o'z o'zgartish-qo'shim-chalarini kiritishi tabiiy. Ularni to'plash, qiyoslash, ommalashtirish Sizlarning vatanparvarlik burchingizdir.

Chillak o'yini foydasi, ma'naviy, jismoniy ahamiyati nimadan iborat, deb so'rashingiz mumkin. Aslida bu o'yin foydalimi, zararlimi? Bu savolga daf'atan, bir tomonlama javob berish qiyin, albatta. Ammo ajdodlarimiz qadimdan sevib-ardoqlab, sayqallab, zamondan-zamonga, avlod-dan-avlodga yetqazib kelgan bu o'yin urfimizning foydasi kam bo'lmagan. Birinchidan, chillak o'ynagan bolalar jismoniy baquvvatlashgan. Ikkinchidan, zuvillashishi bilan uning nafas yo'llari, ko'krak qafasi a'zolari, ovozi yaxshi rivojlanib har xil dard kasalliklaridan forig' bo'la borgan. Uchinchidan, sanoq, hisob-kitob o'lchov bu borada bolaning hayotiy bilimlarini oshirib, mustahkamlagan.

Hozirgi kunda, Sizning bolalik davringizda, shaharda chillak o'ynashning imkoni qolmadi. Qishloqlarda esa bu odat, eski o'yin tobora unutilib, yo'q bo'lib ketayapti. Aslida, qadimgi kurash, ko'pkari, chavgon o'yinlari kabi chillak o'yini ham milliy o'yin-odatlarimizdan Sizga eng munosib, mazmunli, foydalisidir. Siz, yoshlar, yozgi ta'tilda dam oladigan tog' bag'irlarida, qir bag'irlaridagi bog'larda, maktabning o'zida, jismoniy tarbiya darslarida bu o'yin-odatimizni qayta tiklashingiz, undan ajdodlarimiz singari jismoniy-ma'naviy foydalanishingiz, zavq-shavq olishingiz lozim.

LAPAR VA DANDARAK

Hozirgi paytda deyarli unutilib, yo'qolib ketgan bolalar o'yinlaridan lapar va dandarak o'yinlaridir. Siz va tengdoshlaringiz balki bu o'yinlar haqida eshitmagan bo'lishingiz ham mumkin. Ilgari zamonlarda hozirgidek pero, tanga, lanka o'yinlari emas, tosh, yog'och, yong'oq o'yinlari ko'proq o'ynalgan.

Lapar o'yin qadimda mavjud bo'lgan beshtosh, to'qqiztosh singari bir necha tosh o'yinlaridan yana biri bo'lib, bu o'yin o'g'il bolalar o'rtasida keng tarqalgan. Mazkur o'yinda supta, tekis, yupqa, yarim kaftchalik keladigan kichik tosh tanlanib, ikkinchi – nishon qilib tikilgan xuddi shunday tosh tomon o'n qadam uzoqlikdan

uloqtiriladi. Uloqtirishda nishon toshni urib yiqitish ko'zda tutiladi.

Otganda nishonni yiqitishning iloji bo'lmasa, uloqtirilgan tosh borib tushgan joyidan turib, endi bola barmoqlari vositasida nishonni shu lapar bilan urishi kerak bo'ladi. Buning uchun laparchi engashib, tizzalab olarkan, o'ng qo'li o'rta barmog'ini yozib, uchini yer bo'ylab lapar toshga qadaydi. Ikkinchi chap qo'lining o'rta barmog'i bilan uni tutib turarkan, o'ng qo'l barmog'ida laparni kuch bilan ilib otadi. Lapar tosh yer bo'ylab yoinki yer uzra havolab borib, nishonga tegishi, uni yiqitishi lozim. Tegsa yaxshi, o'yin davom etaveradi. Tekkizilmasa, o'yin navbati raqib bolaga yoki raqiblar guruhiga o'tadi. Lapar o'yini 100 gacha bo'lgan marrali hisob bilan o'lchanib tik turib otgandayoq nishonga tekkizilsa, birato'lasini 20 soqqa, tekkizolmay, yerga tushirib, so'ng qarichlab urilsa, 5 soqqadan berilgan. Qaysi tomon 100 soqqani oldin to'plasa o'sha yutgan hisoblanadi.

Lapar tosh o'yini bolani aqliy jihatdan hisob-kitobga o'rgatadi, chama, reja, to'g'ri mo'ljal olish qobiliyatini oshiradi. Jismoniy tomondan esa qo'l-oyoq harakatlarini chaqqonlashtirib, muskullarni rivojlantiradi. Ko'z, quloq, ko'rish, eshitish sezgilarini o'tkirlashtiradi. Jamoada o'zini tutish, muomala madaniyatiga o'rgatadi. Lapar tosh o'yini Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Shahrhisabz, Kitob tumanlarida o'ynalib kelingan.

Ikkinchi o'yinimiz – dandarak – yog'och o'yini bo'lib, bu ham o'g'il bolalarning ommalashgan o'yinlaridan biridir. Bu o'yin ikki o'ynaluvchi buyumdan iborat. Uning birinchisi – dandarak, ikkinchisi «qamchi»dir. Qalinligi bilakday keladigan ketmondastadan to'rt-besh enlik qismi arralab olinadi. Uning bir uchi yo'nib, qoziqsifat qilinadi. Bu pakana o'yinchoq barmoqlar (bosh va o'rta barmoq) orasiga olinib, tekis yerga aylantirib yuboriladi.

Aylanayotgan dandarak endi «qamchi»ning uzun ipi bilan aylanish yo'nalishi bo'ylab urib, harakatlantirilaveradi. «Chars-chars» ovoz eshitilib turarkan, ikki bola yoki ikki guruh dandarakni qamchi vositasida yoki usiz uzoqroq harakatlantirish, aylantirish bo'yicha musobaqa

o'tkazadilar, birinchi bo'lib, kimning dandaragi yiqilib, harakatdan to'xtasa, o'sha yutqazgan hisoblanadi.

Dandarakning tepa qismi, yonlari, hatto yo'nilgan uch qismi ham turli ranglarga bo'yalib, bezatiladi. U aylanib, o'ynalganda ajoyib jilolanib, kamalakdek tovlanadi. Dandarak o'yini bolalarni duradgorlik ishlariga jalb qilish, ro'zg'orda kerak bo'ladigan kichik ustachilik malakasi hosil qildirishda juda qo'l kelgan. Ayni chog'da, dandarak o'yini qamchini to'g'ri ishlatib, o'rnida harakatlantirish bilan ko'pkari chopuvchi chavandoz suvorilar tayyorlashning boshlang'ich maktabi vazifasini o'tagan. Bu o'yin ham o'sha viloyatning yuqorida aytilgan tumanlarida o'ynalib kelgan.

CHAVGON

Chavgon Sharq xalqlari orasida juda qadimiy o'yinlardan biri hisoblanib, o'z o'yin qoidalari hamda ko'rinishi jihatidan ko'pkari va xokkey o'yinlariga o'xshash bo'lgan. Chavgonda o'yinchilar maxsus suvorilar bo'lib, ot ustida turib, milliy chavandozlik kiyimlarida maydonga tushib, o'yin o'ynaganlar. Chavgonchilar o'rtasida chavgon to'pi «talash» bo'lgan. Har ikki tomondan 5-6 tadan o'yinchi ishtirok etib, raqib darvozasiga kim qancha to'p kiritsa, o'yin oxirida o'sha tomon, g'olib hisoblangan.

Chavgon qo'lda tutiladigan uchi egik uzun tayoqdan iborat bo'lib, hozirgi xokkey dastasini eslatadi. Shu asbobda o'rtadagi to'p raqib darvozasi tomon olib borib uloqtirilgan. Bu o'yin ikki tanaffusli bo'lib, bir soat davom etgan. Bu o'yinni otliq bir hakam maydon ichida, piyoda ikki yordamchi hakamlar maydonning ikki chekkasida kuzatib, tartibga solib borishgan.

O'yin davomida zarur topilsa, har ikki tomon ham to'rt marta bir daqiqadan tanaffus olish huquqiga ega bo'lgan. Kimki o'yin qoidasini qo'pol ravishda buzadigan bo'lsa, o'yindan chiqarib yuborilgan. O'yin qoidasi darvozaga yaqin joyda buzilsa, raqib tomon darvozasiga 6 qadamda jarima to'pi belgilangan.

Chavgon o'yini butun Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham juda ommalashgan bo'lib, xususan bizning hozirgi O'zbekistonimiz hududida IX asrdan beri o'ynalib kelingan. Bu haqda buyuk Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ko'p qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, dostonda Siyovush bilan Afrosiyob o'rtalarida chavgon musobaqasi o'tkazilganligi hikoya qilinadi.

Buyuk madaniyatshunos bobomiz Mahmud Qoshg'ariyning mashhur «Devonu lug'otit turk» asarida ham chavgon o'yini to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Abu Abdullo Ro'dakiy, Umar Hayyom, Husrav Dehlaviy, Ismat Buxoriy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi daholarning ko'pgina asarlarida ham chavgon o'yinining ilmiy va badiiy tafsiloti bayon qilingan.

Abu Rayhon Beruniy bobongiz o'zlarining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli ulug' asarlarida Navro'z bayrami tafsilotlarini tasvirlayotganda bu bayramda o'ynaladigan asosiy qiziqarli o'yinlardan biri sifatida chavgon o'yini haqida ham muborak qalamlarini tebratganlar. U kishining zamondosh do'sti, maslakdoshi, qomusiy olim, buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino ham bola tarbiyasi to'g'risidagi risolalarida jismoniy tarbiya haqida gapirarkan, chavgon o'yini to'g'risida ham alohida to'xtalganlar.

Ayniqsa, qomusiy dunyoqarash egasi shoh-shoir bobongiz Bobur mirzo o'zlarining «Boburnoma» asarlarida chavgon o'yiniga juda shoirona ta'rif berganlar. Boburning o'zi bu mardona o'yinni juda sevib o'ynagan. «Boburnoma»dan ilhomlanib asarlar yozgan taniqli adib Pirmqul Qodirov Boburiylar haqidagi tarixiy romanining ikkinchisi – «Avlodlar dovoni»da Humoyun shohning Hamida bonu bilan tanishuvi tasvirini juda go'zal manzaralarda ko'rsatadi.

Boburning opasi Xonzoda begim rahbarligida Navro'z bayrami kunlari Hindistonda chavgon o'yini odati ham namoyish qilinadi. Qizig'i shundaki, shoh ko'chma taxti oldidagi maydonda... qizlar ot minib, chavgon o'yini o'ynaydilar. Bu er yigitlar o'yinida go'zal qiz Hamida bonu

o'zini ko'rsatadi. Bu latif, nazokatli, ayni paytda jasur-u barkamol qiz Humoyunshohning nazariga tushib, oqibat uning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Chavgon ustasi pahlavon qiz o'zidek pahlavon o'g'lon Akbarshohni tug'ib tarbiyalaydi...

Kaykovusning mashhur «Qobusnoma» asarida chavgon o'yini haqida alohida bob bor. Unda jumladan, shunday deyiladi:

«Ey farzand, agar chavgon o'ynamoqni istasang, ba'zan o'ynab tur, ammo hamisha o'ynashni odat qilmaginki, ko'p kishilar bu o'yinda, ko'p baloga uchraganlar.

Hikoyat. Debdurlarkim, Umru binni Laysning bir ko'zi ko'r edi. Xurosonga amir bo'lgandan so'ng, to'p o'ynamoq uchun otchopar maydoniga kelayotgan edi. Uning Azharxar ismli sipohsolari (bosh qo'mondoni) bor edi. U kelib Umruning jilovini ushlab dedi: «Seni to'p o'ynashga yubormayman, chunki senga chavgon o'ynash ravo emasdir».

Umru binni Lays dedi: «Nima uchun, chavgon o'ynash sizlarga ravo-yu, menga ravo emas?». Azharxar dedi: «Bizlarning ikkala ko'zimiz bor, agar to'p tegib bir ko'zimizni ko'r qilsa, yana bir ko'zimiz qoladi, bu bir ko'zimiz bilan dunyoni ko'ramiz. Sening bir ko'zing bor. Agar to'p tegib uni ham ko'r qilsa, Xurosonning amirligidan ayrilasan». Umru binni Lays dedi: «Xar bo'lsang ham, to'g'ri aytyapsan, so'zingni qabul qildim. Bundan keyin hech bir chavgon o'ynamayman».

Ey farzand, (yilda) bir-ikki chavgon o'ynasang ravodir. Ammo ko'p otliqlar bilan chiqmagil, (Chunki baxtsizlik keltiradi) sakkiz otliqdan ko'p bo'lmasin. Sen maydonning bir boshida turgil, yana bir kishi maydonning oxirida tursin. Olti kishi maydonda to'pni ursin. Har vaqt to'p sening tarafinga kelsa, to'pni urgil va maydonning oxiriga surgil, ammo olomonning ichiga otmagil, chavgon o'yinining yo'li shudir.

Shu bilan birga, marraga yetkazishga muvaffaq bo'l. Ammo urush maydoniga kirsang, sustkashlik qilmagil».

KO'PKARI

Ko'pkari (uloq) – o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlarining barchasi uchun birday qadrdon. Ko'pkari – bu chavandozlar bahsi. Ota-bobolarimiz go'daklikdan bolalik fasliga kirgan farzandlarining qo'lini halolash, bo'y yetgan qizlarini uzatish, er yetgan o'g'illarini uylantirish to'ylarida xalqqa osh berib, so'nggida ko'pkari bahsi tomoshalarini ko'rsatishgan.

Ko'pkari – bu chavandozlik, ot ustida ommaviy musobaqa shartlarini bajarib, g'olib chiqish uchun olib boriladigan kurash jangidir. Ko'pkarining boshqa nomi uloq ham deyiladi.

Ko'pkari bahsida so'yilgan uloq (echki bolasi) tanasi to'y-musobaqa hakamlari tomonidan o'rtaga tashlanib, ushbu kurash shartlari ana shu uloq bilan bog'liq holda bajariladi.

Ko'pkari (uloq) asosan yakka bahs. Musobaqa sharti o'rtaga tashlangan uloq tanasini taqimga (chavandoz soni bilan arg'umoq sag'risi orasida) qisib, maydonni gir aylantirgancha, belgilangan manzilga – uloq kayvoni hakam yoniga birinchi bo'lib keltirib tashlash.

Biroq ko'pkarida chavandozlar o'rtaga qo'yilgan sovrin – qimmatbaho buyum (soat, gilam, qo'y, mol, to'n, muayyan miqdordagi pul)larni bo'lib olish uchun jamoa bo'lib harakat qilishlari ham mumkin. O'rtaga tashlangan uloqni olishda abjir, baquvvat, uchqur otli chavandoz yigitni uning do'stlari – boshqa chavandozlar qurshab, raqiblardan ihota, himoya qilib boradilar. Ana shu alfozda to hakam oldigacha uning atrofini qurshab, otda yeladilar. Bu guruh tengdosh do'stlar, qishloqdoshlar, qurdoshlar bo'lishi mumkin.

Ko'pkarida ot egasi poygaga tushishi ham, tushmasligi ham mumkin. Chavandozlar keksayganlarida, uloqqa o'zlari turli sabablarga ko'ra tusholmasliklari sababli ko'pkari shartlariga tayyorlangan «aqli», «tajribali» otlarini yosh chavandozlarga «kira»ga beradilar.

Bu o'rinda ham g'olib chiqqan arg'umoq g'ayratli chavandozi bilan ot egasi mukofotni bo'lib oladilar.

Men Toshkentda bir yili 15- kasalxona bosh vrachi huzuriga iltimos bilan kirganimda u kishi mening Kitobda tug‘ilganimni eshitib, ismi sharifimdan otamni yaxshi tanishligini aytdi. Va otam to‘g‘risida men uchun ham yangilik bo‘lgan bir hikoya aytib berdi. Bu ko‘pkari to‘g‘risida bo‘lgani uchun Sizlarga ham yetkazishni lozim topdim.

«Yigitlik paytimda, Siz tug‘ilgan Palandara qishlog‘ida vrach sifatida ish boshlaganman, – hikoya qildi Shavkat Sattorovich Rahimov, – otangiz Sattor boboning «Qashqa» ismli chavandoz otlari bo‘lardi. O‘zlari so‘nggi paytda uloq chopmasdilar. Kayvonilar oraga tushib, otangizdan «Qashqa»ni so‘rab olib, o‘sha kungi to‘yda birinchi bor uloqqa tushdim. «Qashqa» shiddat bilan yugurib, tumshug‘i bilan davrani yorib, yerga tushgan uloqni qo‘l cho‘zib olishimga imkon yaratdi. So‘ng siltanib yon-verimdagi uloqchi ot va chavandozlarga bo‘y bermay, olg‘a intildi. Yuz qadamlar chopmay, negadir taqqa to‘xtab turib qoldi. Mening poygadan qolayotganimga jahlim chiqib, «Qashqa»ni bir-ikki achchiq qamchiladim. Yana bir dam o‘tib u o‘z-o‘zidan meni yiqitib yuborguday depsinib, siltanib oldinga intildi.

Keyin ma‘lum bo‘lishicha, jonivor o‘sha taqa-taq to‘xtaganida, mening taqimimga qistirilgan uloqni tutib, tortib olishga intilgan o‘nlab chavandoz qo‘llarini uzib tashlab, otlarini oldinga o‘tkazib yuborgan, g‘olib sifatida bo‘shanib, o‘ng‘ay yo‘ldan marraga yetishning xayolini qilib turgan ekan. Jonivor shu shiddati bilan baribir menday tajribasiz chavandozni sag‘risida saqlab, uloq bilan marraga birinchi bo‘lib yetib keldi. Men uloqni kayvoni oyog‘i ostiga uloqtirarkanman, to‘ydagi ko‘pkari tomoshabinlari «halol», «halol», «do‘xtirniki halol», «Qashqa» boz birinchi yetib keldi», deb chapak chalib, qichqirib olqishladilar. Ana shunday. Sizning otangiz, Sizlarning otingiz bilan hayotimda ilk va so‘nggi bor uloqchilik qilib, g‘olib chiqqanman. O‘shanda to‘ydan sovringa olgan arabi gilamni hali hamon uzoq yillardan xotira sifatida saqlab kelaman...»

Shunaqa, uloqchi otlar mahoratli, «aqli», tajribali bo‘larkan... Siz sevgan dostonlarda, ayniqsa, «Alpomish»da

qahramonning do'sti Qorajon tushgan poyga - ko'pkari tasvirini o'qib, qanchalar zavq olgansiz. Bu qadimiy odatimizdan necha ming yillardan buyon O'rta Osiyo, umuman, Sharq xalqlarini o'zaro do'stlik iplari bilan bog'lab, yosh avlodni jismoniy sog'lom, abjir va chaqqon, mardlik va shiddatkorlik ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Bizning adiblarimiz ham o'zbek qishloq aholisining ajoyib o'yini – ko'pkari haqida qiziqarli qissalar yozishgan. Ular orasida iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod asarlari ajralib turadi. Shoir Jamshidning «Ko'pkari» degan she'rida mardlik, jasorat bunday ulug'lanadi:

*Shu kech Qiyg'ir depsinib chiqdi,
Ko'pkarining hidini sezib,
Ot kishnasa qo'shni qishloqda,
Xayollari ketardi to'zib.
Ko'zlarida chaqnaydi bir o't,
Raqiblarin o'ylagan sayin.
Erta mardlik maydonga tushar,
Kurash og'ir bo'lmog'i tayin.
U ko'p ko'rdi taloto'plarni,
Marralarni zabt etdi ko'p bor.
Sohibiga shuhrat keltirib,
Angladi bir hikmatni takror:
Aralashsa hiyla uloqqa,
To'pga kirsar biror qirchang'i,
Mumkin bo'lmas halol kuch sinash,
Oqaradi chavandoz rangi.
...Tinchlan, mening aziz do'stginam,
Yur, kelayin biroz sovutib,
Seni, agar... agar yengilsang,
Bo'lmas so'ngra sira ovutib.
Ko'pkari bu – beayov quyun,
Sag'ring uzra yonar qamchilar.
Vujudingda o't-olov sachrab,
Tuyog'ingdan uchar chaqinlar.
Erta seni silay olmayman,
O'yla, do'stim, bir chora-tadbir.
Issiq joyda bog'liq turganlar.*

Kurashlarga yaramas, axir.
 Men ko'p ko'rdim birov otini
 Minib, obro' topmoq bo'lganni.
 Ko'rdim, hasad ichra qovrilib
 Ayillarni kesib qo'yganni.
 O'zing guvoh, o'zingga ayon:
 So'zim, ishim, e'tiqodim ham.
 Men barchaga sharaf tilayman,
 Ot chopmasdan nomardlik qilsam.
 Tilsizginam, yur, dalaga yur,
 Momo yerdan madad so'raylik.
 Yur, g'irotlar ruhini yodlab
 Adirlarda suhbat quraylik.
 Yur, tulporim, o'ylaylik o'bdon.
 Erta tongning zarb-u shiddatin.
 Otlar sapchir... demakki yaqin,
 Ko'pkarining yaqin muddati.
 O'zingni bos, necha go'shada
 Arg'umoqlar yoli taralar.
 Bu maydonda hamma shon istab,
 Hamma ot ham kishnab, chiranar.
 Ertaga sen menga begona,
 Eslamayman aslo otingni.
 Balki marra ko'rarsan, balki...
 Bulg'atmasang basdir zotingni.

Ko'pkarida chopadigan otni qanday boqish, tarbiyalash, sovutish, «aql-idrokli» qilish yo'llarini chavandozlar avloddan-avlodga yetkazib, an'anaviy merosga aylantirib kelganlar. Ko'pkari aslida tinchlik, xotirjamlik o'yini bo'lib, onalar, bobolar, bolalar suyanishi, ishonishi mumkin bo'lgan haqiqiy erkaklarni tarbiyalab yetishtirishda beqiyos katta rol o'ynagan. Afsuski, keyingi yillarda xalqimizning ajoyib an'alaridan biri bo'lgan ko'pkari odatining tobora jo'g'rofiy hududlari torayib, bunday ommaviy sayil, sovrinlar kamayib ketdi.

Buning sababi bir paytlar dunyoga mashhur bo'lgan arabi, qorabayir kabi zotli otlarning butunlay kamayib ketganligidandir. Shu xavfning oldini olish maqsadida

respublikamizning ayrim viloyat va tumanlarida ot boqish xo'jaliklari tashkil etildi. Bir vaqtlar yo'qotib yuborilgan shaxsiy xo'jalikda ot boqish, ko'paytirib tarbiyalash ham asta-sekin yo'lga qo'yilmoqda.

Hozir ham mamlakatimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarining birqator tumanlarida ko'pkari o'yin-odati ijro etib kelinmoqda. Bugungi kunda dehqon, bog'bon, paxtakor, sabzavotkorlarning katta qurultoylarida, Navro'z bayramlarida, tumanlar, viloyatlarning hosil bayramlarida katta ko'pkarilar tashkil etilib, o'tkazish yana qaytadan rasm bo'lmoqda. Tag'in eski armug'oqlar, suvorilar, uloqchilik maktablari qayta tiklanmoqda. O'zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, qirg'iz xalqlarining eng yaxshi chavandozlari bir-birlarining xususiy va jamoa to'ylariga mehmon bo'lib o'tib, katta sovrin-ko'pkari, uloq musobaqalarida mehmon bo'lib katta sovrin-ko'pkari, uloq musobaqalarida ishtirok etmoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, to'ylar to'ydek o'tmoqda. Eng muhimi, qadimiy juvonmard o'yin odatlarimizdan biri tirilib, o'zining yangi hayotini boshdan kechirmoqda.

KURASH

Juda qadimiy o'yin-odatlarimizdan biri kurashdir. Bu o'yin-odat haqida Siz yaxshi tasavvurga egasiz. Chunki kurash odatimiz, xayriyatki, yo'qolib, izsiz ketgan udumlarimiz qatoriga kirmay qolgan. Buning sababi, obrazli qilib aytganda, har bir zamon, ayniqsa, bizning zamonamizda kundalik turmush, hayot kechirishning o'zi kurashdan iborat bo'lib qolganligi tufayli shunday bo'lgandir.

Kurash – qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linadi. Bu odatning tarixi xalqimiz tarixi qadar uzundur. Kurash bizning xalqimiz paydo bo'lib, taraqqiyot yo'lga kirganidan buyon tarkib topib, rivojlanib, takomillashib bordi. Milliy kurashni biz hozirgi kunda sport turi sifatida qayd etamiz. Aslida esa bu odat xalq hayotining juda muhim tarmog'i bo'lib, uning taqdiri-a'molini belgilagan.

Qadimda yalpi qirg'in, o'lim qurollari bo'lmagan paytlarda, pahlavonlar u yoki bu xalq, qo'shin, katta

lashkar g'alabasini, bu bilan esa shu podsholikning taqdirini hal qilganlar. Polvonlik bitta-ikkita shaxs misolida emas, umumxalq siymosida ommalashgan. Yaxshi chavandozlik, kamondan bexato o'q otish, chapdastlik bilan qilich chopish, epchillik, jasurlik, tantilik va mardlik, halollik kurashchilarning bosh fazilatlarini sanalgan.

Qadim davrlarda nafaqat erkaklar, turkiy xalqlar tarixida xotin-qizlar ham kurash tushishgan. Yigit va qizlarning balog'atga yetib, turmush qurishlaridagi asosiy shartlardan biri turmushga chiqadigan qiz avvalo o'z tengdoshlaridan besh-oltitasini ko'pchilik oldidagi halol kurashda yengishi, yiqitishi talab qilingan. Bu jarayon dushman lashkarlari bilan hayot-mamot janglari ketayotgan paytga to'g'ri kelsa, (bunday damlar tarixda bot-bot uchrab turgan) turmush qurmoqchi bo'lgan qiz dushman navkarlaridan besh-oltitasini o'ldirib, kallasini onaboshiga keltirib ko'rsatishi talab qilingan.

Ana shu shartlardan keyingina oila qurayotgan qiz bir yostiqa bosh qo'yadigan yigiti bilan bel olishgan. Bo'lajak er bilan kurashda teng bo'lsagina u bilan oila qurish huquqiga ega bo'lgan. Bu shartlar qadimiy tabiiy tanlanishdan kelib chiqqan bo'lib, sog'lom turmush va qudratli oila qurishning, uning kelajagining bosh omili bo'lgan. Mana shunday oilalardan ham jisman, ham ma'nan barkamol o'g'il-qizlar tug'ilgan. Ular Vatan himoyasida sobit turganlar. Bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashlarida bosh bo'lganlar. Alpomish-u Go'ro'g'lilar, Avazxon-u Ravshaxonlar, Oybarchin-u Qaldirg'ochlar, Kenja botir-u Oyparilar, ana shu singari yoshlar, Vatan fidoyilarining timsoli sanalgan.

*Mard yigitdan doim tug'ib mard bo'lar,
Nomardlardan qachon chiqib mard bo'ldi?! -*

degan buyuk turkman shoiri ming bora haqdir.

O'zingiz to'y-tomoshalarda, oynai jahon va kinofilmlarda ikki polvonning davra o'rtasida, xalq olqishida kurash tushib turishganining guvohi bo'lgansiz. Ayniqsa, bu odat qishloqlarimizda hamon an'anaviy ravishda davom etib kelayotganligi kishini quvontiradi.

Bunday polvonlar kurashi O'zbekistonimizda ikki toifaga bo'linadi. Bular Buxorocha kurash va Farg'onacha kurash shakllaridir. Bu ikki toifa kurash o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu farqlar kurash shartlari, polvonning kiyinishi, xalqimizning hududiy bo'linishi va mazkur aholining tabiati, ruhiyati, urf-odati, udumlari bilan chambarchas bog'lanib ketgandir.

Farg'onacha kurashda polvonlar to'n kiyib, belbog' bog'lab, bir-birlarining bellaridan ikkala qo'l bilan ushlagan holda maydonda musobaqalashadilar. Bu kurash usuli qadimiy turga juda yaqin bo'lib, unda raqiblar bir-birlariga nisbatan kuch ishlatib polvon oyog'ini to'shakdan uzib, so'ng xohlagan tomonga yiqitishlari mumkin. Bu usulda chalish, qayirish, yonboshga olish, yelkadan oshirish, boshdan oshirish usullari taqiqlanadi. Shu bilan birga, raqiblar butun olishuv davomida qo'llarini qo'yib yuborishlari ham mumkin emas.

Buxorocha kurashda esa polvonlar kalta to'n kiyib, belbog' bog'lab, kurash maydoniga tushadilar. Bu usul erkin kurash usullariga juda yaqin turadi. Unda chalish, qayirish, yelkadan oshirib otish kabi usullarga ruxsat beriladi. Bu usulda kurash tushganda raqibning kuragini bir zumga yerga tekkizib turgan polvon g'olib sanaladi.

O'zbeklarda qadimdan ne-ne polvonlarning dong'i ketmagan. O'tgan asrda ham hamyurtlarimiz jahon polvonlari Xushvaqt Ro'ziqulov, Jalol Ro'ziqulov, Norqobil Yo'ldoshev, Sayfiddin Hodiyev, Abdulla Tangriyev, Mahmudali polvon, Bozorboy polvon singari hamyurt-zamondoshlarimiz bilan faxrlanganmiz, Kurash haqida ko'p asarlar yozilgan. Ana shunday she'rlardan birini o'qib ko'rishni Sizga ham tavsiya etmoqchiman. Bu she'r «Kurash» deb ataladi. Xalqimizning urf-u udumlari haqidagi bu samimiy satrlar ham iste'dodli shoir Jamshidnikidir.

*Karnay sadolari chorlar yig'inga,
Sovringa qo'yilgan matolar-taxchil.
Hozircha noayon – baxt kular kimga,
Hayajon ichida sergak minglab dil.*

*Sizga omad kulsin, kulsin yuksak shon,
Saf-saf kelayotgan xushnud polvonlar.
Serzavq olqishlardan guvillar maydon,
Ruhdan ko'tarilib ketar yolg'onlar.*

*Tengqur yigitlarga tilashar omad
Bir vaqt polvon o'tgan shuhratli avlod.
Bunda na g'arazu va na xushomad,
Bunda bor mardlarga xos cho'ng e'tiqod.*

*Bu axir maydon deb atalur, unga
Olis qavmingning ham ko'zi tikilgan.
Odil xalq g'olibni sharaflab, shunda.
Chalish solguvchini la'natlab kelgan.*

*So'zimdian muxtasar xulosamdir shul:
Hayotda uchrar goh g'irrom polvonlar,
Barin do'st atolmam tutganlarni gul,
Hali bor benomus, so'qir insonlar.*

*Ajdodlar ruhini hokipo qilmay,
Kel, kurash tushaylik haqqa halol, jim.
Maydonda yengilar bo'lsam, harqalay,
Tan berib chiqarman senga, raqibim!*

O'zbekiston tarixida Po'lkani shoirlarni kuylatgan «Namozdayin bir zo'r o'tdi jahonda». Namoz botir deganda XIX asrda chor general-gubernatorlari zir titragan. Mashhur polvonning boshiga bir qop oltin garov qo'yishganligini sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qasoskorning oltin boshi» tarixiy romanidan o'qigansiz.

Qardosh-jondosh qozoq xalqining Hojimuqoni o'zbek birodariga ham o'z jigariday yaqin. Hojimuqonning yapon polvoni bilan olishib, ko'rsatgan qahramonligi, vatan sha'nini himoya qilib, dunyoning eng zo'r polvoni nomini olishi hamon O'rta Osiyo xalqlarini to'lqinlantiradi... Bu haqda mashhur qozoq adibi Sobit Muqonovning «Cho'loq polvon» qissasi o'zbek adibi Nosir Fozilov tarjimasida Sizlarning bir necha avlodlaringizga yetkazib berilgan. Fil sichqondan qo'rqqanday, Hojimuqon ham sichqonni ko'rsa, toqat qilolmay qolar ekan...

Kurash odati asosan sayil va bayramlarda, turli tantanalarda, katta-kichik to'ylarda amalga oshiriladi. Buning o'z tartib-qoidalari bo'lgan, albatta. Kurashni o'rtadagi kayvoni – hakam rahbarligida eng oldin kichik bolalar, so'ng o'smirlar, o'spirinlar o'z tengqurlari bilan olishib, boshlab berishgan.

Undan keyin esa davraga er yetgan yosh yigitlar tushishgan. Mana shundan keyingina haqiqiy pahlavonlar, el orasida mashhur bo'lgan polvonlar qafas olishgan.

Aksincha, boshqa hollarda davra kurashini avval oppoq soqolli chollar, keksa polvonlar boshlab berib, so'ng navbatni keyingi avlodlarga berishgan. Katta odat qobig'ida bu kichik odat, avvalo, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyat kasb etgan.

Siz kurashning jismoniy chiniqish turi sifatidagi zamonaviy, rang-barang usullaridan ham yaxshi xabardorsiz. Hozirda bizning kurash san'atimizda Ovrupo, Osiyo, O'rta Osiyo va umuman Sharq mamlakatlari, kurash tushish shart-sharoitlari, o'yinning qonun-qoidalari ham rang-barangdir.

Ayniqsa, osiyocha usul – yapon va xitoylarning kurash turlari hozirgi yoshlar orasida juda mashhurlashib boryapti. Karate-do, taekvan-do, u-shu, ay-ki-do, kung-fu, jiu-jitsu singari osiyocha kurash turlari xuddi qadimgi davrlardagidek o'zbek bolalarining ham sevimli kurash usullariga kirib borayotir.

Keyingi yillarda taomilga kirgan o'zbekcha kurash usulining jahon sport turlaridan biriga aylanib, o'zbekcha milliy atamalarimizning tarjimasiz har bir xalq polvoni tomonidan istifoda etilishi har birimiz uchun faxrdir.

HASHAR

Hashar – Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri bo'lib, qadimdan o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hashar bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgalashib harakat qilishidir.

Qadim zamonlarda ota-bobolar qishloqlarda, yozloqlarda xo‘jalik ishlarini ko‘p hollarda hashar yo‘li bilan bitirib olishgan. Yozloqlarda ko‘milgan toklarni ochish, kesish, tarash, bog‘ bellash, xashak-somon to‘plash, bog‘ hosilini yig‘ib-terib olish, kuzgi yaxob suvi berish, katta ariq, kanallar boshlab kelish, shoh ariqni qish arafasida kovlab tozalash kabi og‘ir ishlarning hammasi xuddi shu hashar yo‘li bilan bajarilgan.

Chunki odamlarning yakka xo‘jaliklarida bog‘-tomorqalar, hosildor yerlar katta va sermehnat bo‘lib, dehqondan ko‘p qo‘l kuchi talab qilgan. Shuning uchun ham o‘zbeklar serfarzand, serog‘ayni, mo‘l qarindosh-urug‘li bo‘lib, xalq orasida «It bo‘l, qush bo‘l – ko‘p bo‘l» degan maqol yuradi. «Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas» degan maqol ham shundan qolgan. Aynan hasharda «birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar» maqoli o‘z kuchini ko‘rsatgan.

Yozloqdan qishloqqa qishlagani ko‘chishdan oldin imorat qurilsa yo xonadonning shikast-rexti tuzatilsa, albatta ustalardan tashqari hasharchilar ham taklif qilingan. Hashar nafaqat ko‘pchilikning bir kishiga ko‘magi, balki bir kishining ko‘pchilikka, jamoaga yordami tegishi shaklida ham qo‘llangan. Masalan, qishloq mol-holi, podasini har kuni bir odam hashar yo‘li bilan boqqan paytlar ham bo‘lgan. Bu odat hozir ham saqlanib qolgan bo‘lib, unga ko‘pgina qishloqlarda amal qilib kelinmoqda.

Hashar odatining eski zamonlarda, ayniqsa, beva-bechoralar, kambag‘al oilalarga katta yordami tekkan. Qishloqning o‘ziga yetar oilalari, to‘q xonadonlari birlashib yoki yolg‘iz, kambag‘al beva-bechora, yetim-yesirga hovli-joy qurib berish, go‘dak farzandlarining qo‘lini halolash, to‘y berib, boshini ikkita qilib qo‘yish kabi savob ishlar jamoa-qishloq ahli orasida albatta hashar yo‘li bilan bamaslahat bajarilgan.

Hashar bahorda ko‘chalarni tozalash, ko‘chatlar ekish, ariqlar ochish, yo‘llar qurish, mozorlarni obodonlashtirish, ko‘priklar qurish, jamoat joylarini (machit, maktab, madrasa) tartibga keltirish, shifoxonalar qurish borasida ham ko‘pchilikka foyda keltirgan. Qishloqlarni obodon-

lashtirish, madaniy-maishiy muassasalar barpo qilish, turli shafolat ishlarini amalga oshirishda qo'llanilgan.

Hasharning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, beta'ma bajarilgan. hashar ishi ko'pchilik tomonidan tekin ado qilinadi. Eski zamonlarda ona-momolarimiz hashar odatini to'ylar oldidan gilam to'qish, bichish-tikish, qavish ishlarida ham qo'llashgan. Qaysi oilada to'y kutilsa, kekxa ayollar o'sha yerga ko'chib o'tishgan.

Mamlakatimizning janubiy viloyatlari – Qashqadaryo, Surxondaryoda hasharga o'xshash yana bir odat mavjud. Bu «hayrov» deb ataladi. Bu tadbir – hashar bahordamas, qora tiramoh – qishda o'tkaziladi. Qishloq-shaharlarga obihayot olib keladigan bosh ariq hashar yo'li bilan loy-gildan tozalanib, yilda bir bor amalda qayta kovlanadi. Bu marosim o'tadigan kuni yosh-u qari hasharga – to'g'rirog'i, hayrovga chiqadi. Hatto yo'ldan, ko'prikdan o'tayotgan yo'lovchi ham otdan tushib, qo'liga belkurak olib, ariq qazigan. Yana bir qiziq joyi ariqdagi hayrovchilardan biri ko'prik ustiga chiqqan yo'lovchiga belkurak uchida non «uzatgan». Ne'matdan ko'ziga surtib, totingan shaxs bu ramz ila o'zini kurashga chorlayotganliklarini darhol tushungan.

Aytishlaricha, oppoq soqolli chol ko'prikka yaqinlashganda, bir yosh yigit o'ziga xos hazil qilmoqchi bo'lib, kekxa yo'lovchiga non tutgan. Chol udumni bajargach, eshakdan tushib, bamaylixotir yechinib, yolg'iz yaktaklozimda bir belbog' bilan qolgan. Yigit hayratlanib, bu chuvak chol bilan kurashishini ham, kurashmasligini ham bilmay, hayron bo'lib turganda, mo'ysafid ohista qafas olisharkan, yigitni dast ko'tarib aylantirib, kuragini yerga tekkizgan. Bo'lgan kulgi, bo'lgan qiyqiriq. Hayrov tadbiri ishtirokchilari ichaklari uzilguncha rosa kulishgan. Shundan xalqimizda «Sinamagan otning sirtidan o'tma», «Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni» degan maqollar mavjud.

O'tgan asrda mamlakatimizning ko'pgina shahar va qishloqlarida jamoat binolari, ko'priklar, yo'llar, ayrim kichik shaharlar hashar yo'li bilan bunyod etilgan. Turli inshootlar ko'p millatli xalqlarimiz tomonidan O'zbekistonda Katta Farg'ona, Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari,

Toshkent kanallari, (Shimoliy va Janubiy) Zarafshon kanali, Kattaqo'rg'on suv ombori, ko'pchilik katta suv omborlari, Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li qurilishi kabilar ham umumxalq hashari yo'li bilan barpo qilingan.

Hashar xalqning mehnat jasorati, tashabbuskorligi va bunyodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantirib fuqaro sifatida kamol toptirdi. II jahon urushi yillarida ham hashar odatining xalqimizga ko'p beminnat yordami tegdi. Frontga hashardan to'plangan samolyot, to'p, tank, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi ko'plab zarur narsalar tuhfa qilindi.

1966- yilgi Toshkent zilzilasida umumxalq hashari poytaxtimizning keyingi hayotida juda katta iz qoldirdi. Bularning barchasi zamonning talabi, sharoitning og'irligidan kelib chiqqan majburiy zarurat edi. Hashar bir-ikki kun, ayrim hollardagina bir necha kungacha cho'zildirdi.

Hashar paytida tezkorlik bilan ishlaydigan kishilar hamisha olqishga sazovor bo'lishgan. Masalan, imorat qurishda uyning burchak devorini ko'tarish eng murakkab ish hisoblanadi. To'rt kishi to'rtta burchakdan tushib devor ura boshlaydilar. Kimki birinchi bo'lib devorni bitqazsa, uning yelkasiga to'n yopiladi va kelgusi hashargacha eng devkor, ya'ni ishchan odam deb hisoblanadi. Xo'sh, shuncha odamga tushlik ovqat topish osonmi?

Hashar qilayotgan kishiga buning ham hech og'irlik tomoni yo'q. Nega deganda, hasharchilarning ahli ayoli, onalari tushlik paytida har xil taomlar pishirib, hashar bo'layotgan yerga olib borishadi. Erkaklar shu yerda chordona qurib o'tirgancha, ayollarning oshpazligiga, kayvoniligiga ham baho berishadi.

Ko'rdingizmi, bir odat tufayli qanchadan qancha boshqa urf-u odatlar ham kelib chiqadi. Hashar bo'layotgan joydan qolmaslikka harakat qilgan og'lon hamisha yengil kayfiyatda yurishga haqlidir, chunki, boshiga biror mushkul ish tushgudek bo'lsa, unga ko'maklashmoqqa butun bir xalq hamisha shay turadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatni qayta qurish, ulkan bunyodkorlik ishlarida hashar odatining o'rni va roli katta bo'lmoqda. Beminnat, beg'araz milliy qadriyat respublikamiz zamonaviy rivojida muhim o'rin tutmoqda.

III BOB.

**ՄՏՕՆԴՄԸԴԿ –
ԿԱՄՕԸՕՄ**



SALOM VA ALIK

– **A**ssalomu alaykum! – qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, ajib tavoze ila salom berdi yosh yigit.

– Vaalaykum assalom! – alik oldi oppoq soqolli, nuroniy chol hassasiga tayanib, bir zum nafas rostlarkan, so‘ng qo‘shib qo‘ydi: – Mulla bo‘ling, umringizdan baraka toping, yaxshi joylardan ato qilsin, bo‘tam...

– Assalomu alaykum, buvijon! – jarangdor, shirali ovozi eshitildi qiz bolaning.

– Vaalaykum assalom! – javob qildi sochlari boshiga o‘ragan doka ro‘moli yanglig‘ oppoq buvi, so‘ng o‘ng qo‘li bilan yosh qizning kiftiga qoqib: – Qoqindiq, kimning qizi bo‘lasiz? – deb so‘radi. Javob olgach:

– Ilohi baxtingizni bersin, tagli-taxtli joylarga kelin bo‘ling, o‘zingizdan ko‘payib, uvali-juvali bo‘ling, - deya fotihaga qo‘l ochdi otinoyi...

Ulug‘ bobomiz Ahmad Yassaviy zamonida ham, katta bobokalonimiz Amir Temur davrida ham, hazrat Alisher Navoiy-u Husayn Boyqaro va Bobur mirzo zamonlarida ham xuddi shunday salomlashilardi.

Bugun ham biroz nuqslarni hisobga olmaganda shunday manzaralarni uchratib turasiz. Hamma gap odobning boshi bo‘lgan salomning erta, yuz yildan keyin, yana ming yillardan keyin ham xuddi shunday avlodlar tilida jaranglab turishida qolgan. Chunki xalqning umri uning madaniyati, urf-odati, udumlari umrining uzunligi bilan o‘lchanadi.

Odobning boshi salomdan boshlanadi. Siz erta turib, boboy-u buvingizga albatta salom berasiz. Ota-onangizni salom bilan qarshilaysiz. Amma-yu xolangiz, tog‘a-yu amakingizni ham inchinun. Kichik uka-singillaringiz, o‘z navbatida Sizga salom berishadi. Bog‘chada, maktabda,

ko'cha-ko'yda, jamoat harakatida kattalarga u tanish, begona demay, salom berasiz. To'g'ri qilasiz, «Salom – xudoning qarzi», deydi keksalar. Salom insoniylikning ham boshi. Hatto Siz yaxshi bilgan ertakda ham yalmog'iz kampirday fe'li buzuq salom bergan qizchaga, «Gar saloming bo'lmaganda ikki yamlab, bir yutardim», deydi. «Salom» kalomi tufayli uni kechiradi.

Salomlashish – qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq bo'lgan o'z urf-odatlarini bor. Hindlar qo'l kaftlarini birlashtirgan peshonalariga tirab, afg'onlar yuzlarini yuzlariga suykagan kift ursh-tirib salomlashishsa, inglizlar bosh kiyimini olib, yengil ta'zim qilishadi.

Biz, o'zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganimizda «assalomu alaykum» deya qo'l olishib ko'rishamiz. «Assalomu alaykum» iborasi arabcha «sizga tinchlik tilayman» degan ma'noni bildiradi. «Vaalaykum assalom» esa «sizga ham tinchlik tilayman» javob salomi sanaladi.

Salomlashish odati yosh va marosim bilan ham bog'liqdir. Masalan, keksa odamlar bir-birlari bilan ikki qo'llab ko'rishishadi. Uzoq vaqt bir-birlarini ko'rmagan qadrdonlar quchoqlashib, so'ng qo'l olishib, hol-ahvol so'rashadilar. Keksalar quchoqlashganda bir-birlari kiftlarini, kurak va yelkalarini silab-siypab, uqalaydilar ham. Bu ayni paytda uzoq yo'l yurib toliqqan yo'lovchi mehmonlarga o'ziga xos xodimlik, tibbiy, jismoniy tarbiya hamdir. Akademik shoirimiz G'afur G'ulomning sharhlaricha, qadimda odamlar qabila-qabila bo'lib yashashgan, aksariyat hollarda bir-birlariga raqobatda bo'lgan guruhlarining vakillari, «mana qo'limda qurolim (bolta, pichoq, tosh) yo'q, qo'lim ham, ko'ksim ham ochiq» mazmunida qo'l olishib ko'rishishgan. Shu bilan bir-birlariga tinchlik, omonlik tilashgan.

Madaniyatlikning birinchi belgisi bo'lgan salomlashish odatida keksa kishi bilan yosh yigit, o'smir, bola ko'rishganda yosh «assalomu alaykum», deya o'ng qo'lini

ko'ksiga, yurak ustiga qo'yadi. Keksa kishi «vaalaykum assalom» deya ayrim rag'batlantiruvchi olqishlar ham aytishi mumkin. («Borakallo, mulla bo'ling, otangizga rahmat, katta yigit bo'ling» kabi). Bunday paytda kekxa kishi qo'l uzatsagina yosh borib, ikki qo'llab u kishining qo'lini olishi lozim.

«Salom» kalomi «savob» so'ziga uyqash. Ma'no jihatidan ham bir-biridan uzoq emas. O'zidan kattalarga salom bermoq bizlar uchun ham qarz, ham farz. Salom berishni kanda qilmaydiganlarni odobli, axloqli; salomsizni odobsiz-tarbiyasiz sanab kelishgan qadimdan otabobolarimiz. «Salom bergan savob oladi» deyishadi. Nima uchun? Chunki salom berish bilan Siz ko'p odamning kayfiyatini ko'tarasiz, hurmatini oshirasiz, chiroyini ochasiz. Alik olganning hayotga muhabbati, insonga ishonchi ortadi, ruhi tetiklashadi. Katta savob ishlar ham mana shu kichik kalomdan boshlanadi.

Xotin-qizlar odatda salomlashishni yelka qoqishib, ba'zan o'pishib ko'rishish bilan amalga oshirishadi. Keksa ayollar yosh qizlarga: «Qoqindiq, umringdan baraka top», kabi olqishlar aytib, salomiga alik olishadi. Erkak kishi ayol kishi bilan salomlashganda, er kishi odob saqlagani ma'qul. Ayol qo'l uzatsagina u bilan qo'l olishib, silkitmay, ko'rishish lozim.

Azali joylarda tanishlar bilan qo'l olishib ko'rishilmaydi. Bunday paytda qo'lni ko'krakka qo'yish, bosh irg'ash bilan kifoyalaniladi. Kasal-bemor ko'rgani borganda ham xasta yotgan kishi bilan bosh irg'ab salomlashib, u kishiga sihat-salomatlik tilanadi.

Zamonlar o'tishi bilan salomlashish odati turli shakllarda o'zgarib borgan. Masalan, ba'zi zamonlarda kambag'al, bechora, batrak boy yoki amaldorlarga qo'li ko'ksida, bel bukib ta'zim qilish bilan salomini, hurmati va tobeligini bildirgan. Hokim sinf vakili esa kiborlik bilan bosh silkish, qosh kerish, ko'z tashlash bilan «aliki» olgan.

Qayerda, kim-kimga qanday salomlashuvi kerak, degan savol tug'iladi. Masalan, Siz sinfdasiz. Muallim sinfga kirdi. Kim oldin salom berishi lozim? Ko'pchilik turgan joyga kirib kelgan yolg'iz yoki bir necha kishi

avval salom berishi talab qilinadi. Chunki ular «yangi» sifatida jamoaga qo'shilyapti. Kamchilik albatta ko'pchilikning hurmatini qilishi farz. Otliq yoki mashinadagi kishi to'xtaganda piyodaga salom berishi lozim. Yurgan o'tirganga, o'tirgan yotganga salom berishi qarzdır. Chunki harakatning sustligiga qarab qariya, bemorlik bilinadi. Agar bordi-yu yosh yigit o'tirgan bo'lsa, yonidan qariya o'tib qolsa, u albatta, o'rnidan turib salom berishi kerak. Yosh va sog'lom o'z burchini bajarishi, musulmonchilik, insoniylik vazifasini ado etishi zarur.

Hozirgi kunda kattalar va, ayniqsa, yoshlar, o'smirlar, bolalar o'rtasida bu ajoyib milliy odatimiz – salomlashish turli shakllarda mazmuni va ijrosi buzilib ado qilinmoqda. To'g'ri, salomlashishni uch shaklda ham «assalomu alaykum», «salomalaykum», «salom» qabilida aytishning noto'g'ri joyi yo'q. O'rni bilan uch ko'rinishni ham qo'llayverish mumkin.

Ammo yoshlar o'rtasida, jamoat orasida qattiq qichqirish bilan: «Xello», «kimni ko'rayapman», «bormisan», «o'», «ho'», «privet», «salyut», «chava» kabi tuturuqsiz so'z va xitoblar qo'llash yoinki qo'l ko'tarish bilan yonidan o'tib ketish, ikki barmog'ini tik qilib ko'rsatish, kaftlardan o't chiqqudek qilib, qarsillatib urish singari yoqimsiz qiliqlarni salom o'rnida ishlatish kabi yomon odat paydo bo'lgan. Bu o'z milliy salomlashish odatiga nisbatan katta hurmatsizlik belgisidir.

Undan ham yomoni ba'zi bolalar kattalar yonidan bez bo'lib, salom-aliksiz o'tadilar. Go'yoki bir og'iz kalom bilan davlati kamayib qoladiganday... Bu esa kekxa, o'rta yashar odamga malol keladi, ko'nglida shubha paydo bo'ladi. Kayfiyati buzilib, ishining unumi ketadi. Siz o'zingiz bilmagan, balki istamagan holda qariyb jinoyat qilgan bo'lasiz. Agar o'sha odam o'qituvchi bo'lsa, sovuq ruhi bir necha sinfga ko'chadi. Doktor bo'lsa, bemorlarning shundoq ham xira ko'ngli yanada qorong'ilashadi...

Bizning o'zbek xalqimizning o'ziga xos tabiatini, lutfkorligini, urfu-odatlarini hammamizga jonday aziz, qadrdon «salom» so'zisiz tasavvur qilolmaysiz. Shuning uchun ham dono xalqimiz «avval salom, ba'daz kalom»

deb bejiz aytmagan. Salom odobning boshi, odatning debochasi. Qolaversa, odamning kimligini uning salomi ham belgilaydi.

DASTURXON, TAOM, FOTIHA

Inson paydo bo'lib, taom iste'mol qila boshlabdiki, dasturxon bor. Dasturxon aziz, muqaddas, rizq-ro'z manbayi va ramzi sifatida ko'zga surtilgan. Dasturxon odobi, taom yemak qoida-qonunlari ham xalqimizda azaldan mavjud. Uyingizda bo'lsin, mehmonda bo'lsin, kuniga uch-to'rt bor dasturxon yoziladi. Unga non-choy, qand-qurs, ho'l va quruq meva qo'yiladi. Dasturxonlar ham joyi, odami, mavsumi, ma'rakasi, xonasiga qarab, katta-kichik, rang-barang, odmi-ohorli bo'lishi mumkin. Dasturxon – taomi bilan ulug'.

Dasturxon ustiga odatda, birinchi non qo'yiladi. O'zbeklar tandir nonni ko'proq iste'mol qilishadi, u dasturxonga juft qo'yiladi. (Ayrim viloyatlarda non toq qo'yiladi, 3, 5, 7, 9 ta singari). Bir choynakda qo'sh piyola bilan choy damlanadi. Quruq meva-yu asal, murab-bolar – dasturxon ziynati. Nonushta, tushlik, kechki ovqatga qarab, dasturxon o'ziga xos bezatiladi, to'ldiriladi. Dasturxon odobi ham qadimiy bo'lib, kishidan muayyan an'analarni yaxshi bilishni talab qiladi. Dasturxon yozilganda nonni, taomni, barcha yeguliklarni iste'mol qilishni birinchi bo'lib keksa kishi, bobo, buvi, amma-xola boshlab beradi. Kichik oilada esa ota-ona. Bungacha albatta qo'llar yuvilgan, sochiqlarga artilgan, toza-ozoda bo'lishi shart. O'zbeklar O'rta Osiyo va Sharq mam-lakatlari ko'pchilik xalqlari singari suyuq ovqatlarni qoshiqda, quyuqlarni esa qo'lda tanovul qilishadi. Shuning uchun ham musulmonchilikda juda ko'p qo'l yuviladi.

Taomga tanovulga kirishishdan oldin albatta, «Bismil-lohir rahmonir rahim» deyilishi shart. Umuman o'zbek-chilik-musulmonchilikda hech bir ish bismillosiz boshlanmaydi. Ovqatga qo'l urish ham ulug' yoshlilarning sha'ni. Shundan so'ng o'rta yoshli, kichik yoshlilar ovqat iste'moliga kirishadilar.

Oilada dasturxonga, taomga qarashni ota boshlab beradi. Undan so'ng bolalar ovqatga qo'l uradilar. O'zbeklar juma va dushanba oqshomlari, ya'ni payshanba va yakshanba kunlari kechqurun albatta osh, palov damlashadi. Bu kuni oilaning ulug'laridan biri tahorat olib, xonadonning o'tgan ajdodlari, marhumlar xotirasiga duo-yu fotiha o'qishadi. Bilganlari «Qur'on» suralaridan xatmi qur'on tushirishadi. Bilmaganlar «Fotiha» va «Ixlos» surasini uch bor takrorlab, fotiha o'qishadi. Ana shundan keyingina ovqat-palovga qo'l uriladi. Bu ikki oqshom o'tkir ichimliklar, sharob, may iste'mol qilinmaydi. Ovqat yeyish odobi ham rasamadi bilan, takalluf ko'rsatib, to'kmay-sochmay, yaxshi chaynab hazm qilinadi. Xushbo'y choy osh ustidan nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

O'zbekning ovqat ustidagi sertakallufliigi, «oling-oling»i, «dasturxonga qarang»i, «olib o'tiring»i «qani qani»si el orasida mashhur. Shunday mutoyiba borki, osh ustida bir-biriga kaft yozib, «qani, qani» deb turgan o'zbek do'stiga hayron bo'lgan qozoq birodar: namuncha «qani»laysan, mana, ko'z o'ngingda, bug'i chiqib turibdi-ku», deb qo'lini oshga tekkizib qo'ygan ekan. Bu hazil, albatta. «Osh egasi bilan shirin» aqidasiiga amal qilgan millatdoshlarimiz dasturxon odobini yaxshi tushunganliklari uchun ham taom iltifotini qilib, ovqat mahtal bo'lmasin, deya mehmonmezbon uni shirin qilib baham ko'rishgan.

Taom iste'mol qilib bo'lingach, oilaboshi albatta fotihaga qo'l ochadi. Taom yemakning yakuni bo'lgan bu odatda yeyilgan taomni ekan-tikkan, yetkazgan, yeganichgan kishilar olqanadi, yetkazganiga shukrona aytiladi. Qizig'i shundaki, barcha marosimlarda arab-fors tillarida o'qiladigan duo-yu fotihalar ovqatdan keyingi, dasturxon usti fotihasida sof turkcha-o'zbekcha o'qiladi. «Yeganichganimiz savobini xudoyi taolo o'z dargohida qabul qilsin», deya fotiha yakunlanadi.

Fotiha namunasi:

Bismillohir rahmonir rahim.

*Shirin obod, manzil obod,
Payg'ambar xudoga salavot*

*Ko'p bergin, ko'l bergin.
 Keng fe'l, ketmas davlat bergin.
 Do'stga zor, dushmanga xor
 Nomardga muhtoj qilmagin.
 O't balosi, suv balosi, nohaq
 tuhmatdan o'zing asragin.
 Ekkanni-tikkanni, yeganni-ichganni
 Savobini dargohingda qabul qilgin.
 Omin, ollohu akbar!*

Ovqatdan oldinga qo'l yuvilishini aytdik. Ovqatdan keyingi qo'l yuvdirish udumi o'zgacha. Oshni yeb, yog'ini qosh, mo'ylov, mahsisiga surgandan so'ng «qani, ilohi omin» deya dasturxon savobiga fотиha qilgan bobo, ota (keksa kishi) va kattalar uchun oilaning dastyor bolalari chopqillab, dastsho'y va oftobada iliқ suv keltiradi. Yelkada sochiq bilan kattaning qo'liga suv quyib, dastsho'yda yuvdiradi. Qo'l kamida uch bora suvda yuvilishi talab qilinadi. Yuvilgan qo'l silkinmaydi, artiladi. Ana undan keyin, dasturxon yig'ishtirilgach, dasturxon usti oilaviy suhbatlari, gangir-gungur gurung davom etadi.

Shundan keyingina hamma o'z o'rnidan, dasturxon atrofidan turadi. Hali ham bu udum to'la tugallangani yo'q. Endi dasturxonni qoqish an'anasi ham bor. Dasturxon qoqish savob sifatida eng yosh ishtirokchiga topshiriladi. Odatda, dasturxon bir chekkaga, hovlining toza, ozoda joyiga qoqiladi. Dasturxondan tushgan non uvog'i, guruch donalari, mayiz-yong'oq ushog'i harom-xarish narsaga, joyga tushmasligi, ularni xonadondagi kuchuk, tovuq, mushuk terib yesin uchun shunday qilinadi. Dasturxonni qoqqanda, undagi so'nggi nasibalarni axlatga ag'darish, duch kelgan tomonga sohib yuborish noshukurlik, gunoh sanaladi.

Qoqilgan dasturxon keltirilib, unga ushatilgan va ushatilmagan nonlar o'rab qo'yiladi. O'zbek xotin-qizlari orasida dasturxon ko'tarib, «ol tovog'im, ber tovog'im» odati ham azaldan mavjud bo'lib, odatda to'y-ma'raka, charlar, chaqiriq, mehmondorchiliklarda marosimga yarasha dasturxon qilib boriladi. Bu marosimlarda maxsus

dasturxonchi xotinlar, kayvoni erkaklar bo'ladigan to'y-ma'raka dasturxoni, qoidalarini ana o'shalar boshqarib turadilar.

Yuqorida aytganimizdek, inson rizq-u nasibasi timsoli bo'lgan dasturxon muqaddas sanalganidan uni bosish, yerga tushirish, harom-harishga qo'shish katta gunoh sanaladi. Dasturxon haqida xalq orasida maqol, matal, iboralar ko'p. Yaramas, xasis kishilarga nisbatan «tuz ichib, tuzlig'iga tupurgan» deyishadi. Yaxshi, saxiy odamlarga nisbatan «qo'li, dasturxoni ochiq» deb ta'rif beriladi. Dasturxonni ulug'lab «bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber» degan fikr ham qadimdan qolgan.

Biz uyda, oilaviy shart-sharoitlarda dasturxon tuzatish, taom, fотиha haqida gaplashib oldik. Biroq shunday holatlar ham bo'ladiki, odamlar dala-dashtlarda, biror yumush bilan chiqishganda ham dasturxon yozib, taom yeyishga ehtiyoj sezadilar. Ayonki, dashtda hammaga yetarli idish-tovoq, qoshiq-sanchqilar bo'lmaydi. Shunday paytlarda ular to'g'ri qozonning o'zidan ovqat olib yeydilar. Boshqalarning ishtahasini bo'g'maslik uchun qo'lni hammaning oldida tozalab yuvish odamlarning Sizga bo'lgan iliq munosabatlarini oshiradi.

MEHMONDORCHILIK

Mehmondorchilik, ya'ni, mehmon kutish va kuzatish odati dunyodagi aksariyat xalqlarga xos xususiyatdir. O'zbek xalqi bu jo'mard odatni juda qadim zamonlardan ixtiyor qilgan. Shuning uchun madaniyatimizning ko'hna manbalarida mehmondorchilik insonning, oilaning, qabila va xalqning odamiylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqasi – muloqoti mezoni sifatida juda katta qadr bilan tilga olingan. O'zbeklar, «mehmonxonang tor bo'lsa ham, mehr-u diling keng bo'lsin», deyishadi.

Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan Hotami Toy hikoyati Navoiy bobongiz asarlari orqali ham Sizga tanish albatta. Ularda mehmonga eng so'nggi luqmasigacha saxiylik bilan tutqazgan, oila va qabila sha'nini saqlab qolgan ajoyib inson haqida hikoya qilinadi. Xalqimiz eski

zamonlardayoq «mehmon - otangday ulugʻ» degan naqlga koʻra eshikdan kelgan odamni hurmat-ehtirom bilan kutib olib, izzatini joyiga qoʻyib, kuzatib qoʻyishgan.

Mehmon, mezbon, mehmondorchilik odatining taomillari haqida gapirib, turkman shoiri Maxtumquli bunday yozadi:

*... Mard chiqar mehmonga kular yuz bilan,
Nomard qochib qolar mehmon yoʻliqsa...*

yoki

*...Moli koʻp deb mehmon boʻlma nomardga,
Joʻmard faqir boʻlsa hamki bor aylar...*

yoxud

*...Mard yigit mol topsa, himmati ortar,
Nomard foyda topsa, koʻnglin tor aylar...*

kabi.

Turkiy xalqlar qadimdan mehmondorchilik odatiga rioya qilishgan. Mahmud Qoshgʻariyning XI asrning nodir namunasi boʻlgan qadimiy «Devonu lugʻotit turk» asarida bu haqda quyidagi misralar yozib qoldirilgan:

*Koʻrkklik toʻning – oʻzingga,
Totligʻ oshing – oʻzingga,
Qoʻnoqqa koʻrgiz izzat,
Yoysin shaʻning uzoqqa.*

*Barakali yoz kelganda
Qish ozigʻin hozirla.
Chunki oʻtar oy va zamon
Tun, kun oʻtishi birla.*

*May idishi oz boʻlsin,
Tubi koʻz kabi toʻlsin.
Gʻamni koʻmaylik, oʻlsin,
Tun-kun oʻynab-kulaylik.*

*Baxil mezbon mehmonini oʻgʻri koʻrar,
Berganini minnat qilib yuzga urar.
Qoʻni-qoʻshni, qarindosh,*

*Ko'rsin sendan yaxshilik.
Ne-ne sovg'a qilishga,
Yaxshirog'in qil ortiq.*

*Kelsa kishi chehrasiga kul sochmag'il,
Izzat bilan kutib uni, yaxshilik qil.*

*Kelsa birov yo'qlashib,
Bergil yaxshi oziq-non,
Qarg'ab ketar mehmonlar,
Kutar bo'lsang gar yomon.*

*Mehmon kelsa, o'tqazgil,
Xordiq olib, tinch bo'lsin,
Oti ham yorug'likda,
Arpa-somonga to'ysin.*

*Mol yig'ishni sel kelish deb hisobla,
Mol egasin tosh kabi yumalatar...*

Qadimiy odatlarimizdan bo'lgan mehmondorchilikning ko'pgina o'ziga xos xususiyatlari bor. Men ularning barchasi haqida hammaga ma'lum gaplarni takrorlab o'tirmayman.

Avvalo, qadimdan Sharqda maxsus musofirxonalar, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Bu joylarda o'zga mamlakat va shaharlardan kelgan sayyohlar, savdo va tijorat ahllari, elchi-yu choparlar vaqtinchalik boshpana topishgan.

O'ziga to'q, to'kin turmush kechirishgan ota-bobolarimiz o'z hovlilaridan tashqarida, bir-biridan ancha olisdagi qishloqlarni tutashtirib turuvchi yo'l bo'ylarida rabotlar qurishgan.

Bu rabotlardagi hovuz bo'ylariga tollar ekishgan. Otda, eshakda yoinki yayov yo'lga chiqqanlar ana shu rabotlarda nafaslarini rostlab, hordiq chiqarishib, yana o'z yo'llarida davom etganlar.

Umar Xayyom yorug' dunyoni kirib-chiqiladigan rabotga qiyoslab, bunda har kuni boshqa-boshqa qavmlar qo'nim topadi deydi:

*«Dunyo yak rabotu du dar ast,
Dar in rabot har ko'z qavmi digar ast»*

Dashtlarda, yo'l bo'ylarida bunday qo'nalg'alarning qoldiqlari saqlanib qolganligiga ko'zingiz tushgandir. Ularni o'z holiga qaytarib, obod maskanga aylantirsak, ota-bobolarimizning ruhlari shod bo'ladi.

Eng muhimi, bulardan tashqari, o'zbek xalqining o'ziga yetar xonadonlarida, deyarli har bir hovlida maxsus mehmonxonalar bo'lgan. Ko'proq bunday mehmonxonalar ichkari-tashqari hovlining tashqarisida, ko'chadan kiraverishda joylashgan ko'ndalang uydan iborat bo'lgan. Bunday uylar kamida 9, bo'lmasa 11 bolorli, keng va katta xonalardan iborat bo'lgan. Mehmonxona maxsus jihozlangan bo'lib, unda mehmonlar uchun barcha sharoitlar taxt qilib qo'yilgan.

Mehmon kelganda, u oila, bola-chaqasi bilan otda-eshakda bo'lishi mumkin, oilaning barcha a'zolari xush tavoze, ko'ngli ochiqlik bilan kutib olishgan. Oqshom esa qishloqning (mahalla-guzar) o'ziga yetar kishilari mehmon sharafiga bu xonadonga taklif etilgan. Mehmondorchilik anjumanida yaqin-atrofning ulamo-yu fuzalolari, baxshi-yu shoirlari albatta taklif qilingan. Bu oqshom mehmon kutish bahonasida dunyo voqealaridan, siyosatdan, savdo-sotiq, adabiyot-san'atdan hammani qiziqtirgan odob doirasidagi bahs-u gurunlar olib borilgan.

Baxshi shoirlardan she'r-u dostonlar tinglangan. Jangnoma kitoblar, roviylar ibratli rivoyat-u hikoyatlar o'qiganlar. Hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'bonlik sir-asrorlari, yangi mavsumga tayyorgarlik maslahatlari haqida gap borgan. Bunday anjumanlarda bolalar va o'smirlar ham faol ishtirok etishgan. Ular quyida, ayvon sahnida, tancha tegrasida, to'kin dasturxon atrofida qaldirg'ochlarday tizilishib, o'z suhbatlarini qizitishgan. Ayni paytda, kattalarga xizmat qilishib, choy tashib, kovush to'g'rilab, tanchaga o't solib, oziq-ovqat, idish-tovoq tashib, yarim quloq bilan kattalar majlislarini ham tinglashgan. Shu yo'sin bu qadimiy odatimiz bevosita avloddan avlodga meros sifatida o'tib kelgan.

Biz o'zbeklarda, umuman, musulmonchilikda mehmon hatto g'arazli maqsadda, yurtga, qabila yo oilaga yomon niyat, dushmanlik maqsadi bilan kelgan bo'lsa ham, mezbon buni sezsa, yaxshi bilsa-da, mehmondorchilik odatiga shak keltirilmagan. Albatta, mehmon sharafiga, uning qutlug' poyi-qadamiga atab jonliq-qo'y so'yilgan, to'kin dasturxon bezatilgan. Chunki bu nafaqat o'sha oila balki, qabila, qishloq, millatning sha'ni sanalgan. «Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar», deb uyxonadonni tartiblashtirib, toza, farishtali qilib qo'yilgan.

O'zbek dasturxoniday jannatliy noz-ne'matlar qayerda bor deysiz? Non-u choy, nisholda-yu murabbo, asal-u qand-qurs, mayiz-u yong'oq, danag-u no'xot, behi-yu nok, xurmo, olma-uzum, qovun-u tarvuz, ovqatlardan moxora-yu qobuliy sho'rva, norin-u shilpildoq, qazi-yu qarta, chuchvara-yu manti, kabob-u palov...

O'zbek dasturxonida mehmondorchilik eng obro'li milliy taom – palov iste'moli bilan xotimalanadi. Ana shundan keyin dasturxon haqiga fотиha o'qilib, izzatli mehmon bilan xayrlashuv oldidan, unga chopon, belbog', do'ppi kiygiziladi.

Xalqimizda shunday bir mutoyiba yuradi. Emishki, bir yosh, tajribasiz oila boshlig'inikiga favqulodda mehmon kelib qolibdi. Mezbon suyunganidan mehmonga tuya so'yib, shilpildoq qilibdi, ot so'yib qazi-qarta yediribdi, xo'kiz-u qo'y so'yib, kabobga to'ydiribdi. Qobuliy sho'rva-yu manti bilan siylabdi. Mehmon buyurganini yeb yotaveribdi. Oradan uch kun, besh kun, bir hafta o'tibdi hamki, mehmon ketishga shoshilmas emish. Yigit endi qolgan bir-ikkita qo'y-echkisini ham mehmon hurmatiga so'yib yediribdi, shunda ham mehmon siljiy demasmish. Yigitning tirikchiligi, mo'ljallagan ishlari o'lda-jo'lda qolyapti. Mehmonni tashlab ketolmaydi.

Aqliga ish buyurib, «borib, oqsoqol bilan maslahatlashay-chi», deb, qishloqning ko'pni ko'rgan, kayvonisi, donishmand nuroniy huzuriga ravona bo'libdi. Donishmandga bo'lgan voqeani, o'z tashvishini tushuntiribdi. Oqsoqol uni tinglab bo'lgach: – Osh qildingmi? – deb so'rabdi.

– Hamma ovqatdan qilib yedirdim, – javob beribdi yigit.

– Palov damladingmi, deyapman, – tag‘in aniqlash-tiribdi chol.

– Yo‘q, palov damlamabman, – debdi pushaymon bo‘lib yigit.

– Bugun borib palov damla, – buyuribdi chol. Mezbon chopqillab borib, yolg‘iz xo‘rozini so‘yib, palov damlab yedirgach, mehmon fotihaga qo‘l ochib: «Endi menga ruxsat berasiz, ancha ushlanib qoldim», degan ekan o‘rnidan qo‘zg‘alib.

Men Sizga yana bir misol keltiray. Shoh va shoir bobongiz Zahiriddin Muhammad Bobur Shayboniyxonga Samarqandni topshirib, sarson-sargardon yurgan kezlari temuriylar sulolasining qudratli sultoni Husayn Boyqaroni qora tortib Hirotgga boradi. Sultonning bosh farzandi Badiuzzamon qarindoshi Bobur sharafiga katta ziyofat beradi. Izdihomda Bobur izzatli mehmon sifatida qatnasharkan, unga chog‘ir (may, ichimlik) tutadilar. Zahiriddin shu yoshgacha og‘ziga may olmaganini aytib, uzr so‘raydi. Oradan bir oz vaqt o‘tib, Badiuzzamon Bobur oldida hamon buzilmay turgan taom - ulkan g‘ozga ishora qilib, «nega tanovul qilmayapsiz», deya ovqatga undaydi. Bobur mirzo g‘oz buzishini bilmasligini aytib, kishi bilmas uzr so‘raydi. Badiuzzamon sharaqlab kulib, Bobur oldidagi g‘ozni bo‘laklab beradi...

Ko‘rdingizmi, yosh do‘stlar, Bobur mirzoday maxsus tarbiya ko‘rgan bobolaringiz ham mehmondorchilik urf-odatlariga qattiq rioya qilib, odob saqlaganlar. Chunki ovqatning o‘z odobi bo‘ladi. Bu biz bilan Sizga ham ota meros.

Ota-bobolarimiz mehmondorchilikda o‘zini tutish, qanday qoidalarga rioya qilish haqida maxsus risolalar yozganlar. Ularni mukammal o‘rganib, arab, fors, eski turk tillaridan hozirgi zamon tiliga o‘girib, bizning zamonamizga, keyingi avlodlarga yetkazib bergan madaniyatshunos olim Shorasul Zunnun ko‘p yillar bu sohada barakali qalam tebratganlar. U kishidan davr o‘tgan bo‘lsa-da, ular qoldirgan: «Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»,

«Donishmandlar tarbiya xususida», «Donolar bisotidan» kitoblari Siz bilan bizning qimmatli boyligimizdir.

Shorasul bobongizdan qolgan bir qator pand-nasihatlar xuddi shu biz bahs yuritayotgan mehmondorchilik odati to'g'risidadir.

Majlis odobi. Majlisga yig'ilgan odamlar huzurida odobli bo'lib, o'zingizga loyiq bo'lgan o'rinlarda o'tiring. O'tirgan vaqtingizda bir tarafga qarab og'ishmang. Majlisda biror odam gapirayotgan bo'lsa, uning so'zini yaxshi tinglang. Sababsiz kulmang. Izdihomda aytish mumkin bo'lmagan so'zlarni so'zlamang. Ulfatda bo'lganlarning hurmatlarini bajo keltiring.

Majlisda takabburlik qilgan, o'zini maqtagan kishini xalq sevmaydi. Shuning uchun mehmondorchilikda o'zingizni yuqori ko'rsatib, kekkayib o'tirmang.

Yuz va ko'z odobi. Yuz ko'ngilning yumshoq yoki qattiq bo'lganini ko'rsatuvchi ko'zgidir. Shuning uchun har vaqt yuz odobiga e'tibor bering. So'zlashgan vaqtingizda yuzingizni chetga burmang. Ko'z qiri bilan qaramang, qayg'u-hasratli kishiga kulib qaramang, shod ko'ngilli kishining yuziga esa qovog'ingizni solib boqmang. O'rtoqlaringiz bilan o'tirganingizda ular bilan ochiq yuzda muomala qiling. Ularning kayfiyatlarini buzadigan darajada so'rrayib, xo'mrayib o'tirmang. Ko'z odobida har narsani qanoat ko'zi bilan ko'ring, hech kimga hasad qilmang. Hech kimga qattiq, bepisand, behurmat tikilmang.

Taom yeyish odobi ham bor. Ovqat yeyish oldidan albatta qo'lingizni yuving va yaxshilab arting. Yoshi sizdan katta kishilar bo'lsa, ulardan yuqoriga chiqib o'tirmang. Ovqatlanayotgan vaqtingizda odobga rioya qilib o'tiring. Ochko'zlik qilib, ko'p yeyishga odatlanmang. Ko'p ovqat yeyish salomatlikka zararli ekanligini yaxshi bilasiz. Yaxshi pishmagan yemishlarni yemang, yoz kunlarida yog'li ovqatlar yeyishdan saqlaning. Vaqti-vaqti bilan ovqatlanishga odatlaning, ovqatga maylingiz bo'lmasa, o'zingizni zo'rlab ovqatlanmang. Ovqatlanganingizdan keyin olma, anor, uzum kabi mevalar va turli sabzavotlarni iste'mol qiling.

Biror joyga ziyofatga chaqirilsangiz, belgilangan vaqtda boring. Ziyofatga chaqirgan kishiga salom berib, shodlik va muloyimlik bilan ko‘rishing. Mumkin qadar o‘zingizga munosib bo‘lgan kishilar yoniga o‘tiring. O‘tirish va taom yeyish odatlariga rioya qiling. Sizga keltirilgan taom mabodo yoqmasa, u taomni sevmaganingizni bildirmang. Qo‘yilgan ovqatlarning yaxshi ovqat emasligidan so‘z ochmang. Garchi sevmagan taomingiz bo‘lsa ham oz-ozdan dasturxon va mezbон hurmati uchun totinib turing.

Ziyofat tamom bo‘lgandan so‘ng mezbonga rahmat aytib, minnatdorchiligingizni bildirganingizdan keyin xayrlashib jo‘nang. Ziyofatga borganingizda avvalgi kishining ziyofatida qo‘yilgan taomlarning ozligi yo bemazaligidan aslo og‘iz ochmang. Chaqirilmagan yerga bormang.

Xalqda: «aytmadi deb aytma, aytgan joydan qaytma», degan naql bor. Siz bu xalqchil taomilga rioya qiling.

Albatta, kitob o‘qib, birovdan eshitib mehmondorchilik odatlariga to‘la-to‘kis amal qilish ancha mushkul ishdir. Bu narsa oilada, avloddan-avlodga o‘tib keladigan udumdirki, bu haqda sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning juda ajoyib she‘ri bor:

J a v o b

*(O‘zbeklarning mehmondo‘stligini pora deguvchi
ba‘zi kimsalarga)*

*Muruvvat neligin bilmas mehmonim
Ko‘zi och, yeb to‘ymas, beqo‘nim gadoy.
Pora bo‘libdimi bir burda nonim,
Pora bo‘libdimi bir piyola choy?!*

*Haftalik yovg‘onga qanoat qilib,
G‘ururni saqlagan jo‘jabirday jon.
Mezbonlik yo‘rig‘in muqaddas bilib,
Qunishgan yelkangga tashlabdi chopon.*

*O‘zbekning yeridan jo‘nagan ne‘mat
Sening ham umringga yetgulik qadar.*

*Ayt, kimning mahridir ulug' bu davlat
Endi himmatimdan qildingmi hazar?!*

*Egasiz sang'igan har daydi jonzot
Boshini silasang, qo'ling tishlaydi
Nogahon g'ingshibsan, insonsan nahot,
Muzdek yuragingda g'araz qishlaydi.*

*Saxovat so'zining ma'nosin bilmay,
Mehmondan ming farsah qochguvchi bu – sen,
Siylagan kimsani nazarga ilmay,
Tag'in zahrini ham sochguvchi bu – sen.*

*Tosh bersa yutguvchi, ey nafsi yoriq,
Xayr-u ehsonimni mayli, unutgin.
Yelkang to'n ko'rmasin, oyog'ing choriq,
Do'stga zor bo'lginu, biri kam o'tgin.*

*O, xalqim, ochiq qo'l – hotamsan azal
Atoyi xudo de, mayli mehmonni.
Lekin nonko'rlarni uchratgan mahal,
Og'ziga tiq endi tipratikonni.*

YAXSHILIKLAR BOSHI

Kundalik hayotimizda shunday zaruriy narsalar borki, ularni bajarmasdan hayot kechirishning o'zi mumkin emas. Masalan, ovqatlanish, kiyinish va hokazolar. Biroq, ahamiyatsizdek tuyulgan, aslida zaruriyatdan ham zaruriyrog' ba'zi bir taomillar, urf-odatlarni ham yoddan chiqarmaslik kerak. Tasavvur eting, ertalab turganingizda derazadan mo'l-ko'l quyosh nuri tushib turibdi.

U Sizning ovqatlanishingizga ham, kiyinishingizga ham zarracha aloqasi yo'q. Biroq, bu omil ruhingizni ko'tarib yuboradi, beixtiyor shodlanasiz, hayot ne'matlarining nechog'li qadr-qimmatli ekanligini anglaysiz. Tabiatning boshqacha manzaralari, olis-olis ufqlar, ekinzorlar, o'tloqlar ham dilingizda g'alati, anglab

bo'lmas his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu tuyg'ular sirli tuyulsa-da, ruhingizni yuksaltiradi. Siz jamiki mavjudotga, yorug' olamga, tabiatga shukronalar aytgingiz, odamlarga yaxshiliklar qilgingiz keladi.

Ana shunday insoniy tuyg'ular-la bog'liq, hamisha har qanday vaziyatda yaxshilikka undovchi udumlarimizdan biri kattaga hurmat, kichikka shafqatdir.

Xalq og'zaki ijodida deysizmi, o'zaro suhbat-gurunglarda deysizmi, bu aqida hech qachon chetda qolmagan. Ma'lumki, yozma adabiyot ham insonlarning eng go'zal narsalariga ehtiyojidan kelib chiqqan. Hikoyami u, she'rmi u – ehtiyoj farzandidir. Kattaga hurmat, kichikka shafqat hislariga tashnalik juda ko'p so'z san'atkorlariga turtki bergani ayon.

Donishmand bobolarimiz, keksa kishilarga, otanaga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'larga, mahalla-guzar ahliga nisbatan hurmat, mehr-oqibat, shafqat, muhabbat tuyg'ularini yurakdan eng asl gavhar donasiday asrash to'g'risida maxsus tarbiyaviy risolalar bitganlar.

Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy singari ajdodlarimiz, bobolarimiz ijodiy merosining katta qismi mana shu chuqur insoniy mavzuga qaratilgan. Katta kishilar oldida odob saqlash, ularning gapi, o'giti, pand-nasihatlarini quloqqa olib amal qilishning ma'nosi sirdan qaragandagiga nisbatan juda keng va terandir. Chunki yoshi ulug' odamlarning zimmasiga o'zlaridan oldin o'tgan ota-bobolarining katta ma'naviy zil yuki yuklatilgandir.

Bu tabarruk insoniyat hayotining bardavomligini, uzluksizligini ta'minlovchi «yuk»ni qabul qilib olishning ham o'ziga yarasha odob-qoidasi bor. Kichikka shafqat ham bejiz emas, ular hozirgi zamonni ham, o'tmishni ham kelajak avlodlar-la bog'laydilar. Ularga har qancha mehr-shafqat ozlik qiladi bu mas'uliyatli vazifaning oldida!

Sizlarning o'zingizdan kichik bolalarga, ayniqsa qizchalarga hamishalik e'tiboringiz, mehribonchiligingiz,

beminnat ko‘magingiz o‘z yeringizni, avlod-ajdodlarni nechog‘li sevishingizni ham bildiradi. Kattalar orasida ham – o‘zingizdan kichiklar o‘rtasida ham ayrim nogiron, kasalmand kimsalar uchrashi mumkin. Ularga nisbatan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan muomalada bo‘lmoq talab etiladi. Munosabatingizning asosini izzat, saxovat, shafqat va mehr tashkil etishi kerak.

Ayrim tengdoshlaringiz o‘zlaridan kichik va nogironlar u yoqda tursin, kaltabinlik bilan kattalarni, hatto o‘z ota-onalarini ham mensimay, nazar-pisand qilmay qo‘yadilar. O‘zboshimchalik yo‘liga kiradilar. Avval ularning o‘qishlari susayib, yomonlashadi. Chekish, ichish kabi yaramas odatlarni o‘rganadilar. Bezorilik, kissavurlik, nashavandlik qiladilar. Oqibatda kelajak istiqboli yuksak insoniy taqdir-a‘moldan mahrum bo‘ladilar. Axloq tuzatish hibsonalariga, qamoqxonalarga tushadilar. Siz shunday tengdoshlaringiz faoliyatini tuzukroq tahlil qilib ko‘rsangiz, yengil-yelpi hayotdan hech qanday maqsad-muddaosi bo‘lmagan bolalar unday noma‘qulchiliklarga qo‘l urishini bilib olasiz. O‘z xatti-harakatlaringiz, xulq-atvoringiz bilan ularga ta‘sir o‘tkaza olsangiz, qalbingizda go‘zal his-tuyg‘ular yana baquvvat tomir otadi, yanada ko‘proq ijobiy fazilatlariga ega bo‘lasiz. Udumlarimizning mohiyatiga e‘tibor bersangiz, ularda hatto qora narsalardan ham yorug‘lik qidirish, ularni ham to‘g‘ri yo‘lga solish istagi yotganligiga guvoh bo‘lasiz.

Kattaga hurmat, kichikka shafqat aqidasisiga tobelik, mutelik ruhiyati, tabiati, o‘zidan kattaga, xususan hokim sinfga nisbatan bo‘yin tovlamaslik, qaramlik, qullik ifodasi, deya tanqidiy nazar bilan qaraydiganlar ham uchraydi. Ayrimlar, hatto kattaning yuziga, ko‘ziga tik qaramaslik, hurmat-odob saqlashni xurofot deb bilib, aksincha, yosh yigit-qiz qaddini g‘oz tutishi, suhbatdoshining ko‘ziga tik qarashi, ko‘ngliga o‘tirishmagan pand-nasihati, o‘gitlarni keskin rad qilishi lozim, degan fikrdalar.

Bunday mulohazalar bir tomonlamadir. Insonning xatti-harakati, gap-so‘zi boshqa birovlarining diliga og‘ir

botmasligi kerak. Boyg'ozilik qilib yurish bilan hech narsa o'zgarib qolmaydi, aksincha, bu ba'zi birovlariga haqoratday tuyulib, ular hech qachon Sizga o'z dillarini ochishmaydi. Haqoratning katta-kichigi bo'lmaydi. Tarsaki bilan urasizmi, nojo'ya qilig'ingiz bilan g'ashiga tegasizmi – baribir, bu haqorat, ko'ngil og'ritishdir.

Bu jihatdan qadim zamonlarda ko'pgina Sharq xalqlari tarixida kattaga hurmat, kichik va ojizlarga shafqat qonuniyati har bir kishining insoniy burchi sifatida qaralgan. Aks muomala esa g'ayriaxloqiy tushuncha sanalgan.

Hurmat-izzat, e'zozlash, aziz tutish tuyg'usi nafaqat tirik odamlarga, balki dunyodan o'tgan marhumlarga nisbatan, hatto jon-jonivorlar, insonning rizq-u nasibasi bo'lgan nonga, ilm-ma'rifat, madaniyat ramzi oq qog'ozga, tiriklik va hayot manbayi suvga nisbatan ham keng qo'llanilgan.

Izzat-hurmat nafaqat inson zotining tirikligida, balki u hayotdan ko'z yumganida ham saqlangan. Tirikligida odamlarga, jamiyatga, ilm-ma'rifatga, madaniyatga katta foyda yetkazgan shaxslar vafotlaridan keyin ham chuqur hurmat-izzatga sazovor bo'lishgan. Ularning qabrlari aziz deb bilingan. Maqbaralar ko'tarilib, obodonlashtirilgan. Bot-bot ziyorat qilib turilgan. Chunki, u ham qachonlardir yer yuzida ter to'kkan, zahmat chekkan. Aytaylik, biror daraxt ekan, hovuz qazigan. O'z bola-chaqalari, yor-u birodarlari, qarindosh-urug'lariga g'amxo'rlik ko'rsatgan. Insonning yer yuzida yashab o'tgan umridan tashqari abadiyatga daxldor, hech qachon o'lmaydigan yana bir umri ham borki, shu sababli u dafn etilishi zamonoq unutilishga mahkum emas.

Mayda, ojiz hasharotlarga, jonivorlarga mehribonlik ham ulug' fazilatdir.

*Aqalli bir mushukka bo'lsang mehribon,
Demak, salomatdir sendagi imon, -*

deydi Xusrav Dehlaviy.

Ota-bobolar yerga tushgan non parchasi, uvog'ini ohista olib, o'pib, yuz-ko'zlariga surtib, oyoq ostidan

chekkaga, qushlar, it-mushuklar yeb ketadigan joylarga ko'tarib qo'yishgan. Qog'ozga nisbatan ham shunday munosabatda bo'lib kelingan. Nonni, qog'ozni yerga tashlash, uni bosib o'tish gunoh hisoblangan. Obi hayot - suv xususida ham shuni aytish mumkin. Kattadir-kichikdir suvga peshob qilsa, ulug' gunoh sanalib, ko'zi ko'r bo'lib qoladi, deya cho'chishgan. Ko'l, daryo, ariqlarning suvlari shu sababdan ham toza, musaffo, shirin bo'lgan.

Izzat-hurmat odatida erkak kishining ayol zotiga munosabati alohida o'rin tutadi. Qadimdan ota-bobolarimiz yer yuzidagi barcha ezguliklar manbayi, inson hayotining sarchashmasi bo'lgan ayol zotiga hamisha hurmat saqlab kelganlar. Xotin-qizlar ro'zg'or tashvishlari, kundalik turmush urinishlari uchun yugurib-yelishdan xalos qilingan. Nozik jins sifatida har qanday og'ir yumushdan saqlangan. Buvi-yu onaga, opa-singilga, amma-xolalarga zo'r hurmat bilan qaralgan. Ota-bobolar, erkaklar, yosh yigitlar-u, o'smir, o'spirinlar ayol zotining xizmatida kamarbasta bo'lishgan.

Ona-ku tabarruk zot sanalib, bosgan izlari ko'zga surtilgan. Butun hayot davomida onani og'rintirmaslikka harakat qilingan. Onani farzand tomonidan savatga solib, boshiga ko'tarib, yetti marta Makka-yu Madinaga olib borib, tavof qildirish, onaizorning farzand beshigi ustida o'tkazgan bir tuniga teng tutilmagan. Onalardan keyingi opalarga hurmat-ehtiromni ayting. Amir Temur bobongiz Samarqandda yashagan opalarini jahon ayvonining qaysi puchmog'ida lashkar tortib yurishlariga qaramay, oy sayin yo'qlatib turganlar. Imkoni topildi deguncha, sovg'a-salomlar bilan ziyorat qilishni kanda qilmaganlar. Bobur mirzo bobongiz-chi! Egachilari Xonzoda begimni yilning qaysi fasli bo'lishi-yu, yog'in-sochindan qat'iy nazar, haftada bir bor ziyorat qilishni tark qilmaganlar.

Asrlar davomida shaxslararo izzat-hurmat millatlararo diqqat-e'tiborga aylana bordi. O'zbek xalqimiz qon-qarindoshi - qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, qoraqalpoq, ozarbayjon xalqlariga nisbatan chuqur qo'shnicilik

hurmat-izzatini saqlab kelishdi. Bir-birlarining ta'lim-tarbiya fani, madaniyatini boyitishdi.

Insonning inson bo'lib yetishuvi uning yuragini qanday tuyg'ular band etganiga qarab belgilanadi. Hurmat, shafqat, his-tuyg'ulari, ayniqsa, muborak sanalib, hayotda kishiga juda ko'p yaxshiliklarni baxshida etadi. Bizning yashashdan murodimiz, hayotdan maqsadimiz ham shu-da!

XALQNING BAG'RIDEK ISSIQ

Qadimgi ibtidoiy jamoa, quldorlik va undan keyingi ijtimoiy hayot tuzumining dastlabki davrlarida bizning ajdodlarimiz bo'lgan ota-bobolar to'rt unurni ilohiy, muqaddas bilib borliq mavjudotlar hayotining bosh omili sanashgan. Bular: O't (quyosh), suv, havo, tuproqdir. Bu to'rt unsurga vaqti bilan sig'inib, tavof qilishgan. O'tga topinish, suvga intilish, havoga (ko'k, osmon) munojot, tuproqqa (yer, zamin) ta'zim shundan qolgan. Buyuk «Avesto»da ham Axura Mazda ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amalga rioya qilishga da'vat etganda aynan shu to'rt unurni tiriklik manbayi sifatida ulug' tutishni tayinlagan.

«O't-olov», «alanga», «gulxan», «cho'g'» kabi atamalar bilan bag'ringizga issiq yugurtiradigan unsur ayni paytda dahshat, balo, ofat, kulfat ramzi sifatida ham talqin qilingan. Xususan, xalqda; «o't balosi, suv balosi, nohaq tuhmatingdan o'zing asragin», degan ko'kka – tangri-taologa munojot, fotiha yakuni hamon o'zbek udumlarining ming yillik hamrohi sifatida yashab kelmoqda.

O't-olov bilan bog'liq odatlar xalqimiz orasida nihoyatda ko'p. Men ulardan eng asosiy, ayni paytda unutilib ketgan turini eslatib o'tishni istardim. Ajdodlar qabila-qabila bo'lib yashash davrlarida bir qabila boshqarilishi, turmush kechirilishining og'irlashishi, jon sonining ko'payib ketishi sabablariga ko'ra ikkiga, uch-to'rtga bo'linishga majbur bo'lgan. Bu bo'linish – ajralish, yakkalanish emas, aksincha, avlodning ko'payishi, qabila urug'ining soni va salmog'i oshishi sifatida eng ulug' ijtimoiy boylik hisoblangan.

Mana shunday paytda ajdodlar ajralib, mustaqillashib chiqayotgan yangi avlodga bugungidek mebel-u televizor, muzlatgich-u, palos-gilamlar emas, ilonning tilidekkina olov hadya etishgan, xolos. Bu sovg'a yangi hayot, yangi qabila va katta oila ramzi bo'lib qolgan. O'z o't-oloviga ega bo'lgan yangi avlod endi mustaqil qabila sifatida o'z kunini o'zi ko'rgan. Ona-ota qabilasi bosh hadyasi – o't bir umr o'chmagan.

Ana shu kunlardan buyon bizning xalqimizda yangi oila dunyoga kelganda, «qozon-o'chog'ini ajratib berdik» degan yoqimli jumla yuradi. O'ylashimcha, turkiy tildagi olovga nisbatan berilgan «o't» atamasining bosh ma'nolaridan biri harakat nomi «o't», «o'tish» mazmunini tashib, o'tning cho'g'dek taftini insoniyat beshigi – oilaga ko'chirib, bizga mangu meros qoldirgan. Bu o'rinda «o't», «olov», «o'tin» tushunchalari shundan kelib chiqib, mustaqillikka o'tish ifodasini tashigan.

O'rta Osiyoning ko'p xalqlarida bo'lgani singari biz o'zbeklarda ham o't-olov bilan bog'liq urf-odat, udum, maishiy turmush an'analari juda ko'p. Insoniyat olovni kashf qilib, yangi taraqqiyot pog'onasiga qadam qo'ydi. U shu tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqdi. Islomdan oldingi davrlarda vujudga kelgan Zaratushtra, Avesto, Axura Mazda davrida olov ulug' kuch, ilohiy manba sifatida ilohiylashtirilganligi bejiz emas.

O'choq, tandir, qora uy, tancha, sandal – olov xonalari manbayi bo'lgan. Odamlar kasal bo'lishsa, o't yoqib, tanasiga kirib olgan ins-jinsni quvishgan. Bola tug'ilsa, olovdan o'tkazib olingan, uylansa kelinni otdan tushirib, kuyov ko'tarib, olov-gulxan atrofidan uch marta aylantirgan.

Milliy qahramonimiz Muqanna ham o'z salafлари bilan bosqinchi yovlarning qo'li baland kelib, taslim bo'lishdan o'zga chora qolmaganidan keyin haftalab maxsus o't yoqib, qizdirib qo'yilgan katta tandirlarga o'zlarini otib, olovda kuyib halok bo'lishni, ollohi taolo huzuriga, Arshi a'lologa olovdan o'tib borishni afzal ko'rishgan.

O't-olov bilan bog'liq qadimiy odatlardan biri tancha-sandal qurish va undan foydalanish odatidir. Yevropa va

slavyan xalqlarida bu odat kamin va pech nomi bilan asrlar osha turmush hamrohi bo‘lib kelgan. Tiramoh qora kuzda yozloqlardan qishloqlarga ko‘chgan ajdodlarimiz hovlidan qator o‘rin olgan: qora uy, ayvon, yemakxona, sandalxona, mehmonxona kabi bo‘lmalarda qish kunlarida o‘t-olovdan bahramand bo‘lganlar. Bola-baqra qora uylarda, maxsus qurilgan tanchalarda olov-cho‘g‘ tayyorlashgan. Tanchaning joyi to‘rtburchak holda o‘yilgan. O‘yilgan joyning o‘rtasidan cho‘g‘ solish uchun aylana shaklida yana kovlangan, so‘ngra tuproq ko‘chaverib bezor qilmasligi uchun somonli loy bilan suvalgan. Tancha o‘rnining naq tepasida – shiftda xuddi shu shakl va kenglikka mos tuynuk ochilgan. Yoqilgan olov tutuni shu tuynukdan tashqariga chiqib ketgan. Qora uyda olovni rosa yoqib olguncha, agar o‘tin ho‘l bo‘lsa, tutab ancha-muncha ovora qilgan. Shuning uchun ham bu ish maxsus qora uyda bajarilgan, shunday bo‘lsa-da bu borada evi yo‘q kishi yo bolalarga atab «isinmadim olovingga, ko‘r bo‘ldim tutuningga» degan maqol ishlatilgan.

Tashqarida qor-yomg‘ir yog‘ib turganda, qattiq shamol esayotganda, toza olov – cho‘g‘ tayyorlab beradigan maxsus xonaga «qora uy» deyilgan. O‘t yoqilaverganidan uy devorlari qop-qora bo‘lgan. Qora uy xonadon va qo‘ni-qo‘shni bola-chaqalarining sevimli joyi hisoblangan. Ayni paytda, qora uyda qumg‘on qaynatib, mayiz-yong‘oq, olma-o‘rik qoqi tanovul qilib, bolalar o‘z ijodlari bilan ham band bo‘lganlar. Qo‘shiqlar, she‘rlar, ertaklar aytilgan. Bolalar folklorining bir qismi mana shunday qora uylardagi gulxan atrofida yaratilgan.

Sandal uydan odatda keksalar, bemorlar, yosh bolali onalar o‘rin olishgan. Qora uyda tayyorlangan bozillab turgan cho‘g‘lar xokandozda sandal uyga keltirilib, tanchaga solingan. Tancha yuqorida aytganimiz to‘rtburchak shaklda o‘yilgan yer bo‘lsa, sandal tancha ustiga qo‘yilgan chorsi, to‘rt tomoni teng, hatto bo‘yi va eni ham deyarli teng bo‘lgan kursidan iborat bo‘lib, uning oyoqlaridan to‘rt enlik yuqorida maxsus «tuyoqlar»ni birlashtiruvchi yog‘och poyalar o‘rnatilgan.

Bu poyalar ham sandalni mustahkam, but saqlashga qaratilgan, ham asosiy vazifasi tanchaga uzatilgan oyoqni qo'yadigan maxsus joy sanalgan. Sandal usti sandal ko'rpa bilan yopilgan. Ko'rpali sandal (sandali ham deyiladi) go'dak bola uchun, ayniqsa, qo'l kelgan. Beshikdan bo'shatib, ishton-ko'ylakchalari kiydirilgan go'dak xoh qiz, xoh o'g'il bo'lsin, sandalga keltirilib, tik tutib turilgan. Sandal bolaga «oyoqqa kirgizish» vazifasini ham o'tagan. Bola qiqirlab kulib talpinarkan, beixtiyor sandalning u tomonidan bu tomoniga atakchek qilib yurgan. Shu tariqa yiqilsa-surinsa beshikast, beozor, yumshoq sandal yonida bola ilk bor oyoqqa kirgan.

Odatda sandal uyning kiraverishidagi o'ng burchagida o'rnatilgan. Bunda ham olov olib kirish masofasi yaqinligi, ham yong'in xavfsizligi, ham devorlarga yostiqlar vositasida suyanib o'tirish maqsadlari ko'zda tutilgan. Sandal ustidagi ko'rpa to'rt tomon – yerga to'shalgan ko'rpachalar ustiga tushib turgan. Har kim sandal atrofida o'z o'rnini bilib o'tirgan. Keksalar to'rda, o'rta yoshlilar ikki yonda, bolalar quyi, ostona yaqinidan joy olishgan. Eshik oldida xizmatga shay turishgan. Sandal ustida dasturxon yozilgan. Sandal hangomalari bilan bog'liq turfa xil mutoyiba, hikoyat-u rivoyatlar borki, ularning o'zi bir kitob bo'lgulik.

Sandal uyda ko'pincha cho'qqa tashlab, isiriq tutatilgan. Bu turli yuqumli kasal-bemorliklardan asrashning yaxshi vositasi bo'lgan. «Isiriqdan jin qochar, yuduruq¹dan jinni» degan maqol ham bor.

Sandal nafaqat isinish, sovuqdan saqlanish, balki tarbiya o'chog'i ham hisoblangan. Keksalar qadimiy hikoyat-u rivoyatlar aytganlar, yaxshi insoniy munosabatlar ibrat qilib ko'rsatilgan.

Yosh do'stlar, Sizlarning ko'plaringiz sandalni ko'rmagan bo'lishingiz ham mumkin. Chunki xuddi beshik singari sandalni ham xurofot o'chog'i hisoblab, kechagi bobolaringiz unga qarshi o't ochishgan, bir muddat bu

¹Yuduruq — musht.

beminnat xizmatkorni hayotdan siqib chiqarishga ham erishishgan edi. Beshik o'rniga kolyaska, sandal o'rniga pech qilish taloto'p sifatida o'tkazilgandi. Buning aks-sadosi adabiyotda, ayrim she'r, hikoya, ertaklarda ham muhrlanib qolgan. Sandalning bod, oyoq va bel og'rig'i kasalliklariga yaxshi davo bo'lganligini ham keksalar tan berib aytib yurishadi.

Badiiy asarlarni esga oldik. Atoqli olim-adiblar, Sadridin Ayniy va Oybek domla bir umr sandaldan ajramaganlar. Yozda ham cho'g'siz sandal ustida ishlaganlar. Mashhur «Qullar» va «Navoiy» romanlari, Qodiriy bobongizning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kitoblari ham sandalga to'nkarilgan mis barkash ustida yozilgan...

Aytishlaricha, Sadridin Ayniyga olifta ijodkorlardan biri sandalni eskilik sarqiti sifatida yomonlay boshlaydi.

Men «Doxunda»ni, «Sudxo'ring o'limi»ni, «Qullar»ni sandalda o'tirib yozganman, – deydi Ayniy domla jahli qo'zib. – Xo'sh ayting-chi, stol-stulga o'tirib, Siz qaysi asarni qoyillatib qo'ydingiz?

Sadridin Ayniy haq gapni aytgan edi.

Sandal atrofida ayniqsa uzun qish kechalari kechadigan suhbatlar maroqli bo'lishini ajib entikish bilan kim ham eslamaydi?

O'tgan asrdagi totalitar tuzum davrida kechgan ocharchilik va urush yillarining og'ir kunlarida xalqimizning joniga oro kirib, yorug' kunlardan umidvor etgan ham sandaldir. Uning ustiga mayiz, turshak to'kishib, jun titishmi, paxta chigitlashmi, ko'rak chuvishmi ishqilib, qandaydir yumush-la mashg'ul bo'lishgan. Yangi, XXI asrga kelib, mustaqillik davrlarida tarixiy taraqqiyot ilgarilab ketishi munosabati bilan tabiiy boyliklarimizdan foydalanish kuchaydi. Tancha-sandal shakli bo'lsa-da, mazmuni o'zgarib «gazlash»di.

Tarixiy taraqqiyotimiz davomida hayotimizda nimaiki muhim rol o'ynagan bo'lsa, uni eslab, qayd qila borish burchimizdir. Tog'li tumanlarda tancha hozirgi vaqtda ham qahraton qish faslida odamlarimiz joniga oro kirmoqda. Kishining irodasi, qiyofasi bevosita u o'sgan

sharoit bilan belgilanishi sir emas. Xalqimiz yuragining taftli, bag‘rining kengligi bir tomondan saxiy quyoshimizdan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘z atrofiga ko‘p odamlarni jamlay oladigan tanchalarimizdan bo‘lsa ajabmas!

ODAMGA LIBOS...

Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri bu kiyinish odatidir. Kimning qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma‘naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin.

Insoniyat ongida boshqalardan istihola qilish, uyalish, andisha tushunchalari paydo bo‘lgandan boshlab ular kiyinishni odat qilishgan.

Kiyinishni ilk bor zaif jins – ayollar boshlaganlar. Shuning uchun ham xotin-qizlar tabiatida kiyinish, bezanish, taqinish tushunchalari turmushning asosiy ko‘rinishlari qatorida turadi. Shu sabab xalqimizda «onangni otangga beparдоз ko‘rsatma» degan gap bor. Kiyinish madaniyati jins, yosh, fasl, millat, urf-odatlar, kasb-kor, zamon va taraqqiyotning muayyan bosqichi darajasi bilan bog‘liqdir. Bolalar, qizlar, yoshlar, o‘rta yoshlilar, keksa odamlarning kiyinish madaniyati mazmuni va shakli-shamoyili jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Kiyim odamni issiq-sovuqdan saqlaydi. Kishi tanasi, ruhiga ijobiy ta‘sir qiladi. Salomatlikni barqarorlashtirib turadi. Bizning o‘zbek xalqimiz kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari otabobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqqa kovush-mahsi, etik, boshga shabpo‘sh, do‘ppi, telpak, ustga chopon, to‘n kiyib belga belbog‘, qars boylashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishini ramziy ifodalash xususida «belingda belbog‘ing bormi?» degan ibora qolgan. Cho‘pon-cho‘liqlar, chavandoz va pahlavonlar faslga qarab chakmon ham kiyishgan.

Momo-oyilarimiz qimmatbaho, nafis uzun ko‘ylak-lozim, kovush-mahsi, to‘n kiyishgan. Jun, ipak, tovar, chit-satin ro‘mollar o‘rashgan. Sochpopuk, qulota, po‘pak,

tillaqosh, zebigardon, turli-tuman uzuk-halqa, tanga-tillolardan iborat taqinchoqlar ham kiyimlar dastasiga yanada ko'rk va jilo bergan.

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatleri, tabiati bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, serquyosh o'lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyinishni odat qilingan. Chunki oq mato quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiq ta'siridan saqlagan.

Aksincha, iqlimi sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan. Chunki bu kiyim sal bo'lsa-da chiroy ko'rsatgan, quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasining tanini yayratgan.

Dunyodagi barcha xalqlar bir-biriga hududiy, madaniy-maishiy, iqtisodiy jihatdan qanchalik yaqinlashganlariga ko'ra, ularning kiyinish madaniyatidagi jihatlariga qarab, kiyinish madaniyatidagi jihatlar ham bir-biriga ko'chgan. Bu bir mamlakatning ikkinchi davlat tomonidan bosib olinishi, katta xalqqa kichik xalqlarning ixtiyoriy ravishda qo'shilishi kabi omillar bilan bog'lanib ketadi. O'rta Osiyodagi ko'pgina xalqlar singari o'zbek xalqining kiyinish madaniyatida ham asosiy, o'zbek odat va rasmlaridan tashqari, Eron, grek-makedon, arab, mo'g'ul xalqlari kiyinish alomatleri uchraydi. Chunki tarixdan Siz bu xalqlar lashkarleri O'rta Osiyo yerlariga bostirib kirib, bir necha muddat bu yerlarda yashab qolishganini yaxshi bilasiz.

Aksincha, Yaqin Sharq, Sibir, Kavkazorti, Hindiston, Afg'oniston va Ovruponing bir qism xalqlarida O'rta Osiyo, xususan, bizning qadimiy xalqimiz kiyinish madaniyati belgilarini uchratishingiz mumkin. Bu Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo, Shayboniyxon kabi ajdodlarimizning bu mamlakatlarga lashkar tortib yurishlaridan qolgan meroslardir.

Hozirgi davrda umuman katta kishilar ham rangi-tusi, katta-kichikligi demasa, odatda, bir xil kiyim-bosh:

ko'ylak, kostum-shim, tufli-botinka, plash-palto, shlyapa yoki shapka kiyishadi. Bu kiyimlar dastasi umuman Ovrupo madaniyatiga doir, xususan qadimiy ingliz xalqi milliy kiyim-bosh hosilasidir. Taraqqiyotning so'nggi asriga kelib, dunyoda eng faol ishlatiladigan til bu – ingliz tili bo'lganidek, kiyinish borasidagi eng qulay va ko'pchilikbop kiyinish udumi ham ingliz kiyimi: kostum-shim, plash-palto va hokazo kiyimlar bo'lib qoldi.

Umuman, bugungi kunda roman-german xalqlari kiyinish madaniyati deyarli butun jahon xalqlari tanasi va ruhiga egalik qilmoqda. Biroq, har bir xalq, jumladan ko'pmillatli xalqlarimiz tarkibiga kiruvchi har bir millat o'z kiyinish an'analari, madaniyati, insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq urf-odatlarini u yoki bu darajada saqlab qoldi va bundan buyon ham asrab-avaylab saqlashi tabiiy. Chunki biz sevgan baynalminallikning o'zi shuni taqozo qiladi.

Obrazli qilib aytganda, umumiy gulzorda gul ko'p, chaman ko'p, lekin har bir gulning o'z rangi, hidi, hayot tarzi va ifori bor. Millatlar va kiyimlar ham xuddi shunday. Ular rang-barangliligi bilan kamalakdek tovlanib, ko'ngillarni quvontirishi lozim.

Siz kavkazlikni papax va kamzulsiz, ukrainni guldor ko'ylaksiz, tojikni gilam do'ppi va belbog'da osilgan pichoqsiz tasavvur qilolmaganingizdek, o'zbekni ola do'ppi va choponsiz ko'z o'ngingizga keltira olmaysiz. Daf'atan yodingizga atoqli shoirimiz Erkin Vohidovning mashhur hofizimiz tomonidan ijro etilgan «O'zbekim» g'azali tushib, beixtiyor xirgoyi qilasiz. Bular xalqlarimizning tashqi ko'rinish – kiyinish borasidagi o'ziga xos milliy xususiyatlaridir.

Ilgari yoshlarimiz, yigit-qizlar rossiyalik tengdoshlariga ergashib, moda ketidan quvishgan bo'lsa, hozirda amerikalik zamondoshlari kiyinish madaniyatini ma'qul ko'rmoqdalar. Kiyim kishining nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki ma'naviy dunyosi, qaysi millatning farzandi, qaysi zamonning qanday saviyali odami ekanligini ham ko'rsatib turadi.

TAQINCHOQ – ZIYNAT

O‘zbek xalqida biror-bir to‘y-tantana yo‘qki, unda turli mavsum va marosimga mos, kundalik taqinchoqlar taqilmaydigan bo‘lsin. Kelin-kuyovlarga, sunnat qilingan bolaga, hatto beshikdagi bolakay uchun ham muayyan taqinchoq taqadilar.

Qiz-juvonlar, momo-yu buvilar albatta o‘z yoshlariga munosib taqinchoqlar taqadilar. Taqinchoqlar taqish ham har bir millat madaniyati tarkibiga kiradigan umri uzun udumlardan biridir. Kiyinish odati singari taqinchoq taqish ham insoniyat paydo bo‘lib takomil topib, bizning kunlarimizgacha yetib kelganiga qadar unga bir umrlik hamroh sifatida rivoj topib, rang-baranglashib kelmoqda.

Taqinchoqning turi, vazifasi, xizmati ko‘p. Ularni shartli ravishda uch turga bo‘lish mumkin. 1. Bezak taqinchoqlar. 2. Irim-e‘tiqod taqinchoqlari. 3. Shifobaxsh taqinchoqlar. Bu uch asosiy turdan tashqari maishiy xizmat uchun taqiladigan, muayyan vazifani bajarishga qaratilgan taqinchoqlar ham borki, ular turli tugma, to‘g‘nag‘ich, qadagich, tutqich, bog‘lagich, zanjir va boshqalar bo‘lib, kiyim-kechakka yordamchi buyumlar sifatida ishlatiladi.

Taqinchoqlar tumor, tug‘dona, ko‘zmunchoq, marvarid, tasbeh, po‘pak, shokila, tillaqosh, kulota, halqa, burundiq, zulfmunchoq, qalampirmunchoq, uzuklar va hokazolardan iboratdir. Taqinchoqlarga yondosh xina, tishqol, surma va boshqalar ham borki, ularni ham uchinchi tur taqinchoqlar yoniga qo‘yish mumkin.

Bezak taqinchoqlarga bo‘yinga taqiladigan turli marvarid, oltin-kumush, zabarjad, marjonlar turkumi kiradi. Irim-e‘tiqod taqinchoqlariga tug‘dona, ko‘zmunchoq, tasbeh, turli tumorlar kiradi. Uchinchisi – shifobaxsh taqinchoqlar o‘z amaliga ko‘ra ikki hissa ko‘proq vazifani bajaradi. Ular ham taqinchoq, bezak, ham davolovchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bularga qalampirmunchoq, tug‘dona, tishqol, surma, shifobaxsh sadaf va marvaridlar kiradi.

Bezak taqinchoqlarga qo'llardagi uzuklar, bo'yinlardagi marjon, quloqlardagi halqa, burun baldoqlari, oyoq shillik va tirnoq taqinchoqlari kiradi.

Irim bilan bog'liq odatlar uy hayvonlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, sigir, ot, ho'kiz singari uy hayvonlari shox va yollariga ins-jins, yomon ko'zdan asrash uchun ko'zmunchoq, tumor taqish odati mavjud.

Qo'y, ot, mol kalla chanog'i, isiriq, chaqirtikan, taqa, munchoq osish ko'rinishlari ham xuddi shu odatlarga yaqin turadi. Tumor taqish taqinchoq taqish odatida juda keng tarqalgan. Tumorlar mulla-eshon, azayimxonlar tomonidan maxsus tayyorlanib sochga, chopon yo do'ppiga, beshik va belanchakka, yotoq-uy, xonadonlarga osib qo'yilgan. Tumorlar buvi-bobo tomonidan shunchaki ichiga, tashiga qalampirmunchoq yoki ko'zmunchoq solib ham tikilib, taqilgan. Bunday uchburchak tumorlarni maishiy turmushdagi turli joylarda uchratishingiz mumkin.

Tasbeh donalari ham har xil jinlardan terilgan qimmatbaho toshlar, gavhar-u sadaflar, zabarjad-u feruza toshlardan iborat bo'lishi mumkin. Turli urug' donalari teshilib, ibodat uchun namozxon-niyozxonlarga tasbeh yasalgan. Xurmo, jiyda donalari, tug'donadan yasalgan tasbeh sifat taqinchoqlarni ham bolalar beshiklari, uylarning kirish eshiklari yaqinida osilgan holda uchratishingiz mumkin.

Taqinchoqlar bilan bog'liq odatlar bizning kunlarimizda ham qaytadan rasm bo'lmoqda. Yosh bolalarning qo'lini halollashda salla o'rab, nishon taqib, jig'a-tamg'a qadash, kuyovlarning bosh-oyoq sarposiga taqinchoq ilish. Kelinlarda tillaqosh, zebigardon, turli marjon-marvaridlar osish, ko'ylak yenglari, tugma o'rnidagi taqinchoqlar, bo'yinbog' va hokazolar hozirgi davrning ham asosiy taqinchoqlaridan bo'lib qoldi.

Turli safarlar, mukofotlar, xizmatdagi yutuqlar uchun berilgan ko'krakka taqiladigan turli-tuman nishonlar ham xuddi shu odatning hukumat tomonidan rasmiylashtirilgan ko'rinishidir.

Xullas, taqinchoq taqish odati kiyinish, bezanish, turli marosim va to'y-tomoshalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi maishiy turmushida ham madaniyat dunyosiga daxldorlikning moddiy ko'rinishi sifatida yashab kelmoqda, istiqbolda ham shunday bo'lib qolishi kerak.

Bizning davrga kelib taqinchoq taqish ko'proq o'zini boshqalardan ustun, boy-badavlat ko'rsatish tusiga kirganligi ham sir emas. Ba'zi bir ayollar, qiz-juvonlar kerak bo'lsa-bo'lmasa har xil almoyi-aljoyi narsalarni taqishib, o'zlarini ko'z-ko'z qilib yurishadiki, taqiladigan narsaning mohiyatini bilmay, bo'yinga ilib ketaverish madaniyat belgisi emas. Yangi rasm bo'lgan taqinchoq-qisqichni (buloq) soch, qosh, qo'l-oyoq tirnoqlari hatto kindikka taqish odat bo'lyaptiki, (nomdor xonandalarimiz tomonidan) bu o'zbek milliy urf-odatlarimizga ziddir.

IV BOB.

**БАҲРАМ.
МО'Ў-ТОМОСҲА**



NAVRO‘Z

Navro‘z Sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. Ko‘p asrlar davomida makedoniyalik Aleksandr, arablar, mo‘g‘ullar kabi bir qancha bosqinchi qo‘shinlar Sharq xalqlarining umumiy bayrami – Navro‘zni yo‘q qilib, halok qilib yuborishga harakat qildilar. Ammo Navro‘z barhayotligicha qolaveradi, qayta tirilaverdi. Navro‘z biron-bir sanani nishonlash uchungina bayram qilinadigan hodisa hisoblanmaydi. U tabiatning o‘zidan kelib chiqqan, kun-utun tenglashgandan so‘ng, endi kunlarning uzayishi, uzluksiz mehnat arafasidagi bayramdir. Uzoq qishdan so‘ng ko‘kdagi quyoshning yuz ko‘rsatishi, qirda maysagiyohlarning nish urib chiqishi xalqimiz uchun haqiqiy shodiyonaga aylangan. Nega deganda, o‘tgan yilgi yig‘ilgan g‘alla ham, oziq-ovqatlar ham sob bo‘lay degan, ilikuzdi paytlarda yana Ona Tabiatning o‘zi mehr-muruvvat ko‘rsatib, yorug‘ kunlardan darak bergan. Shu kunlarga eason-omon yetib kelishgan qariyalarning ham tomirlarida qaytadan g‘ayrat jo‘sh urgan. Nav – yangi, ro‘z – kun; ya‘ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas.

Navro‘z bayramini barcha fors, arab, turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar har yili bahorda nishonlab kelishgan. Bu qadimiy, an‘anaviy Yangi yil bayramimiz haqida ulug‘ bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida, Mahmud Qoshg‘ariy esa «Devonu lug‘otit turk» asarida juda qiziqarli ma‘lumotlar yozib qoldirganlar. Umar Hayyom olim, shoir, faylasuf sifatida bu bayram haqida «Navro‘znoma» nomli maxsus kitob yozganlar. Navoiyning ustozlari – turkigo‘y shoir-larning malikul kalomi – Lutfiy domla «Gul va Navro‘z» o‘lmas dostonini yaratganlarki, bu asar hamon sahna-

larimizni bezab, bizga Navro'z haqida adabiy-badiiy tushuncha, ma'lumot berishda davom etib kelayotir.

Navro'z bayramiga Sovet davrida ham katta hujum uyushtirildi. Ammo qadimiy odatimiz bu galgi qatag'ondan eson-omon o'tib oldi. Mana, bugun yana biz o'zbeklar ham barcha Sharq xalqlari singari o'z milliy urf-odatimiz Navro'z – Yangi yil bayramimizni bor malohati, bo'y-basti bilan ko'z-ko'z qilib o'tkazayapmiz. Navro'z bayrami kecha bilan kunduzning tenglashgan payti, bahor faslining 21–22- mart kunlaridan boshlab bir hafta, o'n kun davomida o'tkazilgan. Bu bayram, avvalo, tabiatning jonlanishi, yangilanishi, yangi yil bilan yurtimizga go'zal Bahor faslining kirib kelib, kelinchakdek o'z yashil sepini keng yoyishi bilan boshlangan.

Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o'tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro'z kunlari qish manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari – yozloqlarga ko'chib o'tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo'sh solishgan. Jamoa-jamoa bo'lib, hashar-osharlar uyushtirilgan. O'tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ularning mozorlari obodonlashtirilib, ko'kalamzorlashtirilgan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro'z – yangi yil, yangi hayot qaynagan.

Navro'z bayramiga atab ajdodlarimiz maxsus kiyimlar tayyorlashgan va ularni kiyib bayram qilishgan. Navro'z taomlari o'ziga xos bo'lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim tayyorlash an'anaviy odat tusiga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroklari, ayniqsa, juda faol bo'lgan. Ular Navro'z bayrami haftaligi oyligida turli ommaviy bayram o'yinlari o'ynaganlar. Ot o'yin, chillak, qo'g'irchoq o'yin, tosh, lapar, ip o'yinlari va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, bo'y qizlar, ayniqsa, sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun unga ancha ilgariroq tayyorgarlik ko'rishgan.

Bug'doy donini maxsus idishlarda qulay iqlim sharoiti yaratib, sabza qilib undirib olishgan. So'ng uni kecha-

kunduzi bilan katta doshqozonda qaynatib, sumalak tayyorlashgan. Ayonki, tun-u kun tinmay doshqozon qaynayversa, ancha-muncha o'tin chidamaydi. Shuning uchun har bir xonadon bir bog', yarim bog'dan, ishqilib, o'tinga ham o'z ulushlarini qo'shadilar. Bu arzimasdek ko'ringan harakat ostida juda ulkan ma'no yotibdi: xalqning birgalashib harakat qilishga, non-u tuzini, topgan-tutganini birga baham ko'rishga intilish yotibdi.

Bu jarayonlarda turli-tuman xalq o'yinlari, bahor qo'shiqlari ijro etilgan. Kitobxonliklar, turli jismoniy tarbiya-sovrinli o'yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Ko'pkari-uloq, kurash, turli hayvon va parrandalar «jang»lari, xo'roz, it, qo'chqor urishtirish, masxarabozlik, askiyabozlik, dor o'yinlari, xalq tomoshalari o'tkazilgan.

Qo'shni Tojikistonning G'onchi tumanida har yili Navro'z mahali kelinchaklar sayli o'tkazish qadim-qadimdan odat tusiga kirgan. Bu sayilga oq harir pardalar tutgan, kuyovga tushganiga bir yildan oshmagan kelinchaklar qatnashishadi. Ular pastlikda, xuddi oq gullar to'lqinidek ketaverishadi. Qo'llarida o'zlari mehr qo'yib tikkan matolari, so'zanalari, belbog'lari bo'ladi. Ikki tomonda qiyaliklarda turgan tomoshabinlar o'tayotgan kelinchaklarning birortasini ham ko'zdan qochirishmaydi. Kelinchaklarning orzu-armonlari, o'y-xayollari bitilgan matolarning qaysi biri ko'proq olqish olsa, o'sha g'olib, maqtovga sazovor bo'ladi.

Bu benihoya chiroyli, go'zal sayildir. Bu xil sayillarni o'rganib, ommalashtirish zarur.

Navro'z bayramining eng ahamiyatli jihatlaridan biri – keksalarga hurmat, ularning hollaridan xabar olish, ko'mak berishdir.

Navro'z tiriklik bayrami sifatida mashhur bo'lib, uning tag'in bir muhim xosiyati: bu kunlar marhumlar yodiga juda katta ahamiyat berilgan. Machit-u madrasa, xonadon-u mahalla, mozor-u ziyoratgohlarda qur'on o'qitilib, jonliklar so'yilgan. Yetim-yesir, bola-baqralar uchun katta doshqozonlar osilib, qurbonlik taomlari pishirilgan. Har bir oila o'z xilxonalarini, ortishsa, boshqalarnikini ham tozalab, orasta qilishgan. Qabr-

larning shikast-rextlarini ta'mir qilishgan. Mevali daraxt-ugul chechaklar o'tkazishgan.

Buxoro amirligi ma'rifatparvarlaridan biri Salimbek Nurota muzofotiga bek tayinlangach, Navro'z kunlari ulug' ziyoratgoh – Nuri Ota maqbaralarini ta'mirlash jarayonida qabrning o'yilib qolgan joylariga ko'zi tushib, xilxonani ochib, qayta yopish fatvosini olgan. Qur'on tushirtirib qabrni ocharkan, xuddi tirik insonday mangu uyquda yotgan avliyo jasadlariga nigohi tushgan. Nuri Ota xuddi ming yil avvalgidek, oppoq soqollari ko'ksilariga tushib, yuzlari to'la nur bilan yotgan ekanlar. Shu zahoti jasadning uniqib, qoraya boshlaganini sezgan Salimbek me'mor-ustalarga ta'mirni shoshilinch tugatib, qabrni yopish topshirig'ini bergan. Afsuski, 1941- yilda Go'ri Amir xilxonasini ochgan hukumat komissiyasi a'zolari xalqlarimizning an'anaviy muqaddas tuyg'ularini nazar-pisand qilmaganlar. Udumlarimizni oyoqosti qilganlar...

Bayram kunlari oralaridan gap qochgan qabila, guruh yoki yakka shaxslar: do'st-og'aynilar, qarindosh-urug'lar yarashib, bir-birlarini Navro'z bilan tabriklab, eson-omonlik, tinchlik-xotirjamlik tilashgan.

Qozoq og'aynilarimiz Navro'z ko'jasi, tojik qadrdonlarimiz Navro'z ko'mochi, biz o'zbeklar esa sumalak, halim, qo'sh oshi kabi Navro'z taomlari bilan yon qo'shni - jon qo'shnilar bir-birlarimizni siylab, bayramni birgalikda o'tkazganmiz. O'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman va ozor xalqlari Navro'z bahonasida bir-birlarini to'ldirib, boyitib borganlar. Bundan xalqlar o'rtasidagi do'stlik – baynalmilallik qaror topgan, yanada mustahkamlangan. Mustaqillik yillarida barcha qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz kabi Navro'z ham qayta tug'ilib, zamonaviy milliy udumlar bilan boyidi. Navro'z O'zbekistonda ikkita ulug' bayramning biriga aylanib qoldi.

Qadimdan buyon Sizning tengdoshlaringiz Navro'z bayramini kutib olish va uning qiziqarli, jonli, ta'sirli o'tishida faol ishtirok qilishgan. Ayniqsa, sumalak, halim tayyorlashda yosh-yalanglar tuni bilan mijja qoqmay, turli ertak, rivoyatlar, hikoyatlar aytishib, o'tkir zehnlari namoyish qilishgan. Kunduzlari ko'pkari-uloq, qafas-qafas

kurashlarda, sayil o'yinlarining barchasida bolalar va o'smirlar albatta faol ishtirok etishgan. Shuning uchun ham qadimiy urf-odatlarimiz avlodlardan-avlodlarga o'tib, davom etib, yashab kelgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Navro'z tabiatning o'zidan tabiiy ravishda kelib chiqqan bayramdir.

HAYITLAR

Hayitlar qadimiy diniy bayram bo'lib, ularning tarkibiga kirgan ko'pgina marosimlar islomdan oldin ham xalq taomilida bo'lgan. Islom ularni omuxtalab, o'z qonunlarini qo'shib, hayit-bayramlarning umrini uzaytirgan.

Hayitlarning ikki xili mavjud bo'lib, xalqimiz bu bayramlarga azaldan amal qilib keladi. Birinchisi - Qurbon hayiti, Katta hayit deb ataladi. Uning oldidan ikki kun qolganda, arafa kunlari nishonlanadi. Yolg'on arafa, bir kun qolganda chin arafa, uchinchi kuni esa Hayit bayram qilinadi. Yolg'on va chin arafa kunlari har bir xonadonda is chiqarilib, chalpak, bo'g'irsoq, talqon, palov qilinadi. Qo'shnilar bir-birlarini Hayit bilan muborakbod etib, xonadonlarga pishiriqlar chiqaradilar. Bolalar va o'smirlar chopqillab yaqin-uzoq xonadon, qarindosh-urug'larni yo'qlashga borib-keladilar.

Kichik hayit bu Ro'zayi mohi Ramazon deb atalib, odatda ro'za oyi yakunida o'tkaziladi. Hayitlar Iydlar ham deb ataladi. «Hayitingiz muborak bo'lsin», «iydingiz qulluq bo'lsin» tabriklarining ma'nosi bir xildir. Katta hayit butun dunyo umumxalq marosimi – haj, ya'ni Ka'baga ziyoratga borib, haj nomozi o'qish davridan boshlanib, ayrim joylarda 7 kungacha bayram qilinadi. Bizning O'zbekiston, umuman, O'rta Osiyo xalqlari orasida Qurbon hayiti hozirgi kunlargacha nishonlanib kelinadi. Faqat bu marosim islom markazi – arab mamlakatlaridagidek yetti kun emas, balki uch kun bayram qilinadi. Qurbon hayiti – iyd-al-adho, ramazon hayiti – al-fitr, me'roj-rajab oyi bayrami, shuningdek, imom Husaynni xotirlash kuni-ashuro, taqdir kechasi – laylatul-qadr, payg'ambarimiz S.A.V.ning tug'ilgan kunlari – Mavlud islom dinida asosiy

hayit-bayramlar sanaladi. Qurbon hayiti zulhijja oyining 10–13 kunlarida tantana qilinadi. Ba’zi mamlakatlarda shu oyning (zulhijjaning) 7 kuni, ya’ni haj boshlangan kundan 7 kun davom etadi.

Ro’za hayiti esa ramazon oyi tugab, yangi shavvol oyining 1–3 kunlarida bayram qilinadi.

Hayitning birinchi kuni saharda katta-yu kichik jome masjidlariga borib, hayit namozi o’qiydilar. Gado-yu, beva-bechoralarga sadaqa beriladi. Bola-baqra, ota-ona, qarindosh-urug‘, qo’ni-qo’shniga hayit xarji, sovg’a-salomlar ulashiladi. Qurbonlik qilib, is chiqariladi. Keyingi kunlari mozorlarga borilib, o’tganlarning ruhiga duo-yu fотиha qilinadi. Azadorlar esa to’n kiyib, belbog‘ bog‘lab, do’ppi kiyib, marhumning uch kun davomida yo’qlovini o’rniga qo’yadilar. Hayit kunlari oilaga shirinliklar, yangi kiyim-boshlar, kiyimliklar sotib olinib, bolalarga, ota-ona, bobo-yu buvilarga hadya qilinadi. Oilaboshi ro’zg’orning kattadan-kichigiga sarmoya uchun o’ziga yarasha pul, chaqa ulashadi. Bu Hayit xarji deb nomlanadi. Mahallalarda, qishloqlarda, shahar joylarda yangi tushgan kelinlar borib ko’riladi. «Kelin ko’rdi» marosimlari o’tkaziladi.

Kichik hayit ro’za namozi bilan bog‘liq marosim bo‘lib, bir oy tutilgan ro’za – parhezdan keyin shavvol oyining 1–3 kunlari bayram qilinadi. Bu bayram ham garchi nomi kichik hayit deb atalsa-da, xalq orasida juda katta marosim sifatida nishonlanadi. Ro’za namozidan keyin bozor, mahalla, ko’chalarda tuxum, xo’roz, it, qo’chqor urishtirayotgan yosh-yalanglarni, masxarabozlik sahnalarini, dorbozlik o’yinlarini, savdo rastalari to’la bayram qandolat-u holvalarini uchratishingiz mumkin. Ro’za ichi har kuni oqshomlari muayyan muddatda iftorlik «og‘iz ochish» marosimlari o’tkaziladi. Bu ham o’ziga xos mehmondorchilik bo‘lib, ro’zadorlar niyat qilib iftorlik berayotgan kishining uyida o’z ro’zalarini ochib, iftorlik luqmalarini tanovul qilishadi. Iftorchi ro’zaning savobiga sherik bo’ladi. Ro’zadorlar sahar turib, tamaddi qilib, «og‘iz bog‘lashadi». Ya’ni, kun davomida suv ichilmaydi, ovqat yeyilmaydi. Umuman, hech nima iste’mol qilinmaydi. Bu kishilik a’zolarini, badanni o’ziga xos parhez qilish, bir oz

tozalashga, davolashga qaratilgan tadbirdir. Ro'za kishi irodasini toblaydi, qanoatga o'rgatadi. E'tiqodini mustahkamlaydi.

Bir oylik ro'zadan keyin g'arib, miskin kishilar, kambag'al, talabalar, gadolarga fitr ro'zalar, ya'ni, ro'za hayit hadyasi beriladi. Bu hadyani har kim har xil: imkoniga yarasha, pul-chaqa bilan, un-non berib, kiyimlik yoki yo'lga chin ixlos bilan ehson qilingan narsa savob uchun qabul qilinadi.

Uch kunlik ro'zayi mohi ramazon bayramlari oldidan ham oqshomlari gavjum bo'ladi. Ya'ni, ba'zan kattalar, ko'pincha bolalar to'p bo'lishib, qishloqlarda ramazon aytishadi. Ramazon ham xalqimizning qadimiy diniy marosimlaridan biri bo'lib, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ramazonda mash'ala yoqib olgan bolalar to'p bo'lishib, xuftonda har bir xonadon darvozasiga borib, ramazon aytadilar. Ramazon hayit qo'shiqlari jamlanmasining yoshlar tomonidan jo'r bo'lib, ijro etilishidir. Ramazonda xonadonma-xonadon yo'qlab, marosim qo'shiqlari aytiladi. Uy egalari ramazonchilarni siylab, ularga non, qand-qurs, kiyimlar, pul-chaqa berishlari mumkin. Ba'zi odam isi yoqmas, odamovi xonadon sohiblari ramazonchilar ustidan darvozaxona tomidan turib chelakda suv sepib yuboradilar. Ayrim hambo'ylar hazil-mutoyiba tarzida ham bu ishni amalga oshiradilar...

Ramazon qo'shiqlarining turli-tuman matnlari folklorshunoslar tomonidan yozib olingan. Ular orasida ommalashganlari ham anchagina. Ramazon qo'shiqlari xonadonga yaxshilik, rizq-ro'z, o'g'il-qiz farzandlar, baraka-iqbol tilash, bu oynning muqaddas, xosiyatli, baxt keltiruvchi oy ekanligini madh etishga bag'ishlanadi. Insoniylik, o'zaro mehr-oqibat, olloh taolo oldidagi qarz, dunyoning bebaqoligi esga solinadi. Yaxshilik qilish, savob orttirish ulug'lanadi.

*Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga!
Ramazon aytgan bilan to'yomizmi?
Qadimgi rasmimizni qo'yomizmi?!*

Har bir band aytilgan paytda guruhning barcha a'zolari: «Yo, ramazon» degan naqoratni takrorlab turadilar. Ramazonchi ijodkor bolalar har bir uyxonadonning o'ziga mos jihatlarini yaxshi bilib, qo'shiq aytganlar. Xususan, bir oilaning serfarzandligi, aksincha, ikkinchisining befarzandligini, boy-badavlat yoinki kambag'alligini albatta hisobga olishgan. Shu tomonlariga qarab, ramazon misralari tuzilgan:

*Shu uyning tepasida oy ko'rinar
Bu uyning egalari boy ko'rinar...
Yo, ramazon!..*

Uy egalari ramazon tabrigi-she'riy misralardan xursand, eshiklarini ochib, bolalarga (umuman, ramazonchilarga) ataganlarini hadya qilganlar. Ramazonchilar tushgan hadya-ehson «mollarini» halfana qilib, turli taomlar pishirib yeganlar.

Hayitlarning har ikkalasi ham odamlar o'rtasidagi mehr-oqibatni mustahkamlagan. Keksa-bemor, marhumlarni yo'qlash, ziyorat qilishning amaliy ibrat-namunasi bo'lib, yoshlarga beqiyos katta maktab vazifasini o'tagan.

Hayitlar ham Navro'z kabi xalqning qadimiy, udumiy bayramlaridir. Ular e'tiborga, mehrga ilhaq...

SOVCHILIK

Vatan ostonadan, hovli bo'sag'adan, oila sovchilikdan boshlanadi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik iplarini bog'lashga da'vat etilgan kishidir. Sovchi kamida ikki, yo'qsa uch-to'rt kishidan iborat bo'lib, ikki jinsdagi erkak va ayol sovchilar ham bor. Har ikki to'p alohida, mustaqil harakat qiladi.

Odatda sovchilar kayvoni, el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqil-u fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og'ir, mas'uliyatli. Sovchining gap so'zi mantiqli, ishonarli, tosh bosadigan, zalvorli bo'lmog'i lozim.

Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo'lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo'lini so'rab borishadi. Umr savdosining pishish-pishmasligi, avvalo, kuyov

bo‘lmishning o‘zi, ota-onasi, qarindosh-urug‘i, qolaversa, sovchilarning mahorat-u tajribasiga, quda bo‘lmishlar ko‘ngil qulfiga kalit sola olishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ayni paytda o‘z vazifalarining butun mas‘uliyatini bo‘yniga olgan bunday kishilar, har ikki oilani, ularning farzandlarini yaxshi bilganlar. Bilishmasa, so‘rab-surishtirishgan. Muayyan tasavvur hosil qilgach, undan so‘ng vazifalariga kirishishganlar. Bo‘lmasa, bironing guldek farzandi umriga zomin bo‘lib, bir tomonni o‘tday kuydirib, bir umr o‘zgalar domongirligida yashashni katta gunoh deb bilishgan.

Sovchilar «qizi borning nozi bor» degan naqlga amal qilib, vaqt o‘tkazib, kelin bo‘lmishnikiga uch-to‘rt marta boradilar. Odatda sovchilikdan qaytgan mutasaddilar «bo‘rimi yo tulki» deb qarshi olinadi. Agar ular ishni o‘rinlatib, xushxabar bilan qaytishgan bo‘lsa, sovchilar «bo‘ri» deb javob qilishadi. Bu gal ish pishmagan bo‘lsa, «tulki» deyishadi.

Ayol sovchilar ham qizning «ostonasini cho‘ktiradilar». Yigit bilan qiznikiga bo‘zchining mokisidek qatnayverib, kovushlarini to‘zitadilar. Ayol va erkak sovchilarning maqsadlari ro‘yobga chiqqach, o‘sha zahotiyuq non sindiriladi. Ya‘ni, «non sindirish» fотиha bilan sovchilik taomili o‘z vazifasini o‘tab bo‘ladi.

*... Halimaxon, deydilar,
Holvasini yeydilar,
Buxorodan sovchi kelsa,
Qimmatbaho deydilar...*

Holva – ko‘pincha, go‘daklikdan qiz bolaga nisbat beriladi. Vaqt o‘tib, unga sovchi kelishi, fотиha o‘qilishi, holva-yu patir ushatilishi ko‘zda tutilib, shunday deyiladi.

Ilgari zamonlarda sovchilar qiznikiga to‘ppadan-to‘g‘ri, dabdurustdan kirib borishni odat qilmaganlar. Ayol sovchilardan biri to tong sahardayoq, hali hamma uyquda ekanligida qiznikiga borib, uning ostonasi ostini supurib qaytgan. Ertalab turib bunga ko‘zi tushgan ota-onalar nima voqea ekanligini anglashgan, o‘zlarini bilmaganlikka solib, zimdan tayyorgarlik ko‘ra boshlashgan. So‘rab

kelishi ehtimoli bo'lgan xonadonlarning ahvol-ruhiyasi bilan ham kishi bilmas tanishib olganlar. Shundan so'ng sovchilarning kelishini kuta boshlashgan. Sovchilarning birinchi elchiliklaridayoq hech kim rozilik berib qo'yavermagan, garchand, ko'ngillarida moyillik bo'lsa-da, qizlarining, qolaversa, o'zlarining qadr-qimmatlarini, sha'nlarni yuqori ko'tarishga uringanlar.

Hozirgi davrda sovchilarning ishi ancha yengillashgan. Avvalo yoshlarning o'zlari tanishib, ota-onalarini ko'ndirib, ishni pishitib qo'yadilar. Ikkinchidan, sovchilarning tanishuv, sinov, o'rganuv vazifalarini o'znikilar, ota-onalar, amma-xola, opa-yangalar o'z zimmalariga olganlar. Ular kelinning, kelin yaqinlari esa kuyovning aslini, avlod-u zurryodini, tag-tugini surishtirib o'rganib chiqadilar. Buning uchun mahalla, qo'ni-qo'shni ahlining fikri-maslahati yo o'qish, yo ish joyidagi bu yoshga berilgan baho katta ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari, yoshlar uchun maxsus uyushtirilgan «uchrashuvlar» ham muhim o'rin tutadi. Qiz-yigit bunday uchrashuvlarda tanishisharkan, bir-birlarining fe'l-atvori, qiziqishlari, saviyalaridan yuzaki bo'lsa-da xabardor bo'ladilar. Shunga qarab, turmushga chiqish yoki uylanishga rozilik beradilar, yo bermaydilar. Hozirgi kunda yoshlar bir-birlarining ichki dunyosidan tashqari tashqi qiyofalariga ham katta e'tibor beradigan bo'lganlar. Ayniqsa, yigitning bo'yi juda muhim rol o'ynaydi. Qizlar uchrashuvdan qaytgan dugonalaridan darhol: «Bo'yi qanaqa ekan?», degan savol bilan murojaat qilishadi.

Sovchilik odati to'g'risida yana ko'p gaplar aytish mumkin. Ayniqsa, qadimgi sovchilar xuddi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifani bajargan elchiday maxsus sovchilik maktabidan o'tib, shunga mos iboralar, maqol va matallar, so'z o'yinlari, hozirjavoblik, sir va sukut saqlash, shirinzaonlik, shoirona ruh-u, olimona mantiq egasi bo'lib, oila madaniyatining yetuk arboblari darajasiga ko'tarilganlar.

Darvoqe, o'z farzandining taqdiriga beparvo bo'lmagan ota-onalar ham ko'pincha sovchilarning o'zini tutishi, dunyoqarashi, gap-so'zlariga qarab, yigitning qanday

odamligini ham ma'lum darajada tasavvur etishgan. Uchragan odamni sochilikka yuborish yaxshimas: bu yigitning o'z qadrini bilmasligigina emas, qiz qadrini yerga urishi hamdir. Oila qurishda eng avvalo yigit-qiz mas'ul bo'lsa, keyin sovchilardir. Shuning uchun ba'zi bir sovchilar qiz tomon rozi bo'lay-rozi bo'lay deb turgan mahalda, birdan fikrlari o'zgarib, o'zlarini elchilikka yuborgan yigitga, yigit tomonga «bu qizning ularga to'g'ri kelmasligini» tushuntirib, fikrlaridan qaytarmoqchi bo'ladilar. Chunki, ular bir-ikki borishdayoq ikkala tomonning xarakterlarini bir-biriga chog'ishtirib bo'ladilar. Ularning fikri inobatga olinmasa, mas'uliyatni bo'yinlaridan soqit qilib, ish pishiradilar. Sovchilar timsollarini yosh shoira Rislig'oy Hotamova shunday badiiy gavdalantiradi:

*Ko'tarishib tugunlarini
Kirib keldi uyga sovchilar.
So'zga chechan, avrashga usta
Biroz ayyor, biroz lofchilar.*

*Choy ichishib bir piyoladan,
So'z ochishdi kuyov boladan.
Musichaday beozor, yuvosh
Tili shirin zo'r qaynonadan.*

*Zap hunarmand, mulla deyishdi,
G'irt bezori bolalarini.
Obro'sini ro'kach qilishdi,
So'ng amma-yu, xolalarini.*

*Erkagina jayron edima,
Tillo zanjir solib ketishdi.
Aylantirib onam boshini,
Meni boshim bog'lab ketishdi.*

*Qiz boladir palaxmon toshi,
Men nima ham qila olaman.
Kelin bo'lay, bor alamimni,
O'sha bezoridan olaman...*

O‘ylashimcha, bizning Sharq mamlakatlarida xalqlar yashab, oila qurib, farzandlar tarbiyalab yangi avlodlarni qovushtirib, nikoh to‘ylari o‘tkazisharkan, qadimiy sovcilik odati ham saqlanib qolishi kerak. Chunki yangi oila sovcilikdan boshlanadi.

QO‘NOQ

Qo‘noq so‘zi turkiy xalqlarda mehmon ma‘nosini berib, qo‘noq tushish – mehmon qabul qilish odatiga rioya qilinadi. Qo‘noq odati turli viloyatlarda «qo‘niq», «qo‘nuq», «qo‘shxona» tarzida ham aytilib kelinadi.

Bu udum ko‘proq to‘y va mehmondorchilik odatlari bilan hamkorlikda, birgalikda o‘tkaziladi. Odatda shahar-qishloqlarda to‘y bo‘lganda, uzoq-yaqindan mehmon-izlom keladi. Ular ko‘pchilik bo‘lganligi tufayli «to‘y ko‘pchilik bilan» aqidasiga rioya qilgan xalqimiz barcha tashrif buyurgan kishilarni kutib-kuzatishadi. Bu o‘rinda qishloqlarda to‘y egasidan tashqari yana o‘nlab xonadonlar mehmonlarga quchoq ochadi. To‘yga kelgan mehmonlar yolg‘iz o‘zlari emas, bola-chaqa, oshna-og‘ayni, ot-u ulov bilan kelishlari tabiiy. Ular to‘yning bazmini o‘tkazib, oqshom tunab, ertasi oshga, so‘ng to‘y munosabati bilan o‘tkaziladigan ko‘pkari va kurash marosimlarida ishtirok etishadi. Ana shundan keyingina o‘z uy – o‘lan to‘shaklariga, qadrdon qishloq-shaharlariga qaytishadi.

O‘zbekning to‘yida bularning hammasi hisobga olingan bo‘ladi. To‘yboshi – kayvoni o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan to‘yning tadbirini rejalashtirar ekan, maslahat oshi kuniyoq qaysi qishloqdan kelgan qancha mehmon kimning xonadoniga tushishini, qo‘nib-qo‘noq bo‘lishini belgilab, uy egalarini bunga hozirlab qo‘yadi.

Shu taxlit to‘y o‘tkaziladigan qishloqning 10–15 xonadoniga qo‘noq tushadi. Bu xonadon sohiblari to‘y egasi bilan bab-baravar turgan to‘ychining aka-ukasi, qarindosh-urug‘i bo‘ladi. Qo‘noq egasi shunchaki to‘y egasiga qishloqdosh bo‘lishi ham mumkin. Qo‘noq odatida oqshom to‘yning bazmini o‘tkazib kelgan yoki ertangi ko‘pkari va kurash sovrinlariga tayyorlangan mehmonlar

shu yerda xordiq chiqarib, ziyofatni yeb yotishi ham mumkin.

Qo'noq tushgan uyda to'yxonadan keltirilgan masalliqdan qovurdoq, sho'rva, palov qilinadi. Buning uchun umumiy qozondan go'sht, yog', sabzi-piyoz ajratiladi. Ichkilik va gazaklar ham to'yxonaning bako-vulidan olinadi. Xullas, osh-ovqatning jami to'yxona sharbatxonasidan olinib, qo'noqxonada hozirlanadi.

Qo'noqxonada sohibi bu ovqat-oziqni tayyorlash, pishirib-kuydirib berish, non-choy, dasturxon, o'rin-ko'rpa va malolsiz tunash uchun javobgardir. Buning uchun xonadon sohibining o'zi, xotini, bola-chaqalari qamishdan bel bog'lab mehmonlar xizmatini qilib, ko'nglini olishadi. Chunki biror xonadondan biror qo'noq vakili to'ydan ranjib, norozi bo'lib ketadigan bo'lsa, qo'noqxonada va to'y egasi uchungina emas, balki butun qishloq ahli uchun katta isnod hisoblanadi.

Shunday qilib, to'yning to'ychig'i – kichik mehmon-dorchilik sanalgan qo'noq kutish odatida ham to'y-u tomosha, ham mehmondorchilik ziyofatining mushtarak jihatlari omuxta bo'lgan. Qo'noq har bir xonadonning qadimdan mavjud bo'lib kelgan maxsus mehmonxonalarida qabul qilinib, bir kecha-yu kunduz davomida izzati joyiga qo'yilib, so'ng kuzatilgan.

Siz kengroq tasavvur hosil qilishingiz uchun men buni bitta to'y misolida tushuntirib beray.

Aytaylik, Ismat chavandoz necha yillar, yig'ib-terib, dilidagi niyatini amalga oshirmoqchi, o'g'lining qo'lini halollab, elga osh bermoqchi, ikki kun ustma-ust ko'pkari bermoqchi. Elga osh berishda qo'noqxonada masalasi og'ir emas, ammo ko'pkarining daragini bir hafta-ikki hafta avval chor tarafga yoyadi. Uzoq-uzoqlardan to'p-to'p-lashib yig'ilib kelishaveradi. Avval hammalari to'yxonada yig'ilishib, to'yonalarini berishadi, ob-u ovqatlarini yeyishadi. Mana, ertasiga ko'pkari boshlandi. Endi chavandozlar haddan ziyod ko'payib ketadi. To'y xizmat-chilari har bir guruhning, to'pning oldiga borib, ularning boshliqlarining nomini bilib olishadi. Bir-biriga tanish, birgalashib kelgan mehmonlarning bir joyga tushishiga alohida e'tibor beriladi, chunki ular boshqa joylarga tushib

qolsalar, gap-gapga qovushmay, zerikishadi, siqilishadi. To'yboshi ko'pkarini boshqarib borayotgan hakamga kelib hisob berishadi. Hakam qo'noq tushirayotganlarni ham chaqirib, qaysi guruhning kimning xonadoniga tushishini avvaldan belgilab olishadi. Shundan so'nggina tayyor-garlik ishlari yuritiladi.

Chavandozlar, polvonlar odatda bunday qo'noq bo'lishni juda-juda qadrlaydilar. Chunki, shu bahonada ko'ngillarida yotgan dardlarini o'rtaga tashlaydilar, gurunglashadilar. To'ertalabgacha davom etadigan bunday gurunglarga men ham qatnashib, hech qaysi kitobda o'qimagan gaplarni eshitganman, dunyo kezishda, yurt ko'rishda ulkan hikmat mavjudligiga amin bo'lganman.

Qo'noq faqatgina yeb-ichib, mehmon bo'lib yotishgina emas, dunyo va odamlar haqida fikri bir joydan chiqadigan kishilarning ko'ngil yorishlari uchun qulay bir imkondir.

TO'Y

Siz karnay-surnaylar ovozi, nog'oraning taka-tumini uzoqdan etishgan zahotingizoq to'y bo'lyapti, deya yugurasiz. Ha, to'yning belgisi, xabarchisi – karnay-surnay, nog'oralar va Siz. To'y o'z nomi bilan – yaqin do'st-yor, qarindosh-urug' diydoriga, shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo'shiqqa, kurash-u ko'pkari tomoshasiga, bayram shodiyonalariga, kulgi va quvonchga to'yishdir.

Bizning o'zbek xalqi O'rta Osiyo mintaqasidagi boshqa qardosh xalqlar singari juda qadim zamonlardan buyon to'y qilib, elga osh berib kelgan. To'ylar, odatda, kichik bayramlardek o'tkazilgan. To'yning ham turlari ancha-muncha. Beshik to'yi, xatna-sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, payg'ambar to'yi (oshi), hovli to'yi, yosh sanalari bilan bog'liq to'ylar va hokazolar.

To'ylar ko'pincha qadimda qish faslida o'tkazilgan. Chunki bu faslda dehqon va kosibning qo'li ko'proq bo'sh bo'lgan. To'y – bu ko'pchilik to'planib nishonlaydigan ommaviy marosim. Qadimdan to'ylarda ota-bobolarimiz birato'las kurash, ko'pkari, askiya, masxarabozlik, dor o'yinlari, boshqa turli tomoshalar ko'riklarini o'tkazishgan.

Xalq orasidan pahlavonlar, san'at ishqibozlari, dovyurak, epchil chavandozlar tabiiy tanlanib, ajratib olingan.

BESHIK TO'Y (beshik soldida) yangi bo'shangan, beshikda bolasini emizib turgan onaga non tishlatib, bu non bolalarga olib qochdirilgan. Beshik narisiga, ayvonga shirinliklar, turli meva qoqilari sochilib, bolalarga talashib-tortishib tanovul qildirilgan. Bu bilan yangi tug'ilgan bolaning umri shirin, mo'l bo'lib, uzoq yillar hayotda sochilgan rizq-ro'zini yig'ib-terib yeb yursin, degan ma'no anglashilgan. Beshik to'yida bolani chillasi chiqib, uni beshikka belash marosimida ikki turmush ko'rgan, ajralgan xotinlar irim qilib qo'yilmagan. Beshikka muqaddas hisoblangan daraxt – tug'dona shoxi kesib olib, osib qo'yilgan. Bolaning beshik yostig'i ostiga pichoq, non parchasi qo'yilgan. Isiriq tutatilib, tumor osilgan.

Beshik to'yi bolalar uchun juda-juda quvonchli bayramdir. Chunki, ular o'z saflariga noma'lum bir bolaning kelib qo'shilayotganidan shodlanadilar. Umuman olganda, bolalik olami juda ham go'zaldir. U har bir kichik narsadan xursand bo'ladi. Buyuk oqin Abay behuda mana bunday demagan:

*Go'dak uchun beshigi - kattakon olam,
Onasining oq ko'ksi - jonajon olam;
Keng sahro ham tor kelar ulg'ayganida,
O'toviday ko'rinar bepoyon olam.*

MUCHAL TO'Yida insonning har 12 yilda bir o'z yili kelishi munosabati bilan, is chiqarib, belgi beriladi. Ayniqsa o'zbekchilikda birinchi muchal to'yi – 12 yosh alohida nishonlanadi.

NIKOH TO'Yida esa bo'y yetgan qiz-yigitning turmush qurishi bilan bog'liq bo'lgan qadimiy, an'anaviy odat-marosimlar amalga oshirilgan. Kuyov bo'lmish yigitga qo'yiladigan turli shartlarni Siz sevib o'qigan ertaklaringiz, baxshi bobolaringiz to'qigan dostonlardan yaxshi bilasiz. Oddiy xalqda kuyov bolaga o'tin yordirib, yer choptirib, chavandozligini, kurash tushishini, kamondozligini, kosib-ustaligini sinab, imtihon qilib ko'rishgan.

Qadim ajdodlarimizda o‘zaro kelishilgan holda bo‘lajak kelinni olib qochish rasm bo‘lgan. «O‘g‘irlab» kelingan qizni yigit nikohlab olishi uchun muayyan qonun-qoidalar asosida to‘y tadorigini ko‘rishgan. Shu munosabat bilan nikohdan oldingi va keyingi marosimlar amalga oshirilgan. Turkiy xalqlarda hamma ma’noda qizning bahosi baland bo‘lgan. Shuning uchun kuyov tomon kelin tomonga albatta qalin to‘lagan. Bu to‘lov pul, oltin-kumush, qo‘y-mol, gilam va kigiz shakllarida bo‘lgan.

Kelinni tushirib olish marosimi, ayniqsa, qiziqarlidir. Qadimiy ajdodlarimiz o‘t-olovga sig‘inishgani tufayli, otda, tog‘a yetaklovida kelgan kelinni (hozir yengil mashinada) kuyov bola otdan tushirib, darvoza oldida yoqib qo‘yilgan katta gulxan atrofidan uch bora aylantirib, so‘ng chimildiqqacha ko‘tarib olib kirgan. Bu bilan ajdodlarimiz yangi oilani olov taftida har xil ins-jinslardan, yomon ko‘zdan tozalagan. Ikkinchidan, er kishi umr bo‘yi o‘z jufti halolini izzat-hurmatda, qo‘lda ko‘tarib yurishini ramziy ravishda ifoda qilgan.

Xorazmda qadimdan xonadonga kelin bo‘lib tushgan yangi oila a‘zosi, bir yil davomida o‘z qaynonasi bilan og‘iz ochib gaplashmaydi. O‘g‘il o‘stirganning xizmatini qiladi, topshiriqlarini bajaradi, buyruqlarini quloq qoqmay ado etadi, ammo churq etib, og‘iz ochmaydi. Bu arazlagani, iddaosidan emas, odob-andishasidan, istihola qilganidan shunday muomalada bo‘ladi. Kelin birinchi farzandini tug‘ib, uni beshikka belaganidan keyin qaynona-oyisi bilan gaplashish huquqiga ega bo‘ladi.

Qaynota-kelin munosabatlari yana-da murakkabroq. Kelin necha yil davomida tug‘ilishidan qat’i nazar, to‘rt farzand ko‘rguniga qadar o‘z qaynotasi bilan gaplashmaydi. Qaynota otaning topshiriqlarini bajaradi, yumushiyu xizmatini qovoq-tumshuq qilmay o‘rniga qo‘yadi. Faqat bu ijroni gung-u soqovdek, hatto ovozi va shovrini ham chiqarmasdan bajaradi. Bu ham odob, andisha, istihola tushunchalarining eng oliy namunalaridir.

Albatta, kelin-kuyov to‘y kunlari maxsus kiyimboshlar kiyishgan. Bu kiyimlar yurtimizning qaysi vohasiga qarab, bir-biridan farq qilgan. Masalan,

Samarqand, Buxoroniki bir toifa bo'lsa, Surxon va Qashqa vohasiniki ikkinchi toifa, Farg'onaniki o'zi bo'lak bo'lsa, xorazmlik kelin-kuyovning kiyim-boshi tamoman o'zgacha bo'lgan. Bu tashqi belgilar ham xalqimiz madaniyatining juda boy va qadimiyligidan dalolat beradi.

Nikoh to'yigacha quda tomonlar o'rtasida maslahat oshi berilib, so'ng unashtirish marosimi o'tkazilgan. Xalq orasida bu odat «non sindirish» deb ham ataladi. Fotiha to'yidan keyin kelin tushgan xonadonga hayit, bayram kunlari hayitliklar jo'natilgan. Kelin tushishining o'zi katta bir marosim bo'lib, quda tomonlar azaldan amal qilib kelinayotgan taomilga rioya qilishgan. To'y kunidagi to'y jo'natish, tortishmachoq – kelin oyog'i ostiga tashlangan poyandoz talashish marosimlarining o'zi bir to'ydir.

Chimildiq (go'shanga)ga kirish bilan bog'liq odatlarning o'zi bir jahon. Kelin-kuyovning ustidan sochqi sochish, kelin bola va yangalar bilan kuyov to'ra va uning jo'ralari o'rtasidagi aytishuv, «belbog' yechdi», «kelin ko'tardi», «oyoq bosdi» odatlari shular jumlasidandir.

Nikoh to'yidan keyin bo'ladigan marosimlar ham xalqimiz jo'mard tabiati, qo'li ochiqlik odati, to'kin-sochin, erkin hayoti mazmunidan kelib chiqqan. Bular kelinning yuzini ochish, kelin salomi, kuyov tomon va mahalla xotin-qizlarining (yaqin erkaklarning ham) kelin ko'rdisi va so'nggisi – yoyilgan sejni yig'ishdir. Bu marosimni xalq orasida «joy yig'di» ham deyishadi. «Joy yig'di»da kutilgan natijani bermagan ayrim kelinlar hazar bilan ota-onasinikiga eltib tashlangan. Bu isnod qolgan barcha oilalarga qizlari, bo'lajak kelinlari uchun katta saboq rolini o'tagan.

HOVLI TO'Yida qishloqdoshlarning, qarindosh-urug'larning katta hashari yo'li bilan qurilgan yangi imoratga ko'chib kirilgach, xudoyidan keyin maxsus to'y qilingan. Bu to'y ham ko'proq kuz yo qishda o'tkazilgan. Hovli to'y munosabati bilan yanada shinam, ko'rkam, orasta, xonakilashgan. Hovli to'yidan keyingina yangi imorat o'zlashtirilgan, unda yashashga o'rganilgan, kirishilgan. Bu to'y ham nikoh to'yidek oila uchun eng baxtiyor, tantanavor marosimdir. Boshpana, imorat

hovlilik yosh oila endi oyoqqa turib olgan. Barqaror, qabila, qishloq, elatning kori-xayriga yaraydigan mustahkam qo'rg'on sanalgan.

To'ylarning har qishloqda katta-kichikni yaxshi taniydigan kayvonisi, qo'li yengil sartarosh-ustasi, qo'li shirin oshpazi, epcil dasturxonchisi bo'lganidek, alohida aytimchi-jarchisi ham albatta bo'lgan. Bu aytimchi-jarchilar zamoniga, joyiga, qishloqlar hududining katta-kichikligiga qarab, piyoda, otda, eshakda, velosiped, mototsikl yo mashinada o'qtin-o'qtin to'xtab, jar solganlar. Masalan:

*Ota-yo, bobo-yo,
Aka-yo, uka-yo,
Bola-yo, baqra-yo,
Ertaga azonda
Beshkaltalik Halimboynikiga,
O'g'lining xatna to'yiga,
Jamoja jappa, oshga-yo-yo!!!*

yoinki:

*Ota-yo, bobo-yo,
Aka-yo, uka-yo,
Erta oqshom
Oftobro'yadagi Ro'zivoynikiga
Qizining nikoh to'yiga-yo-yo!!!*

Ayrim mo'ysafidlar, nogironlar, qulog'i og'ir keksalar, diniy arbob, hurmatli kishilar qishloq oqsoqoli tomonidan maxsus kishi yuborib, to'yga chorlanganlar.

Sho'ro zamoni davrida, to'y marosimining mazmuni ham shakli-shamoyili ham ancha o'zgardi. To'g'ri, ilgarigi zamonlarda ham o'zbekning to'yida qozoqning polvoni, qirg'izning o'lanchisi, tojikning ustasi, turkmanning chavandozi, albatta, izzatli mehmon sifatida faol ishtirok etgan. Tabiiyki, o'zbek to'yida bu xalqlar lafzi-shevasi ham jaranglab turgan. Biroq yangi tuzumga kelib, bu qirralar yanada kuchaydi. «Qizil» to'ylar, «vecher»lar odat bo'ldi. Ichkilikbozlikka ruju qo'yildi. To'y deganda ichkilik, maishat tushuniladigan bo'lib qoldi. To'ylar ham

baynalmilallikning misoli-namunasi qilib ko'rsatildi. Bu marosim osiyocha-yevropacha omuxtalashdi. Xalqlarimizning odat va marosimlari bir-birlariga qo'shib, chatishib, omuxtalashib ketdi. Bundan yangi shakl va mazmun hosil bo'ldi. Demak, to'y marosimlari yangi qiyofaga kirdi.

Hovli to'yi, yosh va tavalludning ma'lum pog'onalari bilan bog'liq bo'lgan nishonlash ommaviy marosimlari paydo bo'ldi. Bular kumush to'y - turmushning birgalikda kechgan 25 yili, oltin to'y - 50 yili, brilliant to'y - 75 yili kabi turlaridir. Ota-ona, bobo-buvilaringizning turli yubiley kunlari 50, 60, 70, hatto 100 yillik to'ylarini ko'pchilik bilan nishonlash odat tusiga kirib qoldi.

Mustaqillik yillarida to'ylar yana qaytib milliy o'zanga tushdi. Ixchamlashdi. Oilaning tantanali, tarixiy marosimiga aylandi.

To'yning xokisor, bejirim o'tkazilishi ham to'y egasining ma'naviy qiyofasi yuksakligini ko'rsatadi. Poraxo'r-haromxo'r kimsalar to'y bahonasida o'zlarining kimliklarini, kuch-quvvatlarini ko'rsatib qo'yimoqchi bo'ladilarki, bu ma'naviy tubanlikdir. Ko'pchilikning holatiga qarab, o'shalardan kam ham emas, ko'p ham emas - o'rtamiyona to'ylar o'tkazish zarur.

TO'YONA

To'y marosimi haqida gapirdik. O'zbek xalqi qadimdan to'yga to'yona bilan borgan. To'yona - to'yga, to'y egasiga sovg'a-salom bilan borish degani. Ba'zi viloyatlarimizda bu odat to'yona emas, qo'shanch (qo'shish) deb ham yuritiladi. To'y bo'layotgan xonadonga qarindosh-urug'lar, do'st-birodarlar yakka-yakka, ba'zan guruh-guruh, jamoa bo'lib, ishxona, xizmatdoshlar vakillari bir bo'lib, turli sovg'a-salom qilishlari mumkin.

To'yona qilish qadim zamonlarda tuya, ho'kiz, sigir, qo'y keltirish misolida bo'lgan. Uning miqdori ham to'y egasining va to'yonachining moddiy imkoniyatlari, iqtisodiy-ijtimoiy mavqeyi, darajasiga va albatta, zamoniga qarab bo'lgan. To'yona nafaqat, o'zbeklarga, balki barcha turkiy xalqlarga, yondosh-jondosh tojik,

qozoq, qirg'iz xalqlari ruhiyatiga ham xos bo'lgan qadimiy odatlardan biridir. Biz atrofimizda yashab kelayotgan qrim tatarlari, turklar, koreyslar ham bu odatni o'z an'analari qilib olganliklarini yaxshi bilamiz.

Nega to'yona berish odat bo'lib qolgan? Sababi to'y qilgan odam, xoh u farzandining qo'lini halollasin, xoh qiz yo o'g'liga nikoh o'qittirsin, katta to'y qilib, uning xarajatlari tufayli moddiy-iqtisodiy tomondan ancha «abgorlashib» qoladi. Ya'ni, u elga osh berib, dasturxon yozib, bir necha million so'm pul, mablag' sarf qiladi. Qilmasin, biz uning xarajati kafilini olibmizmi, deyishi mumkin ayrimlar. Biroq o'zbek millatiga mansub, umuman musulmon odam bunday demaydi, deyolmaydi. Ayniqsa, yaqin kishilarning bunga joni achimaydimi?! Shundan xalqimizda, «o'g'lining qo'lini halollaganga yetti yil tegma», degan naql qolgan. «Qiz chiqarganga qirq yil tegma», deyishadi. Bu bilan, bu oilalar bor-bud yiqqan-terganini sarflab, katta qarzdor bo'lib qoldi, endi ularga xarajat to'g'risida umuman gap qilma, degan ma'no beriladi. Xuddi shu kun o'zbekchilikda ertaga o'zingizning boshingizga ham tushadi.

Shuning uchun ham ertangi kunni yengillashtirish uchun, yana bir jihati shu yaxshi kunlar, shirin tashvishlarni niyat qilib ham kishilar bir-birlariga to'yona qilishadi. Bu ham o'zbek xalqining bag'ri keng, saxovatli, kelajak istiqboliga ishonch bilan yashovchi, keng fe'li xalq ekanligidan dalolat beradi.

Bu odat ham ayni paytda o'ziga xos hashar bo'lib, to'y egasining yelkasidagi og'ir yukni ancha yengillashtiradi. To'yona odami va joyiga qarab uy jihozlari, ro'zg'or anjom-ashyolari ham bo'lishi mumkin. Ro'zg'or - g'or deyishadi. Unga nimalar kerak bo'lmaydi, deysiz?! Shifoner, divan, stol-stul, radio-televizor, soat, muzlatgich, gilam, palosdan tortib sanchqi-yu qoshiqqacha hamma-hammasi kerak. Shuning uchun ham yangi oila ehtiyojlarini yaxshi bilgan yaqin kishilar o'zaro kelishib, ro'zg'or uchun eng zarur ashyolarni to'yona o'rnida sovg'a-salom qilishadi. Turli yosh sanalari bilan bog'liq to'ylarda o'zbeklar sarupo: do'ppi-chopon, belbog', to'ychi

rasmi tushirilgan turli-tuman kattalikdagi chinni ko'zalar yoki gilamchalar sovg'a qilishadi.

Oilaning eng yaqinlari: aka-uka, opa-singil, quda-anda to'yning bir tomonini ko'tarishlari ham mumkin. Chunonchi, birov guruch, birov non, yana birov yog', boshqasi qand-qurs va hokazolarni o'z zimmasiga oladi. Ayollar odatda, dasturxon usti pishiriqlari, go'sht va sabzavot gazaklari, qazi-yu qarta, somsa-yu manti, tort-u pirojniylar tayyorlab, to'yga to'yona qilishni xush ko'rishadi.

To'yona-qo'shanchning hamma zamonlar uchun eng maqbul shakli qurb yetgan darajada pul, mablag' bilan yordam qilish usulidir. O'zbeklar «qiynalsang, qiynalmaysan» aqidasiqama amal qilib, hozir andak oila xarajatlaridan tiysalar-da, keyinchalik to'y tashvishi boshga tushganda, qiynalmasliklarini hisobga olib, imkoni boricha yuqoriroq miqdorda pul to'yona qilishga intiladilar.

Qadim zamonlarda amir, xon, beklar o'z mavqelaridagi to'y egalariga oltin-u zabarjad, qimmatbaho buyumlar, «o'lmaydigan mollar» sovg'a-salom qilganlar. Hozirgi kunda do'st, tanish, xizmatdosh kishilar bir-birlarining to'ylariga imkon darajasida pul to'yona qiladilar.

To'yona degani bu sadaqa emas. U yeb ketarga, xudo yo'lga berilmaydi. To'yona bu o'ziga xos qarz berish bo'lib, xalqona «jamg'arma xazina»si degan gap. «Qarz berish - sadaqa qilganning savobini beradi», deyiladi hadislarda. Bu ham o'ziga xos mushkul ahvoldagi kishining hojatini chiqarish, unga xolisanillo ko'maklashish hisoblanadi. Shuning uchun ham to'ylarda to'y egasining o'zi yoki uning eng yaqin kishisi (u hammani yaxshi tanishi lozim) qo'lida qalam-daftar bilan kimning to'yiga nima, qancha qo'shanch qo'shganligini albatta yozib, «hujjatlashtirib» boradi. Chunki olmoqning bermog'i ham bor. Yaqin vaqt orasida «o'lmagan qul» to'yona berganlarning to'ylariga «qamishdan bel bog'lab» xizmat qilishi, albatta unga quruq qo'l bilan bormay, o'ziga yarasha himmat ko'rsatishi lozim bo'ladi. Ana shu yo'sin to'yga to'yona bilan boriladi. O'zbeklarda «hisobli do'st ajralmas», deb shunga aytiladi.

Biz to‘yonani yuqorida «qarz» deb aytdik. Biroq faqatgina shu «qarz»ligi e‘tiborga olinsa, balki u umri uzun udumlarimiz sifatida unchalik ham e‘tiborga loyiq bo‘lmagan bo‘lardi. To‘yonaning yaxshi niyat, kishining o‘ziga tilaydigan tilagi sifatida ham ma‘nosi ulug‘dir.

O‘zi durustgina ishda ishlaydigan, biroq farzand ko‘rmagan bir kishi qaysi to‘yga borsa, albatta, biron nima to‘yona qilar, so‘ngra qariyalarga yuzlanib:

– Qani, bir duo qilinglar-chi, bizni ham shunday kunlarga yetkazsin, – derdi. Chollar duoga qo‘l ochishardi.

Shu tariqa qaraganda farzand ko‘rib, niyati ijobat bo‘lganlar ham juda ko‘pdir. Harholda, to‘yonani, dildan chiqarib bergan kishi savob oladi, deyishadi.

GAP-GASHTAK

Ajoyib xalqparvar shoir Mahtumqulining mana bu misralari hammangizga ham yod bo‘lib ketganligi rost:

*Har yigitning aslini bilay, desangiz,
Ma‘rakada o‘tirib-turishin ko‘ring...*

Odam bolasining nasl-nasabi, hamiyati, oriyati haqidagi bu misralar kishini chuqur o‘ylarga toldiradi. Xalqning udumlarini, intilishlarini his etgan she‘rxongina bundan qattiq mutaassirlanadi.

Gap-gashtakda tengdosh, mahalladosh, sinfdosh, kursdosh, xizmatdosh, maslakdosh do‘stlar bir jamoa tashkil etib, bu jamoa belgilangan muddatlarda (oyda, bir yarim oyda, ikki oyda) to‘planishib, o‘tkaziladi. Gap-gashtaklar nomi eskidan «izdihom», «davra», «gap», «gashtak», «gap o‘ynash», «osh» singari ma‘nodosh so‘z va iboralar bilan atalib kelgan. Gap-o‘yinlar aslida qora tiramoh, qish kunlariga mo‘ljallangan bo‘lib, uzun qish kechalarini obod, mazmunli qilish, ko‘ngil yozish uchun tashkil etilgan. Qishloq joylarda ko‘proq bu odat rasm bo‘lgan. Qishloq ahlining asrlar osha shaharilashishi munosabati bilan shaharlarga ham bu odat ko‘cha borgan.

Gap-gashtak o‘z nomi bilan gap, davra, suhbat, maslahat, o‘yin-kulgi, osh, jamoa bo‘lib ko‘pgina oilaviy,

jamoat muhim ishlarini hal qilishga ham katta yordami tekkan tadbirdir. Gap navbati berilgan xonadon unga yaxshi, puxta tayyorgarlik ko'rgan. Qo'y so'yilib, tandir nonlar yopilgan. Qishga asralgan yaxshi qovun-tarvuzlar, uzum-anorlar omborlardan olib chiqilgan. Belgilangan soatlarda mehmonlar izzat-hurmat bilan kutib olinib, davraboshi marhamatiga ko'ra yosh va mavqeyiga qarab joylashtirilgan.

Bunday gap-gashtaklarda birovning qizini turmushga berish, o'g'lini uylantirish, hovlisini hashar qilib qurib berish, ommaviy marosimlarni o'tkazish kabilar rejalashtirilgan. Birinchi yoqqan yoki katta tushgan qor munosabati bilan qorxatlar ham shunday davralarda ijod qililib, yozilgan. Jangnoma kitoblar o'qilgan, yassaviy-xonlik, mashrabxonlik, navoiyxonlik bo'lgan. «Yusuf Zulayho»-yu, «Zaynul Arab»lar mana shunday izdihomalarda o'qib tushirilgan.

Albatta, qadimdan «teng-tengi bilan», degan aqidaga amal qilgan ajdodlarimiz har kim o'z teng-to'shi bilan gap o'ynashiga amal qilishgan. Keksa namozxon otaxonlar bir bo'lak, yosh-yalang yigitlar bir bo'lak. Oilali, bola-chaqali o'rta yoshlilar o'zi alohida gap-gashtaklarga birlashganlar.

Qadimda kundalik matbuot, radio-televideniye bo'lmaganligi tufayli bunday joylar axborot olish manbayi, hayotdan, siyosatdan, ma'rifatdan yangiliklar eshitish joyi ham hisoblangan. Shuning uchun ham bunday gashtaklarning bir qismi choyxonalarda, jamoat joylarida o'tkazilgan. U yerlarda sayyohlar, o'zga yurtlik musofir kishilar, olim-u fozillar, shoir-u adib suhbatlari tinglangan.

Gap-gashtak a'zolari tengdosh do'stlar, faqat yigitlardan iborat bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda bunday izdihomlarda oilaviy gap-gashtaklar ham rasm bo'lib ketgan. Oilaviy davrada er-xotin juft-juft dasturxon atrofidan o'rin oladilar. Ayrim o'ta yaqin, oralarida begonasi bo'lmagan sinamol davralarda bola-baqra ham ishtirok etadi. Bu holda uch uy: erkaklar, ayollar, bolalar «gap yeydi»lar.

Bizning zamonamizga kelib, endi gap-gashtaklar na vaqt, na hudud biladi. Qishloqda bo'lsin, shaharda bo'lsin,

birday o'tkazilaveradi. Mavsumi ham tanlab o'tirilmaydi. Bahor, yoz, kuz, qish - yil o'n ikki oy baribir, navbati bilan davra qurilaveradi. Gap-gashtaklarda albatta, mashshoq, hofiz, shoir-baxshilar taklif qilinib, ishtirok etib kelishgan. Hozir ham bu an'ana davom etib kelayotir. Yo davra ishtirokchilari ichida gap a'zosi sifatida mavjud bo'lgan, yoki maxsus taklif qilingan san'atkorlar gashtakchilar kayfiyatini yanada ko'taradilar.

Bugungi kunda gaplarning mazmuni, mavsumidan tashqari turlari va mohiyati ham ancha o'zgarib ketdi. Shuning uchun ham uning an'anaviy va ba'zi ijobiy yangilik tomonlariga olqish aytgan holda, ayni paytda ma'naviy foyda-zarari haqida o'ylab fikr aytish lozim. Bunday izdihomlarning foydasi nima? Avvalo, insoniy qadriyatlar unutilib, har kim o'z kavagiga biqinib, televizorga tikilib qolgan zamonamizda axborotlarning yetishmasligi sababidan emas, aksincha axborot tog'lari ostida qolgan odamlar o'zaro insoniy mehrga, oqibatga intilib, bu borada maslakdoshlar shunday davralar quradilar. Bu davralar bir qishloq, bir tuman, bir viloyat kishilarini, kasbdoshlarni, mahalladoshlarni birlashtirishi mumkin.

Hozir gaplar «osh» deb atalib, ko'chma tarzda ham o'tkazilaveradi. Mavsumga qarab, bahorda tog'-qir yon bag'irlari, yozda daryo bo'ylariga, qishda choyxona va xonadonlarga ko'chirilishi mumkin. Hozir gapning mazmun-mohiyatidan tashqari vazifasi ham birmuncha o'zgartirgan. Ya'ni, gaplarda «gap o'ynagan» a'zolar nafaqat mashshoq maqomlariga yo'rg'alaydilar. Balki uning moddiy-mohiyaviy jihati ham mavjud bo'lib, davraning tarkibi va davomiyligi mana shu tomonga ham bog'liqdir. Deylik, o'n juft mehmon kutgan oila (xoh uy, choyxona, dala) 3-4 xil taom tayyorlab, dasturxon bezab (ularning hammasi mehmonbop, sarxil bo'ladi, albatta) kamida 50-60 ming pul sarf qiladi. Buncha xarajatni u qayerdan oladi? Shu o'rinda gapdoshlarning «yig'ma xazina»si yordamga keladi. Oila boshiga 10 ming so'mdan «yig'ma» solingan bo'lsa, 100 ming chiqdi, degan so'z. Shu yo'sin har bir oila o'z himmati bilan har bir navbat olgan

do'stining «hojatini» chiqaradi. Bundan six ham kuymaydi, kabob ham. Davra davom etaveradi.

Ilgarigi gap-gashtalarda ham, hozirgi gaplarda ham maqtovga sazovor, ibrat olsa arziydigan fazilatlardan tashqari, tanqidga loyiq qirralar bo'lgan va hozir ham mavjud. Bular qadimda ayrim davralarda boyvachchalik, manmanlik, bachchavozlik, taryokchilik, chilimxo'rlik bo'lgan bo'lsa, bizning zamonamizda ichkilikbozlik, ba'zan taryokchilik illati hamdir. Me'yorini bilmagan, haddidan oshgan er-ayollar yaxshi tarbiya vositasi hisoblanib kelgan gap-gashtakni tarbiyasizlik, fosiqlik manbayiga aylantir-moqdalar. Moddiy to'qchilikdan «ko'zini yog' bosgan» ayrim er va xotinlar manmanlik bilan o'tirish, davra hofiz-o'yinchilariga katta pullar yopishtiradilar. Ichkilikka ruju qo'yadilar. Ba'zilari hatto axloqiy buzuqchilikkacha borib yetadilar.

Bu haqda taniqli adib Xudoyberdi To'xtaboyevning «Gap o'ynagan xotinlar» turkum felyeton-essesi zamonaviy «gap»larning salbiy jihatlari yaxshi ochib bergan.

Nima bo'lganda ham yaxshi niyat bilan, xush axloq-u birdamlik, mehr-oqibatga yo'g'ribilib, bizning zamonlarimizgacha yetib kelgan, yangi-yangi shakllarda o'z hayotini davom ettirayotgan qadimiy odatimiz gap-gashtakni ham saqlab qolib, keyingi avlodlarga yetkazish bizning burchimizdir. Osh ichidagi tosh va kurmaklar singari gap-gashtakdagi g'ayriinsoniy jihatlarni terib olib tashlash bu boshqa masala...

V BOB.

UMRGUZARONLİK



URUG‘, SHAJARA, SULOLA

Ba’zida Sizdan keksa chollar: «O’g’lim, kimning farzandisiz, kimlardansiz?» deb so’rab qoladi. Aslo: «Familiyangiz nima?» deyishmaydi. Siz otangizning, nari borsa, bobongizning ismlarini aytasiz. Savol bergan chol: «Ha, novvoylardan ekansiz-da», deydi. Siz bundan hayron bo’lasiz. Chunki oilangizda hech kim novvoylik bilan shug’ullanmaydi. Uydagilardan borib so’raganingizda gapning mag’zini chaqib olasiz. Haqiqatan ham, bobongiz yo bobongizning otalari novvoylik bilan shug’ullangan bo’lib chiqadilar. Siz ham shu novvoylar sulolasining davomchisi, avlodi sanalarkansiz.

Qadimgilar o’z shajara, urug‘, sulola, ajdod-avlodlarini yaxshi bilishgan. Turkiy xalqlar uch katta bo’lakka: qorluq-chigil, qipchoq va o’g’uz singari katta urug’larga bo’linadi. Dunyodagi barcha turkiy xalqlar mana uch bosh urug’lardan tarqab, so’ng turli kichik urug’ va shajaralarga bo’linib ketadilar. Bizning nisbiy jihatdan o’zbek xalqi deb atalib qolgan xalqimizning o’zi yuzlab urug’, elat, xalqlardan tarkib topgan bo’lib, ming yillar davomida bir-biriga aralashib, ko’pchilikning qoni qo’shib, bugungi avlodlar, Siz va bizning avlodlarimiz paydo bo’lib, shakllangan.

Shunday bo’lsa-da, hali ham turkiy xalqlarda urug’ surish odati saqlanib qolgan. Qozoqlarda masalan, uch juz (yuz) – katta juz, o’rta juz, kichik juz bo’lib, ayni paytda ular ham kichik urug’larga bo’linadi. Hatto qozoq do’stlarimiz har bir juzning kasb-kori, sulolasini ham azaldan belgilab qo’yishgan:

Katta juzning qo’liga tayoq berib, molg’a qo’y. (molchorva)

O'rta juzning qo'liga qalam berib, dovg'a qo'y (dov - yozuv-chizuv).

Kichik juzning qo'liga qilich berib jovg'a qo'y (jov - dushmanga, askarlik, sipohilik).

O'zbeklarda xo'ja, sayyid urug'laridan bo'lgan eshonlar boshqa yuz, urug', shajara yoki qorachalarga qiz bermaganlar. Hozir ham bu odat ba'zan ko'zga tashlanib qoladi.

Deylik, Sizning urug'ingiz eng katta va xalqimiz orasida keng tarqalgan urug'lardan qo'ng'irot bo'lsin. Shu bir qo'ng'irot urug'ining o'zi o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlarining ham katta qismini tashkil etadi. Shuning uchun bilingki, qo'ng'irot bo'lsangiz, qozoq ham qirg'iz ham sizga begona emas. Urug'dosh, avlod, tog'a-jiyan, og'a-inidir.

Qipchoq ham xuddi shunday. Uning urug'larini qozoqlar, qirg'izlar, Sibir o'zbeklari, xorazmliklar, qoraqalpoqlar orasidan ham ko'plab topishimiz mumkin. O'g'uz urug'lari esa Xorazm, Turkmaniston, Ozarbayjon, Eron, Turkiya xalqlarini qamrab olib, bir-birlariga qonqarindosh qilib bog'laydi. Et bilan tirnoqni ajratish mumkin bo'lmaganidek, bu urug'larni ham milliy va hududiy chegaralarga ko'ra ajratib tashlashning hech qanday imkoni yo'q.

Qo'ng'irot urug'i yana o'ttiz kichik urug'ga bo'linib ketadi. Qozoq do'stlarimizning rivoyat qilishlaricha, bu o'ttiz urug' - og'a-inining yigirma sakkiztasi tarix taqozosi-yu, zamonaning zayli bilan hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida qolgan, faqat ikkitaginasini hozirgi Qozog'iston hududida bo'lib, mana shu ikki urug'dan qozoqning juda katta aymog'i tarqab ketgan ekan. Aslini surishtirsangiz O'rta Osiyo, Qozog'iston qadimgi paytlarda bunday bo'linib tashlanmagan paytida umuman Turon zamini atalib, Sharqiy Turkiston (Xitoydan Toshkentgacha) Movarounnahr (Sirdaryodan Amudaryogacha), Xuroson (Amudaryodan Erongacha) mintaqalariga bo'lingan bo'lib, ular orasida millat ajratish bo'lmagan. Sharqiy Turkistonlik, Movarounnahrlik, Xurosonlik deb atalishgan. Urug' jihatdan surish-

tirilganligi rost. Bu tomondan esa uch mamlakatdagilar ham bir-birlariga qarindosh bo'lib chiqqanlar. Chunki ular qiz berib, qiz olib, bir-birlariga qon-qarindosh bo'lib ketishgan.

Ota-bobolar o'z nasl-nasab, urug', sulola, shajaralarini avlodlar osha saqlab qolib, mustahkamlashga, obro'yi, mavqeyini kuchaytirishga butun umr harakat qilganlar. Masalan, qo'ng'iroq urug'lari keng-mo'l dalalarda, yaylovlarda o'tov tikib, o'lan aytib, chorva va yilqi, tuya tuyog'ini ko'paytirish bilan shug'ullanishgan. Kenagas urug'lari karvon qo'ng'iroqlarini jiringlatib, Chinmochin-u Hind, Eron-u Turon zamini bo'ylab savdo-sotiqni rivojlantirganlar. Barloslardan lashkarboshilar ko'p chiqqan. Qurol-yarog'ni mohirlik bilan ishlatish ham barloslarga tan bo'lgan. Jaloyirlar navkarlar rasmini yaxshi bilganlar. Ularning katta qismi bu ishni o'zlariga kasb qilib olganlar.

Mana shu yo'sin qadimgilar ota-bobolari, urug'-ajdodlariga qarab, shajara surganlar, sulola bo'lganlar. Shajara ma'lum bir oilaning, avlodning qaysi urug'dan kelib chiqqanligi, qaysi avlodlarni o'z tarkibiga kiritishiga qarab belgilangan. Masalan, o'zbek xalqining tarixda mashhur shajaralaridan biri Temuriylar shajarasidir. Bu avlod barlos urug'lariga mansub bo'lib, quyidagicha bo'linadi:

Bahodir Tarag'ayning o'g'li Amir Temur, Amir Temurning o'g'li Shohruh mirzo, uning o'g'li Mirzo Ulug'bek, Ulug'bekning pushtikamari Abdulatif mirzo... singari.

Bobur mirzo shajarasi:

Amir Bahodir Tarag'ayning o'g'li Amir Temur, Temur Jahongirning uchinchi o'g'li Mironshohning o'g'li Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzoning o'g'li Sulton Abusaid, Abusaid Mirzoning o'g'li Umarshayx, Umarshayx Mirzoning farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur, Bobur mirzoning o'g'li Humoyun mirzo, Humoyunning o'g'li Akbarshoh va hokazo.

Albatta, shajarada shox va butoqlar ham ko'p bo'ladi. Ya'ni, avlodning ona tomonidan tarqalishi, aka-uka, tog'a-

amaki va xolavachchalari urug'larini bilish ham shajara aniqligini yanada mustahkamlaydi.

Eski paytlarda shajara o'z navbatida sulolani ham belgilagan. Misol uchun podshozodalar azaldan yurt boshqarishgan. Farzandlar ham shunga o'rgatilgan. Lashkarboshlarning keyingi avlodlari ham xuddi shunday lashkarboshilik bilan shug'ullanganlar. Temirchi-yu, qurolsozlarning o'g'il-u nabiralari ham ana shu kasbni davom ettirganlar. Sandiqchidan sandiqchi, beshik ustasidan beshikchi, soz ustalaridan dutor, tanbur yasovchi avlodlar tarqagan. Attor avlodi bilan savdo ishini, tabib shifoi-shafqatni, maddoh din-u tariqat, ollo-yu payg'ambarlar madhini avlodlar osha davom ettiruvchi sulolalarga birlashganlar. Bir so'z bilan aytganda, hozirgi iqtisodiy siyosatimiz talab qilganiday, har kim o'z ishi bilan shug'ullangan. Bu kasbni takomillashtirib, hunar mahsuloti son va sifatini oshirganlar.

Hozirgi paytda ko'p shajaralar o'z sulolalari kasb-korlarini tark etib, unutilib, boshqa kasblarning etagini tutib ketishgan. Xalqimizda «ota kasbini qilgan baraka topadi» degan naql bor. Bu naqlda hikmat ko'p. Chunki kishi o'z ota-bobosi qilgan ish bilan mashg'ul bo'lsa, avvalo, bunga barcha asos va qo'r bo'ladi. Do'konni yangidan qurmaysiz. Borini mustahkamlab, takomillashtirib, zamonangizga moslab davom ettiraverasiz. Yoshlik paytingizdan bu ishni ko'rib, ko'zingiz pishib, qo'lingiz epaqaga kelib katta bo'lgansiz.

Yangi kasbni o'rganib, uni tirikchilik manbayiga aylantirib olishingiz uchun esa bir necha yil vaqt, bir qadar mablag', asab sarflashingiz lozim bo'ladi. Undan keyin ham to bu kasb ustalari darajasiga yetib, shuhrat topguncha, ona sutingiz og'zingizdan keladi. Bu yo'lda sinib, o'zingizni o'ng'arolmay qolishingiz ham ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ham hamma zamonlarda o'z shajara va sulolasi kasbi-korini tark etmaganlar aslo xor bo'lishmagan. Novvoy, qassob, shiravorpaz, kosib, temirchi, sohibkor, chorvador, zargar, duradgor, attor, tabib, kulol, imoratsoz va hokazo kasblar sulolalari avlodlari ham turmush muammolari oldida yer chizib, armonda qolmaganlar. O'z

kasb-korlari bilan oila beshigini tebratib, bola-chaqa rizq-ro'zini topib berganlar. Ayni paytda mamlakat boyligini yaratib, Vatan bozorlarini obod qilganlar. «Och qolsang ham otang odatini qo'yma», degan naqlning mag'zini chaqsangiz, bu gapning ma'nosiga yetasiz.

Aziz yosh do'stlar. Hozir hammamiz ham o'z urug', shajara, sulolamizni yaxshi bilavermaymiz. Bu jihatdan ham yana qozoq do'stlarimizdan ibrat olsak arziydi. Ular o'z yetti pushtlarini yaxshi bilishadi. Yetti avlodini bilgan odam ularning shajarasi-yu kasb-korlarini ham chuqur bilishi tabiiy.

Sizlarga ozmi-ko'pmi odatlar haqida ma'lumot berishga intilayotgan mening o'zim ham bu jihatdan maqtan olmayman. Zamon nuqsi, beshafqat tamg'asi menga ham xos. Aniqlashimcha, urug'im kenagas, bobolarim karvon boshlab xorijiy yurtlarda savdogarlik bilan shug'ullanganlar. Buvimning aytishlaricha, Buxoro amirlari Kitobga kelganlarida biznikiga qo'nishar ekan... Savdogarlarning farzandlaridan o'qimishli, fozil odamlar ko'p chiqqanligi tarixdan sizga ma'lum.

Kitobga inqilobchilar kirgach, bir mulla tog'am yangi hukumat rahbarlaridan biriga aylangan. O'z elatdoshlarini zamona zayli bilan jazolagan. O'zgalarga qo'shib, hatto o'z otasi, bobom G'affor Attorni ham quloq qilib yuborgan... Mening otam ham alg'ov-dalg'ov zamonda sulola-yu shajara, kasb-koridan vaqtincha voz kechib, qishloqda oddiygina sohibkorlik-bog'bonlik bilan shug'ullangan. Yaqinda menga bir hosilot (agronom) jo'ramning ma'lum qilishicha, otam sohibkorlikda ham qo'l qovushtirib o'tirmagan ekan. Qora charos uzumning ikki turini (qora va sochal qora) chatishtirib, ko'p yil tajriba qilgan, yangi navning afzalligini bilgach, uni bog'imizda navlashtirib, ko'paytirgan ekanlar. Bu nav o'tgan asrning 60- yillaridayoq Shreder nomidagi bog'dorchilik institutining Samarqand bo'limida seleksionerlik ixtirosi sifatida tan olinib, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida navlashtirilib, ommalashtirilgan, jamoa xo'jalik bog'lariga ekib yuborilgan ekan. Mening otam yaratgan yangi nav Sattor qora deb atalib, ko'p bog'larning eng yaxshi, hosildor uzum navlaridan sanalarkan...

Shajara, sulolaning ishini davom ettirish, an'anaviylik hamma zamonlarda olqishlanib, qo'llab-quvvatlangan. Bu tadbir, xalq boyligi, davlat boyligi sanalgan. Shuning uchun ham davomchilar davlat, hokimiyat rahbarlari tomonidan rag'batlantirilgan. Ming afsuski, tarixda bo'lmagan ishlar bo'lib, sovet zamonida, yaqin o'tmishda, bu mumtoz an'anaga shak keltirgan rahbarlar chiqdi. Muallimning bolasidan muallim, tabib-shifokorning avlodlari shifokor, savdogar farzandidan tijorat kishisi, olimning o'g'lidan olim yetishib chiqishi qat'iyani taqiq-landi. Ommaviy axborot vositalarida qadimgi an'anani saqlab qolgan birda-yarim fidoyi shunday oilalar qattiq tanqid ostiga olindi. Taqiqni buzganlar «o'z amalini suiiste'mol qilish»da ayblandi.

YANGI HOVLI

Oila-xonadon boshpana bilan tirik. Boshpanalik bo'lish esa hamma zamonlarda ham oson bo'lmagan. O'zbek xonadonlari azaldan serfarzand, katta ro'zg'or bo'lib kelishgan. Bo'y yetgan qizlar uzatilgan. Voyaga yetgan o'spirinlar uylantirilgan. Yangi oila, yangi ro'zg'or tashkil bo'lgan. O'zbeklar odatda «qiz birovning xasmi» deya, «chiqqan qiz chig'iriqdan tashqari» aqidasi bilan qizlarni kelin bo'lib tushadigan joylarga g'oyibona mehr-muhabbat, ilinj tuyg'ularida tarbiyalaganlar. Ota-ona qizning sepini go'dakligidan yiqqani rost. Xalqda «Qizni beshikka sol, sepini sandiqqa» degan maqol bor. Borgan joyida o'zidan ko'payib, tinib-tinchib, tup qo'yib, palak yoysin deya yaxshi niyat qilishgan.

O'g'il bolaning yo'li boshqa. O'g'il tug'ilishi oilaning baxti, shon-shavkati sanalgan. Zurriyod davomchisi, vatan egasi, himoyachisi, oila qo'rg'onining darg'asi. O'g'il tug'ilishi bilan tadbirkor otalar bobolarning maslahati bilan tomorqa hovliga 100–200 ta terak ekishgan. Bu teraklar to bola ulg'ayib uylanadigan bo'lguncha yangi imoratga xomashyo sifatida voyaga yetgan. Uylanish oldidan albatta yangi uy qurilgan. Hashar, qarindosh-urug', do'st-yoronlar yordami bilan qurib bitkazilgan yangi uyning ham o'z rasm-

rusumi bo'lgan. Uyning usti, tom yopilishi oldidan sar devor ustida albatta jonliq so'yilib (xo'roz, tovuq, kurka) xudo yo'liga qon chiqarilgan. Bu odatning tepada sar devor ustida amalga oshirilishi (xo'roz, kurka paxsa sar devori ustida so'yilgan. Qoni o'sha yerda qolgan) arshi a'luga, olloyi taologa, biru borga munojot tarzida qabul qilingan.

Yaxshi niyat bilan ostona ostiga (ichiga qum-shag'al to'ldirilsa-da) xum, ko'za ko'milgan. Bu ostonasi (osti) oltindan bo'lsin, xonadondan qut-baraka, boylik arimasin, degan ma'noni bergan. Aslida esa qadimda naryog'ida borlar bunday humlarga bor bisot-boyliklari, oltin-u zabarjad, dur-u gavharlarini ko'mib saqlaganlar. Vaqti-soati kelib, yangi avlod, yangi imorat qurishida ota meros bu boylik (oltin ostona) juda asqotgan.

Xalqimiz og'zaki ijodidagi tushib kelgan kelinga nisbatan:

*Yig'lama qiz yig'lama, to'y seniki yor-yor,
Ostonasi tillodan uy seniki yor-yor.*

iborasining ma'nosi ham mana shunda.

Ostona bilan bog'liq udumlarning o'zi ham ibratlidir. Bo'y yetgan qizlar, kelinchaklar azonda turib, dastlab ostona ostini yog' tushsa yalagudek tozalab supurishgan. Ostonada ko'rishish, qo'l olishish o'zbeklarda bexosiyat sanaladi. Mehmon albatta, ostona hatlab ichkariga kirgach, yoki aksincha, mezbon mehmon istiqboliga, tashqariga chiqqach, ular bir-birlari bilan ko'rishishgan.

Yangi uyga ko'chib kirishda bir qator urf-odatlar, hatto irimlarga o'zbek xalqi hamon amal qilib keladi. Bulardan birinchisi, uyning ko'zga ko'rinarli joylariga chaqirtikanak-isiriq osib qo'yiladi. Bu bilan xalqimiz «yomon ko'zdan xudo asrasin» degan aqidaga rioya qilishgan. Hamma zamonlarda ham odamlar orasida «ko'z»lik kishilar, baxil, o'zgalar kamolini ko'rolmaydigan ichi qora kimsalarning ko'zi o'tmasin, kasofati tegmasin degan mazmunda shunday qilingan. Haqiqatan ham, yomon niyatli shaxsning nigohi favqulodda chaqirtikanak-isiriqqa tushgach, «nazari singan», ko'ziga chaqirtikanak

«qadalgan». Buni ilgarilari xurofot deganlar ham bo'ldi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, biz o'z madaniyatimiz namunasi bo'lgan odatlarning har bir misqolini saqlab qolishimiz, kelgusi avlodlarga yetkazishimiz zarur. Bulardan tashqari yangi uyga ko'chib kirishda hovli ostonasi, darvozasiga otning taqasi qoqiladi. Bu bilan xonadon turmushi ot taqasiday mustahkam va xotirjam, mol-holga boy-badavlat bo'lishi niyat qilinadi.

Xonadon ichkarisiga kiyik shoxi, kallasi ilib qo'yiladiki, bu bilan avlodning Ona Bug'udan tarqalganligiga ishora qilinadi. Bo'ri tirnoqlar ilib qo'yilgan xonalar ham bo'lishi mumkin. Bu ham avlodning bo'ridan tarqalganligiga ishora, ramz, ayni paytda bo'riday o'ljali, topib yashash nazarda tutiladi. Chaqirtikanak-isiriq, tumor osish odati nafaqat shaxsiy yangi uy, balki o'zbeklarda davlat uylari, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, turli do'kon-u majmualar kabi jamoat joylariga, davlat va shaxsiy mashinalarga ham osiladigan bo'lgan. Bu har kimning e'tiqodi bilan bog'liq masaladir.

Yangi uyga ko'chib kirishdan oldin albatta ostona ustida jonliq so'yilib, qon chiqarilgan qo'y, echki, tovuq, xo'roz, har kim o'z imkoniyatiga yarasha bu odatni albatta amalga oshirgan. Bu ham o'ziga xos xudoyi bo'lib, olloyi taolodan ushbu xonadonga baxt-saodat, yorug'lik ato etish, yomon ko'z, kulfat, falokatlardan asrash iltijo etilgani ifodasi bo'lib, ko'ngil xotirjam tortgan. Bu jonliqdan sho'rva, osh qilinib, yaqin qo'ni-qo'shni, keksayosh, kambag'allarga tarqatilgan.

Yangi uyga ko'chib kirishda uch narsaga alohida amal qilingan. Birinchi, ostonadan tuz olib kirilgan, bu bilan xonadon tuz-namakli, tuz-nasibali bo'lishi niyat qilingan. Ikkinchisi, ostonadan non-un ichkari olib kirilgan. Bu bilan yangi xonadon ahli rizq-nasibali, sertole, to'kin-sochin bo'lishi niyat qilingan. Non shuning uchun ham tiriklik, rizq-ro'z ramzi sifatida aziz tutilgan. Uchinchisi, yangi uy ostonasidan ichkariga ko'zgu-oyina olib kirilgan. Bu bilan ushbu ro'zg'or ahlining hayoti, turmushi oynaday ravshan, beg'ubor, nurli, nurafshon bo'lishi xudodan tilangan, yaxshi niyat qilingan.

Bu ramz-vositalar o'rnini almashib, birato'lasini barchasi yangi uyga baravar kiritilishi ham mumkin. Yangi uyga ko'chib kirish marosimi hovli to'yi, uy to'yi, xudoyi marosimi bilan yakunlanadi.

QORXAT

Qish – qadimda dam olish fasli hisoblangan. «Qish g'amini yozda e» degan odamlar bahor, yoz bo'yi mehnat qilib, tiramoh-kuzda yetishtirilgan hosilni – meva-cheva, qovun-tarvuz, chorvadorlar go'sht, qazi-qarta, charvimoy, yung-teri, dehqonlar pilla, g'alla, paxta kabi xom ashyolarni qayta to'plab, ishlab, mayiz, shinni, qoqi qilib, kigiz, gilam, ipak va paxta gazmollari to'qib, xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar.

O'tmishda yerlar hosildor bo'lgan. Daryolar musaffo suvlarga to'lib-toshib oqqan. Odamlar ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan to'q, farovon yashaganlar. Kishilarning mehnatiga yarasha Ona zamin dasturxonini to'ldirib, mo'l-ko'l noz-ne'matlar hadya etgan. Yerlar serhosil bo'lganidan arzonchilik, odamlar o'rtasida saxovat, mehr-oqibat, bag'ri kenglik hukm surgan.

Odamlar yozloqlardan qishloqlarga ko'chib kelishib, turli-tuman to'ylar o'tkazishgan. To'ylarda qadimiy urf-odatlarimizdan chavandozlar bahsi, ko'pkari, kurash, dorbozlik, masxarabozlik o'yinlari, ayniqsa, bolalar uchun haqiqiy bayram tusini olgan. Ana shunday qish bayramlaridan biri qorxat o'yinidir. Qorxat o'yin-odati xalqimiz orasida juda qadim zamonlardan buyon yashab kelmoqda.

Qorxat odati ajdodlarimiz yozuv madaniyatiga erta ko'chganlaridan dalolat beradi. Qorxat o'yini vositasida ular o'zlarining serhimmat, qo'li va ko'ngli ochiq, saxiy, badavlat xalq ekanliklarini namoyish qilishgan. Ayni paytda, qorxat yordamida orasidan gap qochgan ayrim qabilalar, urug'lar, oilalar, quda-andalar yana qayta yarashib, do'stlashib olishgan.

Qorxat o'yinining qoidasi va shartlari nimalardan iborat bo'lgan? Qorxatni qorga biror yozuv yozish deb

o'ylamang... Avvalo qorxat birinchi qor yoqqan kuni yozilgan. Xat albatta jamoa bo'lib bitilib, tongda o'z egasiga – maktub yo'llangan odam yo jamoaga yetkazilishi shart bo'lgan. Qor gupillab yog'ib turgan kechasi qorxat yozuvchi taraf vakillari bir xonadonda to'planishib, tancha tevaragida tizilishib, xat-maktubning mazmunini yozganlar. Qorxat albatta she'riy shaklda yozilgan. Bu ham o'zbek xalqi orasida she'riy salohiyatga ega bo'lgan shaxslar ko'pligidan, xalqimizning shoirta'b xalqligidan dalolat beradi. Shuning uchun bu yig'inda shoirlar, baxshilar, turli hozirjavob, zukko va fozil kishilar ishtirok etishgan. Havaskor bolalar ham bu anjumanlarda shogirdlik xizmatini qilib, albatta hozir bo'lishgan.

Qorxat yozish bahonasida bu kecha she'rxonlik, jangnomalar o'qish, baxshilik, kitobxonlik, donishmandlar suhbatlari, askiyabozlik anjumaniga aylanib ketgan. Qorxatda uning shartlaridan biri oldin qoidasi aytilib, unda qorxat olib borgan kishi yoki bola xatni topshirgach, qaysi masofagacha uni tutish, qorxat shartlarini maktub keltiruvchining o'zining bo'yniga qo'yish, albatta, ko'rsatilgan. Qorxat yozgan tomonning vakili xatni egasiga yetkazib berarkan, boshqa bir gapni bahona qilib, suhbat orasida ushbu maktubni unga berib qo'yishni tayinlaganliklarini bildirib, qorxatni topshirgan. So'ng yugurgancha orqaga – belgilangan marragacha qochgan.

Qorxat ichida maktub bergan kishining qayerga, qaysi masofagacha yetgan joyida qorxat olgan kishi yetib olib, tutsa, qorxatda keltirilgan shartlarni maktub yuborgan taraf bajarishi aytilgan. Bu o'yinda goh maktub olgan, goh xat jo'natgan tomon g'olib chiqqan. O'sha kuni qishloqlarning ko'plab xonadonlarida qorxat bayrami o'tkazishgan. Shuning uchun ham qorxat yozgan odam nafaqat birovning ziyofatini yeb, maza qilish, balki shu ziyofatni ularga o'zi qilib berishga ham jiddiy tayyorgarlik ko'rib qo'ygan.

Shoiru olim bobongiz G'afur G'ulom o'z do'stlari Sobir Abdulla bilan birga aptekachi-shoir birodarlariga yozilgan qorxat bu she'riy asarning ajoyib namunasi. Bu qorxatdan o'zbek dasturxonining to'kinligi, xalq bag'rining

kengligi, zukko va sersaxovat udumlarimizning tafti hamon sezilib turadi.

Qorxat shartlarida noz-ne'matlarni dasturxonga to'kib, katta ziyofat berish aytilgan. Unda ziyofat ishtirokchilarining soniga qarab tuya, ho'kiz yoki bir-ikkita qo'y-qo'zi so'yish, tandir kabob qilish, shinnilar, hamilu mayizlar, yaxshi saqlangan shirin-shakar qovun-tarvuzlar, xurmo-yu uzum ko'rigini o'tkazish, bu bilan uy xo'jasi va bekasining qanchalik ro'zg'orni but saqlab kelayotganliklarini namoyish qilish talab qilingan.

Ziyofat marosimining o'zi esa kattalar uchun ham, bolalar uchun ham bayram tusini olgan. Uy egalari – mezbonlar, bekalar xuddi kichikroq bir to'y singari qorxat yozgan tomon vakillari – qimmatli mehmonlarni izzat-ikrom bilan kutib olishgan.

Qorxat shartlarida bizning zamonamizda ichkiliklardan aroq va konyak talab etilib, so'ng mo'l-ko'l iste'mol qilinishi udumimiz sha'niga dog' tushirgan o'rinlar ham bo'ldi. Afsuski, bu nuqsondan hali-hanuz qutulolganimizcha yo'q. Boyvachchalar, og'zikattalik, takabburlik, manmanlik kabi salbiy xislatlar bu oliyjanob saxovat ramzi bo'lgan udumimiz bag'riga kirib olishiga yo'l qo'ymaylik.

Siz ham qorxat qoidalarini yaxshi bilib oling, uni davom ettiring. O'z milliy urf-odatlaringizdan biri sifatida shoir xalqimiz an'analarini avlodlardan avlodlarga olib o'tish ishida o'z hissangizni qo'shing.

TOMOSHA

Har bir sohaning o'z ishqibozlari bo'lganidek, uy hayvonlari va parrandalar urush tirishni jon dilidan sevadigan kishilar ham keksa-yu yoshlar orasida juda ko'pchilikni tashkil etgan. Masalan, Navro'z, Hayit, Hosil bayramlari va katta to'ylarda ko'pkari, kurash, dor o'yinlari bilan bir qatorda bir yoqda irillagan itlar, bir tomonda sakrab tepadigan dakang xo'rozlar, qo'chqor-u serkalar, yana bir maydonda boqib mast qilingan «xo'roz» bedanalar jangga solingan.

Bu tomoshalar xalqqa, tomoshabinlarga katta zavq-shavq bergan. Ularning bayram kayfiyatlarini ko'targan. Bu odamlar ikki shaxs yoki guruh o'rtasidagi musobaqa tarzida o'tkazilgan bo'lib, ishqibozlar bu hayvon va parrandalarning narlarini tanlab, juda yoshligidan urushqoq qilib tarbiyalash yo'llarini qidirganlar. Buning uchun musobaqaga tushadigan hayvon, parrandaning zoti, tana tuzilishi, vazni hisobga olingan. Ularni kuchli, jahldor, olg'ir qilish uchun quvvati baland yemishlar berib boqqanlar.

Qadimgi suvoriylar chavandoz tulporlarini ko'k kishmish berib boqqanlarini yaxshi bilamiz. Shu singari qo'chqorga toza beda-yem, itga yangi so'yilgan go'sht, xo'rozga bahori bug'doy, bedanaga tarig'-u, ko'knori urug'i berib, astoydil parvarish qilib boqqanlar.

Biror hayvon yo parrandani musobaqada ishtirok etib, sovrindor qilib tarbiyalashgacha yillar o'tgan. Demak, inson jon-jonivorga mehribonchilik qilib uni parvarishlab, katta muruvvat ko'rsatgan. Bundan bolalarda ham hayvon-u parrandalarga nisbatan mehr-shafqat shakllanib borgan.

Bunday ishqibozlar yakka-yu yagona bo'lmagan, boqiladigan hayvon-u parranda ham bitta-ikkitagina emas, to'p-to'p qilib ko'p kishilar tomonidan boqib, tarbiyalangan. Ular yaxshi niyat, ezgu umid bilan Navro'z, Hayit, katta to'ylarga tayyorlanib borilgan. Demak, bu bilan qishlog'u mahallalarda qo'chqor, it, xo'roz, qush ishqibozlari guruh-to'dalari paydo bo'lgan. Bu to'da ishtirokchilari bir-birlari tajribasi, mahorat yo'llaridan ibrat olib, foydalanishgan.

Har bir o'yin, odat ortida uning ma'naviy rag'bat va lazzatidan tashqari moddiy-iqtisodiy foydasi ham turgan. Ayniqsa, bedanavo'zlar bedana urushtirishda ba'zan qimor shartlariga rioya qilib, jangda g'olib chiqqan bedana evaziga katta boylik – pul yo qimmatbaho buyum sohibi bo'lib olishgan. Aksincha, mag'lub bo'lgan taraf bor bisotidan judo bo'lib, ba'zan qarzga botib ham qolgan.

O'z bedanasini ko'knori urug'i berib, mast qilgan bedanavo'z uni urushqoq qilish uchun oynaga solib, o'zi

bilan urushtirgan. Ko'zguda o'z aksini ko'rgan bedana uni begona fahmlab, jangga kirishib, oldinda turgan hayot-mamot janglariga tayyorlangan.

Qo'chqor, it, xo'roz, bedana urushtirish odatida, albatta bu jonivorlarning narlari tanlangan. Kaklik va bedanalarning modalaridan sayroqi qushlar yetishtirilgan. O'yinchi kabutarlar ham ularning modalaridan chiqqan. Kaklik, bedana, kaptar boqish, ularni sayroqi, o'yinchi hunarmand (ba'zi kaptarlar maktub tashishga o'rgatilgan) qilish go'zallik oshuftasi bo'lgan yosh qablarni rom qilgan. Bu o'yinlarning barchasi faqat erkaklargagina ruxsat etilgan. Xotin-qizlar bu o'yinlarni o'ynamaganlar, unda ishtirok etmaganlar.

Ko'p yillar davomida bu odatlarga faqat bir tomonlama munosabatda bo'linib kelindi. Bu o'yin-odatlar qimorbozlik, firibgarlik va chayqovchilik illatlari sifatida salbiy baholandi. Ularga qarshi shiddatli, muntazam, izchil kurashch olib borildi. Natijada xalqimiz orasida bu odatlar nihoyatda kamayib ketdi. Saqlanib qolganlari ham yashirin, ko'zlardan narida olib borildi.

Qo'chqor, xo'roz, it urishtiruvchi bolalar tarbiyasiz, kaptarvoz o'smirlar buzuq bolalar safiga qo'shildi. Qo'yingki, Sovet davrida keyingi avlodlar bu odatlarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalandi.

Turli-tuman jonivorlarni urushtirib, qaysilarining zo'rligini aniqlash orqali jonivorlar saralangan. Bu o'yinlarning mohiyati ham shundan iborat. Qolaversa, tomoshabinlarda zavq-shavq uyg'otib, ularning dam olishlari uchun ko'mak bergan. Har bir narsaning o'z me'yorida o'tkazilgani durust. Shu bois, biz yuqorida tilga olgan odatni e'tirof etib qo'yishni o'zimizga lozim topdik. Mustaqillik zamoniga kelib, «qush va hayvonlar jangi» milliy o'yinlarimiz, odatimiz timsoli sifatida qayta tiklandi.

«YOMG'IRLARNI YOG'DIRGIN...»

Ko'chada o'ynab yurganingizda kutilmaganda yomg'ir sharros yog'a boshladi. Aksiga olib, yomg'irpo'shingiz ham, soyaboningiz ham yo'q. Qadamingizni tezlatdingiz, yomg'ir

esa kuchaydi. Rosa iviydigan bo'ldim-ku, deya yugurdingiz, yomg'ir esa chelaklab quya boshladi. Uyg shalabbo bo'lib, sochlaringizdan tomchilar oqib, kirib keldingiz. Sizni shu ahvolda ko'rgan buvingiz: – Ibi-ibi, rosa sust xotin bo'libsan-ku, – deya sochig'-u quruq mato tutqazib, yechinib, artinib olishingizni maslahat beradilar. Siz bu gapning ma'nosiga yetmaysiz. Ostonada yechgan kiyimingizni qoqib, poyafzalingizni yerga tap-tap urib, sochlaringizni siqib, buvingizdan so'raysiz.

– Sust xotin degani nima, buvi?

– Nevlay, bolam, bu ham ota-bobomizdan qolgan bir odat-da. Yomg'irda qolganni «sust xotin» deyishadi, – deya atrofingizda parvona bo'ladi buvingiz...

Qadim zamonlarda qurg'oqchilik bo'lib, bahor yo kuzda, kutilgan vaqtida yomg'ir yog'avermasa, ajdodlarimiz maxsus yomg'ir chaqirish odati, marosimini bajo keltirganlar. Bu marosimni hozirgi kunda Surxondaryo viloyatidagi Boysun tumanida tashkil etilgan xalq og'zaki ijodi ijrochilari dastasi mehr bilan o'zlashtirib, bizga mahorat bilan (namoyish) ijro etib, yetkazib bermoqdalar. Bu konsertni televizor ekranlaridan ko'rib, radio to'lqinlarida tinglagan bo'lishingiz kerak.

Olimlardan bir qancha folklorchilar ushbu odat tarixini o'rganishga kirishganlar. Ular orasida professor Bahodir Sarimsoqov peshqadam. Bu olim ushbu odatni chuqur ilmiy o'rganib chiqqanlar. Ilmiy manbalardan xususan bobokaloningiz Mahmud Qoshg'ariy XI asrda yozib qoldirgan «Devonu lug'otit turk» asarlarida Yada toshi va bu toshning yomg'ir chaqirish marosimida qo'llanilishi haqida ham ma'lumot berib o'tadilar. «...Yomg'ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar Yada toshi bilan fol ochish odatidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir.

U yerda paydo bo'lgan bir yomg'inni so'ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog'di. Ko'z oldimda yomg'inni so'ndirdi». (M. Qoshg'ariy «Devonu lug'otit turk». III jild, T., 1963, 8-bet).

Demak, hosil yetishtirish, rizq-ro'z uchun zarur bo'lgan yomg'ir, qor umuman yog'ingarchilik ilm quvvati bilan

ham amalga oshirilgan. Bundan Sizning ajdodlaringiz ham benasib qolmaganlar. Yana ikkinchi bir boshqa yo‘l – qishloq ahli erkak-ayol, bola-baqra dalaga chiqib, osmondan suv hadya etadigan xudo – sust xotinga yalinib-yolvorib, undan yomg‘ir yog‘dirishini iltijo qilganlar:

*Sust xotin, sulton xotin,
Ko‘lankasi maydon xotin.
Sust xotinga ne kerak?
Sharros, sharros yomg‘ir kerak...*

Chunki «sust xotin» odati ham islomdan oldinoq Avesto, Zaratushtra davrlaridan buyon mavjud bo‘lgan marosimlardan bo‘lib, diniy e‘tiqod, sig‘inish mevasidir. «Sust xotin» termalarini bir kayvoni shaxs aytib, uning naqorat qismini hamma baravar takrorlab, ijro qilishgan. Bu marosim xalq orasida «sust xotin», «sut xotin», «suv xotin» deb ham yuritiladi. Marosimni o‘tkazish vaqtida o‘t-o‘lan, mayda shox-shabbadan ulkan ayol qiyofasidagi «sust xotin» gavdasi yasaladi. Uni tiklab qo‘yib, atrofidan aylangan holda «Sust xotin» termalari aytilib, marosim ijro etilgan. Har kim chelakda, ko‘za-yu kosada, hatto qo‘lda ariqdan suv olib, «sust xotin»ga sepgan. Bu odat O‘rta Osiyo xalqlaridan o‘zbek bilan tojikdan tashqari, afg‘on, pokiston, hind xalqlari orasida ham tarqalgan.

Albatta, bu odat haftaning xosiyatli kunlari sanalgan yakshanba, payshanba, juma kunlari o‘tkazilgan. Xosiyatsiz deb bilingan kunlarda marosimni o‘tkazish ijobatsiz sanalgan.

*Xavolarni yog‘dirgin, sust xotin,
Bug‘doylarni bo‘ldirgin, sust xotin,
Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,
El-u yurtini to‘ydirgin, sust xotin...*

Bu marosimga albatta, xalqning o‘sha paytdagi moddiy-madaniy ahvoli ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib aks etgan. An’anaviy mehr-shafqat, yetim-yesirning rizqini qiymaslik, odamlar sinf va toifalariga munosabat ham o‘z aksini topgan:

*Havo yog'sin, sebalab, sust xotin,
Bo'ri qochsin, jebalab, sust xotin,
Bug'doy bo'lsin, zarchalab, sust xotin,
Nonni yesin, parchalab, sust xotin.*

Qurg'oqchilik qahatchilikni keltirib chiqarishini yaxshi bilgan ajdodlar turli qurbonliklar qilib, qon chiqarib ham xudodan madad so'rganlar. Bu ishlarning bo'lishida odamlarning gunohlari ko'payib ketgani, noshukurlik, Olloni unutish sabab deb bilishgan. Yomonlarni qarg'ashgan:

*Hosillar mo'l bo'lsin, sust xotin,
Dehqonning uyi to'lsin, sust xotin,
Yomg'irlarni yog'dirgin, sust xotin,
Yomonning uyi kuysin, sust xotin...*

Yomg'ir chaqirish odati bahor, yoz oylarida o'tkazilar ekan, albatta, ko'pincha yo o'sha kuni, yo ertasi yomg'ir yog'ishi kutilgan. Bu holda niyat amalga oshgan paytlar ham ko'p bo'lgan. Odamlar o'z orzularining Olloi-taolo tomonidan ijobat bo'lganiga suyunishgan. Shukronalar keltirishgan.

Yomg'ir chaqirish odati hozir sun'iy sug'orish uslublari bilan almashgan. Ba'zi mamlakatlarda lozim bo'lgan joyda bulut hosil qilish, uni kerakli hududga haydash va so'ng yomg'ir yog'dirish jarayonini amalga oshirish mumkin. Ammo bu xo'jalik uchun qimmatga tushadigan usuldir. Shuning uchun ham Sho'ro davrida sun'iy sug'orishning suv manbalaridan cho'lga bo'lsin, sahroga bo'lsin, kanal qazib, bosim orqali past-balandga suv chiqarish «ilg'or» usullari o'ylab topildi. Suv xudosiga sig'inish u yoqda tursin, uni majbur qilib, undirib olishdi. Natijada Xazar (Kaspiy dengizi) kabi yer yuzining bir bo'lagi, yashil ko'zgosidek jilolanib yotgan Orol dengizi o'z nasibasidan mahrum bo'lib, halokat yoqasida so'nggi nafaslarini olmoqda.

Ushbu odat-marosim xalqimiz dehqonchilik turmush madaniyati ham boy, qadimiy, serhimmat, e'tiqod va iymonli bo'lganligidan dalolat beradi...

KULOTA

Hozirgi yoshlar kulotani ko'rmagan bo'lishingiz ham mumkin. Haqiqatan ham ko'pdan buyon kulota kiyilmay qoldi. Kulota degani o'zi qanday match, dersiz. Kulota - bosh kiyimi, to'g'rirog'i ayollarning bosh kiyimi. Shakli cho'michga o'xshaydi. «Doira» qismi boshga kiyiladi. «Dasta» qismidan ikkita qilib, soch o'tkaziladi. Kulotani hozir ham Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ayrim qishloq momolari kiyishadi.

Kiyim nomi joylarda xar xil ataladi. Kulota, kulta, kultapesh, kultapishik ko'rinishlarida.

Kulota kiyish ham bir odat. Qadimda qizlar kelin bo'lishganda so'ng birinchi farzand ko'rganda, beshik to'yi munosabati bilan endi sochlarini qirq kokil qilib, unga po'pak taqqanlar. Yosh qiz-juvonlarni jamalak, po'pak bezab turgan. Po'pak qora ipdan to'qilgan bo'lib, xuddi qirq kokil shaklini bergan. Uning ustki va pastki qismi ko'ndalang iplardan ham iborat bo'lib, po'pakni to'rt burchak shaklida saqlab turgan, Po'pak yelkadan belgacha tushgan. Po'pakning uchlariga oltin, kumush, mis va jezdang tangalar ilingan. Mayda, kumush qo'ng'iroqchalar osilgan. Ilgarilari po'pakchilik ham o'zi bir san'at bo'lgan. Kelinlar, yosh onalar, juvonlar - hammalari po'pak taqishgan. Men uning foyda-zararini aytmayman-u, biroq «sotsialistik turmush tarzi», «xotin-qizlar ozodligi uchun hujum» taloto'pi paranji-chachvonga qo'shib, po'pak, kulotani ham mahv etdi. Ulardan foydalanishni iste'moldan, odatdan chiqarib yubordi.

Kulota kiyish odati qachon amalga oshirilgan? Onalar o'g'il uylantirib, qiz chiqarib, ilk bor nabiralik bo'lishganda, endi o'zlarini katta yoshli xotin sanashgan. Shuning uchun ham po'pak taqib yurish, o'zini yosh tutish, «bozorga solish» uyat sanalgan. Shu sababga ko'ra nevara beshikka belanishi marosimida yosh ona ilk bor jamalak sochlariga po'pak taqqan. Katta ona (buvi) ko'p yillik hamrohi po'pak bilan xayrlashib, sochini ikkita qilgan.. Birinchi bor kulota taqib, buvilikni «bo'yniga olgan».

Birato'lası uch marosim-odat: bolani beshikka belash, (beshik to'yi), yosh onaga po'pak taqish, katta onaning sochini ikkita qilish odati amalga oshirilgan. Bu ham o'ziga xos to'y tarzida o'tgan. Ayollarning yosh bilan bog'liq katta tadbir-udumi sanalgan.

Kulota kiygan onalar o'sha qishloqning kayvonilaridan hisoblanib qolgan. Ular endi xodimlik, dasturxonchilik, kinnachi, qushnochlik, folchilik bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lganlar. Bular uchun endi ularda muayyan tajriba, hayot, turmush ko'rganlik tan olingan. Kulota kiyish («sochini ikkita qilish odati» ham deyiladi) odati jamiyatni onaboshilar boshqargan zamonlardan qolgan marosim bo'lsa, ajab emas. Chunki butun kompleks tadbirlarning har uchulasi ham ayollar turmushi, jamiyatda tutgan o'rni bilan bog'liq.

Kulota kiyish odati qariyb yo'qolib ketish arafasida. Avvalo biz bu odatga boshqa marosimlar bilan bir qatorda e'tibor berishimiz, bunday hodisalarni yozib olishimiz lozim. Ikkinchidan, oilaviy-maishiy hayotda kattalarning yonida turib, ayniqsa, bo'lajak yosh onalar, kelajakning sarchashmalari, oila-ro'zg'or bekalari sifatida o'tmishning bu ibratli odatlarini yana hayotga joriy etib, undan foydalansalar yomon bo'lmaydi...

Kulota va uni bosh kiyimi sifatida kiyish-taqish qadimda – To'maris ona jangovar suvoriylaridan buyon bizga madaniy meros bo'lib kelyaptiki, uni qadrlamoq lozimdir.

SALLA

Salla o'rash musulmonchilikda farz sanalgan. Salla kichik yoshdan to ulug' yoshgacha bo'lgan erkak jinsidagilarning bosh kiyimidir. Salla ko'cha kiyimi bo'lib, xonadon ostonasidan qadam qo'yib tashqari chiqqan har bir odam albatta salla o'rab chiqqan. Mahallada, ko'chako'ya, jamoat orasida, maktabda, favqulodda bir hodisa bo'lmasa, sallasiz yurilmagan. Salla shabpo'sh, do'ppi, takya, telpak, kulohlarga nisbatan ulug'vorroq sanalgan. Sallali kishi ma'rifatga, din-u tariqatga yaqin, daxldor hisoblangan.

Salla albatta boshga do‘ppi, qalpoq, shabpo‘sh, takya, quloq ustidan o‘ralgan. Salla o‘rash bizning turmush tarzimizda islom dini bilan kelib qo‘shilgan odatdir. Bu odatda eni taxminan yarim, bo‘yi 1,5-3 metrlar atrofida uzunlikdagi, uncha qalin bo‘lmagan, sidirg‘a, odmi mato tanlangan. Uning rangi oq, ko‘k, pushti, mallarang, qizg‘ish, turli xil bo‘lgan. Sallaning rangi kishining yoshi, mavqeyi, bilim darajasiga qarab ajratilgan.

Salla o‘rashning ham o‘z qonun-qoidasi bor. U takya, do‘ppi ustidan o‘ngga tomon, chap quloq ustidan boshlab o‘raladi. O‘rashda o‘rta yo‘ldan ikki-uch qator, yuqori va past yo‘ldan 1-2 qator aylantiriladi. Shuning uchun ham sallaning o‘rta o‘rami qalinroq chiqib, boshga mustahkamroq o‘rnashadi. Sallaning o‘ng quloq tepasidan, u titilib, chuvalanib ketmasligi uchun dastor ko‘ndalang o‘ram qilinadi. Ayni paytda o‘ram boshlangan chap quloq ustidan pech, ya‘ni sallaning bir uchi tushiriladi.

Salla toza-ozoda saqlanadi. Unga amaldorlar, mudarris-talabalar yozuv namunalari, farmonlar, maktublar qistirishda foydalanishlari ham mumkin. Salla o‘rash odatining amaliy ahamiyatini turlicha sharhlaydilar. Shunday sabablardan biri – musulmon farzandi borki, yetti yoshdan umrining oxirigacha salla o‘rash odatiga rioya qilarkan, buning hayotiy ahamiyati ko‘zda tutilib, shunday qilingan. Bu avvalo, musulmonchilik e‘tiqod belgisi. Muhammad payg‘ambarga ummatlik ramzi. Ikkinchidan, qadim davrlarda mamlakatda tez-tez qo‘zg‘alib turgan qirg‘inbarot, jang-jadal, urushlarda jihad, g‘ayridinga qarshi kurashga chiqqan har bir musulmon, yosh bo‘lsin, qari bo‘lsin, shahid ketishi mumkin. O‘shanda jangda vafot topgan musulmonning sallasi so‘nggi oxirat kiyimi – kafan vazifasini o‘tagan. Har bir jangdagi shahid mo‘min-musulmon o‘z sallasiga o‘rab dafn qilingan.

Salla o‘rash odati, xayriyatki, to‘la yo‘qolib ketmagan. Uni hozir ham kekxa kishilarning ayrimlari o‘raydilar. Salla o‘rash shakli va rangiga ko‘ra mintaqalarda turlichadir. O‘zbek, tojik, afg‘on, qozoq bir xil salla o‘rasa eroni, ozarbayjon, pokistonlik, hindistonlik boshqacha shakl va rangda salla o‘raydi.

Bizning hozirgi zamonamizga kelib, e'tiqod erkinligi berilib, shaxs huquqi himoya ostiga olingach, bu odatga qaytish yuz bermoqda. Avvalo to'y marosimi – nikohda albatta, salla o'rab, choponda nikoh marosimini o'tkazmoqdalar. Mamlakatimizning ancha-muncha viloyatlarida hali ham qadimdan qolgan salla o'rash odati yashab kelmoqda. Ammo ular faqat kekxa, namozxon, toatibodatga berilgan kishilardir. Diniy arboblardan qishloqda bo'lsin, shaharda bo'lsin, o'z e'tiqodiy liboslaridan, jumladan salladan ayru tushmaydilar. Qishloqlarda dehqon, kosib, hunarmandlarning katta qismi kichik salla belbog' yoki qarsni boshga o'rab, farzni bajo keltirishgan. Chunki ularning ish sharoiti mehnatiga katta salla xalaqit bergan, to'zib ketishi mumkin bo'lgan.

Hozirgi kunda e'tiqod erkinligi muhofaza qilinishi munosabati bilan dindorlardan tashqari turli yoshdagi erkaklar, jumladan yoshlar, bolalar ham salla o'rash odatini yana o'rgana boshladilar. Ularning qo'lni halolash, sunnat to'ylaridan tortib salla o'rata boshlanmoqda. Bu odat ham eskidan qolgan udum sifatida madaniyatimiz tarixida o'ziga xos o'rin tutadi.

BOZOR-O'CHAR

«Bozorga kech bor, erta qayt», – deydi xalqimiz. Buning ma'nosi shuki, choshgohga borib, bozor qiziydi, arzonlashadi, erta qaytsang, bexavotir bo'lasan. Tirikchilikda ro'zg'orni «g'or» deyishadi. Shuning uchun ham bu «g'or»ni to'ldirish lozimligidan bozorsiz kun o'tmaydi. Undan kunora ul-bul xarid qilib turasiz. Kambag'al bo'lmayin degan odam tejamkor bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa pishiq-puxtalik, hisob-kitoblilik, qaysi mavsumda nima sotib olishni yaxshi bilmoq talab qilinadi.

El orasida «bozori yaqin – boyimas» degan naql bor. Bozorim yaqin deb unga kunda tushib, mayda xarj qilaversangiz, biringiz ikki bo'lishi qiyin. Shu sababdan ota-bobolarimiz qadimdan ro'zg'or uchun zarur ashyo va masalliq'larni ulgurji, bir necha mavsumga yetgulik qilib

sotib olishgan. Guruch, un, qand-qurs, choy, kartoshka, piyoz, tuz, qovoq, qovun-tarvuz, o'tin-ko'mir singari kundalik ehtiyoj mollari qopi-qanori, aravasi, toyi bilan o'z mavsumida arzonlar xarid qilinib, kuz, qish, bahor saqlab iste'mol etilgan.

Bozorning ham o'z azaliy qonun-qoidalari bor. Birov ehtiyojidan ortiqcha molini bozorga olib tushadi. Boshqa kishi zarurat yuzasidan biror buyumini sotishga majbur. Dehqon, hunarmand, kosib yetishtirgan, yasagan ne'mat-u ashyosini chiqarib sotadi. Chorvador qo'raning bir qismini mol bozoriga soladi.

Xaridning ham katta-kichigi bo'ladi. Katta xaridlar ko'p yillarda bir bor qilinadi. Masalan, hovli-joy sotib olish, ot, sigir, gilam, besh-o'nta qo'y-echki deganday. So'ng bular Sizning, ro'zg'oringizning hamishalik hamrohi bo'lib qoladi. Uni eplab-seplab o'tirish, o'zidan ko'paytirish mehnatu g'ayratingizga, aqlu farosatingizga bog'liq.

Bozor – xalqning turmush darajasini belgilaydi. Qadimda bir mamlakatdan ikkinchisiga safar qilgan sayyohlar albatta o'sha yerning bozoriga tushishgan. Bozorda xalqning moddiy va ma'naviy boyligi, milliy ruhiyati, an'anaviy udumlari-yu madaniyati o'z in'ikosini topadi. Bozorda mol ko'p, rang-barang, arzon bo'lsa, bu mamlakat xalqi farovon, obod yashashidan dalolat beradi. Bozor qimmatchilik, narx-navo osmonda-yu zaharday bo'lsa, u xalqning ahvoli nochor, tushkunligidan xabar berib turadi.

Bozor bilan bog'liq odatlar ham talay. U magazin emas. Bozorda savdo qilishda talashib-tortishiladi. Xaridor bilan mol egasi o'rtasida ba'zan vositachi-dallol ham aralashishi mumkin. Har ikki tomonni qoniqtiruvchi bir bitimga kelingach, «bor, baraka» qilinadi. Yaxshi xarid uchun mol tanish, uning sifatini yaxshi bilish zarur. Buning uchun esa muayyan tajriba va malaka talab qilinadi. Shu sababdan ham bozorchi omadini ham, kasodini qam bozordan topadi.

Savdo-tijorat ishlari qadimdan serxosiyat, savobli hunar sanalgan. Katta savdo ahlinigina emas, o'z otangizning bozordan qaytganiga quvonch bilan chiqib xurjundan nimalar chiqishiga ilhaq, umidvorlik bilan ko'z

tikib turgan damlaringizni bolalik faslingizning eng yaxshi onlari sifatida bir umr unutmaysiz. Ipak yo'li bo'ylab karvon qo'ng'iroqlarini jiringlatib Hind-u Chin-Mochin ketgan, Eron-u Arab mamlakatlariga safar tadorigini ko'rgan ota-bobolar o'sha ellar bozorlaridan bizning xalqlarimiz uchun xaridorgir bo'lgan zarur tovarlarni xarid qilishib, yurtga qaytgach, ketgan safar xarajatlarini qoplaydgan darajada narx qo'yib sotishgan.

Savdogarlik, karvon safari, mehnati, uzoq sayohatlar xavotirli yo'l va karvonsaroylar tashvishlari bilan bog'liq bo'lganligi uchun savdo ahli yolg'iz xudoga, uning marhamatiga, rahmatiga ko'z tikkan, sidqidildan imon keltirganlar. Shuning uchun ham savdo ishida xaridor haqiga xiyonat qilish, molga oshiqcha narx qo'yishda xudodan qo'rqishgan.

Bizning musulmon Sharq xalqlarida bozor nafaqat xarid-savdo, balki ko'pchilikning tirikchiligi manbayi bo'lib ham xizmat qilgan. Dehqon, kosib, hunarmand, qassob, shiravorpaz, novvoy, oshpaz, boringki, barcha kasbu kor egalari o'z mehnatlari mahsulini bozorga olib chiqib ko'targaniga sotishgan. Mahsulotga nisbatan qo'yiladigan narx-navo shunday baholanishi kerakki, undan sotarman ham, olarman ham jabr ko'rmasin. Shuning uchun ham bozor tarozini – tenglikni xush ko'radi. Bir-ikki marta qalloblik bilan katta foyda ko'rgan sotarman mahsuloti o'z bahosiga arzimaydigan bo'lsa uzoqqa bormay sinishi tayin.

«Yigit ko'rki -soqol, bozor ko'rki – baqqol» degan gap ham bor. Baqqol faqat olib-sotargina emas, balki u bozorni to'kis tutishda asosiy vazifani o'taydigan shaxs. Bozor tartibini saqlash, muvozanatni baravar tutish ham shu odam ixtiyoridadir. Baqqol bozorda bir mahsulotning kamayib, ikkinchisining haddan ziyod ko'payib ketishiga, dehqonning xonavayron bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Bozor egasi, xodimi, xizmatkori sifatida baqqol o'zidan tashqari xaridorning, mol sotuvchining manfaatlarini ham albatta hisobga olishi lozim.

Bozorning arzon-qimmatligi albatta mamlakat, siyosat, davr, mavsumga ham bog'liqdir. Bizning zamonamizda yangidan bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan

sanoat, hunarmandchilik mahsulotlari bir qadar qimmatlashib ketdi. Har qanday mahsulotni yetishtirib, bozorga olib tushish sarf-xarajatlari baland bo'lganligi tufayli bu yuqori narx-navo muayyan muddat saqlanib turadi. Biroq oynning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug' bo'lishi tabiiy. Ota-bobolar: «Yomg'irda ot tanlama, hayitda qiz», deganlariday, katta xaridlar qimmatchilik zamonida qilinmay turilgani ma'qul. Bizning o'zbek xalqimiz tabiatan mehnatga, zahmatga moyil, qo'li gul, dehqon xalq. U mol-hol, qo'y-qo'zini ham qoyilmaqom parvarshlaydi. O'zbek qishloqda bo'lsin, shaharda bo'lsin, bir parcha yeri bo'lsa, undan oltin undiradi. Biz nafaqat paxta, arpa-yu bug'doy, qovunu tarvuz, sabzavotning istagan xilini har qanday mohir xalqdan yaxshiroq, ko'p va sifatliroq yetishtira olamiz. O'zbek o'zi to'ysa-to'y masa, o'zgalarni kiyintirish, boqish, to'ydirsh payidan bo'ladi. Shuning uchun ham favqulodda mehnatkash, jafokash, tejamkor xalqimiz haqida eskidan «O'lgan o'zbekning qo'ynida noni bo'lar» degan maqol qolgan.

Ha, o'zbek o'lganda ham bitta-ikkita tirikni boqa, to'ydira oladi! O'zbekning poytaxti Toshkent non shahri sifatida bir asrdan buyon o'zgalarning qornini to'ydirib, egnini butlab, cho'ntagini qappaytirib kelmoqda...


Yeriga qo'sh solib, ekin ekan dehqon, dala-maydon tegib, mol tuyog'ini ko'paytirish imkoniga ega bo'lgan chorvador, paxtadan oladigan daromadi kuchaygan uni yetishtiruvchi-yu, sanoatchi oxir-oqibat o'z mahsulotini ko'paytirib, xaridorbop narx-navolarga tushirishi tayin gap.. Buning uchun mehnat, vaqt, osoyishtalik talab qilinadi. Bozor har bir katta-kichik mamlakat, davlatning ro'zg'or-xonadon, oilasi kabidir. Ro'zg'or esa g'or bo'lib, u oqilona boshqaruv hamda barqarorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham xalqimizda «otang-bozor, onang-bozor» degan gap bor. Ota-onang topib-tutib berolmagan, peshonangga bitkazolmagan davlatni boshing omon bo'lsa, sarmoya topsang, bozordan olasan, degan gap bu. Bu o'rinda endi «ota-ona» – bozor beshafqat bo'lib, faqat hisobini bilgan farzandninggina hamyoniga daxl qilmasligi mumkin...

VI BOB.

Ε' ΠΑΡΟΔ



QASAM, ONT

odamlar orasida shunaqasi ham uchrab turadi. Hayotda ba'zan o'z so'zining rost, chin, to'g'ri, ishonchligini isbotlash, asoslash uchun odamlar ont (qasam) ichadilar. Bu udum Sizlarga ham yaxshi tanish. Bolalar bir-birlarining gaplariga ishonmasalar yoinki qat'iyon bir-birlari bilan bir umrlik do'st tutinmoqchi bo'lishsa, qasam ichib, buni «hujjatlashtirib», qonunlashtirib qo'yadilar.

Kattalar orasida qasam ichish odati juda jiddiy udumlardan biri sifatida qadimdan mavjud. Yoshlikdan do'st bo'ladigan kishilar biror avliyo mozoriga borib, bir-birlariga butun hayotlari davomida xiyonat qilmaslikka qaror qilib, ont ichib, so'ng kelib bu qarorni elga osh-suv berib ma'lum qilganlar. Bir-birlariga to'n kiydirishib, qiyomatlik do'st – aka-uka bo'lishgan.

Qasam (ont) ichishning ma'nosi «aytilgan so'z – otilgan o'q» deganlariday e'tiqod qo'yilgan g'oyaga mangu sodiq qolish ifodasi bo'lib, shu e'tiqodni asoslash, isbotlash, ishontirish uchun qasamyod qilinadi. Qasamlar avvalo xudo nomini o'rtaga solib, muqaddas kitob «Qur'on»ni o'pib, ona, xotin bola-chaqa hayotini o'rtaga qo'yib ichilgan. «Xudo ursin», «agar ontimni buzsam – «Qur'on» ursin» kabi va hokazo.

Xalq orasida juda keng tarqalgan ont ichish odatining nonni o'rtaga qo'yib ichiladigani ommalashgandir. Oddiy fuqarolar dehqon, kosib, uy yumushi kishilari o'z suhbatdoshlari biror fikr yo va'dalariga shubha, gumon bilan qarashga mayl qilishsa, albatta nonni o'rtaga qo'yib qasam ichishgan. «Non ursin», «Tuz ursin», «Non ko'r qilsin», «Nonko'r bo'lay», «Ko'rnamak bo'lay» deya o'z fikrlari mantiqini kuchaytirib, mustahkamlaganlar.

Albatta qasamni buzmaslik, va'dalarni to'la bajarish uchun qo'llaridan kelgan barcha vazifalarni bajarganlar.

Ko'pincha jiddiy qasamlar Xoja Ahmad Yassaviy, Hazrat Bahovuddin Naqshband, Pahlavon Mahmud, Amir Temur maqbaralari, mozorlari ustida ichilib, «qonunlashtirilmagan». Eski paytlarda odamlarda insof, imon, diyonat, e'tiqod hozirgidan kuchliroq bo'lganligi uchun sidqidildan qasam ichilgan va unga boshqalar ham shubhasiz ishonishgan. Ayniqsa, xudo-yu «Qur'on» nomi bilan ichilgan qasam bir umr buzilmagan.

Xalqimiz orasida qasamni muqaddas bilish, huda-behudaga qasamxo'rlik qilmaslikka chaqiriladi, uni suiiste'mol qilish esa kishini «qasam urishiga» sababchi bo'ladi, degan aqidada bo'lgan qadimgilar serqasam, qasamxo'r odamlardan nafratlanishgan. Ayni paytda hozirjavob, askiyaboz, xushchaqchaq tabiatli bizning xalqimiz qasam va qasamxo'rlarga ishora qilib, teskari qasamlar ham o'ylab topishgan. Shunday mutoyibalardan: «Bosgan izim orqamda qolsin», «igna bo'yi jordan uchay», «yeganim ichimga tushsin» singari iboralar aytilib kelinadi.

Yevropa mamlakatlarida sud guvohlari muqaddas kitobga qo'l tekkizib to'g'ri guvohlik berishga ont ichirilgan. Sizning katta bobolaringizdan Amir Temur Amir Husayn bilan Tangachakchak g'orida muqaddas «Qur'onni» o'pib, bir-birlariga xiyonat qilmaslikka qasam ichishgan. Biroq Husayn bu ontga xiyonat qilganini sezgan Amir Temur ham qasamni buzishga majbur bo'lgan.

Qasam ichish odati favqulodda og'ir, mas'uliyatli majburiyatlardan kelib chiqib, ijro etilgan. Uni suiiste'mol qilish kishini subutsizlikka olib keladi. Siz ham o'z tengdoshlaringiz orasida har narsaga qasam, ont ichaveradigan bolalarga ko'p ham ishonavermaysiz. Chunki ko'p qasamyod qilgan uni ko'p buzishi tabiiy.

VASIYAT, VASIYATNOMA

Vasiyat, vasiyatnoma kalimalari xalq orasida tez-tez qulog'ingizga chalinib turadi. Bu kalomning ma'nosi nima? Bu ham insoniy udumlarning biri. Vasiyat yoshi bir joyga

borgan erkak-ayolning, bobo-buvining, ota-onaning o'zidan keyin qoladigan avlodlar, zurriyodlar, oila davomchilariga qoldiradigan hal qiluvchi so'nggi so'zidir. Badiiy asarning muqaddima va xotima qismi bo'lganidek, inson umrining xotima qismi ham vasiyat bilan yakunlanadi.

Odatda vasiyat podsholar, xon, amirlar orasida, tarixda keng uchragan. Ular o'z vasiyatlarida o'z o'rinlariga valiahd, ya'ni, taxt vorisini tayin etganlar, masalan, Muhammad Xorazmshoh to'ng'ich o'g'li Jaloliddin Manguberdini, Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonni, Bobur Mirzo bosh farzandi Humoyunni, shoh Husayn Boyqaro baravar ikkala o'g'li Badiuzzamon va Muzaffar mirzolari o'z o'rinlariga taxt boshqarishini, mamlakatni idora qilishlarini vasiyat qilib qoldirgan. Tarixdan bilamizki, bu vasiyatlarning ko'pchiligi amalga oshgan. Biroq Amir Temur vasiyati bajarilmay, temuriyodalar taxt talashuvlari vositasida yerda qolgan. O'ktam shahzoda, erka nabira Xalil Sulton birinchi bo'lib bobokaloni poytaxti Samarqandni egallab, hokimiyatni tortib olgan..

Vasiyat chog'ida u xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, keyingi hukmdorlik mol-mulk meros adolat bilan taqsimlangan. Masalan, oilaga tegishli uy-joy, mol-hol, pul-mablag', uy jihoz va ashyolari farzand, nabiralarga bo'lib berilgan. Bu masalaning moddiy tomoniga berilgan e'tibor. Masalaning ikkinchi, hal qiluvchi tomoni ma'naviy jihatidir. Ota yorug' dunyodan ko'z yumgach, oila tashvishlari, uni boshqarish onaning boshqaruvida bo'lsa ham aslida to'ng'ich farzand, bosh o'g'il ixtiyorida qoladi. Otaning ro'zg'or uchun chala qoldirilgan barcha ishlarini endi katta o'g'il o'z zimmasiga olishi talab etiladi. Hovlining bitmagan ishlari, hali uylanmagan farzandlar, turmushga chiqmagan qizlar, bajarilmay qolgan vazifalar, barcha-barchasi to'ng'ich o'g'il zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun ham o'zbeklarda marhum jasadi lahadga sarishta qilingach, kayvoni yig'ilganlarga murojaat qilib (qanday odam edi, yaxshi odam edi) o'sha zumdayoq kimda-kimning marhum bilan bog'liq qarz-havola, oldi-berdisi bo'lsa, to'ng'ich o'g'il bilan hisob-kitob qilishi lozimligi eslatiladi.

Qadimda ham, hozirgi kunda ham mol-dunyo, pul, moddiy boyliklar bilan bog‘liq vasiyatlar vasiyatnoma shaklida yozma holda qoldiriladi. Bu hujjatlar fuqarolik mutasaddilari, huquqiy notariuslar tomonidan tasdiqlab qo‘yiladi. Vasiyatnoma qonuniy hujjat sifatida qolgan aka-uka, qarindosh-urug‘lar orasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarga chek qo‘yadi.

Vasiyatlar mazmuni turli-tuman bo‘lishi mumkin. Ular marhumdan qolgan so‘nggi istak-iroda bo‘lib, musulmonchilikda ota-ona vasiyati ulug‘ tutiladi. Unga shak keltirish gunoh sanaladi. Masalan, o‘g‘liga falonchining qizini olib berish, qizini pismadonchining o‘g‘liga uzatish, mashinani kimga xatlash, chorboqqa kimning egalik qilishi kabi va hokazolar. Ba’zi vasiyatlarda bir umr sir saqlangan voqea-hodisalar, haqiqat ochilishi, bildirilib, bayon qilib ketilishi mumkin. Kimga kimning farzandligi, kim asrandi zurriyodligi, kim kimdan paydo bo‘lgan-u, kim kimning qotili bo‘lgan kabi.

Vasiyat fuqarolik hujjati sifatida biz o‘zbeklar orasida muqaddas tutiluvchi udumlardan biri bo‘lib, avlodlar vasiyatga amal qilishga, unga shak keltirmaslik, buzmaslikka intiladilar. Uni buzganlarni esa guvohlar ota (ona) vasiyatini buzgan nonko‘r, oqpadar, vasiyat urgan, xiyonatkor shaxs sifatida qoralaydilar. Vasiyat nafaqat o‘lim oldi so‘nggi nafasda, balki ancha oldin, salomatlik paytida ham aytilishi, yozilishi, qoldirilishi mumkin.

Eng tabarruk qadimiy turkiy vasiyatnoma namunalardan bo‘lmish Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida bu maktubiy janrning asl nusxasi keltirilgan. Donishmand, bosh maslahatchi, bosh vazir Oyto‘ldi umri so‘ngida o‘g‘li O‘gdulmishga o‘gitlarini berib bo‘lganidan keyin o‘z xo‘jasi Eligga yozma vasiyatnoma yozib qoldiradi. Bu vasiyatnomaning hajmi ancha katta. Biz undan ayrim ibratli parchalar keltirishga urindik.

Oyto‘ldining Eligga vasiyatnomasidan:

... Mehribon kishining pand-nasihatlarini olgin, ular seni saodatga yetaklaydi.

Ko‘zing sog‘ paytida ezgulik qil, mol-dunyong borida ulash, yedir.

Bu dunyo bir rabotdir, qo'noq yeridir, bu rabotda bir oz qo'nib tin olgach, albatta qo'zg'alasan.

Adolat qil, qat'iy bo'l, zulmga zo'r berma. Tangrining itoatini qil:

Man-man deb oltin kamar bog'lab yurganlarning kamarlari ham o'lim kelib tutganda uziladi.

Yomonlar odatini qilma, yomon odat ikki jahon ovorasi qilib yig'latadi.

Dunyo o'tkinchidir, uni o'tib ketadi, deb o'yla, qarshidan o'lim kelishini kut.

Odam o'lsa, undan vasiyatlar qoladi. Mening senga vasiyatlarim mana shular.

Kishi uchun foydali vasiyat bu – so'zdir. Vasiyat so'zlariga amal qilinsa, uning foydasi ko'p bo'ladi.

Ezguliklar qilishga tangri senga madad bersin, bu ezguliklar har jihatdan sening baxtingni ochsin.

Ey baxtli elig, mana men o'lib ketayotirman, dilimning sururi o'g'lim mendan judo bo'lib qolayotir.

Iltijolar qilib uni xudoga topshirdim, xohlasa uni yonayotgan o't ichida ham asraydi.

Sendan iltimosim shuki, undan xabar olib tur, tashlab qo'yma, nobakorlar qatoriga kirmasin.

O'g'il-qizning fe'li, xulqi yaxshi yoki yomon bo'lsa, uning sababchisi ota va onadir.

Mana, men, uning otasi, endi o'layotirman. Onasiz yetim o'g'lim mendan ham yosh qolayotir.

Mening xizmatlarimning haqi uchun, sen sabab bo'lib, o'g'limni yaxshi yo'lga sol.

Uni qarovsiz qo'yma, san'at-hunar va bilim o'rgat, bilim va san'at-hunarlarini tufayli el xizmatiga yarasin.

Fe'l-xulqlari kamol topsin, yo'l-yo'riqlari soz bo'lsin, xizmatga loyiq bo'lsin, mukofotlarga sazovor bo'lsin.

Behuda va bo'sh qo'yma, tiyib-tergab tur, tiyib-tergab turilsa, farzndlar baxt topadilar.

O'g'il-qiz yoshligida nimani o'rgansa, qarib o'lma-guncha uni unutmaydi...

Farzandga kichikligida bilim o'rgatish kerak, bola kichikligida bilim o'rgansa, barkamol bo'ladi.

O'g'il-qizni ayama, vaqti-vaqti bilan jazolab ham tur, jazo o'g'il-qizga ta'lim o'rgatadi.

...Nomasini tugatdi, mahkamlab o'radi va o'g'liga tutqazdi...

Oyto'ldining o'z o'g'li O'gdulmishga aytgan vasiyati: Nobakor bo'lma, behudaga urinma, to'g'ri va pokiza bo'l, fe'l-atvoring matlub bo'lsin.

Kechasi yotadigan bo'lsang, kech yot va erta barvaqt tur, kech yotib erta turganlarning baxtiga baxt qo'shiladi.

Yo'rig'ingni to'g'ri tut, o'zingni unutma, ko'ngil va tilingni kichik tut, balandparvoz so'zlama.

Bu dunyo uchun o'zingni o'tga-cho'qqa urma, zo'ravonlik bilan odamlarning narsalarini olma.

Mendan qolgan mol-dunyoni ushlab qola olsang, qo'lingdan chiqarma, ikki olamda ham yuzingni yorug' qiladi.

To'g'ri bo'l, yo'riq-qilig'ingni mukammal tut, xursandchilik – to'g'rilik bilan bog'liq bo'ladi.

Xalq ustidan buyuk bo'laman desang, o'zing uchun to'g'rilik yo'lini tanlab ol.

Faqat yaxshilik qil, yomon ishdan uzoq yur, senga ham faqat ezgulik evaz bo'lib keladi.

Odamlarga hasad qilma, ko'ngli qora bo'lma, bu ikki fe'lga ega bo'lgan odam doim mungda bo'ladi.

Xulqingni xush tut. Narsa uchun qayg'urmagil, xulqing yaxshi bo'lsa, narsa o'zi kelaveradi.

Andishasiz odamdan zinhor yiroq tur va qoch, uyat-andishaliklarga mendan ming-ming olqishlar bo'lsin.

Jamiki ishda shoshilma, sabrli bo'l, o'zingni bosib ol, sabrli odamlar orzu-istaklariga yetadilar.

Qayerda bo'lmasin, yo'riqqa amal qil, yo'riqqa amal qilsang, qut senga o'zi keladi.

Tilingni ehtiyot tut, ko'zingni asra, nafsingni tiy, halol va oz-oz yegin...

O'zgalarga ziyon sog'inma, o'zing ham ziyon ko'rma, faqat yaxshilik qil, orzu-havasni bosgin.

Qanday yerga kirsang, eng avval chiqishingni ko'ra bil, chiqish yerini bilmasa, kishi shikast topib qolishi hech gap emas.

Qachon g'azabing qo'zg'alsa, o'zingni qo'lga ol, sabrli bo'l, sabrli kishilarning sevinchlari oldilarida bo'ladi.

Sabr qilgan kishi buzilgan ishlarini ham tuzatadi, tilagiga yetadi, oqqush tutadi.

Sabr qilgin, sabr – mardlarning odati, sabr qilgan kishi hatto ko'kka parvoz qilishga ham yo'l topadi.

Tilingdan yolg'on so'z chiqarma, bu yolg'on qadringni tushiradi.

Qarindoshlarga, yaqinlarga yaqinlik bog'la, katta va kichikka ochiq chehra bilan kulib boq.

Non-tuzingni keng tut, odamlarga yedir, odamlarning aybini ko'rsang, uni fosh qilma, yashir.

Davlatning ziyoda bo'lsa, unga mag'rurlanmagin, qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil, yomonlik qilmagin.

Mol-dunyoga mahliyo bo'lma, u ko'payadi va yana ozayadi, davlatga ishonma, uning umri qisqa, tez qariydi.

Ichimlik ichma, janjalga aralashma, undan uzoq yur, zino qilma va fosiq, tuban degan nom olma.

Ichimlikdan yurak ming-ming gunohlar qilishga qo'zg'aladi, zinodan qut qochadi, yuzing qora bo'ladi...

IRIMLAR

Irimlar barcha xalqlar orasida uzoq davrlardan buyon yashab keladi. Ba'zilar unga ishonishmaydi, ko'pchilik amal qilib ham keladi. Ayrimlar irimlarni xurofot, bid'at deb bilib, qo'l siltab, undan yuz o'giradilar, mutlaqo parvo qilmaydilar.

Bir turkum odamlar esa, irimlarga amal qilishlarini boshqalarga bildirmay, o'z ichlarida sir saqlaydilar. Aslida, musulmonchilikda aholi o'rtasida irimlarga rioya qiladiganlar qilmaydiganlarga nisbatan ko'proq uchraydi. Bu haqda shoirimiz Abdulla Oripovning shunday hazil she'ri bor:

*Kim nimani aylasa armon,
Qo'msab kelgan o'shani azal.
Ataganlar qizni O'g'ilxon.
Bu – o'g'ilga ishora, misol.*

*Hozir mehr bulog'i tindi,
Bu holni ham irimga yo'ying.
Qizlaringiz tug'lsa endi,
Nomlarini Mehrixon qo'ying.*

Irimlarning o'zi nima? Xalq orasida bu atama «irim-sirim», «irim-chirim» deb ataladi. Odatda qonun-qoidalarda bir ish-harakatni qilish, bajarish ko'zda tutilsa, irimlarda aksincha, muayyan ish-harakatlarni qilmaslik, bajarmaslik talab qilinadi.

Irimlar kishilar o'zlarini, yaqinlari, oilalarini ehtiyot qilish, yomon ko'zdan asrash uchun qilinadi. O'zga kishilarga, ularning fe'l-atvor va munosabatlariga qarab yaxshilik istash, aksincha zarar yetkazish maqsadida irim qilinadi. Uy, beshik, mashinaga tumor taqish, tug'dona osish, isiriq tutatish, chaqirtikan osish, taqa qoqish, xum ko'mish, kiyik shoxi, bo'ri tirnog'i, qo'y kallasi ilishlar irim odatlaridir.

Irimlar insonning ko'p asrlik hayotiy tajribasidan kelib chiqib, muayyan sinovlardan o'tib bizgacha yetib kelgan. Aytaylik, xudoyida, agar u yuzga yaqinlashgan kekxa cholniki bo'lsa, to'y-ku, tabarruk, savob deb oshni paqqos tushirishadi. Mabodo yosh o'lim bo'lsa, azbaroyi marhumga achinish va irim bilan kam totiniladi. Ertalab ishga otlandingiz, dastro'molingiz yodingizdan chiqib qolganini bilib qoldingiz. Irim qilib orqangizga qaytmaysiz. Uyda qaychining «jag'i» ochilib qolibdi, irim qilib darhol yopib qo'yasiz, «janjal chiqmasin», deysiz.

O'zbeklar biror yerga safarga chiqadigan bo'lsa, oldin hovli supurilib, tozalangandan so'ng chiqishadi. Kishi ortidan uy supurilmaydi. Kosiblar, ustalar, chevarlar o'z mahsulotlarining biror arzimas yerini chala qoldiradilar, bu bilan kasb-korlarining bundan keyin ham davom etishini tilab, barakasini bersin, deyishadi.

Dekchadagi qatiqdan bir qoshiq, dondan bir hovuch, uzumdan bir shingil olib qolib, ko'hnargi, davomini xudo bersin, deb irim qilinadi. Mol, qo'y, ot, sigirini bozorga olib chiqib sotgan odam xaridorga jonivor bog'lab kelingan arqonni berib yubormaydi.

Qadimgilar bir kunda qo'l-oyoqning tirnog'ini baravar olishmagan. Bir kunda ham to'y, ham o'linga yo'liqmayin, deb shunday qilishgan. Oldingizdan qora mushuk chiqsa, ishim yurishmaydi deya yo'lingizni o'zgartirasiz. Odatda, bola beshikka belanayotganda ikki uy ko'rgan, oilasidan ajralgan xotinlar kiritilmagan, kelin tushirib, «joy yig'di» qilganda ham shunday. «Ko'zli» odam yoinki yomon niyatda shaxs hovlingizga kirib, molingizni ko'rib, farzandlaringizning odobiga qoyil bo'lib, havas, hasad qilib chiqib ketdi. O'sha vaqtdayoq unga bildirmay, kiyimining biror parchasini (kovushining patagi bo'lsa ham) olib qolib, tutantiriq qilasiz. Bu bilan yomonning «ko'zini o'tmaydigan» qilasiz.

Chorshanba, shanba kunlari yo'lga, safarga chiqilmaydi. Ashur oyi ham xuddi shunday. Non teskari qo'yilmaydi, kechasi soch, tirnoq oldirilmaydi.

To'yda tug'ilgan bola To'ychi, yo'lda tug'ilgani Yo'lchi, safardagisi Safar ismi bilan ataladi. Ramazon kunlari dunyoga kelgan bola Ramazon deb, biror a'zosida kamchiligi bo'lgan bolalar tug'ilsa, Quدرات (xudoning qudrati bilan shunday bo'lgan) aksincha ortig'i bo'lganlarga Ortiq ismlari qo'yilishi farz sanaladi. Bu qoidalarning o'zgartirilishi, shak keltirilishiga irim qilinadi. Ketma-ket qiz tug'ilaversa, keyingisi o'g'il bo'lishini tilab, so'nggi qizning ismi O'g'iloq qo'yiladi. Bu boladan keyin ham unga ergashgan ukalari tug'ilsin deb Ergash ismi qo'yiladi. Navro'z bayrami tantanalari kunlari tug'ilganlarning ismlari Navro'z bo'ladi. Boshqacha qo'yishdan cho'chiysiz, xudoning g'azabini keltirmay, deb irim qilasiz...

Chap ko'zingiz uchsa, xavotirlanasiz, o'ng ko'zingiz uchsa suyunaman deb o'ylaysiz. Ayollarning tushi kabi qosh-qovoq uchishlari ham teskari yo'yiladi. Ko'zim uchdi, suyunaman, kuyinaman degan iboralar xalq orasida shunday qolgan. Aslida ko'z uchmaydi, teri, et, asab tolalari harakatlanadi xolos. Ammo bu kishining ruhiy holati, ma'naviy dunyosi bilan bevosita aloqadorligi hayotda ko'p bora isbotlangan, sinovdan o'tgan hodisalardir.

Bu singari odat-irimlarning hisobi yo‘q. Taqiqlar, harakat, ogohlantirishlarning o‘z asosli mantiq, mazmuni va voqeahodisalari borki, ko‘p bora takrorlangan bu hodisalarda xosiyat bo‘lmaganligi uchun xalq bilib, uni taqiqlab, hech bo‘lmasa, keyingi avlodlarni ogohlantirib ketgan.

Irimlar ham bir xalqdan ikkinchisiga, uchinchisiga ko‘chib yuradi. Masalan, hozirgi yoshlar 13 raqamini baxtsizlik keltiradi, deb bilishadi, imtihonlarga eski poyafzal kiyib borishadi... Bu odatlar Yevropa xalqlaridan, birinchi navbatda, rus xalqidan bizning turmushimizga o‘tib kelgan irimlar bo‘lib, o‘zbek urf-odati, ruhiyati, tabiati, marosimlariga mos kelmasa-da, yosh avlodlarning ko‘pchilik qismi zamon farzandlari sifatida unga amal qiladilar.

«Irimchi irim etar, irimi qirin ketar» degan maqol bor xalqimizda. Bu maqolni ikki ma’noga yo‘yish mumkin. Birinchisi, irimchilar irim qilaveradi-yu, bundan hech vaqo o‘zgarmaydi, xavotirlanmasa ham bo‘ladi, deyilmoqchi, ikkinchisi, irimchi irimini hadeganda tashlay qolmaydi, u bunga o‘rganib qolgan, to o‘lguncha uning hamrohi bo‘lib qoladi, degan ma’no anglashiladi. «Suvning irini¹ yomon, qarining irimi yomon» degan maqol ham o‘zbek xalqining bu odatga munosabatini belgilaydi.

Ko‘ryapsizki, ortiqcha irimchilik, har ishdan xavotirlanaverish ota-bobolarimiz tomonidan salbiy baholanib, qoralangan, Biroq irim-sirim ham xalq turmushiga ming-ming yillardan buyon hamrohlik qilib, singib, uning ajralmas qismiga aylanib qolganligini unutmashimiz lozim. Shuning uchun ham irim-sirim odatini har bir xalq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘rganish, uning mohiyatini anglash, hayotiy jihatdan dalillanganlariga amal qilish, insoniyat tajribasidan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi. Shunday ekan, irim-sirim, irimchilik hodisalari va odat-udumlariga duch kelsangiz, masxaralab, kamsitib, ustidan kulishga shoshilmang, balki uning mohiyati bilan yaxshilab qiziqib ko‘ring. Axir u ham boshqalarniki emas, faqat Sizning ajdodlaringizga xos o‘zingizning urf-odatingizdir.

¹*irin* – qirg‘og

QARG'ISHLAR

Atoqli shoir Rasul Hamzatov «Mening Dog'istonim» kitobida Ona tili, Vatan va uning odamlarini millatdoshlari - avarlarni ko'klarga ko'tarib maqtarkan, «mening qo'limda bo'lsa, ayollarimizning jon uzib qarg'ashlarini, erkaklarning boloxonador so'kishlarini bir kitob qilgan bo'lardim», deya avarcha qarg'ish-u so'kishlarni ham yuksak insoniy madaniyat namunasi sifatida talqin qilgan.

Hali biz saviya-yu vatanparvarlik ruhi jihatidan Rasul bobo darajasiga yetmagan bo'lsak-da, o'zbekcha qarg'ish-u so'kishlarga ham bir xolis nazar solsak yomon bo'lmasdi.

Bir zamonlar dashtdan kelib, olimlik qilmoqchi bo'lgan havaskor «O'zbek tilida it nomlarining kelib chiqishi» mavzuda ilmiy ish yozgan. Taniqli adib uni masxaralab, matbuotda felyeton qilgan. Mening nazarimda, o'sha yosh olimning it nomlari mazmun-mohiyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lishi unchalik kulgili hodisa bo'lmay, aksincha, ma'rifiy, madaniy, hatto ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan. Afsuski, jonqobil yigit peshonasi silanishi o'rniga ilk qadamidayoq ko'kragan tepki yegan...

Qarg'ishning nimaligini bilmagan odam, ayniqsa, musulmon bo'lmasa kerak. Qarg'ish-u so'kish borasida ham bizning o'zbek xalqi qadimdan hech qaysi xalqdan qolishmay kelyapti. Keyingi asr, buning ustiga, shunday zamon bo'ldiki, so'kinmagan erkak, qarg'anmagan ayolni bu dunyoda topib bo'lmay qoldi. Bu ham o'ziga xos zamona ta'rif-tavsifi, ijtimoiy xarakteristikasi bo'lsa, ajab emas...

Qarg'ish mualliflari asosan ayollardir. Ular qarg'amay turolmaydilar. Bolalarini, erlarini, begonalarni, do'sti-yu dushmani, ermak uchun bo'lsa ham qarg'aydilar. Qarg'ishning qarg'ishdan farqi bor, albatta. Adolatsizlik, nomardlik oldida ojiz qolib, yolg'iz Olloi taologa zorlanib, yer mushtlab qarg'anish bilan uyda shunchaki bolaning biror aytilgan ishni o'z vaqtida bajarmagani uchun qarg'ashni bir-biriga teng qo'yib bo'lmaydi.

Qarg'ish ham qadimiy odat bo'lib, har bir xalqning milliy turmush tarzi, urf-odati, madaniy darajasi etnik bosqichlarini aniqlab, belgilab beradi. O'zbekcha

qarg'ishlarni ham alifbo yoki mazmuniy, mavzu tasnifiga solib o'rgansangiz, bir necha kitobni tashkil etar. Izohli lug'ati bilan tahlil qilsangiz, bir necha jilddan iborat bo'lar...

Qarg'ish birovdan nohaq jabr ko'rgan odamning unga yomonlik sog'inishi, o'limini tilashidir. Qarg'ish ham joyiga, voqea-hodisaga, ishtirokchilarning yoshiga qarab adolatli, adolatsiz bo'lishi mumkin. Qarg'agan odam hamisha haq deyish ham adolatdan emas. O'rni bilan u nohaq ham bo'lishi mumkin. Qarg'ishning ikki uchi bo'ladi, degan xalqimiz haq.

«Juvonmarg bo'lsin», «og'zidan qoni kelsin», «uyi kuy-sin», «kalta qaytsin», «sochi taxtaga taralsin», «izi kuy-sin», «oti o'chsin», «ko'ziga tuproq to'lsin», «yuzini teskari qilsin», «jazosini xudo bersin», «biri ikki bo'lmasin», «kosasi oqarmasin», «yesin-ichsin – buyurmasin», «xudodan topsin», «o'g'il-qizining huzurini ko'rmasin», «go'r tortsin», «tuxumi qurisin» hokazo va hokazo.

Qarg'ishlarning soni, turi, mavzui, shaxsi juda ko'p.

Ba'zan ayrim yolchimagan odamlar to'g'risida «buni qarg'ish urgan», «ota-onasi oq qilgan» degan iboralarni eshitib qolasiz. O'zbekchilikda bunday hodisa kamdan kam uchraydi. «Oq qilish» yaqinga, farzandga nisbatan qarg'ashning eng oliy shaklidir. Bu — farzanddan voz kechish, uning shu oilaga mansubligidan or-nomus qilishdir.

Xalqimizda «onaning qarg'ishi o'tmaydi» degan naql bor. Ya'ni ona o'z bolalarini tarbiyalash jarayonida ming bora qarg'aydi. Ammo bu o'z farzandiga yomonlikni, o'limni ravo ko'rganidan emas, shunchaki ayolligidan, qarg'ishga o'rganib qolganligidan, uni tanbeh, dashnom o'rnida ishlatganidan.

Buvi-yu oyisidan, amma-yu xolasidan, qo'ni-qo'shni xotinlardan kunda birovning sha'niga qarg'ish eshitib yurgan o'zbek qizlari ham yoshlikdan qarg'ishga o'rganib boradilar. Endi otaning qarg'ishi bo'lak. Odatda otalar qarg'ashmaydi. Qadimdan ular majbur bo'lgandagina so'kadi, iloji bo'lmasa, uradi. Qarg'ashi kamdan-kam sodir bo'ladigan hodisa. Shuning uchun ham xalqimizda «otaning qarg'ishi yomon» degan naql yuradi. O'zbek otalari o'g'il-qizlar ular yuzlarini yerga qaratganda, oila nomusini

bukkanda, yomon yo'lga kirganda qarg'ashga majbur bo'ladi. Xalq aytganiday, «yomon qarg'aydi». Qarg'ishlar haqida bizning adabiyotimiz, ilmimizda, madaniyatshunoslikda umuman juda kam gapirilgan. Professor Malik Murodov xalq og'zaki ijodi tadqiqiga bag'ishlangan kitoblaridan birida bu haqda yaxshi eslab o'tgan.

Men Sizlarga, qadrlı yosh do'stlar, qadimiy bir rivoyatni hikoya qilib beray. Naql qilishlaricha, bu bo'lib o'tgan voqea ekan...

Qadim zamonda ko'hna Shosh yaqinida mashhur pir Zangi ota xonadonida go'zal Bibi Oysha kamolga yetgan. U kun sayin oqi oqqa, qizili qizilga ajralib, to'lin oyday to'lib borgan. Shosh madrasalaridan birida saboq olayotgan Qoraxon ismli o'ktam yigit favqulodda Bibi Oyshani ko'rib, uni jon-dilidan sevib qolgan. Ular pinhona uchrashib turganlar. Qiz ham xon avlodi, pahlavon va zukko talabaga ko'ngil qo'ygan. Qoraxon madrasani bitirish arafasida Zangi ota xonadoniga sovchi yuborib, qizlarini so'ratgan. Biroq pir ko'zlarining oqu qorasi bo'lgan yolg'iz qizlarini uzoqqa yuborishga izn berolmaganlar.

Valiahd Qoraxon esa o'zga shaharda ichkuyov bo'lib qololmagan, O'z ona shahri qadim O'trorga qaytib, hokimlik qilgan. Sevishganlar maktub olishib turishgan. Keyingi yilning oldi yoz faslida mushtipar ona vositachiligida Bibi Oysha padari buzrukvoridan O'trorga, bo'lajak zavjasi Qoraxon huzuriga borishga ruxsat so'ragan. Tabiiyki, ota tag'in izn bermaganlar. Bu hol bir necha bor takrorlangach, buzrukvor o'z pushti kamaridan bo'lgan suyuqli qizlariga ruxsat berib, fotihaga qo'l ocharkan, «manzilingga yetgin-u murodingga yetmagil» deya yuzlariga fотиha tortganlar...

Bibi Oysha enagasi Boyjon xotun va o'n navkar panohida suvorilardek kiyinib, maxsus arg'umoqlarda sevgilisi mamlakatiga ravona bo'lgan. Yo'l yurishgan, mo'l yurishgan. Go'zal yozning mayin epkinida bog'lar-u qirlar, tog'laru daryolardan o'tganlar. O'sha zamonning rusumi bo'yicha qaroqchilarcha hujum qilgan yo'ldagi yo'lto'sarlar navkarlar bilan qilich chopishib, go'zal Oysha

o'zi mahv etgan dushmanlari kallalarini nayzalarga ilib, Qoraxonga sovg'aga tayyorlagan.

Nihoyat orziqib kutilgan visol onlariga ham yaqin qolgan. O'tror yerlariga yetib kelgan Bibi Oysha chopar yubortirib, sevgilisini qarshi olishga chorlagan. Qoraxon xushxabardan yuragi hapriqib, Talas qirg'oqlariga a'yonlari bilan tengsiz mehmon, ertangi mezbenni qarshi olgan...

Bibi Oysha visol oldidan chavandozlik – yo'l kiyimlarini yechib, ko'pik sochib toshlarga urilib oqayotgan Talasning ko'zgudek tiniq, shaffof suvlariga cho'milib olishni niyat qilgan. Boyjon xotun panohida quloch yozib suzgan, cho'milgan. Suluv malikalardek maxsus kelinlik kiyimlari, harir liboslarini qirg'oq maysalari ustida kiyayotganda... shuvoqlar orasidan ikki qora ilon chiqib kelib, nozik vujudning ikki yeridan baravar chaqqan...

Oyshabibining bexos chinqirig'idan Qoraxon o'z navkarlari bilan berigi qirg'oqqa qanday o'tganini bilmay qolgan. Oshiq o'z ma'shuqasini ko'tarib og'ushiga olgan. Darhol muolajaga kirishib, zaharni so'rib tashlashga urinishgan.

– Yetib keldim... Men Siznikiman, – ohista nafas qilgan Oyshabibi.

– Uzoq kutdim, men ham yolg'iz Siznikiman, – nafas qilgan Qoraxon hayajondan entikib.

Vaziyatning qaltisligini anglab yetgan Qoraxon shu zahotiy oq yonidagi ustoziga nikoh o'qittirib, Oyshabibini o'z nikohiga olgan. Kelin o'z kuyovi qo'lida ilinj bilan jon taslim qilgan...

Bibi Oysha malikalarga xos katta hurmat bilan dafn etilgan. Boyjon xotun uning is-chirog'ini qilib, qabriga parvona bo'lgan. Oshiq yigit Qoraxon qirq yil shohlik qilib, Oyshabibi bilan nikohini buzmagani. Oldin Bibi Oysha qabri tepasiga, keyin uning enagasi Boyjon xotun mozori ustiga ikki yuksak go'zallik namunasi bo'lgan maqbara tiklatgan.

Bu gaplarga, mana, qariyb ming yil bo'ldi. Bibi Oysha qissasi hamon oshiqning yuragini o'rtaydi. Darvoqe, uning o'zidek go'zal va nafis maqbarasi hamon Qozog'istonning hozirgi Jambul shahrida sevgi va sadoqat

timsoli sifatida qad ko'tarib turibdi. Boyjon xotun tutingan qizini uning yonida hamon yomon ko'zlardan qo'riqlashda davom etmoqda. Xon Qoraxon esa bir umr qovushilmagan nikoh bilan o'tgan pokiza inson sifatida Avliyo ota nomi bilan o'z maqbarasida Bibi Oyshadan bir sari qadam narida mangu uyquda yotibdi...

Otaning qarg'ishi yomon, deyishadi eskilar. Zangi ota qarg'anmagan, qiziga bu taqdirni ravo ko'rmagan, faqat andak og'ringan edi, xolos...

YAXSHI NIYAT – OLQISHLAR

Yaxshi niyat – yarim davlat, deydi xalqimiz. Tilak bildirish yaxshi niyat, duo-yu olqishlar – bu ham o'zbek xalqining eng qadimiy udumlaridan biridir. Inson hayotining barcha fasllarida, turli yoshlarda, turli munosabatlar bilan, turmushning barcha chorahalarida bir-biriga tilak bildiradi, yaxshi niyat qiladi.

Bola tug'ilganda farzand, zurriyot muborak bo'lsin qilinish, umri-yu rizqi, ota-onasi, bobo-yu buvisi bilan bergan bo'lsin, deyiladi. Bu ixcham tilakning mazmunida katta hikmat bor. Bolaki tug'ilibdimi, avvalo uning umri uzun bo'lsin, rizqi-nasibasi mo'l bo'lsin, ota-onasi tarbiya berib, oq yuvib, oq tarab, tishlab-tirnog'lab voyaga yetkazar ekan, bu farzandning huzurhalovatini, iqbolini ko'rishsin, xalqning og'irini yengil qiladigan shaxs bo'lib yetishsin kabi ko'pga va uzoqqa mo'ljallangan tilaklar birgina shu ibora-hikmatda o'z jamuljamini topgan.

O'g'il uylantirilayotgan, qiz turmushga chiqarilayotganda ham yangi oila qutlug' bo'lsin, muborakbod qilinish, «ilohi ikki yoshning baxti iqbolini bersin, qo'shgani bilan qo'sha qarisin, uvali-juvali bo'lishsin, tuproq olishsa oltin bo'lsin» kabi yaxshi niyatlar bildiriladi. Bu bilan hamrohini topgan baxti saodatini ham topsin, o'la-o'lguncha bir-birlariga sodiq yostiqdosh bo'lishsin, farzandlari ko'pu tarbiyasi bo'lsin, topganlari o'zlariga nasib qilsin, avlodning munosib davomchilari bo'lsinlar singari hayotiy, samimiy tilaklar ko'zda tutilgan.

Safarga, sayohatga, xizmatga o'tlanayotgan kishilarga, «safaringiz bexatar bo'lsin, eson-omon yana diydor ko'rishaylik, xudo yor, pirlar madadkor bo'lsin», degan tilaklar bildiriladi. Mo'ysafidlar, ota-onalar farzandlarining duoyi jonini qilisharkan, «oy borib omon qaytgin», deya kaftlarini yuzlariga surib, fотиha tortishadi. «Omad yor bo'lsin, olginu oldirmagin, to'rt muchang sog' bo'lsin, xudo o'z panohida asrasin, chor-yorlar madadkor bo'lsin» tilaklari ham shu holatlarda qo'llanilishi mumkin.

Biror joydan, shahar, qishloq, davlat, safar va ziyoratdan qaytgan kishilarga, «ziyosatlar qabul bo'lsin,» degan niyat bildiriladi. Bunga javoban safardan qaytgan shaxs, «murodingiz hosil bo'lsin», deya minnatdorchilik bildiradi. Buning ma'nosi shuki, xolis, ezgu niyatlar bilan ziyoratga chiqib, mozor bosib, ulug' avliyo-yu anbiyolarni ziyorat qilib qaytibsiz; yaxshi niyatlaringizni xudo o'z dargohida qabul qilsin, deyilyapti. Javobda esa ikki ma'noli mantiq jam bo'lgan: Iloho aytganingiz kelsin, inshoollo, Sizga ham ushbu ziyoratning savobi tegsin, ma'nolari shular jumlasidandir.

Odamlar ko'ngillari to'lmagan, gumonsiragan shaxs, hodisa-voqea, ish haqida, odatda, «oxiri baxayr bo'lsin, oxirini yorlaqasin», degan mulohaza-tilak aytishadi. Bu bilan ushbu shaxs yo hodisaning ketishi shu bo'ladigan bo'lsa, oqibat yaxshilikka olib bormaydi, yanayam xudo insofini berib, bir tomonga boshqarib oxirini yorlaqasa, noumid shayton, deya umid bildiriladi.

Marhumlar xotirasiga fотиha o'qilarkan, «xudo dargohida qabul qilsin, joylari jannatdan bo'lsin, go'rida tinch yotsin, arvohi shod bo'lsin, xudo rahmat qilsin» kabi tilaklar va ularning teng muqobillari ishlatiladi. Xonadon sohibiga, «xudo sabr bersin, marhumning qolgan umrini sizga, bola-chaqangizga bersin, qaratmagan tabibingiz qolmadi, xudoning irodasi shu ekan, xudo bir, o'lim barhaq», deya yupatiladi, ko'ngil so'raladi. «Bandalik, hammamizning ham boshimizda bor gap, borar joyimiz o'sha manzil» singari iboralar ham shu marosimning yupatuvchi iliq so'zlari sanaladi. Marhum keksa odam bo'lsa, shu kishining yoshlariga yetib yuraylik,

o'lim emas, buni to'y deyavering, tabarruk, deyiladi. Keyingi yosh avloddan biror farzand marhum bobo, ota, xola, onaga o'xshatiladigan bo'lsa, marhum hayotdan yosh ko'z yumgan bo'lsa, umri o'xshamasinku falonchispismadonchiga (marhumga) quyib qo'ygandek o'xshabdiya, qilig'i-yu xatti-harakati ham xuddi o'zi deyiladi.

Kasal-bemor ko'rgani borganda, avvalo kech borilmaydi, payshanba kuni kasal ko'rilmaydi, tuzalib qoldingizmi, xayriyat, rang-ro'yingiz binoyiday, deyiladi. Qaytayotganda xayrlashayotib, xudo shifo bersin, deya yuzga fotiha tortiladi, «dardni bergan xudo, davosini ham beradi, keng bo'ling, ko'pi ketib, ozi qoldi, ko'rma-gandek bo'lib ketasiz», deyiladi.

Gadolar tilanib oldingizdan chiqsa ham o'zbek ortiqcha sarmoyasi bo'lmasa, peshvozga qattiq gapirmaydi, «xudo bersin» deya yaxshi niyat qilib, o'tib ketaveradi. Biri kam dunyo bola-chaqaning bosh-oyog'iga, sandig'i, sarposurug'iga yetkazishning iloji bo'lmasa, «hammasi to'kis bo'lishi shartmas, bu ham yo'g'idi, otam bozordan keltirdi, eng muhimi, o'zining peshonasiga bersin», deyiladi.

Ostona hatlab, uyga, o'zga xonadonga kirilganda, yuzga fotiha tortilarkan, «iloho tinchlik-xotirjamlik, omonlik bo'lsin, qadam yetdi, balo yetmasin» iborasi aytiladi.

Biror kishi yangi kiyim, joy-jalol, mol-mulklik bo'lganida o'zbekchilikda «qulluq bo'lsin, muborak bo'lsin, nasib etsin, tepkilab-tepkilab kiying, egningizda to'zisin, yarashibdi, buyursin» kabi so'z va iboralar qo'llaniladi.

Xalqimizda odamlarga yaxshilik qilish, birovning kori xayriga yarash axloq normasi, odamgarchilik, insoniy burch sanaladi. «Yaxshilik qil – daryoga tashla, baliq biladi, baliq bilmasa – Xoliq biladi», aqidasi rioya qilarkan, o'zbek har bir odamga, uning yoshi, jinsi, millati, qavmidan qat'i nazar, yaxshilik sog'inib yashaydi.

Yaxshi niyat, tilak bilan bog'liq o'zbek xalq maqollari ham bir talay. Ulardan:

*Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i.
Yaxshi oshini eydi, yomon-boshini.*

Yaxshidan – vafo, yomondan – jafo.

Yaxshilik to‘rga eltar, yomonlik go‘rga.

Yaxshilikka yaxshilik – har kishining ishi, yomonlikka yaxshilik – er kishinng ishi.

Yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi;

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi. Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqadi.

Yaxshini bil o‘zidan, yomonni bil ko‘zidan.

Yaxshini ko‘rib, shukur qil, yomonni ko‘rib fikr qil.

Yaxshilik qilsang yashir, yaxshilik ko‘rsang – oshir.

Odamdand yaxshi ot qolsin.

Yaxshi chechakka bolari qo‘nadi.

kabi axloqiy-didaktik maqol-naqllar shular jumlasidandir.

Yaxshi niyat, tilaklar odob-axloq, nasihat, maslahat, yaxshilik-sog‘inish mayllarida bo‘lganidan oddiy muomala-munosabat, kundalik turmush lahzalari, umrguzaronlik yo‘llarida, umr saboqlari sifatida har qadamda uchraydi.

Xush kelibsiz.

Xush ko‘rdik.

Yaxshi boring.

Yaxshi qoling.

Yaxshi yotib-turing.

Shirin tushlar ko‘ring.

Yoqimli ishtaha, ishtahangiz karnay bo‘lsin.

Xayrli tun. Xayrli tong

Yaxshilikka buyursin.

Yaxshi kunlaringizga yarasin.

Yaxshi kunlarda ko‘rishaylik.

Ko‘z tegmasin.

Baraka toping.

Uyingizga bug‘doy to‘lsin.

Bola-chaqangizning huzur-halovatini ko‘ring.

Yaxshi niyatlaringiz o‘zingizga yor bo‘lsin.

Tuproq olsangiz, oltin bo‘lsin.

Qo‘chqorday o‘g‘il bersin.

Topganingiz to‘yga buyursin.

Fayz-barakangizni bersin.

Umringiz uzoq bo'lsin.

O'ylagan niyatlaringizga yetib yuring.

Xo'jai Xizr hamrohingiz bo'lsin.

Insonning boshiga har xil savdolar tushishi mumkin. Minnatsiz osh, g'avg'osiz bosh bo'lmas, deydi o'zbek. Jabrdiyda, alamdiyda kishidan ko'ngil so'raganda, uni yupatilganda, odatda, «ko'nglingizni cho'ktirmang, oying o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug', albatta yorug' kunlar ham keladi», «Boshingiz omon, joningiz sog' bo'lsin» «Boshingiz toshdan bo'lsin», «Bu kunlar unut bo'lib ketadi» «Yigit kishining boshi omon bo'lsa, mol-dunyo topiladi», «Davlat, pul qo'lning kiri». «Mol topiladi, jon topilmaydi» qabilidagi jumla, ibora, so'zlar, maqol-u naqlar qo'llaniladi.

Adolatsizlik oldida ojiz qolib, yer mushtlab, yig'lab-zorlanib turgan odamga, «kuyinmang, keng bo'ling, u xudo bexabarga ham tikilgan-boqqani bordir», «Qarz qiyomatda qolmas», deydilar. «Qirq kun o'tmay xudoyi taoloning o'zi ko'rsatadi». «Xudoning g'azabiga uchraydi». «O'shanda meni aytdi deysiz», degan gapni qilishadi.

Sovet hokimiyati yillarida bir piyola choy ustidagi dilkash suhbatlar mayxo'rlik, qadah ko'tarib va'z aytish odatiga aylandi. Shunda ham o'zbek eski, qadimiy an'analarini saqlab qoldi. Ixcham falsafiy qadah so'zlar yaratildi.

Eng yomon kunimiz shunday bo'lsin;

Do'stlarning joni sog' bo'lsin;

Do'stlik, yaxshilik bor bo'lsin;

Hammani ham yaxshi kunlarga yetkazsin;

To'y bo'lsin-u g'am bo'lmasin;

Do'stlar orasiga g'alamis oralamasin;

Qasd qilgan past bo'lsin, va hokazo.

Kishining ko'ngliga qarash, nozikta'blik, dardkashlik hamdardlik o'zbekning ko'ngil hamrohi. Biz o'zganing dard-g'amiga, tashvishiga loqayd, befarq qarolmaymiz. Shodligidan terimizga sig'may quvonamiz. Dard-tashvishiga sherik bo'lamiz.

Mushkulingiz oson bo'lsin;

Do'stga zor, dushmanga xor, nomardga muhtoj qilmasin;

O't balosi, suv balosi, quruq tuhmatdan, bemahal o'limdan o'zi asrasin.

Ko'nglingizga olmang.

Og'ir bo'ling.

Boriga baraka,

Barakasini bersin.

Qatorida xato bo'lmasin.

Ko'pga bersin, ko'pning qatorida bizga ham bersin.

Bir-birimizdan kam qilmasin.

Ishingiz baroridan (o'ngidan) kelsin.

Ko'p bersin, ko'l bersin, keng fe'l ketmas davlat bersin.

Yomonning yuzini teskari qilsin.

Yaxshilarga yondoshtirgin, yomonlardan uzoqlashtirgin.

Aytganingiz kelsin.

Farishtalar omin desin.

O'zaro muomala-munosabat, uchrashuv, yuz ko'rishuvlarda shunday qisqa muloqotlar bo'lib o'tadi:

– Hormang,

– Bor bo'ling (Salomat bo'ling)

– Choshga baraka. (Xirmonga baraka)

– Umringizga baraka.

– Yaxshimisiz, tan-joningiz sog'mi?

– Xudoga shukur, o'zingiz tinchmisiz, bola-chaqalar omonmi?

– Bu yaxshiligingizni o'la-o'lguncha unutmayman.

Mendan qaytmasa, xudodan qaytsin.

– Bandasidan yaxshilik qoladi. Bu mening insoniy burchim.

– Minnatdorman, xudo umri joningizni ziyoda qilsin, dunyo turguncha turing. Bola-chaqangizning orzu-havasini ko'ring.

– Rahmat. Yaxshi niyatlaringiz o'zingizga ham yor bo'lsin va hokazo.

Sig'inish, imon-e'tiqod bilan bog'liq yaxshi niyatlar ham xayotda juda ko'p qo'llaniladi. Ular ruhlanish, madad, ishonch va e'tiqodni kuchaytirishga yordam beradi.

«Yo Ali», «Yo, pirim», «Yo Alisheri xudo», «Yo rabbim» kabi xitoblar shular jumlasidandir. Bir ishga jazm

qilish, faoliyatni boshlash, kirishish, polvonlik, kurash hamda ko'pkari-uloqda va boshqa harbu zarblarda kuch-quvvat talab qilingan lahzalarda bu xitoblar bot-bot qo'llaniladi.

Dasturxon, taom, bir piyola choy ustidagi suhbatlarda, daf'atan, osh yeb turganingizda yangi mehmon kelib qolsa, «E, keling, keling, qaynanangiz suyar ekan», deyiladi. Mehmon ham albatta, «Rahmat, qaynanam suymasa, qizini berarmidi», deydi. Ovqatni oxirigacha yedirishga undashda, «oling, qoldirmang, dunyoning oxiriga yetib yuring, hamma savobi shu oxirgi luqmada-da», degan jumla ishlatiladi. Choy quyayotganda, so'nggi piyola choy uzatilgan kishiga, piyolada choy juda kam bo'lsa-da, «marhamat, dunyoning oxiriga yetib yuring», deyiladi. Bu bilan, avvalo choy quyuvchi o'zini, mehmonni choyni kamligi uchun xijolatpazlikdan qutqazadi. Ikkinchidan, dunyoning oxiriga yetib yuring, deganda, Sizning umringiz tugaganda, dunyo ham tugab, qiyomat-qoyim bo'lsin degan niyat emas, xudo bergan umringizni yashang-u, obro'-e'tiboringiz, yaxshi nomingiz bilan dunyo turguncha turing, umringiz boqiy bo'lsin, degan ezgu tilak bildirishadi.

O'zbekning har gapida ishlatiladigan yaxshi niyat, tilaklari bu xalqning odob-axloqi yuksk bo'lgan qadimiy madaniyat egasi ekanligidan dalolat beradi. «Yomonlik hammaning, yosh bolaning ham qo'lidan keladi», deydi xalq.

Qavmimizning tili shirin, gapi qiziq, qalbi saxovat, mehr-muhabbatga to'la, niyatlari pok, yaxshilik va ezgulikka yo'g'rilgan. Siz bilan biz ham bu xislatlardan benasib qolmasligimiz lozim.

VII BOB.

OXIRAJI



XUDOYI

Xudoyi odati ildizlari uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu odat olloh yo‘liga qilingan xayr-ehson bo‘lib, xudo yo‘li, xatmi qur‘on, duo-yu fотиha, qon chiqarish, qurbonlik deb ham ataladi. Qadim bobolarimiz tabiat saxovati, serhosilligi, serne‘matlilikini xudoning inoyati bilib, bunga shukrona aytib, yig‘ib-terilajak yoki yig‘ishtirilgan hosilning bir qismini avvalo olloi taologa, qolaversa, payg‘ambar-u chahor-yorlar, o‘tgan marhumlarning ruhiga bag‘ishlashgan. Buning uchun maxsus jonliklar so‘yilib, doshqozonlar qurilgan. Elga obi xudoyi, osh, sho‘rva, non, nisholda tortilgan. Bu ne‘matlar davrga, mavsumga, miqyosga qarab tarqatilgan.

Hozirgi zamonda ham xudoyi turli ko‘rinishlarda o‘tkazilib kelinadi. Birinchi galda bu odat vafot etgan kishining yodi-xotiri uchun yetti, yigirma, qirq, yilni nishonlash bilan bog‘liq bo‘lib, bunda xudoyiga taklif etilgan domla, diniy nazorat vakili «Qur‘oni karim»dan lozim suralarni o‘qib, marhum ruhiga, barcha o‘tganlar yodiga baxshida qiladi. Bu duo-yu fотиha machitda, domlaning uyida, g‘oyibona ijro etilishi ham mumkin.

Undan so‘ng jamoaga osh berilgan. Mahalla, qarindosh-urug‘, xizmatdoshlar aytilgan paytda: sahar yoki peshinda kelib xudoyi oshini savob yo‘liga yeb ketishadi. Har to‘p, guruh oshga qo‘l urishi yoki fотиha oldidan maxsus domlaga yoki guruh orasidagi «Qur‘on» suralaridan yod biluvchi kishilar ma‘raka sababchisi yodiga va uni tashkil qilgan o‘g‘il-qiz, aka-uka savobi sha‘niga duo-yu fотиha o‘qitilib, xudoyi qoidalariga amal qilinadi.

Odatda, o‘zbek, tojik, qozoq va boshqa O‘rta Osiyo xalqlarida xudoyiga asosan palov osh damlanadi. Ba‘zi joylarda, ayrim viloyat, tumanlarda sho‘rva, g‘o‘lun sharbat, qovurdoq tortish hollarini ham kuzatishimiz mumkin.

Bugungi kunda diniy marosimlarga keng yo'l berilishi, e'tiqod erkinligi munosabati bilan xudoyi tantanalariga katta imkoniyatlar yaratildi. Xudoyining turlari ham ko'paydi. Hozir zamondoshlarimiz og'ir xastalikdan tuzalib ketganda, yangi hovliga ko'chib kirganda, biror falokatdan eson-omon qutulib qolganda, o'g'il armiya xizmatidan qaytib kelganda, yengil mashina olganda, o'g'il-qiz oliy o'quv yurtiga o'qishga kirganda, tavallud yoshlaridan payg'ambar yoshi – oltmish uchga to'lganda xudoyi qilib elning oldidan o'tishadi.

Xudoyini to'ysifat qilib o'tkazish, katta osh tortish, dasturxonni turli noz-ne'matlarga to'ldirish bilan xudoyidan ijobat, savob kutish, tamagirlik, eskichasiga ham, yangichasiga ham qoralanadi, gunoh sanaladi. Shuning uchun ham taqvodor kishilar o'lganning yoshiga, din-u imon, tariqat borasidagi mavqeyiga, musulmonlik darajasiga qarab, bunday xudoyilarga o'z munosabatlarini bildiradilar. Xudoyining xudoyichalari, ya'ni payshanbalik va yakshanbaliklar ham katta ma'rakaning kichraytirilganlaridir. Ularda ham aqidaga ko'ra holvaytar, talqon, ho'l va quruq meva tortiladi. Agar xudoyi o'tkazuvchi kishi beva-bechora, kambag'al bo'lsa, bunday xonadon uchun besh-oltita mo'ysafidni chaqirib, kichik is-chiroq qilib, duoyi fotiha o'qitib yuborish bilan kifoyalaniladi.

Ko'p viloyatlarda, masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysida marhum norasida, yosh va o'rta yoshda bemahal olamdan ko'z yumgan bo'lsa, (uning ma'rakasida), azbaroyi marhumga kuyinganlaridan marosim tanovulini qilmaydilar. Ba'zan irim qilib ham bunday xudoyilarda totinmaydilar. Toshkentda esa nima sababdandir bunga e'tibor berilmaydi.

Duoyi fotiha, xatmi qur'on, xudoyi odatida boyvachchalik, manmanlik, el ko'rarga katta osh-suv berish, isrofgarchilik qilish olqishlanmaydi.

Arablarda yaqinda o'lik chiqqan xonadon ostonasiga kichik bo'yra-sholcha tashlab qo'yiladi. O'tgan-qaytgan musulmonlar o'zlari payqab, shu sholchaga cho'kka tushib,

marhumning xotiriga duoyi fotiha o‘qib, tag‘in turib ketaverishadi. Hech kim, hatto o‘lik egasi ham bundan xabar topmay qoladi. Asl xudoyi, xudo yo‘liga o‘qilgan ibodat shunday bo‘lmog‘i lozim.

Har bir urf-odatga zamon o‘z tamg‘asini, talab-ehhtiyojlari, o‘zgartirishlarini kiritadi. Shu jihatdan xudoyi odati turli viloyat va tumanlarda turli zamon va mavsumlarda turlicha bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

ZIYORAT

Ziyorat – arabcha biror joyga borish, degan ma‘noni berib, u islom bilan qo‘shilgach, diniy tusga kirdi. Ziyorat, avvalo Ka‘ba, Makkayu Madina, Turkistonda Qul Xoja Ahmad Yassaviy, Buxoroda Hazrat Bahovuddin Naqshband, Xivada Pahlavon Mahmud singari avliyolarni borib tavof qilish, ular ruhi poklariga duoyi fotiha qilib kelishdan iborat bo‘lgan. Ba‘zilar ziyoratga borgach, muayyan avliyoga atab, qurbonlik ham qilib, biror jonliq so‘yib qaytganlar. Makkayu Mukarramani ziyorat qilish, ya‘ni hajga borish har bir musulmon uchun farz sanaladi.

Roviyalar rivoyat qilishlaricha, bir kishi arab sahrosida hajni ixtiyor qilib ketayotgan ekan. Bir mahal qarasa, uzoqda bir ayol ko‘rinibdi. U yugurgancha do‘mpayib turgan qora narsa tomon chopib kelmoqda ekan. Haligi kishi ayoldan avvalroq qora narsaga yetib borib qarasa, u o‘lib yotgan qandaydir qush ekan. Kishi hayron qolibdi, ayol yetib kelibdi.

- Namuncha shoshib kelyapsan? – so‘rabdi u ayoldan.
- Mana shu qushni olib ketmoqchidim.
- Islanib qolibdi-ku, nima qilasan buni?
- Bolalarim och o‘tirishibdi, pishirib beraman.

Kishining rahmi kelib xaltasidagi bor-budini, talqonlarini ayolga beribdi. O‘zi oziqsiz qolibdi. Makkagacha hali yo‘l uzoq ekan. U shu yerda qolibdi.

Ertasiga Makkadan bir guruh hojilar qaytishibdi va unga ziyoratlari shu kishi tufayli qabul bo‘lganini ayti-shibdi.

Demak, och qolganlarga yordam bergan haligi kishi yo'ldayoq o'z ziyoratini qabul qildirishga loyiq harakat qilgan. Agar u ayolga yordam bermaganida Makkaga yuz marta borganida ham ziyorati qabul bo'lmasdi.

Makkadagi Ka'batullohni ziyorat qilish - haj shartlarini ado etish har bir mo'min-musulmonning orzu niyatidir. Bu maqomga muyassar bo'lganlarni xalq orasida hoji deyiladi. Hoji - haj safarini ado etgan kishidir. Xalqda «ham ziyorat, ham tijorat» degan gap bor. Islom tijoratni rad etmaydi.

Ziyorat ayni paytda o'z asl ma'nosida ham qo'llanilib, biror mamlakat, shahar, ovul, qishloqqa safar, mehmon bo'lib yo biror sabab bilan borib-kelishga ham aytiladi. Hozirgi kunda bizda Termiz, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Turkiston, Qo'qon singari tarixiy shaharlarga sayohatchilik yo'li bilan ziyorat qilish uyushtirilib turiladi. Yevropa, chet el safarlari ham ziyoratning bir turi hisoblanadi.

Odatda ziyorat (safar)dan qaytgan kishilarni biz o'zbeklar: «Ziyoratlar qabul bo'lsin», deb qarshi olamiz. O'z navbatida ziyoratchilar ham: «Murodingiz hosil bo'lsin», deya javob qilishadi. Bu ziyorat odatining taomili. Ziyoratdan qaytganlar o'sha joylardan esdalik sovg'alar keltirganlar.

Ziyorat qilish odati nafaqat muqaddas joylarga nisbatan, balki barcha marhumlar mamlakati - turli mozorlar, qarindosh-urug'larning, ota-onaning xilxonalariga borib, duoyi fotiha o'qishda ham ijro etilgan. Hatto oqil-fozil kishilarning holidan xabar olish ham ziyorat qilish sanaladi. Chin ko'ngil va ixlos ila qilingan ziyoratlar qabul bo'ladi.

Men bir kampirni bilardim. Yuz yoshlarni qoralagan, sochlari oppoq, chehralari nurday bu kampirni qishloqning katta-yu kichigi astoydil hurmat qilar, biror uzoq safargami, og'ir yumushgami yo'l olishdan avval, albatta, kampirning ziyoratida bo'lishar, u yo'lovchiga oq yo'l tilab, duoyi fotiha berardi. «Falonchi kampirning duosini olgan kam bo'lmaydi», deyishardi.

Darvoqe, shunday.

Hayotda shunday kishilar bo'ladiki, ularni har safar ziyorat qilganingizda, qalbingiz nurga to'lib, minnatdor bo'lasiz.

O'tmishda har buyuk shaxsning o'z piri, ziyoratgohi bo'lgan. Masalan, Amir Temur ham o'z pirlarini bot-bot ziyorat qilib turishdan erinmagan.

O'z ziyoratgohi bo'lmaganlar g'arib, sho'rlik kimsalardir. «Mening o'z sig'inar mozorlarim bor», deydi shoir.

Ziyoratgoh joyning hashamatli, mahobatli bo'lishi shart emas.

Tarixiy jarayonda ba'zan o'z g'oyalarini zo'rlab o'tkazishga intilganlar sun'iy ziyoratgohlar tashkil etishgan.

Masalan, Toshkentdagi va boshqa joylardagi turli-tuman haykallar poyiga gulchambarlar qo'yish ham hech vaqt ixtiyoriy ravishda bo'lganmas.

Toki kishilar yurak-yurakdan intilib, talpinmas ekanlar, samo qadar yuksalgan tilla koshonalar ham ziyoratgoh bo'lolmaydi.

«Dunyodagi eng ulug' ziyoratgoh – insonlar qalbi», degan gap bor. Haqiqatan ham, inson qalbiddek durri javohirga to'la tubsiz ummon, xazina-yu dafina yorug' olamda yo'q. Bulardan bahramand bo'lmoq uchun tom ma'nodagi inson so'ziga loyiq bo'lishga intilish darkor.

Hozirgi vaqtda «ziyosat» so'zining ma'nosi juda-juda kengayib ketgan. Odamlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar, insoniy tuyg'ular, barchasi shu tushuncha ostida mujassamlashadi. Uni yakkash xurofotga eltib taqaydiganlar katta xato qilishadi. Aziz avliyolar, keksa va bemorlar, nogironu kambag'al-qashshoq oilalar, yetim-esirlar, kunidan qolgan kishilar, millatdosh va g'ayridinlar ko'nglini olish, ular kori xayriga yarash, ziyorat qilib, savobga daxldor bo'lish o'tganlarni ziyorat qilish bilan birga, tiriklarning qadr-qimmatini-yu hurmatini joyiga qo'yish, duolarini olish har bir vatan farzandining muqaddas burchidir.

MUSHKULKUSHOD, BIBI SESHANBA, MAVLUD

Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkushod kabi odatlar ham o'zbek xalqi hayotida uzoq davrlardan buyon yashab keladi. Bibi Fotima payg'ambarimiz Muhammad allayhissalomning qizlari bo'lganlar. Bibi Mushkulkushod va Bibi Seshanbalar esa musulmon xotin-qizlar tasavvurida kishilarning mushkulini oson qiladigan, avliyo xotinlar sanalgan.

Qadimdan otinoyilar, «ko'zi ochiq» ayollar mushkulkushod marosimi o'tkazganlar. Boshiga mushkul tushgan ayol (oilada biror falokat, bemorlik bo'lsa) mahallaning otinoyisiga ikkita issiq non, ikki hovuch qora mayiz, ikkita pilta (paxta) chiroq, bir tanga keltirib, shu oila himoyasiga Bibi Mushkulkushoddan madad so'rab, tilovat o'qittirilgan. Bu marosim har chorshanba kuni o'tkazilgan. Chunki afsonaga ko'ra Hazrat Bahovuddin Naqshbandning xolalari o'rog'ini yo'qotgan o'tinchiga yordam berib, har chorshanba kunlari bu ilohiy ayolni eslab, is-chiroq qilishi lozimligini tayinlagan. Shundan buyon Bibi Mushkulkushod ruhiga bag'ishlangan marosim faqat chorshanba kunlari o'tkazilib kelingan.

Bibi Seshanba esa oila baxtining himoyachisi sanalgan. Bibi Seshanba marosimi ham ayollarning diniy urf-odati bo'lib, seshanba kunlari o'tkazilgan. Qur'onning ma'lum suralari yodlanib, amru ma'ruf, diniy qonun-qoidalar, hadislar o'qilgan, eslatilgan. Bibi Seshanba odatida Mushkulkushodga nisbatan ishtirokchi xotinlar ko'pchilikni tashkil etgan. Bibi Seshanbalarda payg'ambar alayhissalomning qizlari Bibi Fotima hayotidan turli rivoyat-u hikoyatlar, ibratli voqea-hodisalar hikoya qilib berilgan.

Shunday rivoyatlarning birida aytilishicha, Bibi Fotima shunchalik mehribon, saxovatli va ko'ngilchan bo'lgan ekanlarki, hatto supra yoyib, non qilishga o'tirganlarida to xamir qorib, non yopgunlaricha suprani turli qushlar, kabutarlar o'rab olib, unni cho'qishib, iste'mol qilisharkan. Bibi Fotima ularning bu yoqimli mashg'ulotiga xalaqit

bermas ekanlar. Bir gal tag'in shu mashg'ulot bilan ovora bo'lganlarida otalari Muhammad alayhissalom shoshiltirib, ummatlari uchun tezroq non yopishlarini talab qilib qolibdilar. Bibi Fotima qush-u kabutarlarni supra ustidan nechog'lik haydamasinlar, ular nari siljishmasmish. Shunda Bibi Fotima qo'llaridagi xamir chakichi bilan bir qushning ko'kragiga sekin turtibdilar.

Bu Bibi Fotimaning yaxshi ko'rgan parrandalari – beozor musicha bo'lib, shundan bu qushning ko'kragida chakich o'rni, bir to'p xol bo'lib qolgan ekan... Shu sababdan bo'lsa kerak, ba'zi bir joylarda musichani Bibi Fotima deb ham atashadi.

Bibi Mushkulkushod, Bibi Seshanda odatlari ayollar diniy marosimi sifatida xayr-sadaqa, xudoyi odatlariga yaqin bo'lib, islom dini aqidalaridan biri sifatida yashab kelayotir. Shunday odatlardan yana biri Mavlud hamdir. Mavlud – tug'ilish degani bo'lib, Payg'ambarimiz Muhammad S.A.V. ning tug'ilgan kunlari sifatida nishonlangan. Mavlud marosimlari diniy izdihom – xudoyi shaklida bo'lib, unda ko'pchilik qatnashadi. Marosimda Muhammad alayhissalomning tarjimayi hollari haqidagi Mavlud kitobi o'qiladi. Keyingi yillarda bu odat xotin-qizlarning Mushkulkushod, Bibi Seshanba odatlari kabi ayollarning xonadon marosimiga aylanib, otin, dindor bekalarning diniy ziyofat, amru ma'ruf, Qur'on oyatlaridan yod o'qish kabi ma'rakasiga aylanib ketgan. Mavlud hozir ham xotin-qizlar diniy yig'inlari tarzida o'tkazilib kelinmoqda. Mavlud o'z mavqeyi va ommaviyligi jihatidan Mushkulkushod va Bibi Seshanba marosimlaridan katta, e'tiborliroqdir.

XAYR-SADAQA

Sadaqa degani nima o'zi? Xayr-sadaqa deganda musulmonning Xudo yo'lga biror nimani atashi, bag'ishlashi, ehson, tuhfa, hadya, sadaqa qilishi tushuniladi. Sadaqa odamlarning maxsus kishilar: qalandar, maddoh, gado, otinoyi, mulla, mayib-majruh, kunidan qolgan beva-bechoralarga ko'ngildan chiqarib

bergan moddiy yordami - pul-chaqa, mol-non, mayiz-yong'oq, kiyim-bosh va hokazolardir.

Sadaqa chiqarish, xayr-ehson qilish bizning o'zbek xalqimiz urf-odatlarida juda qadimdan mavjud bo'lib, bu mehr-shafqat, xayriya va beminnat yordam millatimiz ruhiga bir umr hamroh bo'lib kelganligidan dalolat beradi. «Sadaqai raddi balo» – «sadaqa balo-qazoni qaytaradi» degan aqidagi amal qilgan ota-bobolarimiz har yili ekin-tikin ekish va hosilni yig'ib-terishdan avval katta xayr-sadaqalar – qurbonliklar qilishgan. Bu marosimlar, ayniqsa, devidarvishona odatlarida, hayitlarda, ro'zayi mohiramazonlarda fitr ro'za shakllarida, mozorlarga ziyoratlar, aziz-avliyolarni tavof qilishlarda chin ko'ngildan imon keltirib, ijro etilgan.

Olooi taolo, tabiat yaxshi, serhosil ne'matlar hadya qilishi uchun tuya, ho'kiz, qo'y-qo'zilar so'yilib, darvishonalar qilingan. Doshqozonlarda sho'rva, palovlar pishirilgan. Tandir-tandir nonlar yopilgan. Albatta, bu taomlar birinchi navbatda muhtoj, zaif, kambag'al, beva-bechoralarga tortiq qilingan.

Xayriyalar musofirxonalar, shifoxonalar, yetimxonalar, masjid va maktablarga sidqidildan, beminnat, beta'ma berilgan. Xayr-sadaqaning tag'in bir turi – ayoldir-erkakdir, yomon tush ko'rsa, ruhiyati buzilsa, albatta chahor-yorlarga biror jonliq atab, ziyoratgoh joylarga, mozorotlarga olib borib, bu jonliqni (qo'y, echki, xo'roz, tovuq) so'yib, ko'cha oshi (momo oshi) qilingan. Albatta, suyuq osh. Bu oshni ko'chadan o'tgan odamlar, asosan keksa kishilar savob uchun nazr qilgan odamga parvardigordan shifo tilab, yeb-ichib olishgan. Bola-chaqalar ham bu taomlardan benasib qolmagan. Sadaqachining ruhi ko'tarilib, aksariyat shundan shifo topib ketgan.

Mushkulkushod, Bibi Seshanba, Mavlud, kinna oshi marosimlari ham otinoyi, tabiblar boshchiligida o'tkazilib, bu xayriya-sadaqaxo'rlikning o'ziga xos ko'rinishlaridir. Bunday hollarda mushkulkushodchi, ya'ni, mushkuli yechilishi, oson bo'lishi xudodan tilangan kishi – erkak-ayol, ataganini to'rtta issiq non, shunga mos mayiz,

nisholda, pul keltirib, chahor-yorlar arvohtariga chiroq yoqib, duoyi fotiha o'qishni iltimos qilishgan. Otin oyi ularning ishtirokida yoki yolg'iz o'zi bu marosimni insof bilan bajo keltirgan.

«Sadaqa» so'zi «sadqa» deb ham aytiladi. «Sadqayi sar» – «bosh-ko'zdan sadaqa» degan ibora bunga misol. Xayriya zo'rlab, ixtiyoringizdan tashqari olinsa, (masalan, o'g'irlab, talonchilik qilib, zo'ravonlik bilan, kutilmaganda yo'qotib qo'yish) odamlar «sadqayi sar» deb, o'sha pul yo molni boshlaridan uch marta aylantirib, nazrni majbur qilgan zo'ravonga topshirganlar. «Yugurgannikimas, buyurgannikiykan», deya o'zlarini yupatib, «kelgan baloqazo shunga ursin», «bola-chaqamdan sadaqa» deyishgan.

«Sadaqa», «sadqa», «aylanish», «o'rgulish», «nazr», «niyoz» so'zlari ma'no jihatdan bir-biri mazmunini to'ldirib, boyitib keladi. «Sadaqa» so'zi xalq orasida «sadag'a» shaklida ham ishlatiladi. «Jonim sadaqa», «jonim tasadduq», «sadag'asi ketay», «tasaddug'ing ketay», «aylanay», «o'rgulay», «dardingni olay», «jonim qurbon» ibora-atamaları shundan qolgan. Bu marosim – qadimiy odat haqida bobokalonlaringizdan biri Bobur mirzo hayotlaridan bo'lib o'tgan bir voqeani keltiraman:

Hindni zabt etib, u yerda davru davron sura boshlagan shohning boshiga mushkul ish tushdi. Sandal shahriga hokim qilib tayinlangan to'ng'ich farzandi Humoyun mirzo og'ir betob bo'lib qoladi. Hind-u arab, fors-u rum tabiblari shahzodayi valiahd dardiga malham topolmaydilar. Kindik qoni tomgan Afg'oniston yeri G'azna viloyatidan va hatto, Movarounnahrning boburiylar ona yurti – Andijon muzofotidan tabiblar chaqirtiriladi. Taassufki, so'nggi umid ham puchga chiqadi. Shunda Bobur mirzo sodiq o'ng qo'l vaziridan:

– Bunday paytda ne tadbir ko'riladur, janobi bek? – deb so'raydilar.

– Bunday holatda yaxshi ko'rgan biror nimarsangiz sadaqa qilinadur, – javob beradi bek xo'jasiga saltanatning buyuk boyligi – yong'oqdan yirikroq gavhar – Ko'hinurni nazarda tutib.

– Yaxshi ko‘rgan nimarsa?! – deya o‘yga botadi Bobur mirzo. – Mening eng yaxshi ko‘rgan nimarsam o‘zimning jonimdur! – deydi shoh og‘ir so‘lish olib. – Pushtikamarimizga o‘z jonimizni sadqa qilduk...

– Nimalar deyayotirsiz? So‘zingizni qaytib oling, gunoh bo‘ladur, – deydi shoshib qolgan vazir yolvorib.

Ammo podshoning amri vojib, Bobur mirzo Humoyun yotgan xonaga kirib, bemor atrofidan xudo yodi bilan uch marta aylanarkan:

– Pushtikamarimizga jonimiz sadaqa. Parvardigor, farzandimning dard-u bemorlig‘ini men qabul qildim. Mening jonim unga sadqa bo‘lsun! – deya imon keltiradilar.

Bu haqda bobokaloningizning o‘zlari: «Ajabki, ko‘kdan muruvvat bo‘lib, shu asnoda Humoyunning yuziga qizil yugurib, ko‘zlari ochildi. Men esam lohas tortib, tanimdan mador ketib yiqildim...» – deya yozadilar «Boburnoma» kitoblarida.

Xayr-sadaqa, nazr-niyoz xalq orasida qurbon hayiti, ro‘zayi mohiramazon, namoz kunlari ayniqsa, ommaviy tarzda amalga oshirilgan. Ildor, donishmand keksalar, mushtipar, kimsasiz ayollar, otinbibi va mullalarga fitr ro‘za, zakot, sadaqa, nazr berilgan. Sadaqaxo‘rlar, ya‘ni qadimdan xalq orasida maxsus maddohlar avlodlari bo‘lib, ular shahar-qishloqlar, bozorlar, mozorotlar, ko‘cha-kuylarda kezib, Olloi taolo, payg‘ambar madhini qilganlar. Amaldor, dehqon, kosib, hunarmandlarni insof, adolat, mehr-shafqatga chaqirganlar. Bu yo‘lda Yusuf Bolosog‘uniy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, So‘fi Olloyor, Pahlavon Mahmud, Shoh Mashrab, Maxtumquli pand-nasihati, hikmat va g‘azallaridan foydalanishgan. Shu yo‘sin yod aytish, qorilik ijodkorligi bilan o‘z rizqlarini halollab yeyishgan.

O‘tgan asr bolshevoylari inqilob yillari sadaqaning mazmuni o‘sha-o‘sha bo‘lsa-da uning shakli o‘zgarib, och-yupun xalqqa, yetimxonalarga, yaradorlarga yordam uchun Siz tengi kashshoflar ionalar – xayr-sadaqalar to‘plaganlar.

– Bemorlarga, yetimlarga, zaiflarga xayr-sadaqa qiling, iona bering, – deya tanga-chaqa, oziq-ovqat, kiyim yo

mato yiqqanlar. Mamlakat taqdiri og‘ir kechgan damlarda Proletariat rahbari 1921- yili Orol dengizi baliqchilari va ishchilariga maxsus maktub yo‘llab, Sovet Rossiyasida ochlikdan o‘lim chohi yoqasida turgan 70 ming yetim-yesir bolalarning hayotlarini saqlab qolish uchun iona – sadaqa so‘rashdan uyalmagan edi. O‘shanda «dohiy chaqirig‘i» deb og‘zidagi so‘nggi luqmasigacha Rossiya bolalariga yuborgan ona Orolimiz va uning fidoyi xalqi bugungi kunga kelib, jahon afkor ommasidan o‘zi jon taslim qilish oldidan so‘nggi madad, sadaqa kutmoqda...

Xayr-sadaqa qilish – insoniylik, mehr-shafqat mevasidir. Sadaqa berish bilan o‘zga mushkul ahvoldagi insonga yordam qo‘li cho‘ziladi. Sadaqaxo‘r bundan o‘z ahvolini o‘ng‘arib oladi. Sadaqa beruvchi esa imon-e‘tiqodi, mehr-shafqat hissi mustahkamlanib, xudo, tabiat, inson oldida o‘z burchini bajargan hisoblanadi. Hozirgi kunda ham ayrim tuman va qishloqlarda ba‘zi asl maddohlar avlodlariga mansub sadaqaxo‘rlar, kam bo‘lsada mavjud. Boshqa kasb egalari singari bu sohada ham ota-bobolar kasb-korlari, sulolasi nima bilan shug‘ullanganliklarini yaxshi bilmaslik oqibatida, bizning zamonamizda xayr-sadaqani tayini yo‘q gadolar, daydilar, lo‘lilar tilanib, yig‘ib-terib olmoqdalar. Aslida qadimgi maddohlar, nasl surgan asl sadaqaxo‘rlar bo‘lib, o‘z xayr-ehsonlarini oqlaganlar. Oq rido, qo‘lda aso, maxsus charm to‘rva tutgan maddohlarning kishini allalovchi, ohangdor madhi, duoyu joningizni qilishlari kishi kayfiyatini ko‘targan. Uni yanada xudojo‘y, insonparvar qilgan:

*Rishva olib yeganlar,
Kishi molin olganlar,
Kakku qushday bo‘lubon
Ul haromga botmishlar.*

*Totlig‘-totlig‘ yeganlar,
Turluk-turluk kiyganlar,
Oltin taxt o‘lturganlar
Tufroq aro yotmishlar...*

Bir hisobda, bizning zamonamizga kelib, xayr-ehson, sadaqa qilish yana qaytadan tiklanib kelmoqda. Shu kunlarda mamlakatimiz – O‘zbekistonda ham turli rasmiy va norasmiy xayriya tashkilot, jamiyat idoralari tuzilgan va tuzilmoqda. Ular «qizil yarimoy», «qon topshiruvchilar», «tabiatni qo‘riqlovchilar», «yodgorliklarni himoya qiluvchilar» va boshqa hokazo nodavlat va notijorat tashkilotlar bo‘lib, ota-onalaringiz, hatto Sizning o‘zlaringiz ham yil sayin ularga hadya – sadaqa berib kelayotirsiz.

Endigi kunda yetim bolalar, kimsasiz keksalar, nogironlar, Orol, Chernobil, Armaniston va Tojikiston zilzilasi jafokashlari uchun va shunga o‘xshash turli-tuman boshqa jamiyatlar jamg‘armalari tashkil qilindiki, (ularning ro‘yxati kun sayin uzayib bormoqda) mana shularga xayriya ishlari, sadaqa qilish, mehr-shafqat ko‘rsatish, moddiy yordam so‘ralmoqda.

Bugun mustaqilligimizning o‘n oltinchi yilida Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarining barchasida bo‘lgani kabi O‘zbekiston Respublikasi ham bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining og‘ir sinovlarini boshdan kechirmoqdamiz. Yangi jamiyat qurish hamma zamonlarda ham oson kechmagan. Xayr-ehson qilishning, sadaqa berishning asosiy qonuni shundan iborat: bor yo‘qqa, boy kambag‘alga, o‘ziga to‘q bechoraholga yordam qo‘lini cho‘zsin!

Xalqimizda «Yaxshi tushga ham sadaqa, yomon tushga ham sadaqa» degan kinoyaviy bir maqol bor. Xayr-sadaqaning asl mohiyatiga yetmay turib, «bersam bo‘ldi-da», qabilada ish tutish yaxshi emas.

Ilgarilari sobiq SSSR hududida 4-5 million daydilar, o‘g‘rilar, buzuqilar, bezorilar betinim u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa qatnashib, bir iloj qilib kun ko‘rish harakatida bo‘lishardi. Bu noraso jamiyatning mahsuli, noodil jamiyatning chiqiti. Ularning ahvolini hech qachon xayr-sadaqalar bilan to‘g‘rilab bo‘lmasdi. Shuning uchun buyuk jahongir Amir Temur bundaylardan jamiyatni majburiy ravishda bo‘lsa ham tozalashni amr etgandi. Bu haqda Siz «Temur tuzuklari»da o‘qishingiz mumkin. Shu bois, tasodifiy kimsalarga xayr-sadaqa qilsangiz, u Sizning o‘zingizni talashi mumkin.

Darvishlar, qalandarlar o'tmish zamonlarda ma'lum ma'noda xalq orasida ma'rifat tarqatuvchilar bo'lishgan. Haqiqiy bu yo'lga kirgan kishilar aytar so'zlarini aytishib, ko'pincha xayr-sadaqaga qayrilib ham qaramaganlar.

Uyimizga bir kuni bir gado keldi. Xudo nomidan nimalarnidir aytib tilandi. Men ikkita non olib chiqib unga tutqazdim.

– Non kerakmas, – dedi gado qovog'ini uyub.

– Nima beray? – nondan yuz o'giradigan gadoni endi ko'rishim edi.

– Pul, – dedi u.

Men uni haydab yubordim.

MUABBIRLIK

G'ayritabiiy hodisalar, sehrgarlik, jodu, xayoliy voqea-hodisalar bir qarasangiz qo'rqinchli, bir qarasangiz juda-juda qiziqarli tuyuladi. Ajina-yu alvasti, uchar gilamu qaynar xumchalar, ur to'qmog'u sehrli tayoqcha, qalpoqcha, ochildasturxonlar, uchar likopchalar, o'zga sayyoralik odamlar haqidagi turfa gaplar kimlarni hayratga solmagan deysiz?

Ota-bobolarimiz qadim zamonlardan muabbirlikni, ya'ni karomatu bashorat qilish, fol ochish, ta'bir ko'rishni odat qilib, shunga ishonib kelganlar. O'z hayot tarzlarini shunga mos ravishda yuritganlar. Muabbirlik donishmand kishilarning maroqli mashg'uloti bo'lib, ular podsholar, xonlar saroyida, xalq orasida alohida e'tiborga ega bo'lganlar. Kimki biror tumanli tush ko'rsa, shu tushining ta'birini ta'birchi donishmandga kelib yechdirgan. Ta'birchi tushda ko'rilgan narsa, hodisa, jon-jonivor, quyosh, oy, bulut, yomg'ir, suv harakatlarini sharhlab, izohlab, ko'rilgan tushning qaysi oy, qaysi yilning qanday kunida ro'y berganiga, kishining jins, yosh, muchali va mijoziga qarab, bu tush ta'birini aytib berganlar.

Muabbirlik tabiat qonuniyatlarini yaxshi bilgan odam ruhiyatini chuqur tahlil qilish asosida yaxshilik yoki yomonlikka yo'yilgan. Kishilar orasidagi alohida qobiliyat, iste'dod egalari odamlar taqdiri-a'molidagi o'zgarishlarni

oldindan aytib berganlar. Tushni yo'yish san'atini katta hayotiy tajriba yordamida mukammal egallaganlar. O'zbek shoiri Abdulla Oripov bu haqda shunday yozadi:

*Dunyoda folbinlar ko'p
Betayin kasbi-kori.
Bitta sariq chaqa deb
Laqmani poylar mudom.
Dunyoda folbinlar ko'p
Garchi zardan yo'q zori.
Va lekin boshqalarning
Qismatidan ochar rom.
Qachondir qay bir palid
Dunyo bexabar kimsa
Inson shaklida yurgan
Besavod, so'qir, jonzod.
Fol ochib odamzotni
Ogoh etib, demish, ha,
To'rt ming yil muddat o'tsa,
O'zbek chiqarar savod...*

Bizning o'zbek xalqi tarixida Sharq ta'birnomasiga suyangan holda maxsus ta'birnoma kitoblari yozilgan. Ularda ko'pchilik uchun umumiy bo'lgan tushlarning ta'biri tasnif qilinib, bu san'at uslubchiligi yoritib berilgan. Tush ta'birchiligida quyosh, oy, oq ot, sut, ko'klam, parvoz kabilar ijobiy baholanish, yaxshilik, baxt-saodat, omad ramzi sifatida yo'yilgan. Bulut, go'sht, tish, narvon, zulmat, jarlik-chuqurlik kabilar ta'birchilikda salbiy baholanib, xosiyatsiz belgilar sanalgan. Tushga bular bilan bog'liq hodisalar kiradigan bo'lsa, baxtsizlik, yo'qotish, omadsizlik keltirishi karomat qilingan. Yomon tush ko'rgan kishi bosinqirab uyg'onarkan, bu tushining yuki bosishidan irim qilib hech kimga aytmagan. Tong otgandan keyin suv yoqasiga borib, birinchi bor suvga aytgan. Bu bilan tushdagi yomon hodisavoqealar suv bilan oqib ketishi ko'zda tutilgan. Shundan xalqimiz orasida «tushingni suvga ayt» degan ibora qolgan.

XI asrda yaratilgan turkiy xalqlar Irq bitigida tush ko'rish va uning ta'birini yo'yib berish ko'rsatiladi. Asarda turkiy xalqlar hayotining barcha tomonlari – madaniy-

maishiy turmushi, odamlarning o‘zaro axloqiy munosabatlari o‘z aksini topgan. Irq bitigi bu tush ta’birmomasidir. Ushbu ulkan madaniy-ma’rifiy yozma yodgorlikdan ayrim misollar keltiraman:

*«Men Osmon o‘g‘li
Kunduz va kechqurun
Oltin taxt o‘ltirib,
Shodlanayapman», deyishdi.
Bilib qo‘ying: – Bu yaxshi.*

*«Ayiq bilan to‘ng‘iz
Dovon ustida to‘qnashibdi,
Ayiqning qorni yorilibdi,
To‘ng‘izning og‘iz tishi
Sinibdi», deyishdi.
Bilib qo‘ying: – Bu yomon.*

*Men esnayotgan yo‘lbarsman,
Boshim qamish oraliq‘ida,
Men shunday botirman,
Shijoatliman» deyishdi.
Bilib qo‘ying: – Bu yaxshi.*

*«Katta uy yondi,
Uning tubidagi hech narsa qolmadi,
Devorlarigacha qolmadi», deyishdi.
Bilib qo‘ying: – Bu yomon.*

*«Yigit ovga bordi,
Tog‘da yiqildi.
«Erk – xudoda», deydilar.
Bilib qo‘ying: Bu – dahshat!*

*«Tong ota boshladi,
So‘ng uning izidan yer yorishdi,
So‘ng quyosh chiqdi,
Hamma yer yorug‘ bo‘ldi», deyishdi.
Bilib qo‘ying: Bu – yaxshi.*

*«Otni noto‘g‘ri tushovlashdi,
Yurishga majoli yo‘q», deyishdi,
Bilib qo‘ying: Bu – yomon.*

*«Kambag'al kishining o'g'li
Daromad yig'ishga bordi.
Yo'li ochilib
Xursand va shodon qaytmoqda»,
deyishdi.*

Bilib qo'ying: Bu – yaxshi.

*«Kulrang bulut qo'zg'aldi,
Xalq uzra yomg'ir quydi,
Qora bulut qo'zg'aldi,
Yer uzra yomg'ir quydi,
Tariq pishdi.
Yashil maysalar ko'kardi.
Hayvonlarga, odamlarga
Juda yaxshi bo'ldi», deyishdi,
Bilib qo'ying: Bu – yaxshi!*

Tushlarning ta'biri yo'yilishida tush egasining salomatligi, tush ko'rgan vaqti va holati hisobga olingan. Yosh, jins, fasl ham muabbirlikda muayyan rol o'ynagan.

Qadimda folchilarning noyob iste'dodi ham kishilar turmush yo'llarida asqotgan. Shuning uchun folchilar alohida qobiliyat egalari sifatida xalq o'rtasida mashhur bo'lganlar. Xotin-qizlar orasida folchilar erkaklar davralarida bo'lganidan ko'proqni tashkil etgan. Ular romchilar ham deb atalib, suvga, tuzga, kulga, ko'z va yuzga, daf-doiraga, kaft chiziqlariga qarab fol ochganlar, rom qilganlar.

Bedarak yo'qolgan odam, bola-baqra, mol-holning qayerdaligi, tirik-o'likligi, qanday vaziyatda ekanligi, xayolot ko'zqusida aks ettirilib, taxminan yoki aniq-taniq aytib berilgan. Folchilar ham sulola bo'lib, ota-bobolari kasbi-korlarini o'zlashtirib qolib, avlodlar osha davom ettirganlar. Folchilik qushnochlik, kinnachilik, ko'chiriq qilish odatlari bilan birgalikda amalga oshirilgan.

Odatda folbin xotinlar kinna solish, kushnochlik qilish, ko'chiriq o'tkazish, bemorni chillaxonaga solish odatlarini ham yaxshi ijro etishgan. Shuning uchun ham muayyan bir qishloqdagi folchi-romchi bu hunarlaridan tashqari turli irimlarni amalga oshirish, isitish, sovtutish, rom qilish, dam solish, ezib ichki, tumor qilish qudratiga ham ega

bo'lganlar. Erkaklar orasidagi ayrim azayimxonlar quvvayi hofizasi va nafasining o'tkirligi bilan odamni hayratda qoldiradigan afsonaviy ishlarni amalga oshirganlar. Dam solib, ko'r ko'zni ochishgan, kar quloqni ishga solgan, yomg'ir, qor yog'dirib, o'tni o'chirishgan. Bunday kishilar haqidagi hikoyalarni Siz ham o'qigan-eshitgansiz.

Bizning zamonamizga kelib folchilik eskilik sarqiti, bid'at, ko'zbo'yamachilik kabi yorliq va tamg'alardan xalos qilinib, davr xizmatiga jalb etildi. Hozirda chet ellarda bo'lgani kabi favqulodda qobiliyat egasi bo'lgan bunday kishilar «ekstrasenslar» ichki ishlar xizmati xodimlariga yaqindan yordam bermoqdalar. Ko'pgina jinoyat va g'arazli to'dalarining fosh qilinishida folchilarning yordami tegmoqda.

Karomatchilar jamiyat, tabiat, shaxslar hayotida bo'ladigan voqea-hodisalarni oldindan bilib, ilohiy qudrat bilan odamlarni ogohlantiruvchi kishilardir. Karomatchi Vanganing shuhrati butun jahonni tutdi. Bu tug'ma ko'zi ojiz kampir nafaqat tirik odamlarning kelajak taqdirilarini ko'ra oladi, balki allaqachonlar o'lib ketgan odamlar, ularning avlod-ajdodlari bilan suhbatlasha, dardlasha oladi. Marhumlar orzu-niyatlarini, tilaklarini, kimdan rozi-noroziliklarini ularning vakili bo'lib tiriklik dunyosiga yetkaza oladi. Vanga odamlarning arvohlari bilangina emas, sigir-buzoq, qo'y-qo'zi, kuchug-u mushuklarning tirigi bilan ham, o'ligining arvohi bilan ham tillasha, muloqot qila oladi. Bunday noyob iste'dodli xotinlardan biri ilohiy qobiliyat egasi bo'lgan Juna ham butun dunyo bo'ylab shuhrat qozondi.

Hozirgi kunda ta'birchi, karomatchilar qadimdan mavjud aqidalarga ko'ra kishining tug'ilgan yili, muchali oyi va sanasiga qarab, uning fe'l-atvorida, taqdirida a'molida har bir yil, oy, kunda sodir bo'lishi, ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalarni karomat qilishyapti. Zamonaviy karomatchilar qaysi muchaldagi odam qaysi oy va kunlarda qanday favqulodda holatlarni boshidan kechirishi mumkinligini oldindan aytib, bashorat qilib berish qudratiga egadirlar. Bu bilan insoniyat turli falokat va kasofatlardan ogoh qilinadi. Bunga qarshi chora-tadbirlar ko'rilishiga erishiladi. Hozirgi kunda karomat-

chilar muchalingizu tug‘ilgan oyingizga qarab siz sig‘inishingiz lozim bo‘lgan hamrohingiz, sizni baloqazolardan asrovchi muayyan tosh, uning rang-ro‘yi belgilarini aytib berishadi. Sizning ruhingizga esh bo‘lgan bu tosh Sizga bir umr sodiq hamrohlik vazifasini bajaradi. Bunday yo‘l-yo‘riq shu kunlarda har bir yil va oy boshida ommaviy axborot vositalarida ham yoritib borilmoqda. Odamlarga foydali maslahat sifatida xalqqa yetkazilmoqda.

Ilgari Sho‘ro hokimiyatining 70 yildan ortiq davri davomida ta‘bir, folchilik, karomat, bashoratchilik bid‘at, xurofot, diniy, g‘ayriilmiy, hokimiyatga qarshi tashviqot sanalib qattiq tazyiq ostiga olingan, bunday qobiliyatga ega bo‘lgan kishilar xalq ommasidan yashirilib, sir tutib kelingan bo‘lsa, Sizning davringizga kelib mustaqillik, demokratiya siyosati sharofati bilan bu noyob xususiyatli shaxslar rag‘batlantirilmoqda. Yuqorida aytganimizdek, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, hukumat doiralarida, fan sohasida ulardan amalda foydalanilmoqda. Ekstrasenslar ham o‘z navbatida tibbiyot, ruhiyat, ijtimoiyot va tabiat hodisalari sohasida xalq va davlatimizga yordamlari tegmoqda.

Sizlarning orangizda ham bunday iste‘dod egalari borligi shubhasiz. Ota-bobolarimiz, «odamning iste‘dodsizi bo‘lmaydi», deyishadi. Yorug‘ dunyoga kelgan har bir insonning bir sohaga juda o‘tkir qobiliyati, katta iste‘dodi, albatta mavjud bo‘lar ekan. Ko‘pincha biz o‘z quvvayi hofizamiz, ruhiy qudratimiz, iroda kuchimiz darajasini bilmay yuramiz. Ba‘zi odamlar butun umr davomida xudo bergan o‘z iste‘dod yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaydigan kasblar bilan shug‘ullanib, o‘zlarini o‘zlari tanimay, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarolmay, dunyodan o‘tib ketadilar.

IBODAT

Inson dunyoga kelib, aqlini tanib, hayot kechirar ekan, albatta, biror g‘oyaga ishonib, sig‘inib yashaydi. Ishonch, e‘tiqod, imon va ulug‘vor orzularsiz odam zotining hayot kechirishi ma‘nosiz, qiyin. Har bir xalq, millat va elatning u buyuk yo ushoq bo‘lishidan qat‘i nazar, o‘z dini, sig‘inib

ibodat qiluvchi, topinuvchi aziz-avliyolari, ulug' qadamjolari bor. Bizu Sizning ota-bobolarimiz qadim zamonlar tiriklik manbayi Quyosh, Osmon, Yer, Suvga topinishgan, Olovni tavof qilishgan. Bir zamonlar odamlar butga ham sig'inishib, unga ibodat qilishgan. Esingizda bo'lsa, otashyurak shoir Abdulla Oripovning bu haqda hazin tuyg'ularga to'la bir she'ri bor:

*Dunyodan roziman dema hech qachon,
Desang ham so'yulagil sahroga, toqqa.
Chunki seni tinglab, kimdir o'sha on,
Nega rozisan, deb tutgay so'roqqa.*

*Dunyodan norizo bo'lsang ham agar,
So'z dema, bardosh qil azob, firoqqa.
Chunki seni tinglab kimlardir battar,
Nega, deb albatta, tutgay so'roqqa.*

*Dunyo ishlariga boqma hech hayron,
Jimgina nazar sol ko'hna bu korga.
Olis kechalari yolg'iz qolgan on,
Dilingni och faqat Parvardigorga.*

Islom dini joriy etilganidan keyin avvalo Olloh taologa sig'inib, sajda qilishgan. Muhammad payg'ambar, chahorvorlar, Imom Hasan, Imom Husanlar haqlariga atab duoyu fotiha o'qishgan.

Musulmonlarda machitlar ommaviy ibodatxona – xudoga sajda qilish maskanlari hisoblangan. Qur'oni karim ma'naviyatning eng buyuk daho asari sifatida ko'zlariga surtilgan. Buyuk zotlar ziyoratgohlari ham e'tiqod va ixlos qadamjosi ulug' dargohlari sanaladi.

Sho'ro hokimiyati yillarida Lenin, Stalin, Kommunistik partiya umumlashgan obraz va siymolari sig'inish manbayiga aylanib ketdi. Ota-bobolar bu daholar g'oyalari yo'lida ular uchun o'z shirin jonlarigacha qurbon qilishdanda tiyilmaganlar.

Xristian, yahudiy, katolik dinlarida cherkov, sobor, kastellar maxsus diniy ibodatxonalar sanalsa, musulmon xalqlarida bu vazifani, asosan machitlar o'tab kelmoqda. Undan tashqari har bir xudojo'y oilada o'tmishda maxsus

mehrobli uy bo'lib, uning to'rida Qur'oni karim osib qo'yilgan. Uy egalari, mehmonlar namozni odatda mana shu xonada o'qishgan.

Musulmonchilikda ro'za tutish, xayr-sadaqa berishdan tashqari ibodatning asosiy shakli namoz o'qish misolida ijro etilgan. Islom dinida besh vaqt namoz joriy qilingan bo'lib, bu ertalabki bomdod namozi, tushda peshin namozi, kun qaytgach asr, so'ng shom, xufton namoz ibodatlaridan iboratdir. Namozlar har kuni belgilangan soatlarda o'qilib, ijro qilingan.

Namozning yigirmatadan ortiq turi mavjud bo'lib, masalan hayitlarda o'qiladigan namoz bilan janozada o'qiladigan namozning mazmuni, e'tibori, o'rni va shakli o'zgachadir. Namozda Qur'oni karimning maxsus oyatlari belgilangan vaqtda ma'lum duolarni o'qish, bu jarayonda namoz odati talab qilgan ibodat harakatlari: tik turish, ruku', sajda qilish, tiz cho'kib, peshonani yerga tekkizish, o'ng va chap tomonga qarab salom berish, o'tirish singari xatti-harakatlari bilan ijro etiladi.

Namoz odatda saramjom-sarishta, ortiqcha bezak va jihozlardan holi, toza-ozoda, pokiza, farishtali, mehrobli joyda maxsus joynamozda o'qiladi. Biroq inson o'z hayotida turli fasl va davrlarda har yerda turli holatlarda bo'lishi mumkin. Deylik, safarda, xizmatda, yo'lda, birovning uyida, dala, cho'l-sahroda bo'lishga to'g'ri keladi. Shunday paytlarda ham namoz albatta tahorat olinib, so'ng o'qiladi. Mabodo, tahoratga suv topilmay qoladigan bo'lsa, «suv o'rnida tayammum» aqidasiiga rioya qilinib, qum yoki sof tuproq bilan tahorat qilinadi. To'shshga joynamoz topilmasa, qars belbog', to'n, chopon, jelak, chakmon ustida namoz o'qilishi mumkin.

Namoz albatta qiblaga qarab, ya'ni kun botish tomonga ibodat bilan o'qiladi. Musulmonchilikda juma va hayit kunlarida albatta namozni jamoat bilan birga machitda o'qish farz sanalgan. Og'ir kasal-bemorlar, xasta mo'ysafid keksalar bundan mustasno. Ayollar namozni faqat uyda o'qishadi. Ular machitga bormaydilar.

Namoz o'qish odati yil o'n ikki oy barcha tantanali marosimlarda birday amalga oshirilgan. Besh vaqt namoz

farz bo'lib, uni ijro etish har bir tirik jonning muqaddas burchi hisoblangan. Namoz, ibodat odatining ma'naviy, ruhiy, e'tiqodiy ahamiyati ko'pchilikka ma'lum. Bu ixlos, xudo yo'lidagi beminnat xizmat bo'lib har bir insonni tartiblilik, odamiy axloq, iymon va e'tiqod – insof-u adolatga chorlab kelgan. Odamlarni jamoa qilib, boshini qo'shgan. G'oya sifatida xalqni birlashtirgan.

Namoz odatining jismoniy jihatdan salomatlikka foydasi ham katta bo'lgan. Kunning muayyan soatlarida ma'lum jismoniy harakat bilan shug'ullanish jarayonida kishi jismu joni tarbiya olgan, chiniqqan, kamol topgan.

Ibodot degani bu joynamoz ustida shunchaki yotib-turishning o'zigina emas. Bunday chog'da kishi ma'nau, ruhan yuksalib, uning o'zi ilohiyotga yaqinlashadi. Muddao-maqсад ham shunday iborat. Nasimiyning, Mashrabning «Anal Haq», ya'ni «Men xudo» deyishlari bejiz emas. Ular bunga tinimsiz ibodat orqali erishganlar. Iloh iyotdagi mavjud sifatlarni o'zlarida ko'rishgan.

*Narsa yo'qki, xoriji odam erur,
Har ne istarsan, o'zingda jam erur, –*

deydi Jaloliddin Rumiy.

Biroq, tabiat gultoji bo'lmish inson o'zida jamlangan olam zarralarini tasodifiy ravishda kashf etaverishi mumkin emas. U ibodat chog'ida o'z qalbining eng teran qatlamlariga boqa olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ibodot inson vujudini u yaratilishi barobarida maskan etgan kasratlar: xudbinlik, tubanlik, razolatdan tozalay boradi. Bora-bora u barcha yo'llarni bosib o'tib, haqiqatga musharraf bo'ladi.

Mansur Xalloy, Boyazid Bistomiy, Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mashrab... va boshqa yuzlab buyuk zotlar aslida ibodat tufayli hokdek pok, haqiqatga erishgan tabarruk kishilardir.

QAZOYI MUALLAQ

O'tdi umr, vodarig', degan ekan to'qsondan oshib yuzga yaqinlashgan mo'ysafid nadomat bilan. Hayot shirin, har qanday yoshda ham uni tark etging kelmaydi.

Ammo Xudo bir, o'lim barhaq. O'lim juda katta, tantanavor, ommaviy marosimdir. Marhumlarga hurmat-ehтиrom o'zbek xalqining qadimiy odati-aqidasi. Buni Siz ajdodlarimizga mangu haykalday saqlanib qolgan moviy gumbazlarda ko'rishingiz mumkin.

Turkistonda Qul Xoja Ahmad Yassaviy, Buxoroda Ismoil Somoniy, Chor-Bakr va Hazrat Bahovuddin Naqshband, Samaraqandda Imom al-Buxoriy, Shohi Zinda va Go'ri Amir, Xivada Pahlavon Mahmud, Shahrisabzda Ulug'bek Mirzo avlodlariga atab qurilgan maqbaralar bu marosimning asriy guvohlaridir. Hayot shirin, tiriklik ulug' bir ne'mat. Inson qaysi yoshda bo'lmasin, yangi-yangi orzuniyatlar bilan yashaydi. O'g'il-qizimni uylab-joylasam deydi. Nevaramning to'yini ko'rsam deb niyat qiladi. Chevarasi tug'ilganda shuginaning ham to'yini ko'rib o'lsam armonim yo'q edi, deb nido qiladi. Oxir oqibat qachondir bir kun, eskilar aytganday, Azroil yoqangdan tutadi. Qazoyi muallaq haq ekanligiga imon keltirasan. Odam bu yorug' dunyoga ustun bo'lmaydi.

Inson muayyan yoshda yorug' dunyo bilan xayrlashishi tabiiy hodisadir. Ota-bobolarimizning, «ota-ona o'lmoq – meros», degan fikri haq gap bo'lib, bu qadimiy marosim bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p urf-odatlar borki, ularning eng asosiylaridan Siz keyingi avlodlar ham yaxshi xabardor bo'lishlaringiz lozim.

Deylik, kekxa buvi yoki bobo vaqti-soati, qazosi yetib, vafot etdi. Bunday paytda barcha dinga mansub xalqlarda bo'lgani singari biz musulmon dunyosi odamlari, islom ummatlari uchun ham avvaldan asrlar osha amal qilib kelingan taomilga rioya qilinadi. Marhumning ko'zi yumiladi, oyoqlari juftlanadi, boshmaldoqlar bog'lanadi. Maxsus yuvg'ich, murdasho'y xodim (ayolga ayol, erkakka erkak) so'nggi yo'l oldidan o'likni yuvib, abadiy kiyimi – kafanga o'raydi.

Taomilga ko'ra kafan (marhum kiyimi) oq pishiq surpdan bo'lib, boshdan-oyoq murda shu surpga o'raladi. E'tibor bergan bo'lsangiz, Makkayi Mukarramaga hajga borgan har bir musulmon farzandi ham u xoh shoh bo'lsin, xoh gado bir xil kiyim kiyadi. Ya'ni chap yelkadan o'ng

biqinga tortilgan «ko‘ylak» hamda lungi o‘rnidagi «ishton» bular ikki chorsu choyshabdan iborat mato. Xudoning qudrati bilan Haj jarayonida joni jasadini tark etsa, jannati, behishti bo‘lib, o‘z kafani o‘zi bilan ketadi...

Hovlida xotin-xalaj ovoz chiqarib aza ochadi. Vaqtida xabar yetgan go‘rkov marhum uchun mangu uy – qabr tayyorlaydi. Musulmon xalqlarining hammasida bo‘lganidek, o‘zbeklarning qabrlari ham ikki «qavat»dan iborat bo‘lib, ya‘ni go‘r va yorib o‘yilgan ichki lahaddan iboratdir. O‘lim marosimining ham tiriklik uchun maxsus kiyinish talablari bor. O‘g‘illar, aka-ukalar, yaqin qarindoshlar to‘n kiyib, bel bog‘lashadi. Albatta boshga do‘ppi kiyiladi. Ho‘l (tol, terak) novdadan hassa tutiladi. Xalq orasida «hassakashlar» degan atama shundan paydo bo‘lgan. Bu hassalar marhum qabrga qo‘yilib, ko‘milgach, uning atroflariga suqulib, ekiladi. Aslida, bu hayotda oqni qoradan farqlab yashagan insonlar hech qachon oxiratni yoddan chiqarmaydilar. «Men dalada ishlab turib jon berishni istardim», – deydi faylasuf Monten. Go‘zal va dilbar shoirimiz Mirtemir esa qabri tepasiga qora tol ekishlarini vasiyat qilgan ekan. Dunyodagi yolg‘iz haqiqat tug‘ilish va o‘limdir. Qolgan barcha katta-kichik haqiqatlar shuning atrofida kechadi. Buyuk qozoq oqini «Nasihatlar»ining birida o‘lim haqida gapirib, so‘zini benihoya ta‘sirchan tugatadi. Keling, shundan ozgina qismini Sizga o‘qib beray:

«Jamiiki inson farzandi bir-biriga do‘stdir. Chunki, dunyoda hayot ekansan, qavm-qarindoshliging, o‘sib-unishing, to‘q va farovonliging, och-yalang‘ochliging, qayg‘u-hasrating, istiqomat qilishing, bordi-kelding, dunyoga kelishing, tana-bichiming, o‘lishing, qora yerga kirishing, chirishing, mahshar kuni so‘roq berishing – hamma-hammasi birday; ikki dunyoda ham birday o‘ynab-kulasan, birday qayg‘u-hasrat chekasan, rohati, azobi, uqubati, xavf-xatarini birga tortasan. Bas, shunday ekan, besh kunlik umring bormi-yo‘qmi – bir-biringga g‘animatsan, qo‘noqsan va dunyoga omonat mehmonsan! Nega endi shundoq bo‘la turib, bir-biring bilan arzimagan narsalar uchun g‘ijillashasan? Birovning bog‘-rog‘iga, mol-

dunyosiga ko‘z olaytirasan? Nasibangni xudodan tilamay, bandaning ulushidan olib ber deganing, o‘zing mehnat qilmay, birovning nasibasidan umid tutib o‘tirganing loyiqmi o‘zingga? Xudo birov uchun birovga jabr qiladimi? Ikki og‘iz so‘zni eplashtirib gapira olmaydigan nodon, aqlsiz, ilmsiz bo‘la turib, hargiz: «Xudo ursin, agar, meniki to‘g‘ri!» deb talashaverishdan nima foyda? Shu ham odamgarchilikmi endi?!».

Bu parchadan o‘lim nisbiy hodisa ekanligini, uning ortida hayot yashiringanligini anglash qiyin emas.

Xotin-qizlar yoshlariga yarasha, o‘lim marosimining davriga qarab qora, ko‘k, oq kiyinishadi. Ayollar mozorga borishmaydi. Marhumni u erkak bo‘lsin ayol bo‘lsin, so‘nggi yo‘lga faqat erkaklar kuzatib, ko‘mib kelishadi. Tobutkashlik odatiga ko‘ra hamma odam, hatto begona yo‘lovchilar ham marhum tobutigga bir yelka tekkizib, ikki tomonidan kamida yetti qadamdan ko‘tarib borishi talab qilinadi. Xalqimizning katta qismi bu taomilni savob deb bilishadi.

Marhumni yerga qo‘yishdan oldin yo mahalla, yo mozor machitida maxsus domla-imom unga janoza o‘qiydi. Janozada «Qur‘on»dan o‘lim bilan bog‘liq suralar o‘qilib, so‘ng xalqqa amru-ma‘ruf, axloq-odob, diyonatu insofdan so‘zlanadi. Janozaning ham o‘z o‘rni bor, albatta. Qadim zamonlarda dushman bilan jangda, Vatan ozodligi, mustaqilligi yo‘lida bevaqt vafot etgan, ya‘ni shahid bo‘lganlar jihad odatiga ko‘ra janozalanmay, so‘nggi yo‘lga kuzatilgan. Ular shundoq ham jannati, fidoyi sifatida Olloning dargohiga yorug‘ yuz bilan borganlar. Yana bir turkum o‘limlarga ham janoza o‘qilmaganki, endi bu marhumga imtiyoz emas, balki uni gunohkor sanalganidan shunday qilingan. O‘zi o‘z joniga qasd qilgan: osgan, o‘t qo‘ygan, tomdan tashlagan, suvga cho‘kkan va boshqa usulda o‘zini o‘zi o‘ldirgan kishilar shunday, janozasiz ko‘milgan.

Marhum qabrga qo‘yilib, mozor bilan bog‘liq barcha marosimlar bajarilib bo‘lingach, kayvoni bir kishi, mahalla boshi, diniy arbob va hokazo marhumning ismini aytib «Falonchi qanday odam edi?» deb jamoadan so‘raydi. Albatta xaloyiq: «Yaxshi, jannati odam edi», deya javob

qilishadi. Bu bilan marhumning abadiylik dunyosiga ketgani, yo'qlik ishorasi bildiriladi. Bu ham o'ziga xos taomil. Xalqimizda shundan «O'lgan odam haqida yomon gapirilmaydi» degan naql qolgan.

Mozorda yana shunday odat ham bor: bir kishi marhum qabridan o'yilgan tuproqdan etagiga solib, hammaga bir hovuchdan tarqatadi, so'ng lahad chim bilan yopilib, ustiga tuproq tortishdan oldin bu tuproq qabrga tashlanadi. Bu ishni aynan shu tuproq tarqatgan odamning o'zi uni tag'in yig'ib olib, keltirib tashlashi ham mumkin. Bu hamma baravar savob ish – marhumni ko'mishga (Ketmon belda-tuproq tashlash) yoshiga, salomatligining ahvoliga va boshqa sabablarga ko'ra bu ishga hissa qo'sholmay qolmasligi uchun shunday qilinadi.

O'lim hamisha og'ir ayriliq, qarindosh-urug'lar, yor-u do'stlar uchun tunganmas qayg'udir.

Xalqimizda «Uyingdan kovushdek bo'lsa ham o'lik chiqmasin» degan maqol bor. Bir kishi shu maqolning ma'nisini tushuntirayotib, shunday degandi: «Uch kunlik bolam o'ldi, deng. Do'xtirxonadan yig'lab ko'tarib ketdim. Qabristonga borib o'zim qabr qazdim. Ishonasizmi-yo'qmi, mayitni lahadga qo'yayotganimda u sig'madi. Qaytadan kengroq qilib qazishga majbur bo'ldim».

«Hammaning boshida o'lim bor» degan boshqa gap ham bor. Shu sababli, doimo uni esdan chiqarmay yashagan insonlargina ezguliklar qilishga qodirdirlar.

Yirtish tarqatish odati ham mozorda amalga oshiriladi. Marhum tabarruk yoshga kirgan, yoshini yashab, oshini oshagan keksa kishi bo'lsa, u odam niyat qilib saqlab qo'ygan matosini savob uchun yirtishga tarqatiladi. Mato surp, satin, shohi bo'lishi mumkin. Hozir buning o'rniga dastro'mol tarqatish odat bo'lgan. Qadimda o'ziga yetar chol-kampirlar, savob bo'lsin uchun xudo o'z dargohiga chin dunyoga qabul qilganida, tobutkashlik qilib borgan nevaralariga atab o'sha yirtishiga bir so'lkavoydan oltin, kumush pul ham saqlab qo'ygan. Haqiqatan ham, bu odam dunyodan o'tgach, vasiyatiga ko'ra o'limliklari orasida maxsus saqlangan o'sha pullar har bir kishiga berilgan yirtish-matoga tugib, hadya qilingan. Hozirda Ba'zi viloyatlarimizda bizning kunlarimizda

bu odat suiiste'mol qilinib, yirtishga ro'molcha, unga pul tugib tarqatish odat tusini olib ketdi. Go'yo ba'zi boyvachcha farzandlar bu bilan ota-onalariga hurmat bildirmoqchi bo'lishyapti. Shu taqlid mozorlarda pul tarqatilib, bu imon-insof, oliy insoniy xulqqa asoslangan o'lim marosimlari soxta obro', martaba, kimoshdi savdosiga aylantirib yuborilmoqda. Bu albatta eng muqaddas tuyg'ularimizga haqoratdan iborat bo'lgan gunoh ishdur.

Marhum bilan bog'liq oldi-berdilar, qarzdorlik bo'lsa, uning to'lovini bosh farzand (o'g'il) o'z zimmasiga oladi. Yo qarindosh urug'lardan eng yaqini shunday qiladi. Uch kungacha o'lik chiqqan uydin odam arimaydi. O'g'illar boyagi kiyim-boshda fotihaga, marhum hurmati uchun kelganlarni kutib, kuzatib turishadi. Shu kunlari xuddi to'yda bo'lganidek, marhumning kiyim-boshlari ayvonga ilinib sepi yoyilib turadi. Bu odat ham marhumni aniq eslatish, ruhini yod qilishning ko'rsatmali usulidir. Bu kunlar davomida o'lik chiqqan uyda ovqat pishirilmaydi, is chiqarilmaydi. Qo'ni-qo'shnilar, yaqin qarindosh-urug'lar bu vazifani o'z zimmalariga oladilar. Marosim ishtirokchilari o'lik egalarini issiq taom bilan ta'minlab turadilar.

Biz o'zbeklarda marhumni yod qilishning bir necha ommaviy marosimlari mavjud. Ular marhum vafotining uch, yetti, yigirma, qirq, yili bilan bog'liq tadbirlardir. Odatda, yigirma va yilda elga osh berilib, marhum yodi esga olinadi. Ayrim viloyatlarda qirq kuni osh berish odati bor. Musulmon odatiga ko'ra payshanba va yakshanba (bozor) kunlari shundoq ham is chiqarib, qur'on tushirib, osh-suv qilishgani tufayli ham o'lik chiqqan uyda bu kunlari arvoq yodi uchun payshanbalik va yakshanbalik o'tkaziladi. Dasturxonga suyuq-quyuq ovqatlar tortilib, talqon va halvoytarlar qo'yiladi. Qarindosh-urug', do'st-birodar, o'g'il-qizlar jamuljam bo'lishadi.

Bunday marosimlar to bir yilgacha guli, toki, hayiti va hokazolar tarzida marhum yodi xotiriga har bir yangi chiqqan meva-cheva, sabzavot nomi bilan xuddi tiriklik paytidagi rizq-ro'zi sifatida nishonlanib boriladi. Yil marosimi o'tkazilgach, u ham har xil muddatda, bola-chaqasining miqdoriga qarab, 7, 9, 11 oyda o'tkaziladi,

faqat marhumning tug‘ilgan hamda o‘lgan kunlari eng yaqin oila a‘zolari: yostiqdoshi, bola-chaqalar tomonidan o‘tkazilib, yod qilinib turiladi. Hozir odat bo‘lgan taomilga ko‘ra o‘g‘il-qizlar, qarindosh-urug‘lar, bobo yo buvi, otana vafot etgan kunini har yili birgalikda yig‘ilishib xotirlashadi. Bu kuni mozorga boriladi. Qabr atroflari tozalanadi, daraxt va gullar butalab, sug‘oriladi. Bu odat hozir amalga kirgan Xotira va qadrlash kunida ham, ayniqsa, yaxshi ijro etilmoqda.

Popning Munchoqtepasidan topilgan qadimgi ajdodlarimizning bundan 1500 yil ilgarigi qabrlari ochildi. Marhumlar maxsus to‘qilgan savat-kajavasifat qutitobutlarga solib ko‘milgan ekanlar. Bu qutilar oradan shuncha asrlar o‘tsa hamki hozirgacha ohori bilan saqlanib qolibdi. Demak, o‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon marhumlar yodiga hurmat-izzatda bo‘lib kelganligiga bu ham bir ashyoviy dalildir.

Xalqimizda «Oxiri baxayr bo‘lsin» degan juda oqilona gap bor. O‘lim marosimida marhumning hayoti mobaynida qilingan yaxshi ishlari eslanadi, yomon ishlari odatda aytilmasa-da, harholda ko‘ngildan o‘tkaziladi.

Turkiy xalqlaridagi marhumni juda katta obro‘-e‘tibor bilan ko‘mish rasm-rusumlarining ulug‘ligi haqida davrimizning ulkan yozuvchisi Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida juda ibratli epizodlar bor.

Hayot insonga ezguliklar qilish uchun berilgan imkoniyatdir. O‘lim vujudni olib ketsa-da, ruh yashayveradi. Yaxshi ishlar qoladi. Hayoti davomida hech narsa qilmay, o‘zi bilan o‘zi o‘ralashib yurganlar haqida ulug‘ qozoq oqini Abayning shunday she‘ri bor:

*Yoshlik o‘tdi, bildingmi?
Yigitlikka keldingmi?
Yigitlik o‘tdi, ko‘rdingmi?
Keksalikka ko‘ndingmi?*

*Kim biladi, shumtaka
Ne gunohlar qilgansan!
Ne qilmishlar bilgansan,
Qay ko‘chaga kirgansan,*

*Ne yo'llardan yurgansan.
Kim biladi, shumtaka,
Tugal badbaxt bo'larsan.
Og'ilda o'lgan tuyaday,
Sen ham harom o'larsan.*

O'tkinchi umr, oxirat, qazoi muallaq, qabr va o'lim marosimi to'g'risida atoqli turkman shoiri Maxtumqulining Durdi shoir bilan «Savol-javob»ida esa shunday yozadi.

Maxtumquli:

*– U nimadir, yoqasi bor, yoni yo'q?
U nimadir, qanoti bor qoni yo'q?
U nimadir, odam yutar, joni yo'q?
Shoir bo'lsang shundan bizga xabar ber!*

Durdi shoir:

*– U kafandir, yoqasi bor, yoni yo'q.
Kapalakdir qanoti bor, qoni yo'q.
Qaro yerdir, odam yutar, joni yo'q.
Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu.*

Maxtumquli:

*– U nimadir, darvozasiz qal'adir?
U nimadir, derazasiz binodir?
U nimadir, bir-biridan a'lodir?
Shoir bo'lsang shundan bizga xabar ber.*

Durdi shoir:

*– U ko'ngildir, darvozasiz qal'adir.
U qabrdir derazasiz binodir.
U oy-kundir, bir-biridan a'lodir.
Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu.*

Maxtumquli:

*– U nimadir yemadilar to'ydilar?
U nimadir, ulug' kunga qo'ydilar?
U kim edi tovonidan so'ydilar?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!*

Durdi shoir:

*– U diydordir, yemadilar to'ydilar.
U namozdir, qiyomatga qo'ydilar.
Nasimiyni tovonidan so'ydilar.
Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu.*

MUNDARIJA

«Udumlar hayotimizda hamroh bo'lsin!»	
<i>Ozod Sharafiddinov</i>	5
Yo'lchiroq.....	7

I bob. Bolalik – beg'uborlik

Tavallud. Beshik. Alla.	12
Ism-u sharif.	15
Uch qarzning biri.....	20
Quloqtishlar.....	23
O'yinlar.....	25
Boychechagim boylandi.....	30

II bob. O'smirlik – barkamollik

Chillak.....	38
Lapar va dandarak.....	40
Chavgon.....	42
Ko'pkari.....	45
Kurash.....	49
Hashar.....	53

III bob. Insoniylik – kamolot

Salom va alik.....	58
Dasturxon. Taom. Fotiha.....	62
Mehmondorchilik.....	65
Yaxshiliklar boji.....	73
Xalqning bag'ridek issiq.....	78
Odamga libos... ..	83
Taqinchoq – ziynat.....	86

IV bob. Bayram. To'y-tomosh

Navro'z.....	90
Hayitlar.....	94
Sovchilik.....	97
Qo'noq.....	101

To'y.....	103
To'yona.....	108
Gap-gashtak.....	111

V bob. Umrguzaronlik

Urug'. Shajara. Sulola.....	116
Yangi hovli.....	121
Qorxat.....	124
Tomosha.....	126
«Yomg'irlarni yog'dirgin...»	128
Kulota.....	132
Salla.....	133
Bozor-o'char.....	135

VI bob. E'tiqod

Qasam. Ont.....	140
Vasiyat. Vasiyatnoma.....	141
Irimlar.....	146
Qarg'ishlar.....	150
Yaxshi niyat - olqishlar.....	154

VII bob. Oxirat

Xudoyi.....	162
Ziyorat.....	164
Mushkulkushod. Bibi Seshanba. Mavlud.....	167
Xayr-sadaqa.....	168
Muabbirlik.....	174
Ibodat.....	179
Qazoyi muallaq.....	182

Adabiy-ma'rifiy nashr

Mahmud Sattor

O'ZBEK UDUMLARI

Muharrir Shoyim Bo'tayev

Badiiy muharrir Uyg'un Solihov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhah Shahnoza Nabixo'jayeva

Kompyuterda sahifalovchi Gulbayra Yeraliyeva



Bosishga ruxsat etildi 30.08.2007. Bichimi 84×100¹/₁₆. Journal garniturası. Shartli b.t. 12,0. Nashr b.t. 11,99. Shartnoma № 133 – 2007. 5000 nusxada. Buyurtma № .

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100128, Toshkent, U.Yusupov ko'chasi, 86.

63.5(5Y)

S33

Sattor, Mahmud.

O'zbek udumlari/ M. Sattor. – T. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007 – 192 b.

BBK 63.5(5)